

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Termiz davlat universiteti

RAJABOV O'tkir Do'snayevich

O'quv qo'llanma 5520100-Ijtimoiy ish (pensiya ta'minoti) ta'lim yo'nalishi
ta'labalari uchun mo'ljallangan

IJTIMOIY SOHA IQTISODIYOTI

IJTIMOIIY SOHA IQTISODIYOTI

O'quv qo'llanma 5520100-Ijtimoiy ish (pensiya ta'minoti) ta'lim yo'nalishi
ta'labalari uchun mo'ljallangan

Muallif Rajabov O'tkir Do'snayevich

Mazkur o'quv qo'llanmada ijtimoiy soha iqtisodiyotining nazariyasi va asoslari, uning mazmuni va mohiyati, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, xususiyatlari, guruhlari hamda inson omiliga ta'siri bayon etilgan.

O'quv qo'llanma mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlar majmui, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, turizm, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy sug'urta, pensiya, ijtimoiy ta'minot va bandlik xizmatlarining nazariy jihatlari va rivojlanish holati tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlar rivojlanishining tashkiliy huquqiy asoslari, ilg'or mamlakatlar tajribasi va ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishlari keltirilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining talabalari, o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, izlanuvchilar, magistrantlar, umuman, ijtimoiy soha iqtisodiyoti bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: A.Vaxobov iqtisod fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: Termiz davlat universitetining «Iqtisodiyot va menejment» kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori O. Q. Xatamov;
Toshkent davlat Agrar universiteti Termiz filiali
matematika va tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari
nomzodi A. A. Avliyaqulov

K I R I SH

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholining turmush darajasi va farovonligini oshirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish ijtimoiy xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Zero aholining turmush farovonligi ko'rsatgichlari mamlakatning nafaqat iqtisodiy qudrati darajasi bilan balki, ijtimoiy xizmatlar sohasi taraqqiyoti darajasi bilan ham tavsiflanadi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish ishchi kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, aholining qulay yashashi, maroqli dam olishi, bo'sh vaqtdan maqsadga muvofiq foydalanish, ish bilan bandligini va daromadlarining oshishini, moddiy sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalariga ustuvorlik berilayotgani ham aynan shu nuqtai nazardan.

Mamlakatimiz inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo'lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda. Ushbu muvaffaqiyatlarga erishishda ijtimoiy sohaning ahamiyati behad muhim bo'lmoqda.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, aholi soni va daromadlarining barqaror sur'atlarda o'sishi hamda halqaro iqtisodiy integratsiyalashuv, qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklari yiriklashishi oqibatida, mehnatga layoqatli aholining katta qismi u yerdan bo'shatib olinayotganligi va xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etilayotganligi, aholining keng qatlamida yangi va sifatli xizmatlarga bo'lgan talabning shakllanayotganligi, byudjet mablag'laridan tejamli foydalanish zaruriyati ijtimoiy xizmatlar sohasida ham tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Binobarin, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirayotgan O'zbekistonda davlatning olib borayotgan ijtimoiy siyosati aynan ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy sohada davlatning insonparvarlik va adolatparvarlik roli har tomonlama yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ijtimoiy sohaning mamlakat iqtisodiyotiga naqadar kuchli ta'sir etishi haqida to'xtalib: "Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi-bizning bosh maqsadimizdir.

Bu yo'nalishda oldimizda ulkan vazifalar turibdi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligi, birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq"¹- deb ta'kidlagan edilar.

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat oldiga yanada murakkab vazifalarni qo'yadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ijtimoiy sohaning shakllanishi va rivojlanishi natijalarini nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirish, taraqqiy etgan mamlakatlarning ijtimoiy sohani isloh qilishning ilg'or tajribalarini chuqur o'rganish va tahlil etgan holda rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ijtimoiy soha tarkibi ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy himoya, uy-joy kommunal xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchi transporti, ijtimoiy sug'urta hamda pensiya ta'minotlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar aholi yashash farovonligini oshirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish va jahon standartlariga yetkazish yo'lidagi sa'yi-harakatlarimiz natijasida ko'plab muammolar ham aniqlanmoqda. Bu muammolarni birinchi navbatda o'z yechimini kutib turgani, ijtimoiy soha

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaat nomasida // Xalq so'zi gazetasi 2019 yil. 29 dekabr № 271

iqtisodiyotini chuqur biladigan va jadal rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan malakali kadrlar tayyorlash kerak bo'ladi.

Shuningdek, ijtimoiy sohada kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar va islohotlar bu haqdagi adabiyotlarni va ma'lumotlarni tez-tez yangilab turishni taqozo etmoqda. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini singdirish, bo'lajak mutaxassis kadrlarni ijtimoiy xizmatlarni tashkil qilish, joriy va istiqbolli rejalarni ishlab chiqish, bashorat qilish, optimal qarorlarni qabul qilish hamda zamonaviy boshqarish vazifalarini malakali tarzda yuritishni o'rgatish zaruriyatlarini hisobga olib mazkur o'quv qo'llanma tayyorlandi.

1-mavzu. IJTIMOY SOHA IQTISODIYOTI FANINING OBYEKTI, PREDMYETI: NAZARIY ASOSLARI

Reja:

- 1.1. Ijtimoiy sohaning mohiyati va rivojlanish xususiyatlari
- 1.2. Ijtimoiy soha xizmat tarkibi, turlari va ularni guruhlanishi
- 1.3. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti fanining obyekt, predmeti, maqsadi va vazifalari

1.1. IJTIMOY SOHANING MOHIYATI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Ijtimoiy soha iqtisodiy munosabatlar tizimida moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning ajralmas qismi, aholining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy, moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirishga, turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim soha bo'lib, u iqtisodiyotning ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy ta'minot, savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchi transporti, ijtimoiy turizm va boshqa ko'plab tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimida har bir mehnat turi aniq bir mahsulotni yoki uning ba'zi bir qismini yaratishga qaratiladi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishda xizmatlar to'g'ridan-to'g'ri insonga uning farovonligiga qaratiladi.

Tarixan ijtimoiy xizmatlar moddiy sohadan keyin paydo bo'lgan va xizmatlar ko'lami tor doirada, ulardan ayrim shaxslargina foydalana olgan. Ularga nisbatan aholida ehtiyoj kam bo'lgan.

Sanoatning rivojlanishi bilan ijtimoiy xizmatlar ko'lami kengayib bordi va o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab "Aholining turmush darajasi", "Inson taraqqiyoti indeksi", "Insoniy kapital" nazariyalarining paydo bo'lishi bilan chambarchas ravishda ijtimoiy xizmatlar ixtisoslashib alohida iqtisodiy yo'nalish sifatida o'rganila boshlandi. Jumladan, ijtimoiy soha iqtisodiyoti ilmiy yo'nalish

sifatida XX asrning 50-60 yillaridagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni bog'lash uchun muvaffaqiyatli harakat qilgan T.Parsons va N.Smelser sotsiolog-olimlar nomlari bilan bevosita bog'liqdir.²

Ijtimoiy xizmatlar sohasi insonning shaxs sifida shakllanishi va ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, aholining turmush darajasi, mehnatning mazmuni va shart-sharoiti, yashash muhiti, bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish bilan uzviy bog'liq bo'lgan faoliyat hisoblanadi.

Iqtisodiyotdagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan qarash ham muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi bir vaqtning o'zida mehnatga yaroqli bo'lgan aholining bir qismi band bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasi, ikkinchi tarafdan esa jamiyatning deyarli barcha qatlami qatnashadigan iste'mol sohasidir. Shuning uchun ham sohani o'rganayotganda bu ikkala jihatni bir-biridan ajratmaslik maqsadga muvofiqdir.

Keyingi vaqtlarda chop etilayotgan ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda va lug'atlarda ijtimoiy sohaning nazariy asosi faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib ta'riflanmoqda. Jumladan, G.E.Slezingerning fikricha, ijtimoiy sohaning predmeti inson va uning ehtiyojidan kelib chiqadigan, davlat boshqaruvi ilmiy, o'quv, mehnat va xo'jalik faoliyatidan iborat jabhalarni namoyon qiladi.³ Yoki V.G. Ignatov va boshqalar tomonidan yozilgan o'quv qo'llanmada ta'riflanishicha, ijtimoiy soha iqtisodiy kategoriya sifatida insonlarning ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy munosabat jabhalarini o'zida namoyon qiladi.⁴ B.A.Rayzberg va boshqalar hamkorligidagi tayyorlangan lug'atda, insonlarning ehtiyoji, farovonligini, turmush darajasi va shaklini aniqlovchi hamda bevosita ular bilan bog'langan tashkilotlar, korxonalar, tarmoqlar

² Saidov K.S, Siytmuratov R.A. va boshqalar Sotsial iqtisodiyot -T.: "O'zbekiston", 2006 -B. 41.

³ Слезингер Г.Э. Социальная экономика – М.: Дело и сервис, 2001. - С. 9.

⁴ Игнатов В.Г. и др. Экономика социальной сферы. М.: Март, 2005. - С.11.

yig'indisi ijtimoiy sohaligi ta'riflanadi.⁵

O'zbekistonlik olimlardan N.To'xliiev rahbarligida yozilgan darslikda, aholining turmush sharoiti, hayot kechirishi va turmush darajasini yaxshilash bilan bevosita bog'liq bo'lgan sohalar ijtimoiy sohalar hisoblanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash sohalari, uy-joy kommunal xo'jaligi, madaniyat va san'at, sport va boshqa ijtimoiy infratuzilma sohalari ijtimoiy sohalar hisoblanadi. Axborot va telekommunikatsiya, yo'lovchi transporti, aholiga pulli xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar ham ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarga kirishi keltiriladi.⁶

X.Abulqosimov va O.Xamraevlarning o'quv qo'llanmasiga ko'ra, "Ijtimoiy soha – bu aholini turmush darajasi, hayot tarzi va ularning farovonligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan tarmoqlar, korxonalar majmuidir. U o'zida xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minot, uy-joy kommunal xizmatlari, yo'lovchi tashish transportlari, aloqa) mujassamlashtiradi".⁷

Yuz yil oldin qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning yetakchi sohasi hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda ijtimoiy soha ijtimoiy ne'matlar yaratib, insonning rivojlanishi, turmush farovonligini ta'minlash, ijtimoiy adolatlilikni o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga va turli ma'naviy, madaniy, ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi tarmoqlar majmuini tashkil qilib, iqtisodiyotni rag'batlantirish inson salohiyatini saqlash va rivojlantirish, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini saqlash va ta'minlash kabi muhim vazifalarni bajarishi bilan yetakchilik qilmoqda. Shuning uchun ham u an'anaviy tarzda davlat tomonidan ko'prok himoya qilinadi.

Fan-texnika taraqqiyotining ta'siri ostida ijtimoiy xizmatlar sohasi tez

⁵Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь – 30-е изд. Перереб. и доп. – М.: ИНФРА, 2001. – С.37

⁶ To'xliiev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti T.: "O'zbekiston", 2016. -B. 443.

⁷Abulqosimov X.Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish-T.: "Iqt-Moliya", 2014.-B.170

rivojlanib bormoqda. Ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti hamda aholi turmush darajasining eng muhim ko'rsatgichlaridan biriga aylanmoqda. Chunki aholi turmush darajasini faqat daromadlarning o'sishi va sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlanganligi darajasi bilan belgilab bo'lmaydi. Aholi turmush darajasi ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirishda har xil turdagi sifatli xizmatlardan foydalanish, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qilish, maroqli dam olish kabi jihatlar bilan ham belgilanadi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasining holati va uning iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasini tavsiflaydi. Chunki aholining turmush tarzi, madaniy va ma'rifiy salohiyati, ayni shu soha faoliyati bilan belgilanadi. Shu jihatdan ijtimoiy xizmatlar sohasi mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u quyidagilar orqali aniqlanadi:

birinchidan, ijtimoiy xizmatlar sohasi milliy daromadning shakllanishida ishtirok etib, kam sarmoya evaziga YaIM ning o'sishiga va moddiy ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishga sezilarli hissa qo'shadi;

ikkinchidan, aholi turmush tarzining yuqori sifatini belgilab beradi va qishloq aholisining farovonlik darajasini shahar aholisidikiga yaqinlashishiga xizmat qiladi;

uchinchidan, aholining davlat boshqaruviga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarini va milliy xavfsizligini ta'minlaydi;

to'rtinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlaydi va bandligini ta'minlashga ko'maklashadi;

beshinchidan, mehnat resurslari sifatini va raqobatbardoshligini oshirishga yordam berib, aholi savodxonligini ta'minlash, sog'ligini saqlash, milliy madaniyat va qadriyatlarini tiklashga olib keladigan sohalarning faollashuviga ta'sir ko'rsatadi hamda mamlakat intellektual

salohiyatini belgilaydi;

oltinchidan, halqaro aloqalarning kengayishida va mamlakatlarning jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasining o'ziga xos talqini uning mamlakat ijtimoiy hayotini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, komil insonni tarbiyalash hamda ijtimoiy mulkni mustahkamlash, qo'riqlash kabi muhim maqsadlarini va quyidagi vazifalarini aniqlashga imkon beradi:

birinchidan, tarbiyaviy vazifani bajarib, inson shaxsini taraqqiy ettiradi, takomillashtiradi, uni ma'naviy, axloqiy, badiiy jihatdan rivojlantiradi va har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishga yordam beradi;

ikkinchidan, insonparvarlik vazifasini bajarib, insonni munosib turmush tarzi va sifatli hayot farovonligi bilan ta'minlaydi;

uchinchidan, adolatlilik vazifasini bajarib, davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshiradi, aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qiladi, bandligini va tengligini ta'minlaydi;

to'rtinchidan, aloqa vazifasiga ko'ra, turli ommaviy axborot vositalari orqali hamda muloqot, o'zaro aloqa va axborotlarni uzatishdan insonlarning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi;

beshinchidan, umumlashtirish vazifasiga ko'ra, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va tarixiy tajribalarni o'rganish va uzatish orqali milliy mafkuraning shakllanishiga xizmat qiladi;

oltinchidan, iqtisodiy vazifasiga muvofiq, malakali ishchi kuchini takror ishlab chiqaradi, salomatligini tiklaydi, ruhiyatini ko'taradi va mehnat unumdorligi o'sishini rag'batlantirish orqali, yalpi milliy mahsulotni ko'paytiradi.

Ijtimoiy xizmatlarning muhim xususiyati shundaki, ularni saqlab, qadoqlab, tashib bo'lmaydi va ko'rsatilayotgan xizmat bir vaqtning o'zida iste'mol qilinadi. Ammo ko'rsatilayotgan xizmatlarning aksariyatini

iste'mol qilgunga qadar o'rganishning iloji yo'q bo'lib, ularning taklifi va iste'moli bir paytda ro'y beradi; ikkinchidan, ijtimoiy xizmatlarni buyurtma, yoxud mijoz borligida ko'rsatish mumkinligi bois ularni xizmat ko'rsatuvchidan ajratishning iloji yo'q hamda iste'molchilarga ko'pincha xizmatni taqdim etishning ajralmas qismi sifatida qaraladi; uchinchidan, ijtimoiy xizmatlar sifat jihatidan o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lib, hatto xizmat ko'rsatishni bitta tashkilot amalga oshirganda ham sifat turlicha bo'lishi mumkin va ushbu xizmatlarning aksariyati moddiy tavsifga ega emasligi sababli, ulardagi iqtisodiy munosabatlar ko'zga yaqqol tashlanmaydi; to'rtinchidan, turli toifadagi iste'molchilarga qulaylik yaratish zarurligi ijtimoiy xizmatlar samaradorligining muhim omili bo'lib hisoblanadi. Masalan, oshxonaning tushlik tayyorlashi, transport xizmatining ertalabdan yo'lga qo'yilishi va tez tibbiy yordamning mijozlar uyiga borib ko'rsatilishi, maktabgacha ta'lim muassasalarning kichik yoshdagi bolalarni qamrab olishi aholiga qulaylik yaratadi va shu bilan birga ko'rsatilayotgan xizmatning sifati iste'molchilar kayfiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan, ertalab uzoq vaqt transport kutib qolish, sartaroshning xizmatidan qoniqmaslik oqibatida kayfiyat tushishi va bu muloqot orqali boshqalarga o'tishi mumkin; beshinchidan, shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy xizmatlar sohasi muassasalari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etadi. Ular bir butun xo'jalik faoliyatiga birlashadi va bir butun tizimni tashkil etadi.

Ijtimoiy xizmatlarni iste'mol bozorida ayirboshlash jarayoniga muvofiq tovarlashgan va tovarlashmagan xizmatlarga bo'lish mumkin. Tovarlashgan xizmatlar pulli bo'lib, bozor obyektiga kiradi va har qanday tovar singari oldi-sotdi qilinadi. Ularning asosiy xususiyati ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarining bir-biridan ajralmasligi bilan ifodalanadi. Ular bir vaqtda yuz berib, ko'rsatilgan xizmat bir vaqtning o'zida iste'mol qilinadi va puli to'lanadi. Tovarlashmagan xizmatlarda ayirboshlash

aksincha alohidalashib, puli oldindan yoki keyin to'lanishi mumkin. Ko'rsatilayotgan xizmatlar asta-sekinlikda ma'lum vaqt o'tishi bilan iste'mol qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatga ega va bu qiymat ijtimoiy mahsulot qiymatiga qo'shiladi. Ijtimoiy xizmatlar sotilganidan keyin ularning umumiy qiymati pul daromadlariga, undagi qo'shimcha qiymat esa foydaga aylanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyekt foyda olishni, sarflagan kapitaliga nisbatan ko'proq qiymatga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yadi. Shu bois ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasi bir tomondan, iste'mol qiymatlarini yaratish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan qiymatning o'sishi jarayoni bo'lib ham hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining va bunga bog'liq holda ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarning o'sishi ijtimoiy xizmatlar sohasining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Ijtimoiy soha bu davlatlarda iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatdi. Mazkur soha tarmoqlarining ixtisoslashishi, yiriklashishi, yangi tarmoqlarning tashkil topishi iqtisodiyotni boyitgan holda ishlab chiqarish darajasining o'sishini ham ta'minladi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida uning hissasini oshirish uchun bir qator imkoniyatlar mavjud bo'lishi kerak, bularning asosida esa ijtimoiy xizmatlarning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi. Ularning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

birinchidan, ijtimoiy soha korxonalarining erkin faoliyat yuritishlari uchun huquqiy bazaning yaratilishi, tegishli qonun va me'yoriy hujjatlarning mavjudligi;

ikkinchidan, ijtimoiy xizmatlar sohasida mulkchilikning turli shakllarini yuzaga keltirish, xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi jismoniy va

yuridik shaxslarning xizmat turini mustaqil belgilash, sotish, narx belgilash, foydaga egalik qilish imkoniyatlariga ega bo'lishi;

uchinchidan, barqaror iqtisodiy omillarning mavjudligini, moddiy va ma'naviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining kengligini sog'lom raqobat muhitini, talab va taklif mosligini ta'minlash;

to'rtinchidan, iste'molchilar didi va zamonaviy xizmat turining shakllanishi, xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muhitni shakllantirish;

beshinchidan, har bir iqtisodiy jarayon hududiy makonda sodir bo'ladi, shu bois ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish.

Ijtimoiy xizmatlar sohasini shakllantirmay turib, rivojlangan bozor iqtisodiyotini qurib bo'lmaydi. Chunki, moddiy ishlab chiqarish sohasi samaradorligini oshirish, inson omilini faollashtirish va mehnat unumdorligini oshirishda ijtimoiy sohaning o'рни beqiyos.

O'zbekistonda ijtimoiy sohaning rivojlanishi o'ziga xos bo'lib, u moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan birga paralel shakllanmoqda. Uning shakllanishi bir qancha omillar ta'sirida yuz bermoqda. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy xizmatlar sohasi takror ishlab chiqarishda alohida bo'g'in sifatida ajralib turmagan bo'lsada, uning mazkur jarayonning amalga oshirilishida va jadallashishida hissasi katta. Jumladan, ular kengaytirilgan ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarida ishtirok etadi;

- ijtimoiy xizmatlarning turlari halqaro iqtisodiy munosabatlarda jadal rivojlanayotganligi, mamlakatimizda bu sohani rivojlantirish zaruratini tug'dirmoqda. Chunki iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishini shakllantirishda globallashtirish jarayonining ta'siri katta;

- davlat, jamiyat va aholining ijtimoiy xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojining o'sib borishi ushbu sohani rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Chunki aholining keng qatlamida tadbirkorlik tufayli daromadlarining oshishi natijasida, ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabi ham, uni xarid qilish imkoniyatlari ham o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda;

- hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida shunday zamonaviy xizmat turlari shakllandiki, ularni rivojlantirmay turib, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi.

Ijtimoiy soha hozirgi zamonaviy sharoitda iqtisodiyotning eng o'sib boruvchi va e'tiborli sohasiga aylanib bormoqda. Aynan shu sohada iqtisodiy faol aholining katta qismi tobora ko'p miqdorda to'planmoqda, yalpi ichki mahsulotning o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi va iqtisodiy barqarorlikka erishishda ijtimoiy xizmatlarning roli va ahamiyati behad muhimdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bir tomondan aholining umumiy tarkibida o'zining ishbilarmonligi va tadbirkorligi tufayli yuqori daromadga ega bo'lgan qismining salmog'i oshib borishi, ikkinchi tomondan o'tish davrida yo'qotishlarga yo'l qo'ymaslik va muhtojlarni ijtimoiy himoyalash zaruriyati, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda yanada murakkab vazifalarni yuklaydi. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotda ilm talab tarmoqlarning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarishning yangi texnika va texnologiyalar bilan qurollanishi, transport, moliya, telekommunikatsiya xizmatlari ko'lamining kengayishi, fermer xo'jaliklarining yiriklashishi oqibatida ishga layoqatli aholining katta qismi qishloq xo'jaligidan bo'shatilishi va xizmatlar sohasiga jalb etilishi, aholida sifatli xizmatlarga bo'lgan talabning o'sishi va hakoza mazkur sohani jadal rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

Ijtimoiy xizmatlar majmuini faollashtirish, samaradorligini muttasil oshirib borish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omillaridan eng asosiysiga aylanmoqda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, eng avvalo inson manfaatlarini ko'zlaydi. Inson manfaatlarini ro'yobga chiqaruvchi ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Ammo bu farovonlikka erishishning birdan-

bir yo'li, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tubdan qayta qurish, uni halqaro andozalarga muvofiq keladigan tarzda rivojlantirish bilan bog'liq.

Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar rivojlanishining xususiyatlarini milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlar natijasida aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi o'sib, u asosan savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchi transporti, ijtimoiy turizm, madaniyat va san'at, axborot kommunikatsiya, maishiy xizmatlar, o'quv kurslari, dorixona yoxud turli tibbiy xizmatlar hisobiga ro'y berdi. Bu ishlar quyidagi shart-sharoitlarga muvofiq amalga oshirildi:

- mamlakatda qulay siyosiy-iqtisodiy sharoitning mavjudligi;
- yangi turdagi xizmatlarni taqdim etmoqchi bo'layotgan tadbirkorlar guruhining shakllanganligi;
- ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy bazaning takomillashtirilayotganligi;
- ijtimoiy xizmatlarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish zaruriyati;
- aholi tarkibida sifatli xizmatlarga bo'lgan talabning o'sayotganligi;
- respublikada xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam aloqaning shakllanganligi va boshqalar.

Hozirgi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida iqtisodiy qonunlar o'zining yangi talablarini shu jamiyatda yashayotgan har bir inson oldiga qo'ymoqdaki, iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish, ularni uyg'unlashtirishga hamda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadriyat va an'analarimiz bilan boyitish bilan birga, zamonaviy cho'qillarini ham zabt etish lozim bo'lmoqda. Ushbu natijaga erishish ijtimoiy majmuaning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

1.2. IJTIMOIIY SOHA XIZMAT TARKIBI, TURLARI VA ULARNING GURUHLANISHI

Fan-texnika taraqqiyotining ta'siri ostida ijtimoiy xizmatlar rivojlanib, yangi

va sifatli xizmatlar hisobiga faoliyati tobora kengayib bormoqda. Ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti hamda aholi turmush darajasining eng muhim ko'rsatgichlaridan biriga aylanmoqda. Aholi turmush darajasini faqat daromadlarning o'sishi va sifatli iste'mol tovarlari bilan ta'minlanganlik darajasi bilan belgilab bo'lmaydi. Aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha bo'lib, u kishilarning moddiy, ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirish har xil turdagi sifatli xizmatlardan unumli foydalanish, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qilish va maroqli dam olish, turmush sharoitlarining yaxshilanish darajasi kabi ko'rsatgichlar bilan tavsiflanadi.

Aholining ijtimoiy turmush sharoiti-bu kishilarning mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoniy va madaniy taraqqiyotini ta'minlash, muhtojlarni, nafaqaxo'rlarni va ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish hamda vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga ijtimoiy nafaqa berish yo'li bilan yaxshilanadi. Mazkur vazifalarning bajarilishi ijtimoiy xizmatlar orqali amalga oshadi.

Jamiyat ravnaqi moddiy ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti va halqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi nomoddiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarning o'sishiga olib keladi. Ishlab chiqarish sohasida ham fan-texnika, axborot va kommunikatsiya xizmatlariga ehtiyoj oshib bormoqda. Bunday xizmatlar keyingi vaqtlarda ijtimoiy xizmatlardek alohida sohani tashkil etmoqda.

Ijtimoiy xizmatlarni aholiga xizmat ko'rsatish sohasi (xizmat ko'rsatish sohasi ikkiga bo'linadi: ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish va aholiga xizmat ko'rsatish) nuqtai nazaridan hamda ijtimoiy ishlab chiqarish turlariga va tarkibiy tuzilishiga muvofiq ikki qismga bo'lish mumkin: bular, moddiy-maishiy xizmatlar va ijtimoiy-madaniy xizmatlar (1.2.1-rasm).

Moddiy-maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ijtimoiy xizmatlar sohasining tarkibiy qismi bo'lsada, ular o'zlarining ko'plab jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi, ya'ni:


- ijtimoiy-madaniy xizmatlarni tashkil qilish jarayoni moddiy-maishiy

xizmatlarga nisbatan uzoqroq vaqtni o'z ichiga olishi mumkin;

- amalda ijtimoiy-madaniy xizmatlar doirasi davlat tomonidan ko'proq himoya qilinadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy ta'minot an'anaviy tarzda juda ko'p mamlakatlarda qisman davlat tasarrufida yoki davlat tomonidan qattiq nazorat qilinadi. Chunki ijtimoiy-madaniy xizmatlar uchun ajratilayotgan mablag'lar faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy tavsifga ham ega bo'lib, jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi;

- ijtimoiy-madaniy xizmatlarda iqtisodiy natijaga moddiy-maishiy xizmatlarga nisbatan uzoqroq muddatda erishish mumkin;

- moddiy-maishiy xizmatlar ko'rsatishda xizmat ko'rsatuvchilar iste'molchilar talabi o'zgarishiga tezda moslashadilar. Ijtimoiy-madaniy xizmatlarda bu jarayon nisbatan ko'proq vaqt o'tishini talab qiladi;



1.2.1-rasm. Aholiga xizmat ko'rsatish sohasining tarkibi va tuzilishi

- ijtimoiy-madaniy xizmatlar ko'proq jamoaviy tavsifga ega bo'lib, alohida xizmatlar hajmi nisbatan kamroqni tashkil etadi;

- ijtimoiy-madaniy xizmatlarning muassasalari amal qilish jihatidan

katta hududni o'z ichiga olib, natijada aholining keng qatlamini qamrab oladi;

- ijtimoiy-madaniy xizmatlarni ko'rsatayotgan muassasalarning xodimlari ko'proq aqliy mehnat bilan shug'ullanganligi tufayli ulardan malaka, mutaxassislik va yuksak kasb mahorati talab qilinadi;

- ijtimoiy-madaniy xizmatlarni ko'rsatayotgan muassasalarda xodimlarga ish haqi berish va moliyalashtirish jihatidan ham farqlanib bu jarayon davlat byudjeti, homiylar, jamg'armalar, tadbirkorlar hamda boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy xizmatlar ko'p xilli, turlicha ko'rinishda bo'lsada, maqsad va vazifalarining bir xilligi, iqtisodiyotda tutgan o'rni va aholining iste'moli nuqtai nazaridan ularni bir necha guruhlariga birlashtirish mumkin:

1. Kundalik joriy xizmatlar; uy-joy kommunal xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchi transporti, maishiy xizmatlardan odatda aholi kundalik turmush-tarzida tez-tez ehtiyoj sezadi va ulardan foydalanishda aholining barcha qatlami ishtirok etadi.

2. Kasbiy, mahorat talab xizmatlar; ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, bandlik va ijtimoiy sug'urta xizmatlaridan shartli ravishda aholining ma'lum toifa vakillari foydalanishi mumkin.

3. Ko'ngil ochar xizmatlar; ijtimoiy turizm, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport xizmatlaridan aholi ixtiyoriy madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanadi.

4. Jamoatchilik xizmatlari; davlat boshqaruv organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari xizmatlari negizida umum jamiyat manfaatlari yotadi (1.2.1- jadval).

1.2.1-jadval

Ijtimoiy xizmatlarning guruhlanishi

Ijtimoiy xizmatlar

Kundalik joriy xizmatlar	Kasbiy, mahorat talab xizmatlar	Ko'ngil ochar xizmatlar	Jamoatchilik xizmatlari
Uy-joy kommunal xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchi transporti, maishiy xizmat	Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, bandlik va ijtimoiy sug'urta xizmatlari	Ijtimoiy turizm, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport xizmatlari	Davlat boshqaruv organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari xizmatlari

Ijtimoiy xizmatlarni milliy iqtisodiyotda amal qilishida xizmat turlari va qo'llanilishi jihatidan taqsimlanishiga ko'ra, tiklash xizmatlari, professional xizmatlar, taqsimlash xizmatlari va umumiy xizmatlarga ajratish mumkin (1.2.2-jadval).

1.2.2-jadval

Ijtimoiy xizmatlarning qo'llanilish jihatidan guruhlanishi

T/r	Ijtimoiy xizmat turlari	Tizimda qo'llanilishi
1.	Tiklash xizmatlar	Ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta
2.	Professional xizmatlar	Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy turizm
3.	Taqsimlash xizmatlari	Savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchi transporti
4.	Umumiy xizmatlar	Maishiy xizmatlar, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport
5.	Iste'mol xizmatlari	Uy xo'jaligi bilan bog'liq xizmatlar

Ijtimoiy soha jamiyat taraqqiyoti va inson yashash turmush tarzida muhim o'rin tutishi bois davlat boshqaruviga ehtiyoj sezadi va davlat tomonidan boshqarilib, asosan davlat byudjetidan moliyalashtiriladi.

Ijtimoiy sohada xususiy sektorning rivojlanishiga imkon berilsada, ularning faoliyatini litsenziyalash va ruxsat berishga davlat alohida e'tibor qaratadi. Ijtimoiy sohani boshqarish va nazorat qilish qulay bo'lishiga hamda alohida o'rganishga sharoit yaratish maqsadida bo'g'inlarga ajratilib boshqariladi. Bular

oliy va o'rtta maxsus ta'lim, halq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ijtimoiy ta'minot va mehnat kabi tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy sohani bunday boshqarish ushbu tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ta'minlaydi va faoliyatini mustahkamlaydi (1.2.3-jadval).

1.2.3-jadval

Ijtimoiy sohaning davlat boshqaruvi bo'yicha tuzilishi

Tizimlar	Muassasalar
Oliy va o'rtta maxsus ta'lim	Universitet, institut, ilmiy tadqiqot institutlari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti
Halq ta'limi	O'rtta umum ta'lim, maktabgacha ta'lim, ixtisoslashgan maktab internatlar, bolalar dam olish lagerlari
Sog'liqni saqlash	Kasalxona, dorixona, poliklinika, KVP, tez tibbiy yordam, sanitariya-epidemiologiya, sanatoriya, ona va bola skrining markazlari
Madaniyat va sport	Sirk, kino, kontsert, teatr, hayvonot bog'i, istirohot bog'i, muzey, kutubxona, rassomchilik, bolalar sporti, sport inshootlari, to'garak, seksiya
O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari	Ijtimoiy ta'minot bo'limi, mehnat va bandlikka ko'maklashish markazi, mahalla idoralari, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi
Uy-joy kommunal xo'jaligi	Ichimlik suvi ta'minoti, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, tozalash va obodonlashtir ishlari xizmati

Bugungi kunda ijtimoiy soha milliy iqtisodiyotning yirik va hal qiluvchi tarmog'i hisoblanib, uning har bir tizimi o'zida bir necha tarmoqosti muassasalarni birlashtiradi. Tarmoqosti muassasalari mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti bilan yangilanib borishi va ayrimlari butunlay muomiladan chiqib ketishi ham mumkin (1.2.4- jadval).

1.2.4 - jadval

Ijtimoiy sohaning quyi bo'g'ini tuzilishi

Asosiy tarmoqlar	Tarmoqosti tuzilishi
Ta'lim	Maktabgacha ta'lim muassasalari xizmati, o'rtta umum ta'lim xizmati, o'rtta maxsus ta'lim xizmati, oliy ta'lim xizmati, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi xizmati
Sog'liqni saqlash	Dorixona xizmati, kasalxona xizmati, klinika xizmati, poliklinika xizmati, KVP xizmati, tez tibbiy yordam xizmati,

	sanitariya-epidemiologiya xizmati, sanatoriya xizmati, ona va bola skrining markazlari xizmati
Maishiy xizmat	Tikuvchilik ustaxonasi xizmati, sartaroshxona xizmati, kimyoviy tozalash xizmati, hammom xizmati, poyabzal ta'mirlash xizmati, pardoqlash xizmati, xo'jalik buyumlarini ta'mirlash xizmati
Uy-joy kommunal xo'jaligi	Ichimlik suvi ta'minoti xizmati, elektr ta'minoti xizmati, gaz ta'minoti xizmati, tozalash va obodonlashtirish ishlari xizmati uy-joy ta'mirlash shirkatlari xizmati
Savdo va umumiy ovqatlanish	Oshxona xizmati, restoran xizmati, kafe xizmati, iste'mol bozorlari xizmati, savdo uylari xizmati
Yo'lovchi transporti	Avtobus xizmati, taksi xizmati, temir yo'l xizmati, havo yo'llari xizmati, metropoliten xizmati, tramvay xizmati, trolleybus xizmati
Jismoniy tarbiya va sport	To'garak xizmati, seksiya xizmati, sport inshootlari xizmati
Madaniyat va san'at	Sirk xizmati, kino teatr xizmati, teatr xizmati, hayvonot bog'i xizmati, istirohot bog'i xizmati, muzey xizmati, kutubxona xizmati, rassomchilik ustaxonasi xizmati
Ijtimoiy himoya	Ijtimoiy ta'minot bo'limi xizmati, mehnat birjalari xizmati, ijtimoiy sug'urta xizmati, mahalla idoralari xizmati
OAVlari	Radio xizmati, telvedeniya xizmati, davriy nashrlar xizmati

Ijtimoiy xizmatlar paydo bo'lishi va kelajakda rivojlanishi uning ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o'rnining mustahkamlanib borishiga va mamlakatning iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu sohalarning maxsuslashishi, yiriklashishi, yangi tarmoqlarning tashkil topishi iqtisodiyotni boyitgan holda ishlab chiqarish darajasining o'sishini ta'minlaydi.⁸

O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi o'ziga xos bo'lib, u moddiy ishlab chiqarish sohasi bilan birga paralel rivojlanmoqda hamda uning rivojlanishi bir qancha omillar ta'sirida yuz bermoqda. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ijtimoiy xizmatlar takror ishlab chiqarishda alohida bo'g'in sifatida ajralib turmagan bo'lsada, uning mazkur jarayonning amalga oshirilishida va jadallashishida hissasi katta. Jumladan, ular kengaytirilgan ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarida ishtirok etadi;

- ijtimoiy xizmatlarning turlari halqaro iqtisodiy munosabatlarda jadal rivojlanayotganligi, mamlakatimizda bu sohani rivojlantirish zarurayotganligi

⁸ Ziyaev T.M, Yusupov R.A. va boshqalar Ijtimoiy sektor iqtisodiyoti –T.: “TDIU”. 2006. -B. 7.

tug'dirmoqda (ijtimoiy turizm, axborot kommunikatsiyalari, yo'lovchi transporti, halqaro savdo va hokozolar). Chunki iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishini shakllantirishda globallashtirish jarayonining ta'siri katta;

- davlat, jamiyat va aholining ijtimoiy xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojining o'sib borishi ushbu sohani rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Xususan, aholining keng qatlamida tadbirkorlik tufayli daromadlarining oshishi natijasida, ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabi ham, uni xarid qilish imkoniyatlari ham o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda;

- hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida shunday zamonaviy xizmat turlari shakllandiki, ularni rivojlantirmay turib, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini tasavvur qilish qiyin.

Ijtimoiy xizmatlarning samarali rivojlanishi xizmatlar bozoridagi munosabatlarning kengayib borishi, takomillashuvi, bozor ishtirokchilarining yangi ehtiyojlarini qondirish, jahonda yuz berayotgan iqtisodiy o'zgarishlarning bashorati, jahon bozorining tarkibiy o'zgarishi kabi ko'plab omillarga bog'liq. Shu bois ijtimoiy xizmatlarni zamon talablari asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Rivojlangan ijtimoiy xizmatlarni yaratish bir vaqtning o'zida sohada davlat va nodavlat sektoriga tegishli bo'lgan xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning faoliyat olib borishini ta'minlashni taqozo etadi. Holbuki, ijtimoiy xizmatlar bozorida raqobatga asoslangan muhitni yaratmasdan turib ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va erishilgan yutuqlarni saqlab qolish mumkin emas. Bunda tadbirkorlarning izlanuvchanligi, novatorligi, islohotchiligi, egiluvchanligi bilan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni samarali tashkil etish va amalga oshirish, sohada yangi-yangi xizmat turlarini yaratib bozorda taklif etish, ijtimoiy xizmatlarni iste'molchilarga maksimal yaqinlashtirish, zamonaviy ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish muassasalarini barpo etish va kengaytirish, sohada raqobatni rivojlantirib, umuman sohani isloh qilish orqali jadal taraqqiyotiga hissa qo'shishi mumkin.

Ijtimoiy soha xizmatlari iqtisodiy aloqalar tizimida ijtimoiy munosabatlarni

o'rnatish va ularni mustahkamlashga, ijtimoiy ishlab chiqarish uchun me'yoriy shart-sharoitlarni ta'minlashga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar yig'indisidan iborat bo'lganligi bois ular ijtimoiy infratuzilma sifatida qabul qilingan.

Ijtimoiy infratuzilma tarkibiga kiruvchi tarmoqlar, korxonalar xizmat ko'rsatish holatiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar bo'linishiga qarab ulardan qaysi maqsadlar uchun foydalanish lozimligini va faoliyat yo'nalishlarini aniqlash mumkin. Ularga:

Ijtimoiy muhofaza infratuzilmasi xizmatlari:

- ijtimoiy ta'minot;
- ish bilan bandlik;
- ijtimoiy sug'urta xizmatlarini bajaradi.

Ijtimoiy-madaniy infratuzilma xizmatlari:

- qadriyatlar va an'analarni tiklashga qaratilgan xizmatlar;
- qishloqda yashash madaniyatini shahar darajasiga ko'tarishga erishish xizmatlarini;
- inson hayotini zamonaviylashtirish bilan bog'liq xizmatlarni;
- ko'ngilochar madaniy hordik xizmalari;
- aholining bo'sh vaqtlaridan ijtimoiy-madaniy hordiq chiqarish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish tadbirlarini amalga oshiradi.

Ma'naviy-madaniy infratuzilma xizmatlari:

- madaniyat va san'at muassasalari tomonidan yaratilayotgan xizmatlar hajmini kengaytirish;
- madaniy-ma'rifiy mavzudagi ko'rik tanlovlari o'tkazish;
- ma'naviyat va ma'rifatni targ'ib qilish bilan bog'liq xizmatlar;
- sayyohlik dam olish uylari va lagerlari xizmatlari;
- sog'lomlashtirish tadbirlari;
- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish tadbirlari;
- ta'lim tizimi bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar.

Kundalik ehtiyojlar infratuzilmasi xizmatlari:

- aholining maishiy texnika va boshqa turdagi buyumlarini ta'mirlash va tozalash ishlari;
- aholining bir joydan ikkinchi joyga borishi bilan bog'liq bo'lgan (transport) xizmatlarni;
- aholining uy xo'jaliklarida farovon turmush kechirishlari uchun barcha qulayliklarni yaratishga qaratilgan xizmatlar;
- aholining kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan savdo va umumiy ovqatlanish tizimi ko'rsatayotgan xizmatlar.

Atrof muhitni muhofaza qilish infratuzilmasi:

- atrof muhit ifloslanishini nazorat qilish xizmatlari;
- atmosferaning ifloslanishiga qarshi kurash choralarini o'zida ifoda etadigan tadbirlar;
- suv tozaligi va undan unumli foydalanish bilan bog'liq xizmatlar;
- ekologik madaniyatni targ'ib etuvchi tadbirlar;
- tabiatni asrash va ekoturizm.

Ijtimoiy infratuzilma tarkibiga kiradigan tarmoqlar ijtimoiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayoniga bir xilda ta'sir ko'rsatmasada, lekin o'ziga xos o'ringa, ahamiyatga va xususiyatlarga ega.

Ijtimoiy infratuzilma-insoniyat tomonidan ijtimoiy amaliyot davomida vujudga keltirilgan yoki yaratilayotgan moddiy va madaniy boyliklar, jarayonlar, natijalar, majmuasini tashkil qilib, uning rivojlanishi iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Ijtimoiy dasturlarning amalga oshirilishiga muvofiq umumishlab chiqarish jarayonida ijtimoiy infratuzilmaning ahamiyati oshadi va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ko'payadi. Ijtimoiy infratuzilmaning hajmi va ko'lami shundayki, uni ijtimoiy ishlab chiqarishning to'rtinchi bo'linmasi deb qarash mumkin.⁹

⁹ Saidov M.H, Nasriev I.I. va boshqalar. Ijtimoiy himoya: Atamalar izohli lug'ati. – T.: "O'zb. Milliy kutubxonasi", 2007. – B. 111.

Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining rivojlanishi bilan ijtimoiy infratuzilma faoliyati o'rtasida obyektiv bog'liqlik mavjud va u ijtimoiy takror ishlab chiqarish muammolari tizimida alohida o'rin tutadi. Shu boisdan ijtimoiy infratuzilma hissasini oshirishga, ularni tashkil etish orqali ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga e'tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti aholi turmushining yuqori darajada bo'lishida ijtimoiy infratuzilmaning samarali ishlashini nazarda tutadi.

Aholining turmush darajasini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishdir. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish orqali inson manfaatlari ro'yobga chiqadi. Bunda ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi inson uchun zarur hayotiy sharoitlar yaratishdan iboratdir. Makrodarajada ijtimoiy infratuzilma kishilarni sof havo, toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlash va boshqalar orqali ularning yashashi uchun qulay mikrosharoit yaratadi.

Shu boisdan davlat inson hayoti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va yaxshilab borish maqsadida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlari qo'llamoqda.¹⁰

Bugungi kunda ijtimoiy sohaning rivojlanishida ijtimoiy infratuzilma ahamiyati beqiyosdir. Ijtimoiy infratuzilmaning holati va uning iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tavsiflamoqda.

Bundan ko'rinadiki, ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlar mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bilan uzviy olib borilmoqda. Yoxud barqaror iqtisodiy o'sish ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarning hosilasiga aylanmoqda.

Ijtimoiy infratuzilma rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan kelib chiqib, istiqbolda mamlakatimizda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish

¹⁰ Abulqosimov X.P, Vahobov A.V, Rahimova D.N, Norbaev B.I. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'llari. TDTU. "Biznes-print", 2001. –B. 92.

vazifalariga quyidagilar kiradi:

- aholiga madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash ayniqsa, qishloq joylarda madaniy va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini ko'paytirish va undan aholining keng qatlamini bahramand qilish:

- aholini tabiiy gaz va ichimlik suv bilan ta'minlash dasturini bundan keyin ham izchil davom ettirish;

- aholini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish va manzilligini kuchaytirish;

- ta'lim va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va jahon andozalariga yetkazish, undan foydalanishda aholiga qulayliklar yaratish;

- aholini uy-joy bilan ta'minlash va uy-joy kommunal xo'jaligi xizmatlari sifatini yaxshilash;

- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish unga yosh avlodni muntazam jalb etish;

- atrof muhitni asrash va ekologiyaning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik va hakovolarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi davrda mamlakat aqliy va ma'naviy salohiyatini oshirish, inson omilini rivojlantirish, ish joylarida mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni keng joriy etish va aholi salomatligini ta'minlash, mudofaaning mustahkamligi, tabiatni asrash va resurslardan oqilona foydalanish, mahalliy lashtirish dasturlarining amalga oshishi hamda davlat byudjetidan tejimli foydalanish, halqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallash kabi masalalarning foydali hal bo'lishi ijtimoiy infratuzilmaning o'z vazifalarini qanchalik samarali bajarayotganligi bilan belgilanadi.

Shu jihatdan ijtimoiy xizmat ko'rsatishda bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi strategik vazifa bo'lib aholiga xizmat ko'rsatish darajasini pasaytirmasdan xizmatlar tizimida barqarorlikni saqlash hisoblanadi.

Ijtimoiy soha kelajakda iqtisodiy o'sishga erishishning potentsial omili, imkoniyati hisoblanar ekan, biroq undan unumli foydalanilganda va yuqori

darajada rivojlangan taqdirdagini taraqqiyot manbaiga aylanishi mumkin.

1.3. IJTIMOIIY SOHA IQTISODIYOTI FANINING OBYEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Ijtimoiy soha moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, lekin jamiyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy-madaniy ne'matlar yaratadigan va xizmatlar ko'rsatadigan sohani o'z ichiga oladi.

Har qanday fan o'zining o'rganish usuli, predmeti, maqsadi, vazifalariga va obyektiga ega bo'ladi. Obyektning mavjud bo'lishi fanning yuzaga kelishi va rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi.

“Obyekt” atamasi falsafa fanida keltirilishiga ko'ra, lotinchadan objektum predmet, ayni paytda ongimizdan tashqarida unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud, insonning bilish va o'zgartiruvchanlik faoliyati yo'naltirilgan narsa va hodisalar yoki inson diqqat e'tibori qaratilgan hodisa, predmet, shaxs ma'nosida ham ishlatiladi.

“Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” fani ham o'z obyektiga ega. Uning obyektini umuman ijtimoiy majmua xususan, milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-madaniy sohasi hisoblanadi.

“Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” fanining predmeti deganda - ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy qonunlari va zaruriy qoidalarining shu sohada namoyon bo'lish shakllarini, insonning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi, aholining turmush darajasi, mehnatning mazmuni va shart-sharoiti, bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish bilan uzviy bog'liq bo'lgan faoliyat yo'llarini o'rganish tushuniladi.

Fanning maqsadi “Ijtimoiy soha iqtisodiyoti” fanini o'rganayotganlarga nazariy va amaliy bilimlarni berish, mustaqil fikrlashni, ijtimoiy soha iqtisodiyoti muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini singdirishdadir. Bo'lajak mutaxassislarni ijtimoiy xizmatlarni tashkil qilish, joriy va istiqbolli rejalarni ishlab chiqish, bashorat qilish, optimal qarorlarni qabul qilish

hamda zamonaviy boshqarish vazifalarini malakali tarzda yuritishni o'rgatishga qaratilgan.

Ana shu maqsadga erishish uchun 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi amaliyotga tadbiiq etildi. Mazkur hujjatning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga bag'ishlanadi. U o'zining bandlarida aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish, ta'lim va fan sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish vazifalarini ko'zda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" fanining asosiy vazifalari respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining obyektiv sharoitlari, davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlari, harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishlari va unga binoan amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, ahamiyati va mazmuni bilan belgilanadi, ulardan eng muhimlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati va maqsadini tushungan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda uning bo'g'inlarida bu siyosatni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlarini to'la anglash;

- ✓ ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish holati va rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, tahlil etish va uning istiqbolini belgilash haqida qayg'urish;


- ✓ ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish, boshqarish, samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikma berish;

- ✓ ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tashkil qilishni jahon standartlari darajasiga yetkazishga yo'naltirish;

✓ ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati va yo'nalishlarini tadqiq etish;


✓ moddiy va nomoddiy sohadagi o'zaro hamkorlik va iqtisodiy integratsiyalashuvining ahamiyatini tushuntirib berishdan iborat.

Ijtimoiy xizmatlar sohasi faoliyati insonlarning kundalik turmushi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning jamiyat oldidagi vazifalarini bajarishda va ish joylarida mehnat samaradorligini oshirishda asosiy omildir. Shu bois ijtimoiy sohasiz mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini va insonning har tomonlama kamol topishini tassavur qilib bo'lmaydi (1.3.1-rasm).



1.3.1-rasm. Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy xizmatlar sohasining asosiy maqsadlari

Ijtimoiy sohaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning amal qilishidagi asosiy yo'nalishlarini ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy xizmatlar singari muhim faoliyatlarga ajratish mumkin. (1.3.2-rasm). Ushbu yo'nalishlar ijtimoiy sohaning nazariy asoslarini o'rganishda va faoliyat turlariga aniqlik kiritishda aniq ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini kengaytiradi va sohani yaqindan bilishimizga sharoit yaratadi.



1.3.2-rasm. Ijtimoiy sohaning amal qilish yo'nalishlari¹¹

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti izchil, barqaror va jadal o'sayotgan jahondagi juda kam sonli mamlakatlar safidan mustahkam o'rin olayotganligini faxr bilan e'tirof etish mumkin. Ijtimoiy, madaniy sohalarda mamlakatimiz erishayotgan ulkan yutuqlar nufuzli halqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan yuksak baholanmoqda.

Axborotlar almashinuvi birinchi o'ringa chiqayotgan yangi etapda ijtimoiy xizmatlarning ahamiyati yanada ortmoqda va mazmunan boyib, mantiqan inson faoliyatining barcha turlari bilan chambarchas bog'lanmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida qabul qilingan va davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Oylik va maoshlar, pensiya, stipendiya, va ijtimoiy nafaqalarning bosqichma-bosqich oshirib borilishi.
2. Aholining ish bilan bandligini oshirishning samarali usullarini yaratish.
3. Aholini arzon va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash;
4. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash.
5. Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish.

¹¹ Хашимов П.З. Экономика социальной сферы. -Т.: «Университет», 2002. - С. 26

6. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish.
7. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish.
8. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Endigi vazifa ijtimoiy xizmatlarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish va izchil rivojlantirish hamda istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olishdan iborat. Ushbu vazifalarning bajarilishi kelgusida aholining ijtimoiy xizmatlardan samarali foydalanishga va yangi zamonaviy xizmatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

XXI asr intellektual asri deb e'tirof etilishi ijtimoiy sohada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bu o'z navbatida ijtimoiy xizmatlar va tadbirlar rivojlanishi evolyutsiyasini o'rganishni va shular asosida bugungi ijtimoiy majmuani yaratish maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

Tayanch so'z va iboralar: ijtimoiy xizmat, ijtimoiy-madaniy, moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish, turmush sharoiti va farovonligini ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1.Ijtimoiy xizmatlarning asosiy maqsadi:

- A. Ijtimoiy xizmatlarni iste'mol qilish.
- B. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish.
- D. Aholining moddiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.
- E. Aholining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy, moddiy-maishiy ehtiyojlarini qondirish.

2.Ijtimoiy soha tarkibiga:

- A. Ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi.
- B. Madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport, sanoat.
- D. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy turizm, transport.
- E. Ijtimoiy ta'minot, yo'lovchi transporti, uy-joy kommunal xo'jaligi

kiradi.

3. Ijtimoiy sohaning asosiy vazifasi:

- A. Davlat ijtimoiy siyosatini ro'yobga chiqarish.
- B. Jismoniy tarbiya va sport, sanoatni rivojlantirish.
- D. Transport sohasini rivojlantirish.
- E. Qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirish.

4. Ijtimoiy sohaning amal qilish yo'nalishlarini aniqlang.

- A. Davlat va nodavlat ijtimoiy xizmatlar.
- B. Ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy xizmatlar.
- D. Aholining nochor qatlamini ijtimoiy himoya qilish, ishlab chiqarish.
- E. Moddiy va nomoddiy xizmatlar.

5. "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" fanining o'rganish obyektini belgilang.

- A. Davlat korxonasi.
- B. Ijtimoiy majmua.
- D. Xususiy korxonalar.
- E. Sanoat korxonalar.

6. Ijtimoiy muhofaza infratuzilmasi xizmatlarini aniqlang.

- A. Savdo va umumiy ovqatlanish, yo'lovchi tashish xizmatlari.
- B. Ijtimoiy ta'minot, sport, uy-joy kommunal xizmatlari.
- D. Ta'lim, tibbiy, madaniy va maishiy xizmatlar.
- E. Ijtimoiy ta'minot, ish bilan bandlik, ijtimoiy sug'urta xizmatlari.

7. Ijtimoiy xizmatlarni iste'mol bozorida ayirboshlash jarayoniga muvofiq:

- A. Davlat va nodavlat xizmatlarga bo'lish mumkin.
- B. Shaxsiy va xususiy xizmatlarga bo'lish mumkin.
- D. Moddiy va buyumlashgan xizmatlarga bo'lish mumkin.
- E. Tovarlashgan va tovarlashmagan xizmatlarga bo'lish mumkin.

8. Ijtimoiy ishlab chiqarish turlariga va tarkibiy tuzilishiga muvofiq ijtimoiy xizmatlarni ikki qismga bo'lish mumkin:

- A. Moddiy-maishiy xizmatlar va ijtimoiy-madaniy xizmatlar.
- B. Ijtimoiy-madaniy xizmatlar va ijtimoiy moddiy xizmatlar.
- D. Moddiy-maishiy xizmatlar va ijtimoiy moddiy xizmatlar.
- E. Moddiy va buyumlashgan xizmatlarga bo'lish mumkin.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Ijtimoiy sohani mazmun-mohiyati nimani anglatadi?
2. Ijtimoiy soha tarkibini tushuntiring.
3. Ijtimoiy soha xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy xizmatlarning inson shaxsining rivojlanishiga ta'sirini tushuntiring.
5. Ijtimoiy sohaning moddiy soha bilan uzviy aloqadorligi nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti fanining predmeti nimani anglatadi?
7. Ijtimoiy soha iqtisodiyotiga berilgan ta'riflar haqida gapirib bering.
8. Tovarlashgan va tovarlashmagan ijtimoiy xizmatlar haqida nima deya olasiz?
9. Moddiy-maishiy xizmatlar va ijtimoiy-madaniy xizmatlarni farqlang.
10. Ijtimoiy infratuzilma haqida tushuntiring.

2-mavzu. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA IJTIMOIIY SOHANI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH

Reja:

- 2.1. Ijtimoiy sohaning rivojlanishida davlat va bozor mexanizmining ahamiyati
- 2.2. Ijtimoiy siyosat: tarkibi va ustuvor yo'nalishlari
- 2.3. Aholi turmush darajasi va uni belgilovchi omillar
- 2.4. Aniq manzilli ijtimoiy himoyani ta'minlashda mahaliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni

2.1. Ijtimoiy sohaning rivojlanishida davlat va bozor mexanizmining ahamiyati

Insoniyat XXI asrda rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi, tahlilchi va ekspertlar ushbu asrni intellektual asri bo'lishini, unda inson kapital sifatida tavsiflanib, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar sharoitda uning roli tobora oshib bormoqda. Chunki mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishi va iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan qayta qurilishida inson omilining ta'siri bevosita nomoyon bo'lmoqda. Ishchi kuchining malakasi, ma'lumoti, tafakkuri – mehnat unumdorligini oshirishning muhim manbaiga aylanmoqda. Yoki ishchi kuchi tarkibida kasallar sonining ko'payishi, xodimlarning kasalliklari tufayli mehnat unumdorligining pasayishiga va kasallik davri uchun to'lanadigan ijtimoiy to'lov xarajatlarining ortishiga olib keladi. Yo'lovchi transportining faoliyat ko'rsatmasligi, oshxonaning tushlik tayyorlamasligi, maishiy xizmatlarning mavjud bo'lmasligi ishchi kuchining vaqtdan tejamli va unumli foydalanmasligiga, ortiqcha muammolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu holat oxir oqibat ish kuchida mehnat unumi va korxonalar samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shunday sharoitda ijtimoiy sohaning amal qilishi va davlat tomonidan tartibga solish kerakligi ko'zga tashlanadi.

Shu bilan birga, rivojlangan bozor iqtisodiyoti ijtimoiy ne'matlar va

xizmatlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif qilishiga moyillik kam. Shu sababli jamiyat a'zolarini bunday ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash davlat zimmasida bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zaruriyati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi kishilarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tug'ilgandan nogironlarga, ko'p bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor hattoki, aholi daromadlari darajasini keskin tabaqalashuvining o'sishiga sabab bo'ladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqlik bilan qaraydi.¹²

Pensioner va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, boquvchisini yo'qotganlarga nafaqalar berish, kamta'minlangan va ko'p bolali oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, ishsizlarni ishga joylashtirish va vaqtinchalik ishsizlik nafaqasi to'lash, bepul ta'lim, muhtojlarni tibbiy dori-darmonlar bilan ta'minlash va bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish, maishiy xizmatlarning imtiyozli shakllarini joriy etish kabilarni nazardan chetda qoldirish aslo mumkin emas. Vohalanki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish kuchli ijtimoiy siyosatga asoslanadi.

Ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarning natijasi halqaro reytinglarda ham o'z aksini topmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyaning Legatum instituti tomonidan har yili e'lon qilinadigan aholi turmush darajasi sifati indeksida O'zbekiston 2015 yilda Rossiya, Belorussiya, Ukraina kabi mamlakatlarni ortda qoldirgan holda 57 o'rinni egalladi. O'zbekistonda ijtimoiy-madaniy sohada erishayotgan yutuqlar davlat byudjeti tomonidan ajratilayotgan mablag'lar bilan mustahkamlanmoqda.

Ushbu ko'rsatgichlar rivojlangan mamlakatlarda ham yuqori bo'lib, byudjet

¹² Abulqosimov X.Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish-T.: "Iqt-Moliya", 2014. B.172.

xarajatlarining salkam yarmi va undan oshig'i davlat tomonidan ijtimoiy-madaniy maqsadlarda foydalaniladi. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy xarajatlari asosini ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy to'lovlar, ya'ni pensiya, nafaqalar to'lovlari tashkil etadi. Masalan, 1999 –yilda 1990-yilga nisbatan aholini katta yoshdagilarga ta'lim berishning o'rtacha yili quyidagicha oshdi: Italiyada 5,5 yildan 13,5 yilgacha, Yaponiyada 9,9 yildan 17 yilgacha, AQShda 11,3 yildan 19,6 yilgacha.

Shu tarzda XX asrning ikkinchi yarmida umumiy tendensiyaning rivojlanishi, ya'ni ijtimoiy sohaning rivojlanishida, inson omiliga quyilmalarning o'sishida va bular orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda davlatning roli oshib bordi.¹³

Bugungi kunda Frantsiya hukumati umumumilliy tuzilmaviy dastur, yangi tarmoqlarni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, foal ijtimoiy siyosat yuritish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir o'tkazmoqda. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat byudjeti asosiy o'rinda turadi. Frantsiya milliy daromadining 54 foizi davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanadi.¹⁴

Yuqorida keltirilgan ilg'or xorijiy tajribalardan ko'rinadiki ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishda byudjetdan moliyalashtirish muhim o'rin tutadi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirlari orqali muntazam rag'batlantirib boriladi.

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati amaldagi bozor tartiblaridan ancha ustun bo'ldi va quyidagi iqtisodiy vazifalarni bajardi:

- ❖ makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- ❖ pul-kredit, soliq va byudjet tizimini tartibga solish, inflyatsiyaning oldini olish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- ❖ iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, modernizatsiyalash va

¹³ Abulqosimov X.Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish-T.: "Iqt-Moliya", 2014. -B.172.

¹⁴ N.To'xliiev O'zbek modeli taraqqiyot tamoyillari - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2014.-B.45.

diversifikatsiyalash;

❖ kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning erkin faoliyatini ta'minlovchi huquqiy bazani shakllantirish;

❖ monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish va raqobatchilik muhitini yaratish;

❖ ijtimoiy sohani rivojlantirish va undan keng ommaning ma'nfaatdorligini ta'minlash;

❖ aholi daromadlari, bandligi va yashash turmush darajasini oshirish;

❖ qisqa va o'rta muddatlarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-madaniy tadbirlarning barchasini ikki guruhga ajratish mumkin: Bular individual iste'mol xizmatlari va jamoat xizmatlari. Individual iste'mol xizmatlari o'z vazifasiga ko'ra alohida ehtiyojlardan kelib chiqib, insonlarning xohish istaklari bilan shakllangan talabni qondirishga yo'naltirilgan ijtimoiy xizmatlarni tashkil qiladi. Jamoat tarzidagi ijtimoiy xizmatlar negizida butun jamiyat manfaatlari yotadi, jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi va undan barcha bahramand bo'ladi (2.1.1- jadval).

2.1.1-jadval

Ijtimoiy – madaniy tadbirlarning guruhlanishi

Individual iste'mol xizmatlari	Jamoat xizmatlari
Ta'lim	Mudofaa xizmati
Sog'liqni saqlash	Milliy xavfsizlik xizmati
Savdo va umumiy ovqatlanish	Ichki tartibni saqlash xizmati
Yo'lovchi transporti	Tabiatni muxofaza qilish xizmati

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning asosiy shakllari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi va boshqa shu kabi qonunlar, soliq va byudjet, kredit tizimlari hisoblanadi. Agar yanada kengroq tavsiflaydigan bo'lsak, ijtimoiy sohani tartibga

solishning quyidagi shakllari mavjud:

1. Bepul ta'lim olish va tibbiy xizmatlardan tekin foydalanishni tartibga solish.
2. Kam ta'minlangan, ishsizlar, pensioner va ijtimoiy himoyaga muhtojlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmini yaratish.
3. Mehnat munosabatlari, eng kam ish haqi, ish vaqti va mehnat ta'tilining davomiyligi me'yorlarini o'rnatish.
4. Soliq va kommunal to'lovlarni tartibga solish.
5. Byudjet mablag'larini taqsimlash va hakazo.

Davlat ijtimoiy sohadagi ishchilar va predmetlar o'rtasidagi, mehnat va kapital o'rtasidagi muammolarni hal etuvchisi sifatida chiqadi. Bularning hammasi, ijtimoiy soha va uning normal rivojlanishi uchun tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmlarini uyg'unlashtirish zarur ekanligini keltirib chiqaradi. Faqatgina tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini optimal uyg'unlashtirish orqaligina samarali natijalarga erishish mumkin. Ijtimoiy sohaning shunday elementlari mavjudki, unda faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni samarali boshqarishi mumkin. Davlat millatning sog'ligini, malakali kadrlar tayyorlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi¹⁵.

O'zbekistonda ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning takomillashuvida quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratmoqda:

- bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich, sohaning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olgan holda shakllantirish;
- boshqaruvning ijtimoiy soha iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishini yanada yaxshilashga qaratilishi hamda ushbu maqsaddan soha rivojiga shart-sharoit yaratish;
- ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning professionallashuvi, uning ijtimoiy ahamiyatini ortishi va uni baholashning zarurligi;
- ijtimoiy sohani davlat byudjetidan moliyalashtirish tizimini

¹⁵ Abulqosimov X.Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish-T.: "Iqt-Moliya", 2014.-B.173

takomillashtirish va tizimlashtirish;

➤ aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda manzilli va tabaqalashgan yondashuvni yanada kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarga zarur moddiy yordam ko'rsatishni ta'minlash.

Shimoliy Amerika, xususan, AQSh modelida davlatning xo'jalik faoliyatidagi roli eng past darajaga tushirilgan. Davlat asosan uchta vazifa-barqarorlik, qonun oldida barcha fuqarolarining tengligini ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish yo'li bilan biznes va tadbirkorlik faoliyatiga ko'maklashish hamda o'zini o'zi boqishga qurbi yetmaydiganlarga g'amxo'rlik ko'rsatish bilan shug'ullanadi¹⁶.

O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani ma'lum albatta.

Ma'lumki, ijtimoiy xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi aholi turmush darajasi yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy - madaniy tadbirlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishi ta'minlandi.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda kuchli ijtimoiy siyosat yurgizish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishda ijtimoiy siyosatning ta'sirchan va samarali vositalaridan foydalanib kelmoqda.

Hozirgi bosqichda mamlakatimizda aholi turmush darajasini sifat jihatdan oshirishda ijtimoiy majmua tizimini takomillashtirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki mamlakatda olib

¹⁶ N.To'xliiev O'zbek modeli taraqqiyot tamoyillari - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2014.-B.42.

borilayotgan barcha islohotlar va tadbirlar hammasi inson uchundir. Inson manfaatlarini ro'yyobga chiqaruvchi ham ijtimoiy sohadir.

2.2. IJTIMOIIY SIYOSAT: TARKIBI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

O'zbekiston fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va adolatli jamiyat qurish maqsadida ijtimoiy siyosat yurgizmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatning asosiy mezonidir. Iqtisodiyotni sog'lomlashtirish, qonunchilik ustuvorligi va huquq-tartibotni ta'minlash ijtimoiy barqarorlikning mustahkam asosini yaratadi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli–biz tanlagan strategik yo'lning eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biri ham uning kuchli ijtimoiy siyosat yuritish masalasini yetakchi o'ringa qo'ygani bilan bevosita bog'liqdir. O'zbek modelida ko'zda tutilgan kuchli ijtimoiy siyosat insonning munosib turmush kechirishi va erkin yashashiga tegishli shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu tamoyil birinchidan, o'zbek halqining mentalitetidan, uning tarixiy madaniy qadriyatlaridan kelib chiqsa, ikkinchidan, bozor islohotlari aholi turmush darajasi hali ancha past bo'lib turgan sharoitda boshlanganini nazarda tutadi. Uchinchidan, o'tish davrida samarasiz ishlayotgan korxonalar hamda faoliyat turlari barham topadi. Bu esa ishchi va xodimlarning muayyan qismi vaqtincha ishsiz qolishi yoki ularni qayta tayyorlashni taqozo etadi.¹⁷

Aholi yashash turmush sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini oshirish, bandligini ta'minlash va nochorlarga moddiy yordam berish ijtimoiy siyosatning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Amalga oshirilish usuliga qarab ijtimoiy siyosatni aktiv va passiv turlarga ajratish mumkin. Passiv ijtimoiy siyosat narxlarni sun'iy ravishda tutib turish, shu hisobiga aholining turmush darajasini oshirish yoki barqarorlashtirish, ijtimoiy

¹⁷ N.To'xliiev O'zbek modeli taraqqiyot tamoyillari - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2014.-B.210.

himoyalashning barcha yo'nalishlari bo'yicha dotatsiyalarni oshirishni ko'zda tutadi. Aktiv siyosat maqsadga muvofiqroqdir. Unda tashabbus ko'rsatish va tadbirkorlik uchun sharoit yaratib berish, pensionerlar, nogironlar, bolalar, byudjet sohasida xizmat qiluvchilarni qo'llab-quvvatlashda davlatning rolini oshirish ustuvor maqsadlar hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini quyidagilar tashkil qildi:

- ❖ aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish;
- ❖ narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish;
- ❖ ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada ushlab turish;
- ❖ aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash;
- ❖ ish bilan bandlik, mehnat qilish huquqi kafolatini ta'minlash.

Ijtimoiy siyosatning mazkur yo'nalishlarini umumlashtirib, aholini ijtimoiy ta'minlash va davlat ijtimoiy kafolatlari yo'nalishi sifatida ko'rsatish o'rinli. Ijtimoiy ta'minot pensiya ta'minoti, nafaqalar bilan ta'minlash, aholining ayrim tabaqalari uchun belgilangan imtiyoz va kompensatsiyalar tizimi hamda ijtimoiy xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi yo'nalish esa jamiyatning bir me'yorda rivojlanishini, ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va sog'lomlashtirish, shuningdek, turar-joyga ega bo'lish huquqini ta'minlash bilan bog'liq.

Mamlakatimizda faol olib borilayotgan ijtimoiy siyosat samarasi bois byudjet sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, ish bilan bandlik va aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa, oxirgi yillarda aholining yashash hayot tarzi sifat jihatdan o'zgarishga asos bo'ldi.

Mazkur sifat o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiya ko'rsatgichlarini yaqqol namoyon etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 fevraldagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaromog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu toifadagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Ijtimoiy yetimlikni yanada kamaytirish, yetim bolalar va ota-onasining qaromog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, ularning ijtimoiy moslashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratish, tarbiya muassasalarining ish faoliyatini yaxshilash, shuningdek, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashda oilaning rolini mustahkamlash maqsadida: tijorat banklariga yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga, shu jumladan, ular toifasiga kiradigan 18 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan shaxslarga yosh oilalar uchun nazarda tutilgan shartlarda, ko'p kvartirali uylardan kvartira sotib olish maqsadida imtiyozli ipoteka kreditlari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun kreditlar ajratish belgilab qo'yildi.

Albatta oqilona ijtimoiy siyosat yuritish uchun mukammal ijtimoiy himoya tizimiga ega bo'lish kerak. Bu tizim respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, iqtisodiy - ijtimoiy xususiyatlaridan kelib chiqib yaratilishi kerak.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi yordamga muhtojlarga, xususan, ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarni, ishsizlarni, nogironlarni, talaba va pensionerlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Ushbu tizimni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy siyosatning asosini tashkil qildi. Mustaqillik yillarida davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi sifat jihatidan o'zgardi. Unda ijtimoiy maqsadlar uchun yo'naltirilgan mablag'lar asosiy o'rin tutdi. Natijada ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi sezilarli o'sdi (2.2.1- jadval).

2.2.1-jadval

Davlat buyudjeti xarajatlari tarkibining o'zgarish dinamikasi ¹⁸

Indikator nomi	2010 yil		2015 yil		2019 yil	
	Mld.so'm	Xarajatlarga nisbatan foizda	Mld.so'm	Xarajatlarga nisbatan foizda	Mld.so'm	Xarajatlarga nisbatan foizda
Ijtimoiy soha va aholini qo'llab-quvvatlash xarajatlari	7835,9	58,5	21316,9	58,8	63542,3	79,7
Shundan						
Ta'lim	4464,1	33,3	12162,2	33,5	33536,1	28,4
Sog'liqni saqlash	1716,5	12,8	5218,5	14,4	14977,4	12,7

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorlashuvi va ishlab chiqarishning yuqori su'ratlarda o'sib borishi, aholi daromadlari: ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorining muntazam qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya o'zaro uzviy tushunchalar ekanligi, ularni bir-biridan ajratishni tasavvur qilib bo'lmasligi haqida gapirib, 2019 yil –“Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish uchun aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish lozim: ikkinchidan, pensiya va nafaqalarni tayinlash va tartibini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarur. Shuningdek, xotin-qizlar va yoshlarni davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz).

hamda aholi turmush sharoitini yaxshilash, uni munosib turarjoy bilan ta'minlash, halqimiz farovonligini oshirish e'tiborimiz markazida bo'lishligini ta'kidladilar.¹⁹

O'zbekiston erkin bozor tomon harakat qilgani sari, ijtimoiy siyosatning ustuvor jihatlari, aholiga ijtimoiy madad berish va uni himoya qilish choralari ham o'zgarib bormoqda. Bu harakatlar islohotlarning o'ziga xos qoidalariga mos keladi.

2.3. AHOLI TURMUSH DARAJASI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR

Mamlakatimiz inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan izchil rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo'lgan ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Aholi turmush darajasi aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilish darajasi tushuniladi. Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy siyosatining samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Uni oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qo'lga kiritilayotgan yuksak natijalar, eng avvalo, yangidan-yangi zamonaviy tarmoq va ishlab chiqarish quvvatlarining yo'lga qo'yilishi, buning ta'sirida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat turlarining ko'payib, sifatining tubdan yaxshilanib borishi, bir so'z bilan aytganda, iqtisodiyotimizning yangicha mazmun va mohiyat kasb

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaat nomasida // Xalq so'zi gazetasi 2019 yil. 29 dekabr № 271.

etib borishi aholimiz turmush darajasining sifat jihatdan yangilanayotganligidan darak beradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda va izohli lug'atlarda aholi turmush darajasiga-aholining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanishi hamda ular ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilish darajasi tushuntiriladi.

Aholi turmush darajasi aholi hayot faoliyatining ma'lum bir qirrasini to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatgichlar tizimi bilan belgilanadi. Aholi turmush darajasi to'g'risida batafsil ma'lumot olish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim 2.3.1-rasm.

Aholi turmush darajasi – mamlakatdagi iqtisodiy taraqqiyot darajasiga mos keluvchi hayot sharoitlarining yig'indisidir. Odatda, aholi turmush darajasi ikki yo'nalishda o'rganiladi: mamlakat darajasida – butun aholi uchun hamda tabaqalashgan quyi darajada – aholining alohida guruhlari uchun.


Turmush darajasi farovonlikni iste'mol va uning natijasi jihatidan xarakterlaydi. Uning ikki guruhdan iborat o'zaro bog'langan ko'rsatgichlari mavjud: qiymat, pul moddiy va natural ko'rsatgichlari.

Qiymat ko'rsatgichlariga aholi jon boshiga ishlab chikarilgan Yalpi ichki mahsulot va Milliy daromad kiradi. Shuningdek, aholining alohida guruhlari uchun iste'molchilik byudjeti yuqori darajadagi, o'rtacha va eng kam ta'minlanganlar byudjeti joy oladi.

Ikkinchisi natural ko'rsatgichlarga aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mollari, uy – joy maydoni va uzoq muddat foydalanuvchi tovarlar miqdorlaridan iborat bo'ladi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi turmush darajasining sifat jihatdan yaxshilanishiga va o'sishiga ta'lim davomiyligi va zamonaviylashuvi, tibbiy xizmatlar sifatining yaxshilanishi va ular hajmining kengayishi, aholi daromadlarining o'sishi, uy-joy bilan ta'minlanishi, fan-texnika yutuqlarining

amaliyotga joriy etilishi, ish bilan bandlik, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi, jamoatchilik institutlarining faollashuvi va inson huquqlarining ro'yobga chiqishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



2.3.1-rasm. Aholi turmush darajasini belgilovchi omillar.

Aholi turmush darajasi haqida gapirganda uning asosiy indikatori – aholi daromadlarini nazarga tutish lozim. Aholi daromadlari ularning turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi daromadlari bir-biridan keskin farq qiladi, bu daromadlar o'rtasida tengsizlik mavjudligini anglatadi. Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilar aqliy, jismoniy va tadbirkorlik qobiliyati jihatidan bir-biridan farq qilishi, daromadlar o'rtasidagi tengsizlikka aniqlik kiritadi. Davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor

iqtisodiyoti qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan faoliyati ijtimoiy siyosat tarkibiga kiradi.

Daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni quyidagilar tashkil qiladi:

- aholi jon boshiga o'rtacha nominal va real daromadlar, daromadlar tabaqalanishining ko'rsatkichlari;
- nominal va real o'rtacha ish haqi;
- o'rtacha va real pensiya miqdori;
- turmush kechirishning eng kam miqdori hamda turmush kechirish uchun eng kam miqdordan past daromadga ega aholi salmog'i;
- ish haqi, pensiya, nafaqalarning eng kam miqdori.

O'zbekistonda daromadlar tengsizligini uymshatishga qaratilgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda. Tahlillar aholi daromadlarining otgan yillarga nisbatan sezilarli o'sganligini ko'rsatadi (2.3.1- jadval).

2.3.1- jadval

Aholi daromadlarining o'zgarishi²⁰

№	Ko'rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018
1	Aholi umumiy daromadlari, mld. so'm	101661,2	117888,9	158699,8	185036,5	220811,8	282762,5
	O'tgan yilgiga nisbatan (foizda)	123,7	116,0	112,0	116,6	119,3	128,1
2	Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm	3361,5	3832,8	5070,5	5810,0	6817,6	8580,0
	O'tgan yilgiga nisbatan (foizda)	121,8	114,0	110,1	114,6	117,3	125,9
3	Aholi real umumiy daromadlari, mld. so'm	95028,2	110766,6	150397,8	175273,8	201709,9	240587,5
	O'tgan yilgiga nisbatan (foizda)	115,7	109,0	106,1	110,4	109,0	109,0
4	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm	3142,1	3601,3	4805,2	5503,5	6227,8	7300,2
	O'tgan yilgiga nisbatan	113,9	107,1	104,3	108,5	107,2	107,1

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz)

	(foizda)						
--	----------	--	--	--	--	--	--

Aholi turmush darajasini ehtiyojlarni qondirish darajasiga ko'ra: to'q turmush darajasi, normal daraja, kambag'allik, qashshoqlik guruhlariga ajratish mumkin. Shuningdek, aholi turmush darajasi miqdor va sifat ko'rsatgichlariga ega. Uning miqdor ko'rsatgichlari aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot, sof daromad va moddiy ne'matlar, xizmatlarni iste'mol qilish darajasi va hakozolardir.

Aholi turmush darajasining sifat ko'rsatgichlari mehnat sharoitlari, insonning turmush kechirish va dam olish sharoitlarini qamrab oladi. Aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir.

1978-yilda BMT tomonidan aholi turmush darajasi ko'rsatgichlarining 12 ta asosiy guruhi ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan. Ular tarkibiga:

1. Tug'ilish va o'lish darajasi hamda boshqa demografik ko'rsatgichlar.
2. Hayot kechirishning sanitar-gigiyena jihatidan sharoitlari.
3. Oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish.
4. Turar joy sharoitlari.
5. Ma'lumot va madaniyat.
6. Mehnat qilish va bandlik sharoitlari.
7. Aholining daromadlari va xarajatlari.
8. Hayot kechirish qiymati va iste'mol narxlari.
9. Transport vositalari bilan ta'minlanganligi.
10. Dam olishni tashkil etish.
11. Ijtimoiy ta'minot tizimining mavjudligi.
12. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabilar kiritilgan.

Aholi turmush farovonligini ifodalashda "Turmush sifati indeksi" va "Inson kamoloti indeksi"laridan foydalaniladi. "Turmush sifati indeksi" sog'liqni

saqlash holati, ta'lim darajasi, o'rtacha umr kechirish yoshi, bandlik darajasi, ijtimoiy – siyosiy hayotdagi faollik ko'rsatgichlarini o'z ichiga oladi.

“Inson kamoloti indeksi”da aholi jon boshiga to'g'ri keladigan Yalpi ichki mahsulot, Milliy daromad, kutilayotgan umr kechirish yoshi, ta'lim darajasi nazarda tutiladi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida, 2000 va 2015 yillarda qabul qilingan “Ming yillik taraqqiyot” dasturi hamda “2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari” dasturi bevosita dunyo mamlakatlari aholisini iqtisodiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ekologiya buzilishining oldini olgan holda aholining salomatligini asrashga qaratilgan muhim ishlar sirasiga kiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasida davlatimizning barqaror taraqqiyoti, islohotlarning davomiyligi va izchilligini ta'minlashga qaratilgan yangi g'oyalar, amaliy tashabbuslar, loyihalar qatorida aholi turmush darajasini oshirishning keng ko'lamli chora-tadbirlari ham o'rin olgan.

Mamlakatimiz hukumati aholi turmush darajasini o'rta va uzoq muddatda oshirish maqsadida quyidagilarni ko'zda tutadi:

- kuchli va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bu daromadlarni shakllantirish uchun imkoniyatlar va bandlikni kengaytirish bilan to'ldirish;
- iqtisodiyotga xususiy, jumladan, xorijiy investitsiyalarini jalb etish va ularni aholi, birinchi navbatda, kam ta'minlangan guruhlar farovonligi va iqtisodiy o'sish bilan bog'liq bo'lgan sektorlarda rag'batlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- hududlarning, ayniqsa, mineral, xomashyo, mehnat va moliya resurslari salohiyatini hisobga olgan holda qishloq joylarida kompleksli rivojlanishni ta'minlash;
- aholini barcha qatlamlarining bazaviy ijtimoiy xizmatlar, avvalo, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarini kengaytirish va sifatini oshirish;

jamoat va iqtisodiy jarayonlarda ayollarning to'liq ishtiroki va gender tengligini ta'minlash;

- iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish, jumladan, moliyaviy sektorni rivojlantirish va erkinlashtirish uchun tarkibiy va institutsional islohotlarni, shuningdek, bozor institutlarini shakllantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan boshqa o'zgarishlarni chuqurlashtirish.

Garchi islohotlar yillarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya tizimi tufayli jamiyatning daromadlar bo'yicha keskin tabaqalashuvining oldini olishga erishilgan bo'lsada, mintaqalar o'rtasida aholining daromad darajasi bo'yicha farqlanishi saqlanib qoldi.

Kam ta'minlanganlik kompleksli muammo hisoblanadi. Ko'plab mamlakatlar va O'zbekiston tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy o'sish bu – kambag'allikni kamaytirish uchun zarur, lekin yetarli bo'lmagan shart-sharoitlar hisoblanadi. Shu sababdan, aholi farovonligini oshirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va iqtisodiy-siyosiy chora-tadbirlarining kam ta'minlangan shaxslarning manfaatlariga yo'naltirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish zaruratidan kelib chiqadi.

2.4. ANIQ MANZILLI IJTIMOY HIMOYANI TA'MINLASHDA MAHALIY O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING O'RNI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki davridan boshlab, respublika manfaatlari, shart-sharoit va xususiyatlariga yuqori darajada javob bera oladigan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining keng ma'nodagi mazmun mohiyati aholining ijtimoiy himoyalanihini anglatadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlat tomonidan tartibga solib turiladigan iqtisodiyot ekanligi qoidasi asosida ish tutiladi.

O'zbekiston ushbu qoidadan kelib chiqib, murakkab o'tish davrida aholining

ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash, narx-navolarni tartibga solib turish, soliq solish va kredit berishda imtiyozlar yaratish, tadbirkorlik tuzilmalari shakllanishi va rivojlanishini dastakladi, aniq maqsadga qaratilgan tuzilma siyosatini amalga oshirishga qaratdi.

O'zbekiston dunyoning boshqa davlatlaridan farqli o'laroq mamlakatimiz qadriyat va an'analariga sodiq qolgan holda mahalla institutarini yaratdi. Uning asosiy maqsadi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishini tashkil qilish jamoatchilik asosida, yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha kengashlari faoliyati yo'lga qo'yish hisoblanadi. Ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ytakchilik qilib kelmoqda.

Shuning uchun ham 2017-2021 yillarda mamlakatimizda mahalla institutlari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etildi.

Shu jumladan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining ahamiyati mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishida yanada ortdi. Chunki ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan, nochor qatlamlarini yalpi ijtimoiy himoyalash va qo'llab quvvatlash bo'yicha kuchli chora - tadbirlar o'tkazishga qaratildi. Ikkinchi bosqich yalpi ijtimoiy himoyalash tizmidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan tizimiga o'tishga qaratildi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti dastaklarini shakllantirish va milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi hayotiy muhim vazifalarni hal etishga zaruriyat sezildi:

- ✓ daromadlar tengsizligini kamaytirish, aholi keng qatlamlari o'rtasida chuqur tabaqalanishga yo'l qo'yimaslik, o'rta qatlam ulushini ko'paytirish;

- ✓ ichki iste'mol bozorini himoya qilish, aholi birlamchi ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan mahsulotlar oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish va dotatsiyalangan narxlarda sotish;

✓ yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish va qayta kasb olishga yo'naltirish;

✓ aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali kam yo'qotishlar bilan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, ijtimoiy himoyaning aniq manzilliligini ta'minlash;

✓ kam ta'minlanganlar va aholining keng qatlami uchun arzon uy-joylar barpo etish va hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.

O'zbekiston - ijtimoiy adolat davlatidir. Ijtimoiy adolatliligi shundaki, davlat bosh islohotchi sifatida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj nochor qismini qo'llab-quvvatlashga ustuvorlik berildi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj nochor qismini qo'llab-quvvatlashda uning manzilliligini ta'minlashda mahaliy o'zini-o'zi boshqarish organlari qo'l keldi.

Har qanday o'zini adolatli hisoblayotgan davlat ijtimoiy jihatdan nochor aholiga qanday munosabatda bo'lishiga qarab baholanadi. Adolatli davlat fuqarolarini o'z himoyasi ostiga olishi, uning mehnat faoliyati huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlarini ta'minlashishi shart.

Respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan taraqqiyotning "O'zbek modeli" bugungi kunda nechog'lik strategik ahamiyatga egaligi, O'zbekistonning iqtisodiy ravnaqi misolida o'z isbotini topmoqda. "O'zbek modeli" o'z halqining tarixiy tajribasi, an'anaviy madaniyati bilan belgilanadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning "O'zbek modeli" o'zida O'zbekistonning geografik joylashuvi, qulay tabiiy-iqlim sharoiti, boy tabiiy resurslar salohiyati, demografik tavsifi, mehnatkash halqi, qadriyat va an'analari, milliy-tarixiy turmush tarzi, mehnatni tashkil etish shakllari, kabi o'ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtirgan.

Taraqqiyotning o'zbek modeli yuksak iqtisodiy o'sishning intensiv yo'li ustuvorligi, rivojlanishda axborot texnologiyalarining o'rni va ahamiyatining

yuqoriligi, xizmat ko'rsatish sohasining muttasil o'sib borishi, iqtisodiyotning ochiqdigi, erkin tadbirkorlikka keng yo'l ochish orqali bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi bilan belgilanadi.²¹

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishda mintaqaga xos xususiyatlarni hisobga olish qanchalik hamma uchun baravar bo'lgan mushtarak qoidalarni nazarda tutish ham shunchalik muhim bo'ldi. Bu davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, mulkchilik munosabatlarini o'rnatish, monopoliyani inkor etish va raqobatchilik muhitini rivojlantirish masalalariga ustuvorlik berildi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning "O'zbek modeli"ning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, aholining nochor, muhtoj qatlamini aniq va manzilli ijtimoiy himoya qilishga qaratilganligidadir.

Respublikada o'zini-o'zi boshqarish organlari, uning hududlari bo'yicha turlicha, ya'ni qishloq, ovul, qo'rg'on va mahalla fuqarolar yig'inlari deb yuritiladi. Unda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari aholini ijtimoiy himoya qilish masalalarida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali ishtirok etadilar:

❖ ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan, nochor shaxslar va oilalarni (nogiron, ishsiz, ko'p bolali, yolg'iz onalar, pensioner, boquvchisini yo'qotgan) aniqlash;

❖ ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan, nochor shaxslar va oilalarga moddiy yordam va nafaqlar tayinlashni tashkil qilish;

❖ ijtimoiy muammolarni yumshatish va bartaraf etish tadbirlarini amalga oshirish va mahaliy hokimiyatlarga takliflar kiritish;

❖ yosh oilalar va ishsizlarga ijtimoiy yordam choralarini ko'rsatish.

Biroq jahon tajribasidan ham ma'lumki, ijtimoiy himoyaning haddan tashqari ko'payishi aholini boqimandalikka olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12 sentabrdagi PQ-3268 son "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

²¹ To'xliiev N. O'zbek modeli taraqqiyot tamoyillari - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2014.-B.246.

qarori tom ma'noda aholining kam ta'minlangan qismini ijtimoiy himoya qilishda burilish yasadi. Unga ko'ra:

➤ muayyan mehnat turlari bilan shug'ullanish istagi bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga ularning oilalarini yetarli darajada ta'minlash imkonini beradigan, tijorat banklarining imtiyozli foiz stavkasi bo'yicha quyidagi maqsadlarga mikro kreditlar taqdim etish:

- hunarmandchilik faoliyati uchun tikuv mashinalari, gazlamalar va sarflanadigan materiallar, anjomlar, mustaqil shug'ullanishni ta'minlash uchun maishiy texnika, kompyuter va boshqa texnikani, shuningdek turli asboblarni sotib olish;

- shaxsiy tomorqa uchastkalarini rivojlantirish (kichik issiqxonalarini tashkil etish, chorva mollari, parrandalarni sotib olish, qo'ralar va parrandaxonalarni qurish, bog'dorchilik anjomlari va asbob-uskunalarini sotib olish), turar joylarni ta'mirlash.

➤ og'ir uy-joy maishiy sharoitlarda yashayotgan, boquvchisini yo'qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarga quyidagi maqsadlar uchun:

- uy-joyi bo'lmagan yoki avariya holatidagi va juda eski uylarda yashovchi respublikaning har bir tumani va shahridagi o'rta hisobda 2 va 5 ta oilaga 2017 va 2018- yillarda arzon uy-joylarni 10 yil mobaynida davlat ixtiyoriga o'tkazish huquqsiz olish mumkinligi belgilab qo'yildi. Mazkur qarorning mantiqiy davomi sifatida 2019-yil 17- yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon asosida Halq qabulxonalarining mahallalar hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi hududiy, tarmoq va davlat dasturlarini ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilishda ishtirok etishi bunday hujjatlarda murojaatlarda ko'tarilgan muammolar kengroq aks ettirilishi uchun puxta zamin yaratadi.

Dolzarb masala – nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga ko'maklashish masalasi bo'yicha farmonda tegishli vazifalar belgilab berilgan. Bundan buyon davlat organlari va boshqa tashkilotlarning mazkur yo'nalishdagi ishlarini muvofiqlashtirish Halq qabulxonalari tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, yurtimizda istiqomat qilayotgan, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, barcha fuqarolarimizning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini to'liq ta'minlash hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish va hal qilish maqsadida, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni tub ma'nodagi tarixiy hujjat sifatidagi ahamiyatga ega bo'ldi. Harakatlar strategiyasi o'zbek modelining mantiqiy davomi sifatida davlat va jamiyat rivojlanishining mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi. Harakatlar strategiyasi dunyoda tub o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi zamonda siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning eng muhim besh ustuvor yo'nalishini amalga oshirishning besh yilga mo'ljallangan milliy strategiyasidir.

Mamlakatimiz qisqa vaqtda amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar, iqtisodiyotini isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiyalash, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida o'z vaqtida boshlangan, har tomonlama puxta o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan oqilona siyosatning hayotiy mevasidir.

Tayanch so'z va iboralar: ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish, zaruriyati, bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan, ijtimoiy ehtiyojlar

mavjudligi, ijtimoiy siyosatning ta'sirchan va samarali vositalari, aholi turmush darajasi, asosiy indikatorlar, kam ta'minlangan.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zaruriyati:

- A. Davlat manfaatlarining ustunligi bilan bog'liq.
- B. Iqtisodiyotni rivojlantirish zaruriyati bilan bog'liq.
- D. Ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bog'liq.
- E. Mamlakatda barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq.

2. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda qo'llaniladigan davlat siyosati:

- A. Investitsion siyosat
- B. Fiskal siyosat.
- D. Monetar siyosat.
- E. Ijtimoiy siyosat.

3. Ijtimoiy siyosat deyilganda:

- A. Aholini nafaqa va oziq-ovqat bilan ta'minlash.
- B. Daromadlarni taqsimlash, qayta taqsimlash va pul-kredit masalalarini tartibga solish.
- D. Ishsizlikning oldini olish, soliq yukini kamaytirish va aholi o'rtasida kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish.
- E. Ijtimoiy taminot, daromad, ish bilan bandlik masalalari tartibga solish.

4. Aholi turmush darajasini aniqlashtiring.

- A. Aholining moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganligi.
- B. Aholining uy-joy va ish bilan ta'minlanganligi.
- D. Aholining moddiy ne'matlar bilan ta'minlanganligi.
- E. Aholining ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganligi.

5. Turmush darajasi farovonlikni iste'mol va uning natijasi jihatidan o'zaro bog'langan ko'rsatgichlari mavjud?

- A. Qiymat va pul ko'rsatgichlari.
- B. Moddiy va ma'naviy ko'rsatgichlari.

D. Qiymat pul, moddiy va natural ko'rsatgichlari.

E. Natural va madaniy ko'rsatgichlari.

6. Ijtimoiy yordam tizimi – bu?

A. Davlat tomonidan mamlakat fuqarolariga normal hayot kechirishlari uchun sharoitlarni ta'minlaydigan maqsadli kafolatlar tizimidir.

B. Aholini moddiy rag'batlantirish tizimidir.

D. Aholini ma'naviy rag'batlantirish tizimidir.

E. Aholini yashash sharoitlarini yaxshilash tizimidir.

7. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi qachondan amaliyotga tatbiq etildi?

A. 2017-yil 3- fevral.

B. 2017-yil 7-fevral.

D. 2017-yil 17- fevral.

E. 2017 yil 27-fevral.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zaruriyati nimada?

2. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishda bozor va bozor mexanizmlarini aniqlang.

3. Ijtimoiy ehtiyojlar tarkibiga nimalar kiradi?

4. Ijtimoiy siyosatdan ko'zlangan maqsadni tushuntiring.

5. Ijtimoiy siyosatning ta'sirchan va samarali vositalariga nimalar kiradi?

6. Aholi turmush darajasini belgilovchi omillarni gapirib bering.

7. Aholi turmush darajasini oshirishning sifat ko'rsatgichlarini aniqlang.

8. "O'zbek modeli"ni tushuntirib bering.

9. 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini aniqlang.

3-mavzu. SOG'LIQNI SAQLASHNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VA AHOLIGA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNI YAXSHILASHNING NAZARIY TAHLILI

Reja:

- 3.1. Sog'liqni saqlash tizimining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni
- 3.2. Tibbiy xizmatlar bozori va uning amal qilish mexanizmi
- 3.3. Jahon mamlakatlarida sog'liqni saqlash rivojlanishining tavsifi
- 3.4. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh etish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlari
- 3.5. O'zbekistonning tibbiy sug'urtalashga o'tish zaruriyati

3.1. SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI


Sog'liqni saqlash ijtimoiy-iqtisodiy tizimning murakkab va o'ziga xos tarmog'i, ijtimoiy sohaning an'anaviy tarkibiy qismlaridan biri aholining sog'lig'ini saqlash va yaxshilash, davolash va profilaktik tadbirlarni qo'llashdan jamiyatni ijtimoiy totuvlik va iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor qiladi.

O'z navbatida mamlakat fuqarolarining sihat-salomatlik ko'rsatgichlari davlatning qanchalik ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanganligini va qanchalik ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini "Inson taraqqiyoti indeksi"ga muvofiq holda bajarilayotganligini anglatadi.

Fuqarolar sihat-salomatligi darajasi mamlakat milliy boyligining muhim tarkibiy qismi va fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurayotgan mamlakatimizning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, fuqarolar sihat-salomatligini mustahkamlash masalalarining nechog'lik ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda mamlakatimiz hukumati islohotlar davrida sog'liqni saqlash sohasini e'tibordan chetda qoldirmadi.

Sog'liqni saqlash sohasi insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirib, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining bosh elementi

bo'lgan ishchi kuchiga bevosita va faol ta'sir ko'rsatadi, ularning tabiatini o'zgartiradi va yaxshilaydi. Shu bois ham inson sog'lig'i o'ziga xos resurs hisoblanadi. Ushbu resurs ko'p sonli omillar va shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadi (3.1.1-rasm).



3.1.1-rasm. Aholi sog'lig'ini saqlash shart-sharoitlari va omillari

Tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish dolzarb muammolardan biri bo'lib, uning hal etilishi tibbiy xizmatlar rivojlanishining jadallashuvini va aholining sifatli xizmatlardan bahramand bo'lishining bundan keyingi imkoniyatlarini ochib beradi.

Tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish va bozorga xos munosabatlarni vujudga keltirish avvalo uni boshqarish va mavjud salohiyatidan unumli

foydalanib, muntazam takomillashtirib borishni taqozo etadi. Uning o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy hayotda tutgan o'rni nuqtai nazaridan davlatning muntazam nazaroti tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan yordamiga ehtiyoj sezadi.

Sog'liqni saqlash sohasi ijtimoiy xizmatlar sohasining muhim tarmoqlaridan biri sifatida aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatib, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida mamlakatimizda tibbiy xizmatlarning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki rivojlangan bozor sharoitida inson shaxsiga qo'yiladigan talablardan biri insonda zaruriy xususiyatlarning shakllanishidir. Bular sog'lomlik, ruhan tetiklik, iroda, chidam kabi xususiyatlardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi tibbiy xizmatlar holatiga bog'liq.

Sog'liqni saqlash sohasining aholi salomatligini tiklashdagi o'rni insonning sog'lig'ini muttasil tiklab borishda va umr ko'rishining davomiyligini ta'minlashda yuzaga chiqadi.

Biroq aholi sihat-salomatligini mustahkamlash va ijtimoiy ishlab chiqarishdagi nafliligini oshirish muhim muammolardan biri bo'lib, u pirovard natijada mamlakatdagi mavjud ijtimoiy muammolarning yechimi qay darajada hal etilishiga bog'liq.

Sog'liqni saqlash kelajakda iqtisodiy o'sishga erishishning salohiyatli omili va imkoniyati hisoblanadi. Undan unumli foydalanganilgandagina taraqqiyot manbaiga aylanishi mumkin. Shuning uchun tibbiy xizmatlarni zamonaviy mezonlarga javob beradigan darajaga ko'tarish va uning samadorligini oshirish bugungi kunda eng dolzarb, hayotning o'zi talab qilayotgan muhim bir vazifaga aylanmoqda.

Millatning eng katta va qimmat boyligi inson, uning salohiyati sanaladi. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida yangi davr talabiga mos tashabbuskor inson kapitalidek muhim vazifani hal etish masalasi mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq kun tartibiga qo'yildi va ijtimoiy siyosat yurgizildi.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti va sanoatlashgan sharoitda inson sog'lig'ini asrash dolzarb muammoga aylangan. Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishi intensiv samaradorlik hisobiga o'smoqda. Bunga erishishda ishchi-xodimlar ko'plab jismoniy va ruhiy zarbalarga duch kelmoqda.

Noqulay sharoitlarda ishlash, atrof-muhitning ifloslanishi, shovqin-suronlarning ko'payishi, kam harakatlilik, ximikatlardan foydalanish va kundalik turmush sharoiti bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelishi natijasida yurak-qon tomirlari, nafas yo'llari, eshitish organlari asab va kasb kasalliklarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat sog'liqni saqlash tizimining mas'uliyatini yanada oshirmoqda. Kasalligi tufayli ishchi mehnat qobiliyatini yo'qotishi, olgan bilimlarini, kasb mahorati va iste'dodini yo'qotishi, mehnatga munosabati o'zgarishi, kasbiga nisbatan ko'ngli sovishi mumkin. Oqibatda korxonaning ishlab chiqarish salohiyati keskin pasayadi hamda texnologik jarayonlarning ta'minlanishidagi uzluksizliklar buziladi. Shundan kelib chiqib aytganda, ishchi kuchi sifati ma'lum ma'noda uning sog'lig'i bilan o'lchanadi, bu jarayonda uning sihat-salomatligi muhim o'rin tutadi.

Bunday sharoitda sog'liqni saqlash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini nafaqat korxonaga yoki alohida shaxsga nisbatan ko'rish mumkin, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'siri seziladi. Xususan, uning quyidagi yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy ta'sir: mehnat bozori jismonan sog'lom mehnat resurslari o'sishiga o'zgaradi. Bu hol mehnat resurslarining raqobatbardoshligi oshishiga olib keladi va ularga nisbatan talab o'sadi; ikkinchidan, sog'lom teran fikrli xodim mehnat unumdorligining oshishini ta'minlaydi; uchinchidan, insonning mehnat qobiliyatini yo'qotishining oldini oladi va ijtimoiy to'lovlarni kamaytirib, byudjet mablag'larini tejaydi. Ishchi-xodimlarning sog'lig'ini qayta tiklab mehnat safiga qaytaradi;

- demografik ta'sir: mehnat bozorida ishchi kuchi muvozanatini saqlaydi. Aholining umr ko'rish darajasini oshiradi, mehnat safida iqtisodiy faol aholining

faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi;

- ijtimoiy ta'sir: aholi sog'lig'ining mustahkamlanishiga va ular orasida turli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini oladi;

- madaniy ta'sir: aholida tibbiy madaniyatning shakllanishiga va sog'lom hayot kechirishga yo'naltiradi. Insonning yashashga, ishlashga, o'qishga va dam olishga qiziqishini oshiradi.

Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi bilan ishchi kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish o'rtasida obyektiv bog'liqlik mavjud. U ijtimoiy takror ishlab chiqarish muammolari tizimida alohida o'rin egallaydi. Chunki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, unda ishtirok etayotgan barcha omillarga bog'liq. Ushbu omillar orasida inson muhim o'rin tutadi. Birinchidan, inson tovar va xizmatlarning yaratuvchisi bo'lib hisoblanadi; ikkinchidan, inson boshqa omillar bilan o'zaro muvofiq bog'liqda boshqalarning ehtiyojini qondiradigan ne'matlarni yarata oladi. Sog'liqni saqlash tizimining ishchi kuchini takror ishlab chiqarishdagi roli sog'lig'ini tiklash va harakatchanligini oshirishda namoyon bo'ladi. Sog'liqni saqlashda yaratilgan boyliklar birdan ko'zga tashlanmaydi.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimida paxta yakka hokimligi natijasida yerga turli xil kuchli kimyoviy o'g'itlar keragidan ortiqcha solinishi oqibatida aholining kasalliklarga chalinishi ko'payib ketganidi va inson sog'ligiga salbiy ta'sir o'tkazgan edi.

Sog'liqni saqlashni boshqaruv xaddan tashqari markazlashgan bo'lib, uning ko'plab imkoniyatlari cheklanganidi. Moliyalashtirish davlat byudjeti zimmasida bo'lib, sog'liqni saqlashda kengaytirilgan ishlab chiqarishning boshqa qatnashchilari mas'uliyatini oshirishdagi imkoniyatlari kamaytirilganidi. Tarmoqda xususiy sektor faoliyatiga to'sqinlik qilinib, raqobatsiz sharoitda faoliyat ko'rsatdi. Bu holat aholining sihat-salomatligini mustahkamlashda va umr ko'rish davomiyligining o'sishida ko'plab davlatlardan orqada qolishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi zamonaviy sharoitda sog'liqni saqlashga bunday munosabatda bo'lish, inson kapitalini rivojlantirishdek muhim vazifalarning hal etilishida

samarali natijalarga erishib bo'lmaydi.

Aholining ijtimoiy salohiyatini xususan, sog'lig'ini mustahkamlash fan, madaniyat va iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartidir. Hozirgi texnika-texnologiya taraqqiyoti insondan yuqori darajada malaka va mahorat talab qilayotganligi, sog'liqni saqlash tizimining ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, raqobatbardoshligini oshirish, uning jismoniy va aqliy qobiliyatini saqlashdek muhim vazifalarni bajarishiga yaqindan yondashishni talab qilmoqda. Bunda sog'liqni saqlash sohasi kishilarni ijtimoiy ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi qilib shakllantirishi unga zarur bo'lgan sog'lig'ini tiklashi va mustahkamlashda amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasi o'zida ulkan moddiy va mehnat resurslarini jamlagan, ijtimoiy sohaning muhim tarmog'i u moddiy buyumlar ishlab chiqarimasada, bevosita iqtisodiy munosabatlar tizimida ishtirok etib, ishchi xodimlar mehnat qobiliyatining oshishiga sharoit yaratib, mehnatga bo'lgan munosabatini rag'batlantiradi. Shu boisdan mamlakatimizda inson hayoti uchun zarur sohalardan biri sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini takomillashtirish va sifatini yaxshilashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Insonning sifatli rivojlanishida va mehnat faoliyatida uning salomatlik darajasi muhim o'rin tutar ekan, bu hol faqatgina mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va sanitariya-gigiyena qoidalari sifatli aks ettirilishining asosiy ko'rsatkichi emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti madaniyat, mehnat, mudofaa va halq farovonligi omilining tarkibiy qismiga aylanishi kerak.

Aholining salomatlik holati va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ishtiroki, quyidagi aniqlovchi ko'rsatkichlar tizimida tavsiflanadi:

- aholining takror ishlab chiqarish xususiyatlari (demografik tavsifnoma);
- jismoniy kuchlar yoki ishga layoqatlilar zaxirasi (aholining fiziologik rivojlanishi ko'rsatkichlari);
- aholining atrof-muhit sharoitlariga moslashishi xususiyatlari holati va faoliyati;

•tibbiy yordam ko'rsatuvchi davolash muassasalari tarmog'ining holati va faoliyati.²²

Mamlakatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi fuqarolarning malakali tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va o'z navbatida sog'lom fuqarolar mamlakat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shadi. Aksincha nosog'lom va to'la shakllanmagan fuqarolar iqtisodiy o'sishning yuksak sur'atlarini va farovonlikni ta'minlashga layoqatli emas. Salomatlik-insonning sifatii ko'rsatkichi, farovonligi va hayot darajasidir. Shu jihatdan salomatlik inson kapitalini rivojlantirish maqsadlari bilan uzviy bog'liq. Salomatlikning yaxshilanishi fuqarolarning ishlab chiqarishda qatnashishiga va faravon turmush tarziga sharoit yaratadi. Faqat sog'lom kishigina ijodkorona yuksak unumli mehnatga layoqatli bo'ladi.

Hozirgi vaqtda sog'liqning zamonaviy talqini nafaqat insonning jismoniy nuqsonsiz yoki kasal emasligini ifodalaydi, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy yetuklik holatini o'z ichiga oladi. Bu hol ushbu tushunchaga yaxlit yondashishini aks ettiradi. Aholi sog'lig'i darajasini aniqlashda butun ko'rsatgichlar tizimi yoki "Salomatlik indeksleri" asosida xulosa qilinadi.

Ko'plab iqtisodchilar va tahlilchilar tomonidan XXI asrda sanoatning barqaror rivojlanishida eng avvalo, intellektual salohiyat, jismoniy va aqliy qobiliyatlarga ishlab chiqarishning muhim resursi sifatida yetakchilik qilishini ta'kidlashmoqda. Ayni paytda rivojlangan davlatlarda YaIMning 70 dan 85 foizgacha o'sishi yangi bilimlar va texnologiyalarning o'zlashtirilishi hisobiga erishilmoqda.²³

Shunisi aniqki, yangi bilimlar va texnologiyalarni sog'lom va teran fikrli kishilarga o'zlashtirishi mumkin. Faqat sog'lom va bilim darajasi yuqori kishilarga mamlakatning iqtisodiy va ilmiy texnikaviy taraqqiyotni ta'minlashga qodir.

²² Saidov K.S. Siytmuratov R.A. va boshqalar. Sotsial iqtisodiyot -T.: "O'zbekiston", 2006. - B. 226.

²³ Социальная сфера в рыночных условиях. Под ред. Жильцов Е.Н. Ломанова П.Н. -М.: ТЕИС, 2004. -27 с.

Sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishning halqaro tajribasi tibbiy xizmatlarning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Sog'liqni saqlash faoliyatida inson sog'lig'idek masala turganligi bois davlat tomonidan nazorat qilinadi va uni moliyalashtirishga alohida ahamiyat beriladi.

O'tgan asrning 80-yillarida sanoati rivojlangan ayrim mamlakatlarda sog'liqni saqlashga sarflanadigan umumiy xarajatlarni qisqartirish to'g'risidagi masala katta tashvish keltirib chiqardi. Natijada sog'liqni saqlashni e'tibordan chetda qoldirmaslik zaruriyati o'z tasdig'ini topdi.

Sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini kamaytirishda sog'lomlashtirish tadbirlari behad muhimdir. Rivojlangan mamlakatlarning sog'liqni saqlashga va ijtimoiy to'lovlarga ajratadigan xarajatlari ham nisbatan kam bo'ladi. Negaki, kasalliklarni davolashdan ko'ra, profilaktikaga kamroq xarajat ketadi.

Aholini sog'lomlashtirish tadbirlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati umumiy kasallanish darajasining pasayishida, aholi orasida o'lim darajasining pasayishi, turli ijtimoiy muammolarning hal bo'lishida hamda ishchi xodimlarning mehnat qobiliyatini yo'qotishi va nogironlik nafaqalari tayinlashi kabi holatlarning kamayishida namoyon bo'ladi. Vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotish holatining kamayishi, aholi sog'lig'ining mustahkamlanishi hamda ishchi xodimlarning mehnat faolligi va mehnat unumdorligining oshishi yoxud umum ishlab chiqarish samaradorligi sog'liqni saqlash tizimining muhim alomatidir.

O'zbekistonda tibbiy xizmatlar muammosiga rivojlanayotgan mamlakatlarning halqaro tajribasi jihatidan qarasaq, bu yerda sog'liqni saqlashning quyidagi ijobiy omillari: yalpi qarilik darajasining pastligi, profilaktik tadbirlarning ta'sirchanligi, yaqin kelajakda aholining nisbatan sekin sur'atlar bilan qarishi, tibbiy xizmatlarning real iste'mol darajasining pastligi; tibbiy xizmatlarning nisbatan yaxshi rivojlangan infratuzilmasi, tibbiy xizmatlar bilan amalda to'la qamrab olingani sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni larzalarsiz va qisqa muddat ichida muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Shu jumladan, sog'liqni saqlashda bozor munosabatlarini rivojlantirish mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi evaziga daromadlarining oshayotganligi, aholining ish haqi va nafaqa pullarining mutassil o'sib borayotganligi tibbiyotda pullik xizmatlar shakllanishini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida aholiga tez shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish ijtimoiy xavfli kasalliklarga qarshi kurashish, yosh bolalar va bemorlarning imtiyozli toifalarini himoya qilish hamda profilaktik tadbirlarning ustuvorligi saqlanib qoladi.

Tibbiy xizmatlar sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatining oshishiga va zamonaviy fan-texnika yutuqlarini hayotga tadbiq etib, tibbiyot sohasida jahon muammolariga aylangan kasalliklarga davo topishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda sog'lom turmush-tarzining qaror topishiga, aholining uzoq va farovon umr ko'rishiga, aholining ish joylarida samarali mehnat qilishiga zamin yaratadi.

3.2. TIBBIY XIZMATLAR BOZORI VA UNING AMAL QILISH MEXANIZMI

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mazkur sektorning iqtisodiyotdagi ulushini ko'paytirish mamlakatimiz taraqqiyotining eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytda ushbu sektorni rivojlantirmay turib, milliy iqtisodiyotni yuqori pog'onalariga ko'tarish, insonning qulay va faol yashashini ta'minlash kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilib bo'lmaydi. Shu bois ham iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga mamlakatimiz hukumati tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Biroq tibbiy xizmatlar sohasida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishiga qaramay, bu sohada yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar bilan solishtirganda, tibbiy muassasalarni bozor iqtisodiyotiga xos shakllantirish va mulkchilik ko'rinishlarini o'zgartirishning yetarli natijalariga erishilgani yo'q.

Mazkur sohada davlat sektori bilan xususiy sektor bir birini to'ldirib turishi maqsadga muvofiqdir. Chunki sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorning rivojlanishi ko'plab moliyaviy muammolar bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etish bilan birga sohani erkinlashtirish, unda haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy investitsiyalarsiz va raqobat muhitisiz tibbiy xizmatlar bozorida biron bir jiddiy o'zgarishlarga hamda rivojlanishga erishib bo'lmaydi.

Sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish bo'yicha og'ir yuk davlat byudjeti zimmasida bo'lib, undan ajratilayotgan mablag'lar aholining tibbiy xizmatlar bo'yicha o'sib borayotgan ehtiyojini to'laroq qondirish, sohaga fan-texnika yutuqlarini keng joriy qilish, tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini bera olmaydi.

Mamlakatimiz mulkchilikning turli shakllariga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tishida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni turli xil shakl va usullarda amalga oshirishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyati orqali mulkchilik munosabatlari shakllanib, mulkdorga foyda keltiradi. Shuning uchun ham, tadbirkorliksiz bozor iqtisodiyotini, bozor tizimi harakatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Xususiy mulk, bozor munosabatlari, tadbirkorlik bir-birlari bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni ifodalovchi tushunchalar bo'lib, bozor munosabatlari xususiy mulk asosida tashkil topadi va tadbirkorlik faoliyati vositasida harakatga keladi. Shu jihatdan, tadbirkorlik iqtisodiy sub'ektlarning o'z iqtisodiy faoliyatlarini tashkil etish, yuritish erkinligini ifodalaydi va bozor iqtisodiyotida xo'jalik yuritishning asosiy sub'ekti hisoblanadi. Ular erkin bozorda samaradorlikka erishishni ta'minlaydigan iqtisodiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatidan kelib chiqqan holda, sog'liqni saqlash tizimiga xususiy investitsiyalarni jalb etish bilan tibbiy xizmat sifatini oshirish va raqobat muhitini yaratishga

intilinmoqda.

Halqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, xususiy tibbiyot faqat tibbiy sug'urta bilan bog'liq emas. Xususiy statsionar va ambulator klinikalar, poliklinikalar, shifokorlarning xususiy muassasalari ishlab turishini taqozo etadi. Shu maqsada respublikamizda sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorning rivojlanishidagi huquqiy baza takomillashtirilmoqda va bu borada ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasida xususiy tadbirkorlikning shakllanishidagi huquqiy baza mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini erkin tanlash, bu shakllarning teng huquqlilik asosida amal qilishi, o'zaro hamkorlik va erkinlik, raqobatlashuvni ta'minlaydigan tadbirkorlik faoliyatini tartibga keltiruvchi sharoitlarning yaratilishiga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasi xususiy tadbirkorlik qonunchiligi uchun yuridik baza bo'lib hisoblanadi. Chunki ushbu moddaga binoan bozor munosabatlariga asoslangan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil mulk shakllari tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini e'tiborga olib, iqtisodiy faoliyati, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllari teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Shu jihatdan xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi dahlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.²⁴

Tibbiyot sohasida xususiy sektorni rivojlantirish va rag'batlantirish vazifalari asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 1.04.2017 yildagi "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2863-son qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T.: O'zbekiston. 2014. – B.11.

Unga ko'ra, xususiy tibbiyot muassasalari uchun ruxsat etilgan tibbiy faoliyati turlarini, jumladan kardiojarrohlik, neyrojarrohlik, mikrojarrohlik, onkologiya, endokrinologiya, kardiologiya, qon-tomir, torakal va abdominal jarrohlik, urologiya va boshqalarni tubdan kengaytirish ko'zda tutilgan, aholi hayoti, salomatligi va sanitariya-epidemiologik holatiga katta xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan sohalar bundan mustasno. Bunda xususiy klinikalarda tashxis qo'yish va davolash, ayniqsa, jarrohlik amaliyotini o'tkazish bilan bog'liq hollarda yangi yuqori texnologiyali usullarni joriy etish faqat tegishli tibbiyot uskunalari, yuqori malakali tibbiyot xodimlari mavjud bo'lganda va sanitariya norma hamda qoidalariga qat'iy rioya etilgandagina ruxsat etiladi. Stomatologiya va kosmetologiya tashkilotlaridan tashqari xususiy tibbiyot tashkilotlari 2022-yilning 1-yanvarigacha barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalar, shuningdek, olib kelinadigan yangi tibbiyot asbob-uskunalar, butlovchi buyumlar, ularning ehtiyot qismlari va boshqa jihozlar uchun bojxona to'lovlarini to'lashdan ozod etildi.

Ustuvor yo'nalishlar aniqlashtirilib, tibbiy xizmatlar xususiy sektorini rag'batlantiruvchi choralar tasdiqlandi:

Birinchidan, 2017-yil 1-maydan sog'liqni saqlash sohasida kichik korxonalar xodimlari yillik o'rtacha cheklangan sonining 100 kishigacha bo'lishi belgilandi.

Ikkinchidan, foydalanilmayotgan binolar, ob'ekt va xonalarni, ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimida tugatilayotgan muassasalarning davlat mulki bo'lgan ob'ektlarini aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatadigan tadbirkorlik sub'ektlariga "nol" qiymati bo'yicha sotiladi, bunda yangi mulkdor investitsiya kiritish va ijtimoiy majburiyatlarni zimmasiga oldi.

Uchinchidan, "O'zmed-lizing" ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi ustav kapitalini ko'paytirish orqali, jumladan, xorijiy investorlar mablag'larini jalb etish hisobidan tibbiyot muassasalariga zamonaviy yuqori texnologiyali asbob-uskunalar xarid qilish va lizingga berish hajmi kengaytirildi.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan sog'liqni

saqlash sohasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ularning xususiyatlariga ancha mos keladigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga keldi.

Tibbiy xizmatlar bozorida faoliyat ko'rsatayotgan xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini oshirib borishga qaratilgan chora-tadbirlar muayyan samara berayotgani aniq sezilmoqda. Tibbiy xizmatlar bozorining milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda mamlakatda bu sohani jadal rivojlantirish bo'yicha ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi o'sib, u asosan klinika, dorixona, maslahat, tashxis qo'yish va boshqa turli tibbiy xizmatlar hisobiga ro'y bermoqda. Bu ishlar quyidagi shart-sharoitlarga muvofiq amalga oshirilmoqda:

- mamlakatda qulay siyosiy-iqtisodiy sharoitning mavjudligi;
- yangi turdagi xizmatlarni taqdim etmoqchi bo'layotgan tadbirkorlar guruhining shakllanayotganligi;
- tibbiy xizmatlar sohasida xususiy mulkchilikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy bazaning takomillashtirilayotganligi;
- aholi tarkibida sifatli xizmatlarga bo'lgan talabning o'sayotganligi;
- tibbiy xizmatlarni bozor munosabatlariga xos rivojlantirish zaruriyati;
- respublikada xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam aloqaning o'rnatilganligi.

Ushbu shart-sharoitlar doirasida aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish maqsadida pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatish tizimi bilan birgalikda, nodavlat muassasalar doirasi kengayib bormoqda. Bunda tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini takomillashtirish va raqobat muhitini shakllantirish hamda aholini dori-darmonlar bilan ta'minlashning tartibga solinishi, davolash muassasalarini zamonaviy tibbiy texnika, asbob-uskunalar bilan ta'minlash, tibbiy xizmatlar turi va shakllarini kengaytirishni nazarda tutish muhim vazifa etib belgilangan.

Xususiy muassasalarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati quyidagi ko'rsatgichlar orqali tavsiflanmoqda:

1. Ro'yxatdan o'tgan, faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalar soni.
2. Mazkur sohalardagi xususiy korxonalarning YaIM dagi ulushi.
3. Ularning aholining ish bilan bandligidagi ulushi.
4. Mazkur korxonalarning xizmatlar eksportidagi ulushi.
5. Ko'rsatilayotgan xizmatlarning hududiy hissasi
6. Ko'rsatilayotgan xizmatlarning aholi zichligi va joylashishi bo'yicha hissasi.

Tibbiy xizmatlar sohasida xususiy sektorni rivojlantirish iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Hozirgi paytda tibbiy xizmatlar bozorining xilma-xilligini, keng ko'lamliligini, uning turli xizmatlar bilan to'lib borayotganligini tahlil qilishning o'ziyoq, xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tibbiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi xususiy sektorning respublika iqtisodiyotini rivojlantirishdagi alohida o'rnini ko'rsatuvchi quyidagi jihatlarini keltirish mumkin:

birinchidan, tibbiy xizmatlar sohasida xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, daromad va mehnat manbai hisoblanib, soliq va boshqa to'lovlar hisobiga byudjet tushumlarini ko'paytiradi, aholining bir qismini ish bilan band etadi;

ikkinchidan, tibbiy xizmatlar sohasida xususiy tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun nisbatan kam moliyaviy resurslar talab qilinadi. Shu bois bular bankrotlik holatida ham jamiyat uchun fojiiyaviy iqtisodiy oqibatlarga olib kelmaydi;

uchinchidan, tibbiy xizmatlar sohasida xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bozor uchun zarur raqobatchilik muhitini yaratadi;

to'rtinchidan, xususiy tadbirkorlikka tejamkorlik, chidamlilik xususiyati xos bo'lib, xizmat tannarxini kamaytirish orqali u sifatli va arzon xizmat ko'rsatish evaziga tibbiy xizmatlar bozorini to'yintiradi. Bir xizmatning haddan tashqari ko'p ko'rsatilishi, ikkinchisining taqchil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi;

beshinchidan, tibbiy xizmatlar sohasining davlatga qarashli muassasalarida moliyaviy manbalarni kengaytiradi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi va yangilaydi hamda xodimlar maoshini oshirishga imkoniyat yaratadi;

oltinchidan, sog'liqni saqlash sohasida xususiy tadbirkorlik faoliyatining amal qilishi, tibbiyot xodimlari ongida tadbirkorlik psixologiyasining shakllanishini rag'batlantiradi, ya'ni mehnatning mulkdan ajralishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha ularning o'zaro uyg'unlashuviga imkon beradi;

yettinchidan, manfaatdorlikning ustunligi tufayli faoliyat yuritayotgan tadbirkor boshqalardan va davlat muassasalaridan o'zishga harakat qiladi.

Xususiy sektor sog'liqni saqlash sohasi taraqqiyotini ta'minlaydi, tibbiy xizmatlar taqchilligini bartaraf etishda u katta rol o'ynaydi. Tibbiy xizmatlarga aholi talabi jadal o'sayotgan bir paytda, sohada xususiy tadbirkorlik tizimini vujudga keltirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- sohada mulkchilikning yangi shakllarini yuzaga keltiradi;
- sohaga yangi texnika va texnologiyalarning joriy qilinishini ta'minlaydi;
- soha xodimlarining kasb mahoratini oshiradi;
- tibbiy xizmatlar bozorini to'yintiradi;
- ishlab chiqarish va tibbiy xizmatlar sohasini aholiga yaqinlashtiradi;
- muomila ish yuritish va xizmat ko'rsatish madaniyatini o'stiradi;
- xodimlar daromadini oshiradi;
- byudjet mablag'lari taqchilligining oldini oladi va tejaydi;
- mamlakatda ishsizlik muammosini yumshatadi;
- milliy an'anaviy tibbiy xizmatlarni tiklaydi;
- tibbiy xizmatlarning eksport hajmini oshiradi;
- ijtimoiy munosabatlarni qaror toptiradi.

Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektor bilan davlat sektorining paralel rivojlanishi natijasida nafaqat moliyaviy yetishmovchiliklar muammosi, balki aholi davlat yoki xususiy muassasaga bo'lgan tanlov imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasidagi xususiy sektorni va byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish bilan bog'liq olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va sa'y-harakatlar o'zining samarasini beradi, kelgusida mamlakatimiz sog'liqni saqlash sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

XXI asrda O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga munosib tarzda kirib borishida xususiy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab biznes tahlilchilari va tadqiqotchilar XXI asrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotining asosiy harakatga keltiruvchi kuchi bo'lishini taxmin qilishmoqda. Shu bilan birga xususiy tadbirkorlik ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyotning dinamik qismiga aylanib, milliy iqtisodiyotning poydevori hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u har qanday davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab yashnashining asosiy negizi bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning tayanch sohasi sifatida tan olingan. Yalpi milliy mahsulotning o'sish sur'atlari hal qiluvchi darajada aynan ularga bog'liq hamda aholining farovonlik darajasi ham uning qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

3.3. JAHON MAMLAKATLARIDA SOG'LIQNI SAQLASH RIVOJLANISHINING TAVSIFI

O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish holatida yoxud bozor munosabatlari shakllanishida oldin uchramagan va bir qancha jarayonlarning vujudga kelganligi sababli xorijiy davlatlarda sog'liqni saqlashni rivojlantirishga oid tajribalarini o'rganish va milliy iqtisodiyotga tadbiq etish muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Chunki jahonning ko'plab mamlakatlari bu sohada amaliy va nazariy tajribalarga ega bo'lib, ularda bu sohada yuqori natijalarga erishilganligi kuzatiladi.

O'zbekistonda tibbiy xizmatlarni samarali rivojlantirish salohiyatli imkoniyatlarining mavjudligi rivojlangan mamlakatlar ko'rsatgichlariga erishish bo'yicha tajribalarni o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan ko'plab xorijiy mamlakatlar tajribasida tibbiy

xizmatlar ko'rsatish davlat ta'siri doirasida amal qilmoqda. Masalan, Janubiy Koreya respublikasida hukumat tibbiy xizmat turlari va tibbiy sug'urta dasturi doirasida bo'lishi lozim bo'lgan narxini qattiq tartibga solib turadi.

Tibbiy xizmatlar narxlarining davlat tomonidan belgilanishi tufayli tibbiyot muassasalari malakali kadrlar tashxis va davolashning yangi usullarini taklif qilgan holda o'zaro raqobatlashuvga majburdir.²⁵

Yaponiya sog'liqni saqlash sohasi o'zining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va xizmat sifatini oshirish evaziga bolalar o'limi kamayganligi va aholining umr ko'rish darajasi oshganligi bilan ajralib turadi shu bilan birga sog'liqni saqlash tizimi xarajatlari boshqa iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kam (yalpi milliy mahsulotning 7 foiziga yaqini) shunday bo'lsada, mamlakatdagi deyarli barcha aholi daromadlariga bog'liq bo'lmagan holda tibbiy xizmatlardan bir xil foydalanish mumkin.²⁶

Yaponiyada tibbiy xizmat aholining asosiy ko'pchilik qismi uchun pullik hisoblanib, faqatgina ayrim toifa kasallik turlari va 70 yoshdan oshgan qariyalar bepul davolanishi yoki qisman to'lov imtiyoziga ega bo'lishi mumkin. Davolash muassasalarining 80 foizi xususiy bo'lib, kasalxonadan tashqari xizmatlarning deyarli barchasi ular tomonidan ko'rsatiladi. Biroq boshqa ko'plab rivojlangan mamlakatlardagidek, Yaponiyada ham aholi sog'ligini saqlashda davlat muhim rol o'ynaydi va sog'liqni saqlash tizimini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida sog'liqni saqlash tizimini boshqarishda xo'jalik yuritishning uchta asosiy tizimi yuzaga keldi. Bular milliy, bozor va ijtimoiy sug'urta tizimlari hisoblanadi. Milliy tizimda bepul ixtisoslashgan tibbiy yordamlar ko'rsatiladi. Bozor tizimida esa sog'liqni saqlash muassasalari ham xo'jalik yuritishda bozor sharoitidagi boshqa korxonalardek, faoliyat yuritadi. Ijtimoiy sug'urta tizimida sog'liqni saqlashning individual xarajatlari to'g'risida ma'lumotlar yig'iladi va davolash imkoniyatlari haqida iqtisodiy baho beriladi.

²⁵ Vaxabov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar-T.: "Sharq". 2003. – B.130.

²⁶ Нажмитдинов О.М. Современные национальные системы (модели) здравоохранения. //O'zbekiston tibbiyot jurnali. -T.: 2003. -№1-2, 2004. - B.177.

//O'zbekiston

Ammo mazkur uch tizim turli davlatlarda amal qilish xususiyatlari bilan turlicha tavsifga ega.

Xususan, sobiq GDR bilan GFR qo'shilgandan so'ng davlatga tegishli kasalxona va poliklinikalarda ishlab kelgan tibbiyot xodimlari qiyin ahvolda qolishdi. Chunki ular mehnat natijasidan qa'tiy nazar barqaror ish haqi olishga o'rganib qolgan edilar. GFR qonunchiligiga asosan tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy shakli xususiy vrachlik amaliyoti hisoblanar edi. Natijada, islohotlarning beshinchi yilida vrachlarning 90 foizi xususiy amaliyotchi maqomini olishdi va xamshiralarning aksariyati yollanib ishlay boshladilar.²⁷

Tibbiy sug'urta tizimining amal qilishida AQSh tajribasi tahsinga sazovardir. Sog'liqni saqlash sohasida AQShda moliyaviy tizim sifatida tibbiy sug'urtadan keng foydalaniladi. Tibbiy polis aholining to'lov badali miqdoriga muvofiq davolanish huquqini beradi. AQShda tibbiy sug'urta tizimining muhim tomoni shundaki, ham davlat sug'urtasi ham xususiy sug'urta amal qiladi. Davlatning tibbiy sug'urtasi faqat - davlat xizmatchilari, aholining nochor qatlami va kam ta'minlangan qariyalar kabi aholining ma'lum toifalari uchun tarqalgan.

Aholining kam ta'minlangan qismi uchun tibbiy yordam ko'rsatishda davlatning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida 1996-yilda Federal davlat dasturlari qabul qilingan. "Medikeyr" (65 yoshdan yuqori va ayrim mehnatga layoqatsizlar uchun) va "Medikeyd" (aholining kam ta'minlangan qismi uchun).

Xususiy sug'urta kompaniyalari esa aholiga tibbiy sug'urtaning turli xillarini taklif etadi va aholi sog'ligini saqlash bilan bog'liq sug'urta xarajatlarining 60 foizini qoplaydi. Qolgan 20 foizi davlat fondlari hamda qolgan 20 foizi esa, sug'urta tizimining aralash qismi orqali moliyalashtiriladi.²⁸

AQSHda sog'liqni saqlash tizimining muhim jihati uning xususiy tibbiy sug'urtaga asoslanganligi bo'lib, u davlat tomonidan boshqarilmaydi. AQShda kasalxonalarining 3 guruhi faoliyat yuritib, bular davlat, xususiy daromadli va

²⁷ Жильцов Е.Н. Ломанова И.П. Развитие отраслей социальной сферы в переходной экономике. - М.: "ТЕИС". 2004. - С. 107.

²⁸ Хашимов П.З. Экономика социальной сферы -Т.: "Университет". 2002. - С.105.

xususiy daromadsiz kasalxonalar hisoblanadi. Xususiy daromadli kasalxonalar xarajatlarning katta qismi tibbiy sug'urta orqali qoplanadi. Davlat kasalxonalari esa, federal hukumat va shtatlar tomonidan moliyalashtiriladi. Daromadsiz xususiy kasalxonalar xayriya jamiyatlari va har xil jamg'armalarni jalb qilish bilan mahalliy munitsipal organlar tomonidan tashkil qilinadi. Uning daromadsizlik maqomi soliq to'lovlaridan ozod bo'lish huquqini beradi.

Shvetsiyada sog'liqni saqlash sohasi ko'proq bepullik tamoyiliga asoslansada, xususiy sektor ham amal qiladi. Ammo ularning ko'pchiligi ambulatoriya tavsifiga ega.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, madaniy-maishiy xizmatlar rivojlanishining xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, xilma-xil va boy mazmunga egaligini ko'ramiz.

XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab Yevropa mamlakatlarida sanoatlashuv va shaharlarning kengayishi ijtimoiy xizmatlar bozorining ixtisoslashuviga olib keldi.

Yo'lovchi transporti, savdo va umumiy ovqatlanish, madaniy-maishiy xizmatlar va davriy nashrlar kishilar kundalik hayotining bir qismiga aylandi.

Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar Buyuk Britaniyada 1948 yildan boshlanib "Sog'liqni saqlash milliy xizmati" tashkil etildi. Uning faoliyatidagi asosiy tamoyil tibbiy yordam bemorlarga ularning to'lov qobiliyatiga qarab emas, ehtiyojiga qarab ko'rsatilishi kerak edi. Bugungi kunga qadar bu qoida takomillashtirilib tizimni yaxshilashga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Masalan, retsept bo'yicha berilayotgan dori-darmonlar avval bepul edi, keyinchalik hukumat qisman to'lov tizimini joriy etdi. Davlat muassasalari qatorida xususiy tibbiy xizmatlar ko'rsatish tizimiga keng yo'l ochilib ular faoliyatini belgilovchi me'yorlar o'rnatildi. Sog'liqni saqlash vazirligi islohotlarning borishini tartibga soldi va boshqarib bordi.

Iqtisodiyoti rivojlangan ko'plab Yevropa, Osiyo va Amerika davlatlarida sog'liqni saqlash sohasi strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoq hisoblanadi.

Aholi barcha qatlamlarining tibbiy xizmatlardan adolatli va teng bahramand bo'lishini hal etishga intilinmoqda. Mazkur mamlakatlarda asosan pullik xizmatlar aholining xarid qila olishi mumkin bo'lgan ambulatoriya-poliklinika tizimida davolash keng qo'llanilmoqda. Yotib davolanuvchilar soni o'rtacha 4-5 kunga kifoyalanmoqda va 50 foizgacha bo'lgan jarohlik ishlari kunlik statsionarda bajarilmoqda.²⁹

Qozig'iston Respublikasida ta'lim va tibbiy xizmat qo'rsatishning barcha fuqarolar uchun kafolatlanadigan minimumi belgilanib, ularning pulli shakllari ham ortib bormoqda. Yoxud ijtimoiy xizmatlar sohasini moliyalashtirishning istiqbollari alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, ijtimoiy bozor tizimiga moslashgan sog'liqni saqlash tizimini yaratish, aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifati va hajmini tubdan yaxshilash choralari ko'rilmogda. Bular tarkibiga tibbiy sug'urta kiradi va u quyidagilarni taqozo etadi:

- mamlakatda tibbiy xizmatlarning butun aholi uchun ochiqligi kafolatlanadi;
- tibbiy muassasalar faoliyatining moliyaviy asosi ish haqini bir tekis berishdan unga tabaqalashtirib yondashish tomon tubdan o'zgarimoqda, bu hol mehnat natijasidan manfaatdorlikni oshiradi;
- bemorlarda shifokorlarni tanlash imkoniyatining paydo bo'lishi-bu tibbiy xizmatlar sifati oshirishga ko'maklashuvchi raqobatning shakllanishiga olib keladi.

Sog'liqni saqlashni rivojlantirishning "moliyaviy stsenariysi" byudjet-sug'urta stsenariysi sifatida belgilangan, bu stsenariy moliyaviy ta'minot byudjet xarajatlari, majburiy tibbiy sug'urtalash fondi va qisman fuqarolarning shaxsiy mablag'lari (pulli tibbiy xizmatlar va ixtiyoriy tibbiy sug'urtalash) hisobidan amalga oshiriladi.³⁰

²⁹ Нажмитдинов О.М. Современные национальные системы (модели) здравоохранения. //O'zbekiston tibbiyot jurnali. -T.: 2003. -№1-2, 2004. - B.176.

³⁰ Vaxabov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar-T.: "Sharq". 2003. – B.149-150.

Sog'liqni saqlash sohasi rivojlangan chet mamlakatlar tajribasidan ko'rinadiki, sohani rivojlantirishda miqdoriy ko'rsatgichlardan sifat ko'rsatgichlarga ustuvorlik berilayapti.

Shu tariqa hozirgi muayyan bozorlarda ro'y berayotgan jarayonlarni chuqur o'rganish hisobiga sifatli va yangi xizmatlar taklif etishni to'xtovsiz oshirib borish muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda iqtisodiyoti rivojlangan, bu borada katta yutuqlarga erishgan chet mamlakatlar tajribasini o'rganish yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishni boshqarishda jahon andozalariga mos ilg'or tajribalarga tayanish bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega.

3.4. O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI ISLOH ETISH BOSQICHLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

Aholi sog'lig'i-bu tibbiy xizmatlarni sifatli tashkil qilish va uni rivojlantirish darajasini, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salohiyatini o'zida aks ettiruvchi ko'rsatgichlar majmuidir.

Inson manfaatini ustun qo'yayotgan O'zbekistonda insonga g'amho'rlik qilish, uning farovon va uzoq yashashini ta'minlash vazifalari ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari qatoridan joy olgan.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mutlaqo yangicha mohiyat kasb etadigan sog'liqni saqlashni tubdan isloh etishda sog'lom avlodni tarbiyalash va tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi pog'onaga ko'tarish g'oyasini ilgari surdi va davlat siyosati darajasiga ko'tardi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, respublikada jahon andozalari talablari darajasidagi yuqori texnologiyali ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlarni shakllantirish, ilg'or tibbiy texnologiyalarni keng joriy etishning tashkiliy, moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarini

vujudga keltirish va zamon talablariga javob beradigan tashkiliy tuzilmani shakllantirish, kasalliklar tarqalishining zarur profilaktikasini ta'minlash, aholini tibbiy xizmat ko'rsatish samaradorligi va sifatini, undan barchani bahramand bo'lishini tubdan oshirish ustuvor vazifa hisoblandi. Shu maqsadda sog'liqni saqlashga bozor munosabatlarining salbiy ta'sirini eng kam darajaga keltirib, yangilanish sharoitlarida samarali bozor islohotlarini amalga oshirish yuzasidan keng qamrovli ishlar olib borildi. Keyingi paytlarda mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilgan tub islohotlar tibbiy xizmatlar sohasini tarkibiy jihatdan qayta qurishni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi va Jahon banki o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida respublikada sog'liqni saqlash tizimining birlamchi-sanitariya bo'g'inini mustahkamlash maqsadida "Salomatlik-1", "Salomatlik-2" "Salomatlik-3" loyihalari amalga oshirildi.

Sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishida O'zbekiston respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi, "Sog'lom avlod uchun" halqaro xayriya jamg'armasi, "Qizil yarim oy" jamiyati, "Nuroni" jamg'armalari o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

O'zbekistonda zamonaviy talablarga javob beradigan tibbiy xizmatlar ko'rsatishning yaxlit tizimi yaratilgan va u davolash, tashxis qo'yish, emlash, tibbiy maslahat berish, dori-darmonlar ishlab chiqarish va sotish muassasalarini o'zida birlashtiruvchi ijtimoiy sohaning muhim tarmog'i sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda (3.4.1-Jadval).

3.4.1-jadval

O'zbekistonda tibbiyot muassasalari tizimi va ularning xizmat tavsifi

Muassasalar	Xizmat tavsifi
KVP	Ilgargi feldsher-akusherlik punktlari o'rnida shakllangan yangi tipdagi muassasa qishloq joylarda birlamchi tibbiy yordamlarni ko'rsatadi

Ambulatoriya-poliklinika	Shahar aholisiga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatadi
Tez tibbiy yordam	Aholiga shoshilinch, malakali va tekin tibbiy yordam ko'rsatadi
Tug'uruq muassasalari	Xomilador ayollarni tug'uruqqa tayyorlash va tug'ushda tibbiy yordam ko'rsatadi
Ixtisoslashgan kasalxona	Bemorlarni statsionar davolashda tibbiy yordam ko'rsatadi
Sanatoriy-profilaktoriya	Maxsus yo'llanmalar asosida sog'lomlashtirish tadbirlarini olib boradi
Ona va bola skrining-markazlari	Bo'lg'usi onalarning sog'lig'i va xomiladorlikning kechish holatini nazorat qiladi va maslahat beradi
Sanitariya-epidemiologiya xizmati	Inson sog'lig'ining zararlanishi oldini oladi va nazorat qiladi
Ixtisoslashtirilgan diagnostika markazlari	Bemorlarga tashxis qo'yadi va davolaydi
Sog'lomlashtirish va protezlash markazlari	Bemorlarni sog'lomlashtirishga tibbiy yordam ko'rsatadi va nafaqaga tavsiya etadi
Dorixona	Aholiga dori-darmon sotadi
Farmatsevtika korxonasi	Dori-darmonlar ishlab chiqaradi

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida tibbiy xizmatlarni yuksak darajada rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasining integrallashgan ko'rsatkichi hisoblanib, keyingi 1-2 yil ichida sog'liqni saqlash sohasida ham tub burilish va islohotlar, yangilanish va o'zgarishlar, bunyodkorlik va taraqqiyot, modernizatsiya qilish va liberallashtirish davri bo'ldi. Sog'liqni saqlashning ustuvorligi O'zbekistonda jadal tub o'zgarishlar va islohotlarni qo'llab-quvvatlashning strategik muhim sohasi sifatida mustahkamlandi.

Sog'liqni saqlash sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Tibbiy xizmatlar tuzilmasida sifat o'zgarishlar ro'y berdi. Xizmat ko'rsatishning zamonaviy, ixtisoslashgan yangi sohalar paydo bo'ldi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi davlat siyosati, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning strategik yo'nalishlarini amalga oshirish birlamchi tibbiy xizmatlarni rivojlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Asosiy sog'liqni saqlashning birinchi bosqichi hisoblangan birlamchi tibbiy xizmatlar ijtimoiy sohaning tarkibiy qismiga aylandi va tarmoqni tabaqalashtirish va mazmun mohiyatini diversifikatsiya qilish

orqali yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli Farmoni mazkur sohada yangi bosqichni boshlab berdi va sog'liqni saqlashni rivojlantirishdagi quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab qo'yildi:

✓ sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni uni unifikatsiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali takomillashtirish;

✓ jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etishni ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini va hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etishning «klaster» modelini shakllantirish, tibbiyot va farmatsevtika muassasalarini akkreditatsiya qilish, shifokorlik va farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash tizimini joriy etish;

✓ tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilash, tibbiy xizmatlar uchun klinik xarajat guruhlari bo'yicha "har bir davolangan holat" uchun to'lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish;

✓ tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish;

✓ tibbiy genetikani, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, «Ona va bola» hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot majmualari va ma'lumotlar tizimlarini

shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

✓ xususiy sog'liqni saqlash tizimi, davlat-xususiy sherikligini va tibbiy turizmni rivojlantirish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobat muhitini yaxshilash;

✓ farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish;

✓ tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish, shu jumladan, tibbiyot ilmiy va ta'lim muassasalarini halqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan o'tkazish) zamonaviy ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etish asosida;

✓ "elektron sog'liqni saqlash" tizimini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi majmuasini yaratish.³¹

Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi, ko'p sarf-xarajat talab etadigan statsionar tibbiy yordamdan ambulator-poliklinika va profilaktika tibbiyotiga ahamiyat berishda muhim omil bo'lmoqda.

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, respublikada 1991 yilda 1388 ta shifoxona muassasalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018 yilda ularning soni 1165 tani tashkil etib, 1,2 martaga kamaygan. Shu o'rinda ambulatoriya-poliklinikalari soni 1991 yildagi 3027 o'rniga 2018 yilda 5627 taga yoki 50 foizga yaqin ko'paygan. Ularning qabul quvvati 1991 yildagi 287,1 ming kishidan 2018 yilda 440,8 ming kishiga o'sgan. Bu holat sohani rivojlantirishning intensiv shakliga o'tayotganligi bilan tavsiflanadi. 1998 yilda qabul qilingan davlat dasturiga muvofiq davolashning yangi intensive shakliga o'tish tufayli shifoxonalarda o'rinlar soni

³¹ lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli farmoni)

qisqartirilib stasionar davolashdan ko'proq ambulatory davolashga e'tibor qaratildi (3.4.2-jadval).

3.4.2-jadval

Sog'liqni saqlashning asosiy ko'rsatkichlari (1991-2018)³²

Ko'rsatkichlar	1991 yil	2000 yil	2008 yil	2018 yil
Shifoxona muassasalari soni	1388	1162	1139	1165
Shifoxona o'rinlar soni (jami, ming)	260,2	138,6	137,5	153,6
Bitta shifoxona o'rniga to'g'ri keladigan aholi soni		179	200	215
Ambulatoriya- poliklinika muassasalari soni, birlik	3027	4847	5754	5627
Quvvati, bir smenada qatnovlar soni, birlik (jami, ming)	287,1	391,5	413,6	440,8
10 ming aholiga nisbatan hisoblangan ambulatoriya- poliklinika muassasalari quvvati	125,5	157,7	153,1	133,7
Barcha mutaxassisidagi shifokorlarning soni (jami, ming)		81,5	77,1	89,8
Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni		304	357	367
O'rta tibbiyot xodimlari soni		259,7	291,3	356,7
Bitta o'rta tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni		96	96	92

Sobiq ittifoq davridagi sog'liqni saqlash tizimi ekstensiv yo'l asosida rivojlanar edi. Bu tizimda sifat ko'rsatkichlariga emas, balki miqdor ko'rsatkichlariga asosiy e'tibor berilgan. Masalan, mustaqillik davrining boshida O'zbekistonda 22 million kishiga 70 mingdan oshiq vrach to'g'ri kelar edi. Ana shu davrda Turkiyada 60 million aholiga 23 ming vrach, Malayziyada 18 million aholiga 6,2 ming vrach to'g'ri kelgan. O'zbekistondagi vrachlarning ko'pligi aholini davolash yuqori darajada ekanligini aslo bildirmas edi.³³

Mamlakatimiz fuqarolarining turmush sharoitini yaxshilashga doir

³² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz)

³³ Yo'ldoshev Z.Y. Xalilova Milliy va jahon iqtisodiyoti. – T.: “Cho'lpon nomidagi NMIU”, 2014. - B. 184.

qo'llanilayotgan chora-tadbirlar tizimida sog'liqni saqlash va aholi salomatligini muhofaza qilish alohida o'rin tutadi. O'tgan davr mobaynida Respublikada tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi amalda to'liq qayta ko'rib chiqildi.

Barcha viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida bo'lajak onalar salomatligini muntazam nazorat qilib boradigan, sog'lom bolalar tug'ilishiga xizmat qiladigan keng tarmoqli skrining-markazlari yo'lga qo'yildi. Buning natijasida onalar va bolalar o'rtasida o'lim darajasining izchil pasayishiga erishildi. Mustaqillik yillarida onalar o'limi ko'rsatkichi 3,1 baravarga kamayib, 100 ming nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 21 ta holatni tashkil etdi, chaqaloqlar o'limi esa 3,1 baravarga kamayib, 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 11,5 ta holatni tashkil etdi. Bolalarda eng ko'p uchraydigan kasalliklarga qarshi emlash va profilaktika tadbirlari bilan qamrab olish darajasi 96 — 98 foizda qat'iy saqlanib turibdi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha kompleks profilaktika, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiena tadbirlarining joriy etilishi o'ta xavfli yuqumli kasalliklar (o'lat, vabo), poliomielit, difteriya, chaqaloqlar qoqsholi, mahalliy kelib chiqqan bezgak, qizamiq va qizilcha yuzaga kelishidan to'liq himoya qilish imkonini berdi. Poliomielitning yovvoyi shtammi (2002 yil), qizamiq va qizilcha (2017 yil), bezgak (2018 yil) yo'q qilinganligi to'g'risida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining sertifikatlari olindi.³⁴

Aholiga yuqori malakali bepul shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida respublika, viloyat, tuman markazlarida 171 ta tez tibbiy yordam markazlari tashkil qilinib, tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha yagona tizim yaratilgan. Ularning faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish ishlari respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda.

Aholiga yuqori va sifatli ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni ko'rsatish tizimini ta'minlash maqsadida, respublikada maxsus ixtisoslashtirilgan kardiologiya,

³⁴ lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli farmoni)

xirurgiya, urologiya, ko'z mikroxirurgiyasi, pediatriya, akusherlik va ginekologiya, terapiya va tibbiy rehabilitatsiya, dermatologiya, venerologiya markazlari tashkil etildi. Ularning viloyat, tuman bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Respublika OITSGa qarshi kurashish markazi uning viloyatlardagi 14 ta filiali, respublika, viloyat va tuman sog'liqni saqlash boshqarmalari huzuridagi 78 ta OIV diagnostikasi laboratoriyalarini qamrab olgan umummilliy muassasalar tarmog'i yaratildi.

Respublikada onalik va bolalikni muhofaza qilish ishlari bo'yicha Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti, YUNISYEF, YUNFPA, YUSAID va boshqa halqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda quyidagi dasturlar amalga oshirildi:

- "Reproduktiv salomatlikni yaxshilash va sog'lom oilani shakllantirish";
- "Fertil yoshidagi ayollar o'rtasida kamqonlikning oldini olish;
- "Bolalar kasalliklarini integrirlashtirilgan usulda davolash";
- "Chaqolaqni ko'proq ona suti bilan boqishni rag'batlantirish";
- "Bexatar onalik", "Xavfsiz emlash" dasturlari doirasida onalik va bolalikni

asrashda ijobiy natijalarga erishildi.

Odamlar salomatligini muhofaza qilish va turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida qator demografik ko'rsatkichlarning yaxshilanganligi kuzatilmoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi 1990 yildagi 67,2 yoshdan 6,5 yoshga o'sib, bugungi kunda 73,7 yilni tashkil etmoqda.

O'tgan asrning 90 yillari boshida O'zbekiston MDH davlatlari orasida aholi salomatligiga oid ko'rsatkichlar bo'yicha keyingi o'rinlardan joy olgan edi. Biroq O'zbekistonda inson manfaatlarining ustun qo'yilishi va sog'liqni saqlash sohasida tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida 2010 yilga kelib aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1990 yilga nisbatan 5 yoshga ko'payishiga erishildi. Bu paytda Ozarboyjon 71,0 yoshni saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, Rossiya 69,2 yoshdan 67 yoshga, Ukraina 70,5 yoshdan 69 yoshga, Qozog'iston 68,6 yoshdan 65 yoshga, Turkmaniston 66,4 yoshdan 65 yoshga tushib qolgan. Ko'rinadiki, O'zbekistonda erishilgan bu

ko'rsatgichlarni tibbiyot sohasida olib borilgan islohotlarning yaqqol ifodasi sifatida baholash mumkin.³⁵

Su o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5590-sonli farmoniga ko'ra, 2019 - 2005 yillarda O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqilishi natijasida strategic vazifalar belgilandi:

- hududlar ehtiyojini hisobga olgan holda ambulatoriya va stasionar tibbiy xizmatlar rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash;

- aholining ehtiyoji katta bo'lgan tibbiyotning ayrim yo'nalishlari rivojiga investisiyalar, shu jumladan xorijiy investisiyalarni jalb qilish;

- sog'liqni saqlash tizimiga davlat va xususiy sheriklik mexanizmlarini keng tadbiiq etish;

- sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan axborot bilan ta'minlash uchun yagona dispetchir (Call-markazi) tashkil etish
ТАШКИЛ ЭТИШ.³⁶

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasi xizmatining asosiy tamoyili aholiga malakali tibbiy xizmat ko'rsatishdan iborat. Sifatli xizmat ko'rsatish uchun hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish zarur. Mazkur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida mamlakatimizda islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Bozor munosabatlarining shakllanishi bilan yaqin kelajakda respublikada sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishning birlamchi yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- sog'liqni saqlash sohasining moliyaviy-iqtisodiy bazasini mustahkamlash, zamonaviy tipdagi asbob-uskuna, transport va aloqa vositalari, bino va inshootlar bilan ta'minlash orqali uning salohiyatini oshirish;

³⁵ Мир в цифрах статистик to'plami, 1992 yil va O'zbekiston 2010 Almanaxi ma'lumotlari asosida qiyoslandi.

³⁶ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz)

- tizimni nomarkazlashtirish, boshqarish va taqsimlash funksiyalarini pastki-kuyi bo'g'inga berish orqali tarmoq mavqeini oshirish;
- pullik tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi kengaytirish va budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish orqali muassasalar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va xizmatlar sifatini oshirish;
- xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash orqali aholining tibbiy xizmatlardan foydalanishida tanlov imkoniyatni yaratish;
- sog'liqni saqlash tizimini erkinlashtirish orqali raqobat muhitini shakllantirish;
- nazariya va amaliyotning birligini ta'minlash orqali yuqori natijalarga erishish;
- tibbiyot sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan tajriba almashish orqali tarmoqni rivojlantirish;
- tizimning huquqiy-normativ asoslarini takomillashtirish va isloh qilishni davom ettirish.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi tibbiy xizmatlar samaradorligining oshishini va aholining sifatli tibbiy xizmatlardan bahramand bo'lishini hamda jahon andozalariga mos qudratli tibbiy xizmatlar tizimining shakllanishini ta'minlaydi.

3.5. O'ZBYEKISTONNING TIBBIY SUG'URTALASHGA O'TISH ZARURIYATI

Hozirgi zamonaviy sharoitda tibbiy xizmatlar bozorining yangi sifati to'g'risida gapirilganda avvalo, bozor taraqqiyotining ijtimoiy yo'nalishini kuchaytirishni nazarda tutishimiz lozim. Shundagina ijtimoiy larzalarsiz tibbiyot sohasida bozor munosabatlarini joriy etish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida pullik xizmatlarni rivojlantirish yangi bosqichga kiryapti, aholining unga moslashuvi va

takomillashuv jarayonlari kechmoqda. Shu bilan birga, pullik xizmatlarni aholi talabiga moslashtirish va sifat jihatdan yaxshilash mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlarning va amalga oshirilayotgan strategik vazifalarning ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, aholining ijtimoiy yordamga muhtoj va nochor qatlamini qo'llab-quvvatlaydigan tizimni saqlab qolgan holda amal qilishi lozim. Ayni paytda bepul, davlat budjeti tomonidan moliyalashtiriladigan kafolatlangan, birlamchi tibbiy xizmatlar saqlanib qolishi kerak.

Iqtisodiyotdagi yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar va sog'liqni saqlash sohasida olib borilgan islohotlar natijasida ma'lum bir muvaffiqiyatlarga erishildi. Biroq tibbiy xizmatlar bozorini rivojlangan xorijiy mamlakatlar bilan solishtirganda va sog'liqni saqlash tizimini moliyalashda og'ir yuk hamon davlat budjetiga nisbatan saqlanib qolayotganligi ayrim muammolarning o'z yechimini kutib turganligi, hali sohada hal qilinishi lozim bo'lgan ishlar mavjudligini anglatadi.

Respublikada sog'liqni saqlashni moliyalashtirish maqsadidagi budjet mablag'lari qariyb 92-94 foizini tashkil qilayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, tibbiyot muassasalarida budjetdan tashqari moliyalashtirish tizimi yaxshi rivojlanmagan. Bu holat bir tomondan iqtisodiy-huquqiy bilimlarning yetishmasligi ikkinchi tomondan boqimandalik holati saqlanayotganligi bilan xarakterlanadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, sog'liqni saqlash sohasining 60 foizi davlat budjeti hisobidan, 30 foizi tibbiy sug'urta xisobidan va 10 foizi pullik xizmatlar hisobidan moliyalashtirilishi yaxshi holat hisoblanadi.³⁷

Bugungi kunda tibbiyot sohasi keng rivojlangan davlatlarda ustun darajada tibbiy sug'urtadan moliyaviy dastak sifatida keng foydalanmoqda. Masalan,

Rossiyada sog'liqni saqlash tizimiga davlat budjetdan 52 foiz, majburiy

³⁷ Qosimova G. Ijtimoiy sohalarni moliyalash jarayonlarini erkinlashtirish.-T.://Bozor pul va kredit. 2005.No2.-B. 27

sug'urta fondidan 33 foiz miqdorda mablag' yo'naltiriladi qolgan 15 foizi qonunda taqiqlanmagan faoliyatlar orqali shakllantiriladi.³⁸

O'zbekistonda ham majburiy tibbiy sug'urta tizimiga davlat va nodavlat korxonalarida ishlayotganlardan boshlab bosqichma-bosqich sug'urta qamrovini kengaytirib borishni ko'zda tutgan holda o'tish va uni amaliyotga tadbiiq etish lozim. Uning jozibadorligini oshirish maqsadida ish beruvchiga nisbatan javobgarlik belgilash, to'lov badallarining bir qismini korxonadan va qolgan qismi yollanma xodim tomonidan to'lanishi har ikkala tomonning moslashuvini ta'minlaydi.

Majburiy tibbiy sug'urtaning amaliyotga joriy etilishi sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishidagi muammolarni yumshatish bilan birga fuqarolarning sog'lig'ini tiklashdagi ko'plab qulayliklarni tug'diradi. Tibbiy sug'urta tizimi mantiqan sog'liqni muhofaza qilishda aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish shakli. Tibbiy sug'urtadan maqsad sug'urta xodisasi yuz berganda jamg'arilgan vositalar hisobidan tibbiy yordam olishda fuqarolarni kafolatlash va oldini olish tadbirlarini moliyalash hisoblanadi.³⁹

Majburiy tibbiy sug'urta tizimining joriy qilinishi davlat tibbiyot muassasalarini boshqarish va bazaviy xizmatlar sifatining yaxshilanishini ta'minlash bilan birga, tarmoqning uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanishini kafolatlaydi. Uning amaliyotga tadbiiq etilishi natijasida ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarga erishiladi:

birinchidan, tibbiy xizmatlarning foydalanishning barchaga baravarligi kafolatlanadi;

ikkinchidan, tibbiy muassasalarni moliyalashtirish asoslari o'zgaradi va moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi. Moddiy manfaatdorlik xodimlarda qiziqishni oshiradi;

³⁸ Кравченко Г.М. Развитие рынка и финансирования лечебно-оздоровительных услуг в России. Автореферат дисс. На соиск. к.э.н.// Москва, 2008. – С.12

³⁹ Saidov M.H, Nasriev I.I. va boshqalar. Ijtimoiy himoya: Atamalar izohli lug'ati. – T.: "O'zb. Milliy kutubxonasi", 2007. –B. 330.

uchinchidan, tibbiyot xodimlarida sug'urtalanuvchilariga nisbatan yuridik javobgarligi yuzaga keladi, bemorning davolanishi kafolatlanadi;

to'rtinchidan, bemorlarda sifatli xizmatlarni talab qilishi va shifokorlarni tanlash imkoniyati yuzaga keladi. Natijada shifokorlar o'z ustida ko'proq ishlashga harakat qiladi.

Agar tibbiy sug'urtaning xususiy ko'rinishi taraqqiy etsa, sug'urtalanuvchilar sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish va kasallanishning oldini olish tizimi ham kuchayadi.

Sug'urtalovchi kompaniya tibbiyot muassasining o'zi bo'lishi fuqarolar sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishni yanada oshiradi, xarajatlarni kamaytirish va manfaatdorlikni his qilish evaziga sug'urtalanuvchilarni tez-tez tibbiy ko'rikdan o'tkazish va kasallanishining olidini olishga intilish odatiy holga aylanadi.

Majburiy tibbiy sug'urta tizimi joriy etilishidan sog'liqni saqlash sohasi bozor iqtisodiyotiga tez moslashadi va bozor tamoyillari asosida rivojlanadi. Tibbiyot muassasalarida pullik xizmatlarning tashkil qilinayotganligi moliyalashtirishning aralash tizimiga o'tilayotganligi majburiy tibbiy sug'urta mexanizmi bilan muvaffaqiyatli tarzda bog'lanadi.

Hozirgi paytda tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish sohani rivojlantirishning intensiv yo'lga o'tishda keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Xususan, bozor munosabatlari tartib-qoidalari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib, fikr qiladigan bo'lsak, tibbiy xizmatlar uchun to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan fuqarolarga ish haqi, nafaqa va boshqa xil daromadlaridan keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri tibbiyot muassasi hisob raqamiga o'tkazish mumkinligini kafolatlovchi mexanizmga asoslanib bepul davolanish imkoniyatini yaratish lozim. Pul o'tkazuvchi muassasa bu haqda kafolat berish va bularning barchasini qonun doirasida mustahkamlash lozim.

Iste'mol kreditlari tarkibida davolanish kreditlari joriy qilinganligiga ancha bo'lgan bo'lsada hali bu haqda aholi yetarlicha ma'lumotlarga ega emas. Bu haqdagi ma'lumotlarni aholiga yetkazish, uni oshkor etish lozim.

Fuqarolarning davolanish kreditini ommalashtirish bilan uni olish mexanizmini soddalashtirish, aholiga maksimal darajada qulayliklar yaratish, kredit foizini qaytarishda dastlabki uch oy uchun imtiyozli foiz stavkalari belgilash, ortiqcha pullarni qaytarish mumkinligini kafolatlovchi tizimni yaratish kerak.

Bu kabi tadbirlarning amalga oshirilishi fuqarolarning uy sharoitida davolanishlarini kamaytirish va sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilishiga shu bilan birga, tibbiy xizmatlar bozorining barqaror rivojlanishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli farmoni tibbiy sug'urta tizimini qo'llashga huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Unga ko'ra quyidagilar belgilab qo'yildi:

a) Moliya vazirligi, Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019 yil 1 iyulga qadar quyidagilarni nazarda tutadigan «Majburiy tibbiy sug'urtalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniy loyihasi ishlab chiqilishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlasin:

majburiy tibbiy sug'urtalashning huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari;

majburiy tibbiy sug'urtalash subyektlarini, ushbu sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish bo'yicha vakolatli organni, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash;

majburiy tibbiy sug'urtalash dasturlarini moliyalashtirish mablag'larini shakllantirish manbalari;

b) O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda ushbu Farmonni amalga oshirishda texnik ko'makni ta'minlash, shu jumladan, majburiy tibbiy sug'urtalashni joriy etish bo'yicha tadbirlarni texnik-iqtisodiy asoslashni amalga oshirish uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va halqaro moliya

institutlari bilan hamkorlikni tashkil etish choralarini ko'rish kerakligi belgilab qo'yildi.⁴⁰

Keyingi paytlarda mamlakatimiz hukumati tomonidan aholi sog'lig'ini saqlashga jiddiy e'tibor qaratilayotganligi, tibbiy xizmatlar bozorini tadrijiy asosda rivojlantirish va isloh qilishda alohida dolzarblik kasb etadi.

BMTning Taraqqiyot Dasturi mutaxassisleri ham inson taraqqiyoti indeksini hisob-kitob qilishda asosiy ko'rsatgichlardan biri sifatida insonning hayot davomiyligi indeksiga asoslanadi. Shunday ekan endigi vazifa sog'liqni saqlashni boshqarish va undagi bozor munosabatlari jarayonlariga kompleks yondashishni taqozo etadi. Sanoatning va jismoniy mehnat kam talab qiladigan sohalarning rivojlanishi, ekologik va ichimlik suvi bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelayotganligi sog'liqni saqlashning mas'uliyatini yanada oshiradi.

Mamlakatimizda tibbiy xizmatlar bozorining tobora takomillashib borishi va uni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi tibbiy xizmatlar ko'rsatishni istiqbolda yanada uyg'unlashtirishni taqozo qilmoqda. Yetarli darajada shakllangan muhitdagi tibbiyot muassasalaridan ko'rsatilayotgan xizmatlarni tanlash imkoniyati vujudga kelmoqda. Bu esa istiqbolda xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida raqobat muhitining shakllanishiga yetarlicha shart-sharoit yaratadi.

Tayanch so'z va iboralar: sog'lig'ini saqlashlash, davolash va profilaktika, sog'lomlashtirish tadbirlari, demografik ta'sir, ijtimoiy ta'sir, madaniy ta'sir, inson sog'lig'i o'ziga xos resurs, aholi sog'lig'ini saqlash shart-sharoitlari va omillari, xorijiy tajribalar, isloh etish bosqichlari, salomatlik loyihalari, zo'riqish, tibbiy sug'urta, majburiy tibbiy sug'urta.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Sog'liqni saqlashning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlang:

⁴⁰ lex.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli farmoni).

- A. Atrof-muhitni asrash.
- B. Insonning teran fikrlash va yashashini boshqarish.
- D. Jamoa, oila va shaxsning moddiy va ruhiy ehtiyojini qondirish.
- E. Inson sog'ligini tiklash, asrash, ishchi kuchini takror hosil qilish.

2. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining nechanchi moddasida "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" ligi belgilangan?

- A. 39- moddasida
- B. 40- moddasida.
- D. 41- moddasida.
- E. 42- moddasida.

3. Sog'liqni saqlash tizimini boshqarishni tashkil etishda qanday yo'l belgilangan?

- A. Detsentralizatsiya.
- B. Byurakratik.
- D. An'anaviy.
- E. Mahaliy.

4. Bepul tibbiy xizmatdan kimlar foydalanish mumkin?

- A. Nogironlar, urush qatnashchilari, o'quvchilar, ishsizlar.
- B. Qariyalar, o'smirlar, homilador ayollar, qishloqda yashovchilar.
- D. Tez yordam, emlash ishlarini olib borishda, maslahatlar, jarrohlik amaliyotidan o'tayotganlar, shifokorlar.
- E. Tez yordam, emlash ishlaridan, ijtimoiy ahamiyaga ega kasallarni davolash, bolalar va o'smirlar, homilador ayollarga xizmat ko'rsatishda.

5. Aholi sog'ligi darajasini aniqlash ko'rsatkichini aniqlashda:

- A. "Salomatlik indekslari" dan foydalaniladi.
- B. Umr ko'rish davomiyligidan foydalaniladi.
- D. Kishilar salomatligidan foydalaniladi.
- E. Bolalar o'limi kamayishidan foydalaniladi.

6. Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning asosiy prinsipini ko'rsating.

- A. Ko'p kanallilik asosida.
- B. Davlat byudjeti asosida.
- D. Homiylik mablag'lari asosida.
- E. Homiylik mablag'lari asosida.

7. Sog'liqni saqlash qaysi samaradorlik orqali aniqlanadi?

- A. Ma'naviy
- B. Moddiy
- D. Iqtisodiy
- E. Ijtimoiy

8. «Respublika fuqarolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilingan?

- A. 1996- yil 29 -avgustda
- B. 1997 -yil 29 -avgustda.
- D. 1998- yil 29 -avgustda.
- E. 1999 -yil 29- avgustda.

9. Tibbiy sug'urtaning mazmuni to'lig'icha ifodalaydi:

- A. Aholi majburiy tibbiy sug'urtaga ega bo'ladi.
- B. Aholi sug'urta badallari to'laydi.
- D. Aholi sug'urta badallari to'laydi.
- E. Aholi bepul davolanishga sug'urta polisiga ega bo'ladi.

10. Sog'liqni saqlashda ijtimoiy samaradorlik qanday aniqlanadi?

- A. Umr ko'rish davomiyligining o'sishi , bolalar va onalar o'limining kamayishi bilan.
- B. Pullik xizmatlarning ko'payishi bilan.
- D. Tibbiy xizmatlar sifati bilan.
- E. Tibbiy xizmatlarni eksport qilishdan.

11. O'zbekistonda pullik tibbiy xizmatlar qachondan joriy etildi?

- A. 1995- yilning 1 -yanvaridan.

B. 1996- yilning 1- yanvaridan.

D. 1997 -yilning 1- yanvaridan.

E. 1998- yilning 1- yanvaridan.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Inson sog'ligiga ta'sir etuvchi omillarni sanab bering.
2. Sog'liqni saqlash samaradorligi qanday o'lchanadi?
3. Sog'liqni saqlash rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini gapirib bering.
4. "Salomatlik indeksleri"ni aniqlang.
5. O'zbekistonda tibbiy xizmatlar rivojlanishidagi muammolarni sanab bering.
6. O'zbekistonda xususiy tibbiyotning rivojlanishi qanday holatda va nimani anglatadi?
7. Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarning vazifalari nimalardan iborat?
8. "Salomatlik-1", "Salomatlik-2" "Salomatlik-3" loyihalarining amalga oshirilishi.
9. «Elektron sog'liqni saqlash» tizimini keng joriy etish deganda nimani tushunasiz?
10. Tibbiy sug'urta polisi nimani anglatadi?
11. Majburiy tibbiy sug'urtaning amaliyotga joriy etilishi haqida gapirib bering.

4-mavzu. TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA TARKIBIY O'ZGARISHLAR

Reja:

4.1.O'zbekistonda maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limning isloh qilinishi

4.2. Oliy ta'limni rivojlantirish vazifalari va yo'nalishlari

4.3.Inson kapitali uning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni

4.4.Jahonda ta'lim tizimining Yevropa, Aqsh va Osiyo modellari: umumiy jihatlari va farqlari

4.1. O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM VA UMUMIY O'RTA TA'LIMNING ISLOH QILINISHI

O'zbekistonning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishi sharoitida ta'lim sohasini rivojlantirish, mazkur sektorning jamiyatdagi mavqeyini oshirish mamlakatimiz taraqqiyotining eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytda ushbu sohani rivojlantirmay turib, milliy iqtisodiyotni yuqori pag'onalarga ko'tarish, insonning qulay va faol yashashini ta'minlash, tafakkuri va ongini rivojlantirish kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilib bo'lmaydi. Shu bois respublikamiz ijtimoiy sohasida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim sohasining milliy iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda mamlakatda bu sohani jadal rivojlantirish bo'yicha ko'pgina ijobiy ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Bu ishlar quyidagi shart-sharoitlarga muvofiq amalga oshirilmoqda:

- ta'limni rivojlantirish masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi;

- ta'limni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy asoslarning

barpo etilganligi;

- mamlakatda ta'lim sohasini rivojlantirishga mos qulay ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitning mavjudligi;

- aholi tarkibida sifatli ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning o'sayotganligi;

- respublikada xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam aloqaning shakllanganligi.

Respublikada ta'lim tizimini rivojlantirishga va fuqarolarning ta'lim olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilinishini ta'minlagan holda, aholini ta'lim va tarbiyaning barcha shakllari bilan bahramand bo'lishlariga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonning ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyotiga o'tishi, kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, uning buyuk kelajigini ro'yobga chiqarishda ijtimoiy sohaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ayniqsa, aholining tafakkuri va madaniyatini rivojlantirishda maorifning, ta'lim xizmatining roli beqiyosdir. Mutafakkir A.Avloniy bobomizning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan iborasi ayni haqiqatdir.

Iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi aholining yuksak turmush darajasiga erishish ham, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning yuksak rivojlanishi ham ta'lim tizimining keng miqyosda o'sishiga bog'liqligini ko'rsatmoqda. Ta'lim O'zbekiston respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilingan. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ❖ ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ❖ ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- ❖ umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- ❖ o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini, akademik litseyda yoki kasb-

hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

- ❖ ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- ❖ davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ❖ ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- ❖ bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ❖ ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi maktabgacha tarbiya shaxobchalaridan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan yagona ta'lim tizimini shakllantirish va komil inson tarbiyasiga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining eshiklari hamma uchun ochiq. Bu konstitutsiyaning 41-moddasida belgilangan. Shu bois O'zbekiston Respublikasi aholisining yoppasiga savodxonligi bilan ajralib turadi.

Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan respublikalar ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1992 yil 2 iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini tasdiqladi. Bu dasturulamal hujjatda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, pedagog xodimlarning haq-huquqlari, burch va mas'uliyati aniq belgilab berildi. Binobarin, bu muhim davlat hujjatining qabul qilinishi ta'lim sohasida amalga oshiriladigan barcha islohotlarning muqaddimasi hamda huquqiy kafolati edi.⁴¹

1997 yil 29 avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlab oliy va undan keyingi ta'limgacha bo'lgan yagona ta'lim tizimini shakllantirish va komil inson tarbiyasiga qaratilgan.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'lim majmuasining birlamchi

⁴¹ Yo'ldoshev J. Ta'limimiz istiqloli yo'lida. – Toshkent: Sharq, 1996. 4-5-bet.

bo'g'ini bo'lmish, maktabgacha ta'limni rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 172-bandida "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilab berildi.

Qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida yigirmadan ortiq xorijiy davlatning (Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Italiya, Angliya, AQSh, Frantsiya, Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Gollandiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston va boshqalarning ta'lim to'g'risidagi qonunlari o'rganildi va ularning ilg'or tajribalari inobatga olinadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining rivojlanishi, fan sig'imi yuqori bo'lgan sohalarning paydo bo'lishi va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv natijasida mutaxassislar tayyorlashda miqdor ko'rsatgichlarga emas sifat ko'rsatgichlarga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ta'lim sohasini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilab berildi.

Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalari qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter, o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan.

Keyingi paytlarda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalishga aylandi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z

umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan.

Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 30.09.2017 yildagi PF-5198-sonli, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 30.09.2017 yildagi PQ-3305-sonli, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 09.09.2017 yildagi PQ-3261-sonli, "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 05.04.2018 yildagi farmon va qarorlari sohani tarkibiy jihatdan qayta qurishga imkon berdi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy ustuvor maqsadi va vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;
- ta'lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash;
- bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish;
- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- bolalarda halqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'alariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish;
- bolaning shaxsini va boshqa jihatlarini rivojlantirgan holda uni boshlang'ich ta'limni olishga tayyorlash;
- bolaning rivojlanishidagi (nutqida, ko'rishida, eshitishida) yengil nuqsonlarni korrektsiyalashni amalga oshirish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish.

Mustaqillik yillarda maktabgacha ta'lim muassasalari soni qisqarib kelgan bo'lsada, O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasidagi vazifalardan kelib chiqib islohotlar

chuqurlashuvi davridan boshlab maktabgacha ta'lim muassasalari sonining o'sishiga erishildi. Alohida maktabgacha ta'lim vazirli faoliyatining tashkil qilinishi sohs faoliyatining shahar va qishloq joylarda kengayishiga, maktabgacha yoshdagi bolalarni qamrov darajasining oshishiga va undagi pedagog xodimlar sonining o'sishiga olib keldi (4.1.1-jadval).

4.1.1-jadval

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatgichlari (2000-2018 yillar) ⁴²

Ko'rsatgichlar	Yillar				
	2000	2005	2010	2015	2018
Maktabgacha ta'lim muassasalari soni-jami	6704	6495	5375	5126	6381
Shu jumladan					
Shahar joylarda	2816	2612	3036	3065	3500
Qishloq joylarda	3888	3883	2339	2061	2881
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar soni (ming kishi)	624,6	565,6	522,9	634,1	874,4
Pedagog xodimlar soni, ming kishi	64,1	61,0	56,5	58,3	81,1

O'zbekistonda Maktabgacha ta'limdan keyingi bosqich majburiy, bepul, muddati 9 yildan iborat bo'lgan umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich 1-4 va o'rta 5-11 sinflaridan tashkil topgan. Boshlang'ich ta'lim O'zbekistonda majburiy, bepul va barchaga taalluqli hisoblanadi. Bu maktab yoshiga yetgan barcha bolalar umumiy yoki maxsus (nogiron bolalar va rivojlanishdan orqada qolgan bolalar) boshlang'ich maktabga borishlarini bildiradi. Bolalarni boshlang'ich ta'limga jalb qilish mos keluvchi yoshidagi bolalarni 100 foiz tashkil qiladi.

Kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar faoliyatining yo'lga qo'yilishi tufayli umumta'lim maktablari va o'quvchilar soni qisqargan bo'lsada, islohotlar

⁴² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz).

chuqurlashuvi davridan boshlab umumta'lim maktablarilari sonining o'sishiga erishildi. Zamonaviy tipdagi yangi maktab binolarini qurish va eskilarini capital ta'mirlash ishlari davlat dasturi doirasida amalga oshirildi (4.1.2-jadval).

4.1.2-jadval

Umumta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatgichlari (2000-2019 yillar) ⁴³

Ko'rsatgichlar	Yillar				
	2000/2001	2004/2005	2010/2011	2014/2015	2018/2019
Umumta'lim muassasalari soni	9802	9835	9806	9733	9774
O'quvchilar soni, ming kishi	6037,4	6151,4	4695,3	4539,7	5850,9
Umumta'lim muassasalarini bitirgan o'quvchilar ming kishi	876,8	875	665,1	500,2	475,7
O'qituvchilar soni, ming kishi	454,2	476,9	427,7	390,6	419,8

Umumiy o'rta ta'limning vazifalari quyidagilardan iboratligi belgilab qo'yildi:

✓ o'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

✓ o'quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z vataniga va halqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

✓ ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish;

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz).

✓ o'quvchilarning individual ijobiy xususiyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish;

✓ mehnat qilish va mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, o'quvchilar uchun maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy ta'lim berishdan iborat.

4.2. OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI VA YO'NALISHLARI

Oliy ta'lim iqtisodiyotning turli tarmoqlari, xususi va davlat korxonalariga iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab beruvchi tizim hisoblanadi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

❖ davlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash;

❖ oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;

❖ ilm-fan, madaniyat, iqtisodning zamonaviy yutuqlari, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini yutuqlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

❖ oliy ta'limning insonparvarligini ta'minlash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy istiqlol g'oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;

❖ o'qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovatsion hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta'lim olish, masofaviy ta'lim tizimini amaliyotga joriy qilish;

❖ oliy ta'limda fan va ishlab chiqarish mexanizmlarining uyg'unligi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;

❖ ilmiy-pedagogik kadrlar va ta'lim oluvchilarning ilmiy- ijodiy faoliyati, ilmiy tadqiqotlari yordamida fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish, ta'lim jarayoni orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga hissa qo'shish;

❖ davlat va nodavlat oliy o'quv muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni yuzaga keltirish;

❖ oliy o'quv muassasalarini boshqarish va kengaytirishni takomillashtirish uchun jamoat boshqaruvining vasiylik va kuzatuvchi kengashlarni kiritish;

❖ ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini tekshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish, yo'nalishi bo'yicha belgilangan mehnat bilan ta'minlash monitoringini tuzish;

❖ oliy ta'lim sohasida ikki tomonlama foydali halqaro aloqalarni rivojlantirish va hakoza.

Keyingi paytlarda oliy ta'lim muassasalarining yoshlarni qamrab olishi aholiga nisbatan oliy o'quv yurtlari soni kamligi sohada jiddiy islohotlarni taqozo etdi (4.2.1-jadval).

Prezident Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "O'zbekistonda oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlari bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olishi o'tgan davrda 9-10 foiz darajasida bo'lib kelayotgan edi. So'ngi ikki yilda ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli, biz bu raqamni 15 foizdan oshirishga erishdik.

Lekin hali yetarli emas. Chunki dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ularda 60-70 foizni tashkil etadi" deganlari ham bejis emas.⁴⁴

4.2.1-jadval

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari (2000-2019 yillar)⁴⁵

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2000-2001	2005-2006	2010-2011	2015-2016	2018-2019
Oliy ta'lim muassasalari soni jami	61	63	65	69	98
Shu jumladan: xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari soni		2	6	7	9
Ularda tahsil olayotgan talabalar soni, ming kishi	183,6	278,7	574,5	264,3	360,2
Kunduzgi	141,9	204,8	268,7	263,9	313
Kechki					1,2
Sirtqi	41,6	73,9	5,8	0,4	46
10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim muassasalari talabalari soni	74	106	94	84	110
Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni (ming kishi)	44,7	59,3	64,1	63	114,5
Oliy ta'lim muassasalarini bitirgan mutaxassislar soni (ming kishi)	31,6	52,8	76,4	66,3	70,3

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda halqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaat nomasida // Xalq so'zi gazetasi 2019 yil. 29 dekabr № 271.

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz).

Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta qurish, halqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2017 yildagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, hamda 27.06.2017 yildagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohani tarkibiy jihatdan qayta qurishga imkon berdi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini tubdan takomillashtirish ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishlashini ta'minlash, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"da belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 yildagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining amaliyotga tadbiiq etilishi oliy ta'lim rivojlanishidagi yangi bosqichni boshlab berdi.

Mehnat bozorida oliy o'quv yurti va kasb-hunar ta'limi bitiruvchilariga bo'lgan talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga eng avvalo mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, xorijiy investitsiyalar jalb qilish, mahalliy lashtirish dasturiga to'la amal qilish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko'tarish, soliqlarni oqilona belgilash orqali erishiladi.

Bitiruvchilar bandligini oshirishning muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga xizmat ko'rsatish sohaslarida yangi ish joylarini yaratish, bunda yangi zamonaviy

xizmatlar hisobiga kengaytirishni tashkil qilish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qayta ishlash sanoati tarmoqlarini ko'paytirish, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy ishlarni mablag' bilan ta'minlash kiradi.

Ushbudan kelib chiqib, oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari faoliyatidagi eng zaif bo'g'in hisoblangan ishga joylashtirish masalasini ijobiy hal qilish maqsadida quyidagilar amalga oshirilmoqda:

- an'anaviy mehnat yarmarkalari tashkil etilmoqda;
- oliy o'quv yurtlari hamda kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilinoqda;
- bitiruvchilarning biznes loyihalariga imtiyozli mikrokreditlar ajratilmoqda;
- mehnat organlari oliy o'quv yurtlari hamda kasb-hunar kollejlari bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib bormoqda;
- bitiruvchilarni ishga joylashtirishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilmoqda;
- mehnat bozorida yangi mutaxassisliklarga bo'lgan talab o'rganilmoqda;
- xo'jalik yurituvchi subyektlardan mehnat organlari bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot talab qilmoqda;
- korxonalarda kvota ish o'rinlari shakllantirilmoqda;
- mehnat organlari tomonidan qayta o'qitish va kasbga yo'naltirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 16-yanvarda qabul qilgan "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Bitiruvchilar bilim darajasini baholash bo'yicha halqaro dasturlar va tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini ta'minlash. Dunyoning yetakchi reyting tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va milliy oliy ta'lim muassasalarining ushbu reytinglariga kirishiga har tomonlama ko'maklashishining

ko'zda tutilishi kelgusida bitiruvchilarning ish bilan bandlik muammolarini hal qilishga qulaylik yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi va oliy ta'lim tizimini rivojlantirishdagi 2030-yilga qadar bo'lgan davrdagi vazifalar belgilab olingan.

Jumladan, umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarining oliy ta'limga qamrab olinishi 50 foizdan oshishi lozim. Buning uchun oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish nazarda tutilgan. Ushbu chora-tadbirlar asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 50 foizdan oshib, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratiladi. Shuningdek O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantiriladi.

Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish ko'zda tutilgan.

Xulosa qilib shuni e'tirof etish kerakki, mamlakatimizda qabul qilingan barcha ijtimoiy dasturlar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va halq farovonligini ta'minlashga qaratilgan. An'anaviy tarzda har yili yilning nomlanishi va shu munosabat bilan qabul qilingan Davlat dasturi ham mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra, davlatimizning yuksak maqsadlarga erishishining ishonchli kafolati bo'lib, o'z mustaqil fikriga ega, mustahkam irodali, chuqur bilimli, hech kimdan kam bo'lmagan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda.

4.3. INSON KAPITALI, UNING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI

Millatning eng katta va qimmat boyligi inson, uning salohiyati sanaladi. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash va mahalliyashtirish sharoitida yangi davr talabiga mos tashabbuskor inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish masalalari mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq kun tartibiga qo'yildi va ijtimoiy siyosat yurgizildi.

Insonning mehnat qila olish qobiliyati, ma'lumoti, tajribasi, uddaburonligi, ishbilarmonligi va jismoniy tayyorgarligiga, aqliy sifat ko'rsatgichlariga kapital sifatida qarash mumkin. Inson kapitali u insonda mujassamlashgan foyda keltirish qobiliyatining muhim o'lchovidir. U orttirilgan tajriba, bilim va iste'dodni o'zida aks ettiradi.

Inson kapitalini rivojlantirish hozirgi zamonaviy sharoitda tor ma'noda-korxonalar va muassasalar doirasida ahamiyat kasb etib qolmay, balki jamiyatning asosiy mazmuniga aylanmoqda. Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida inson kapitalini samarali boshqarish korxonaning yashab qolishi va muvaffaqiyatga erishishi uchun muhim omil sifatida e'tirof etildi.

Cheksiz imkoniyatlarga qodir inson kapitalini rivojlantirish korxonalar va tashkilotlarning joriy va istiqboldagi samaradorligining oshishiga xizmat qilishi o'z isbotini topdi.

Yangi texnologiyalarni joriy etish turmush sharoitlarni yaxshilash va milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlash yuqori sifatli inson resursiga bog'liq.

Iqtisodchilarning fikricha, milliy boylikning shakllanishida uning hissasi rivojlangan mamlakatlarda 75 foizni, oddiy kapitalniki 19-20 foizni, tabiiy resurslarniki faqatgina 2-5 foizni tashkil qilgan ekan.

Inson kapitalining rivojlanishi mamlakatdagi ijtimoiy xizmatlarning holati uning samarasi bilan uzviy bog'liq. Bu jarayonda ijtimoiy xizmatlarning asosiy vazifasi: aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish; inson salohiyatini rivojlantirish va saqlashdan iborat. Moddiy sohaning rivojlanishini ijtimoiy

xizmatlardan ajratib bo'lmaganidek, ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Moddiy va ijtimoiy sohaning o'zaro aloqalari markazida inson turadi.

Ijtimoiy sohaning pirovard natijasi inson kapitali va uning ijtimoiy munosabatlari hisoblanadi. Ijtimoiy sohaning shakllanishi va aml qilishining konseptual sxemasining markazida inson kapitali turadi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixan shundan dalolat beradiki, madaniyatli, sog'lom, bilimdon, kasbiy jihatdan tayyorgarligi bo'lgan fuqarolarning ishlashidan hamisha jamiyat manfaatdor bo'lib kelgan. Bunday fuqarolarning shakllanishi ijtimoiy xizmatlar faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Inson kapitaliga xos sifat ko'rsatgichlarining insonda rivojlanishi ijtimoiy xizmatlarning tarkibiy qismi bo'lmish ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, uy-joy sharoitlari, mehnat sharoitlari, inson huquqlari va madaniy-maishiy xizmatlardan samarali foydalanish darajasiga hamda ovqatlanish tarkibi va miqdoriga bog'liq. Inson kapitali tushunchasi ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabni aniqlab beradi.

Ijtimoiy xizmatlar sohasiga sarflangan vaqt va mablag' inson kapitaliga sarflangan investitsiyalardir. Investitsiyalar natijasida shakllangan bilimlar va ko'nikmalar insonning jismoniy, aqliy va ruhiy sifatlari hamda qobiliyatlarini ifodalaydi. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar negizida shaxs, davlat va umum jamiyat manfaati yotadi. Inson kapitaliga sarflangan investitsiyalar hozirgi vaqtda iqtisodiyot uchun eng samarali va tez o'zini qoplaydigan investitsiya hisoblanadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida bu haqda to'xtalib, "Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshidan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.

Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.⁴⁶

Inson kapitaliga qilinadigan sarf strategik nuqtayi nazardan qaraladigan bo'lsa, eng foyda keltiruvchi va eng maqbul yo'l hisoblanadi. Davlat tomonidan inson kapitaliga e'tibor qaratilishi mehnat unumdorligining oshishiga va yuqori iqtisodiy rivojlanishga erishishga olib keladi. Qaysiki, mamlakatda inson kapitalining ahamiyati pasaysa va aholi kambag'allashsa o'sha davlat rivojlanishdan orqada qoladi.

Alohida korxonalar yoki umum jamiyat iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi birlamchi omil-inson va uning salohiyatidir. Mehnat intizomiga rioya qilish, ish vaqtidan unumli foydalanish, fan-texnika yutuqlarini keng joriy etish va qabul qilish, jamiyatni samarali boshqarish insoniy kapitalning qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Jamiyatda ishga yaroqli ishchilar soni – bu miqdoran o'lchamdir. Ularning sifat jihati esa – bu ishlovchilarning malaka mahorati, bilimi, tajribasidan iborat. Insondan hech ajratib bo'lmaydigan boylik-bu uning ish kuchidir. Bu uning jismida mujassasmlashgan qobiliyatidir. Bu qobiliyat ortib, yangi-yangi qiymatlar yaratadi. Shunga ko'ra uni inson kapitali deb atashadi.⁴⁷

Inson asosiy ishlab chiqarish kuchi uning mehnat qobiliyati bo'lmasa, jamiyatda hech qanday iqtisodiy o'sish bo'lishi mumkin emas.

Ma'lumki, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan iqtisodiy resurslarning harakatiga va ulardan samarali foydalanishga bog'liq. Axborotlashgan jamiyat sharoitida shunday resurslardan biri inson kapitali hisoblanib u bir qancha shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadi.

O'tgan asrda ko'plab sanoati rivojlangan mamlakatlarda fan-texnika taraqqiyoti va yangi shakllangan qarashlar zahirida insonga munosabat tubdan o'zgaradi va inson iqtisodiy samaradorlikka erishishning muhim sharti sifatida

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaat nomasi // Xalq so'zi gazetasi 2019 yil. 29 dekabr № 271.

⁴⁷ Jumaev Ch. Safarov N. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: "Tafakkur", 2009, - B. 28.

e'tirof etilib, uni rivojlantirish bilan bog'liq qator vazifalar hal qilish kerakligi belgilab olindi.

Inson iqtisodiy munosabatlar tizimida kapital sifatida qabul qilinib, "oddiy" kapital singari korxonaga, oilasiga qolaversa butun jamiyatga foyda keltirishi o'z tasdig'ini topdi.

Yangi sharoitda inson salohiyatining o'sishiga erishmay turib, iqtisodiy rivojlanib bo'lmasligi ko'plab ishbilarmon va boshqaruvchilar tomonidan o'tgan asrdayoq tan olinganidi. Xususan, avtomobil sanoatidagi mashhur amerikalik tadbirkor G.Ford korxonasi samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida ishchi kuchi salohiyatiga e'tibor qaratgan va yuqori natijalarga erishgan. G.Ford ishchilarning kasb-mahoratini oshirish bilan birga, ularning ishlashi va dam olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga hamda ishchilarning ishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga harakat qilgan.

Keyinchalik inson kapitalini boshqarish va takomillashtirish masalalari keng yoyilib boshqa korxonalarda ham katta qiziqish uyg'ota boshladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab korxonalarda ishchi xodimlar sotsiologlar, psixologlar va iqtisodchilar tomonidan maxsus kuzatilib borildi.

Mashhur ingliz iqtisodchisi U.Petti "Mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasi" ekanligini ta'riflagan. Mehnatning mazmuni va amalga oshishida inson birinchi o'rinda turadi. Mehnat inson hayotining va jamiyat boyligining manbai birinchi va asosiy sharti hisoblanadi. Mehnatning mazmuni insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi sifatida har tomonlama rivojlantirish muammosini hal qilishni talab qiladi. Bu mehnat samaradorligining oshishiga va mehnat qilish qobiliyatining faollashuviga xizmat qiladi.

4.4.JAHONDA TA'LIM TIZIMINING YEVROPA, AQSH VA OSIYO MODELLARI: UMUMIY JIHATLARI VA FARQLARI

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilgan konsepsiyalariga e'tiborni qaratdi. Bu

paytda aholi turmush darajasi va farovonligi, insoniy kapital degan nazariyalar paydo bo'ldi. Ushbu konsepsiyalar negizida jamiyatning muhim ijtimoiy muammolarini yechish bilan bog'liq bo'lgan, insonning farovon hayot kechirishiga qaratilgan g'oyalar yotadi. Shu bois ham mazkur mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari sifatida ijtimoiy xizmatlarni asos qilib olmoqda. Milliy taraqqiyot modelida milliy an'analar, aholi mintaliteti va ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarni hisobga olish, ilm talab sohalarni va inson salohiyatini ustun darajada rivojlantirish "Yangi industrial mamlakatlar"ning yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlashda asosiy omilga aylanmoqda.

Masalan, XX asrning 60 yillaridan boshlab Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari yoxud "to'rt ajdarho" nomi bilan mashhur bo'lgan Gonkong, Singapur, Tayvan va Janubiy Koreya davlatlari yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini namoyish qila boshladi. Mazkur iqtisodiy o'sish ta'lim tizimi ta'siri doirasida amalga oshib bordi va ta'lim xizmatlarini rivojlantirish davlat moliya va budjet siyosatining o'zagini tashkil etdi.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, ta'lim xizmatlar bozorini rivojlantirish, ishlab chiqarishda va xizmat ko'rsatishda turli mulkchilik shakllarining ishtirok etishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muhit yaratish siyosatini olib borayotgan O'zbekistonda malakali mutaxassislar va erkin mehnat resurslari mavjudligi hamda ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan intilishining kuchliligi, iqtisodiyotda mazkur sektorning rivojlanishini rag'batlantiradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim xizmatlari rivojlangan xorijiy mamlakatlarga nisbatan yetarli natijalarga erishmaganligi hamda uning samarali rivojlanishida ayrim kamchilik va muammolar mavjudligi tufayli uni chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Ta'lim sohasi rivojlanishining jahon tajribalarini o'rganish, joriy muammolarini hal etishga yo'l topish va ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda bo'lajak tendensiyalarni bashorat qilish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Yoki sohada yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni tartibga solishning prinsipial yangi

modeliga o'tishga qulaylik yaratadi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim xizmatlari sohasini boshqarish, moliyalashtirish va sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish tajribalarini o'rganish asosida sohani rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash mumkin.

Mazkur mamlakatlarning ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida davlat korxonalarini bilan bir qatorda, nodavlat muassasalar ham faoliyat yuritadi hamda davlat korxonalarida budjetdan tashqari tadbirkorlik asosida qo'shimcha mablag'lar shakllantirilib korxonalar moliyaviy qudratini oshiradi. Masalan, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida nodavlat ta'lim sektori tez rivojlanmoqda. Buni ikkita omil bilan asoslab berish mumkin: birinchidan, davlat ta'lim sohasidagi barcha xarajatlarni qoplay olmayapti va shu sababli nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishiga imkoniyatlar yaratib bermoqda; ikkinchidan, biznes, huquq, komp'yuter texnologiyalari va chet tillariga bo'lgan talabning oshib ketishi tufayli o'qishi uchun o'zi mablag' to'lashga tayyor xohlovchilar soni ko'payib bormoqda.⁴⁸

Ta'lim muassasalarida qo'shimcha byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish maxsus kurslar, maydonlarni ijaraga berish, pullik loyihalar va boshqa shu kabi faoliyatlarning hisobiga amalga oshirilmoqda.

Ammo nodavlat ta'lim muassasalari hukumat nazorati ostida bo'ladi. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreyada o'qish uchun to'lovlarning yuqori chegarasi belgilab qo'yilgan, Xitoyda esa nodavlat ta'lim muassasalari o'z daromadlarini faqat o'z faoliyatlarini takomillashtirishga sarflashlari shart.⁴⁹

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ko'plab mamlakatlarda nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun davlat byudjetidan ko'mak beriladi. Masalan, Daniyada nodavlat ta'lim muassasalari harajatlarining 80 foizi davlat byudjeti hisobidan qoplanadi, qolgan 20 foizi ota-onalar tomonidan. Yaponiyada esa davlat

⁴⁸ Турдимов.Ж . Негосударственная система образования: преимущества и методы организации. //Экономическое обозрение –Т.: 2003. - №5. -С.62.

⁴⁹ Турдимов.Ж . Негосударственная система образования: преимущества и методы организации //Экономическое обозрение –Т.: 2003. - №5. - С.62.

o'z byudjetining 8 foizini ta'lim sohasiga ajratadi va bu mablag'larning uchdan biri nodavlat ta'lim muassasalarini moliyalashtirishga ketadi.⁵⁰

So'nggi 50 - 60 yil ichida Yaponiyada iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi tamoyillariga o'tish chora-tadbirlariga jiddiy e'tibor qaratildi. Bunda asosan bozor talabi asosida yangi mahsulotlarga qaratilgan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bilan bir vaqtda ta'lim xizmatlarini rivojlantirish muhim o'rin tutdi.

Ta'lim xizmatlari Yaponiyada inson resurslarini rivojlantirishning muhim omili sifatida qabul qilingan. Korxonalar va firma egalari xodimlarni boshqarishda ularning ta'lim xizmatlardan bahramand bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi. Ularning o'qishi, dam olishi, davolanishi, sport o'yinlarini tashkil qilish va sayohatlarga chiqishi korxonalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bu hol ta'lim xizmatlarga bo'lgan talabni oshirish bilan birga ularning jadal rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Yapon mo'jizasining siri ham inson kapitalini rivojlantirishga qaratilayotgan sa'y-harakatlar bilan uzviy bog'langan. Bunda ijtimoiy xizmatlar xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalari ustun darajada ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu sohalarga bozor tamoyillarini joriy etishda uning ijtimoiy bozorligiga alohida e'tibor qaratilgan va davlat ulushi saqlab qolingan.

Ta'lim tizimi Yaponiyada O'zbekistondagidek, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi. Ularning katta qismi xususiy muassasa hisoblanib, 77 foizdan oshiq bola ularda tarbiyalanadi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va uch yillik quyi-o'rta ta'limda o'qish majburiydir. Ushbu to'qqiz yillik majburiy ta'lim asosan davlat, mahalliy prefektura va munitsipalitetlar tomonidan moliyalashtiriladi. Ta'lim to'g'risidagi va maktab ta'limi to'g'risidagi qonunlariga muvofiq, mazkur ta'lim tizimi bepul amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtigacha bo'lgan keyingi pog'onadagi uch yillik yuqori umumta'lim maktablari majburiy bo'lmay to'lov asosida amalga oshiriladi. Yuqori umumta'limdan keyingi kasb-hunar ta'limi bo'lib, u pullik va bepul shaklda amalga oshiriladi. Xususan, quyi va

⁵⁰ Турдимов.Ж . Негосударственная система образования: преимущества и методы организации //Экономическое обозрение –Т.: 2003. - №5. - С.62.

maxsus tayyorlov kollejlarning 90 foizi xususiy hisoblanadi.

Oliy ta'limni 4-6 yil davomida universitet va institutlarda olish mumkin bo'lib, bu o'quv yurtlarining ko'pchiligini xususiy oliy o'quv yurtlari tashkil qiladi. Ya'ni universitet va institutlarning umumiy tarkibida 70 foizi ularning hissasiga to'g'ri keladi.⁵¹ Ushbu oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar, mamlakatdagi jami talabalar sonining 80 foizini tashkil qiladi (4.4.1-jadval).

4.4.1-jadval

Dunyoning qator davlatlaridagi xususiy oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar ulushi (mamlakatlardagi jami talabalar soniga nisbatan foiz hisobida)⁵²

Mamlakatlar	Xususiy oliy o'quv yurtlarida talabalar ulushi, foiz hisobida
Yaponiya, Janubiy Koreya	80
Chili	74
Braziliya	68
Filippin	66
Indoneziya	61
Paragvay	58
Kolumbiya	55

Moliyaviy muammolar Yaponiya oliy o'quv yurtlarini faqat o'z faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'yicha xizmat ko'rsatishdan tashqari ham qo'shimcha mablag' topishga majbur etadi. Masalan, ko'pgina universitetlar tarkibiga tibbiyot fakul'tetlari ham kiritilgan. Yaponiyada oliy o'quv yurtlari byudjetiga kelib tushadigan mablag'larning qariyb beshdan bir qismini universitet shifoxonalaridan tushadigan daromad, 12 foizni o'qitish va imtihon olish uchun to'lovlar, 3 foizini bankdan olingan qarzarlar va yana shuncha xususiy sektorning ilmiy-tadqiqot va

⁵¹ Каримова Д. Ярашова В. Сфера услуг: сравнительная оценка и перспективы развития. //Рынок деньги и кредит –Т.: 2004. - №5. – С. 49.

⁵² Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruza -T.: 2007-2008. – B.137.

tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha bo'limlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan daromadlar tashkil qiladi.⁵³

Yaponiyada oliy ta'lim tizimi talabalarning ta'lim uchun to'lovlari va davlat byudjeti tomonidan ajratilayotgan mablag'lar bilan birga, xayr-ehson va homiylik hamda turli ilmiy izlanishlar doirasidagi xizmatlar va boshqa tadbirkorlik asosidagi mablag'lar hisobiga o'z faoliyatini rivojlantirib boradi.

Shu boisdan Yaponiya ta'lim tizimi mamlakat umumbyudjeti uchun nisbatan arzon tushmoqda: Yaponiya hukumatining ta'limga qiladigan sarfi yalpi milliy mahsulotning 5,5 – 6 foizini tashkil etadi (AQShda bu ko'rsatkich 7,1 foizni, Buyuk Britaniyada esa 7,7 foizni tashkil etadi). Shunga qaramay yapon o'quvchilari va talabalari ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha boshqa mamlakatlardagi tengdoshlaridan o'zib ketgan. Ko'rinadiki, yapon ta'lim tizimining asosiy ustunligi, o'quv yurtlarini moliyalashning o'ziga xosligiga borib taqaladi.: nodavlat sho''baning ahamiyati boshlang'ich ta'limdan oliy ta'limgacha tomon oshib boradi.⁵⁴ Ko'p hollarda davlat ta'lim muassasalariga nisbatan nodavlat ta'lim muassasalariga talab yuqori bo'ladi.

Biznes va tadbirkorlik – AQSh iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. Shu bois biznes va tadbirkorlik ta'lim tizimini ham chetlab o'tmagan. Jumladan, AQShda marketing uyushmasi ta'lim marketingi masalalari bo'yicha har yili anjumanlar tashkil etadi.⁵⁵

O'rta maktablar va oliy o'quv yurtlari xususiy yoki davlat qaramog'ida bo'lib, davlat o'rta maktablari tekin, xususiy o'rta maktablar pullik hisoblanadi. AQShda har bir bola davlatga qarashli maktabda bepul o'qishga davogarlik qilishi yoki mamlakatdagi 30 ming atrofidagi xususiy maktablarda tahsil olishi mumkin. Shuningdek, xususiy oliy o'quv yurtlari keng rivojlangan bo'lib, ular jami oliy o'quv yurtlarining 55 foizini tashkil qiladi va unda jami talabalarning 22 foizi

⁵³ Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruza - T.: 2007-2008. – B.- 139.b.

⁵⁴ Saidov M.X.. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash. -T.: "Moliya". 2002. – B.37.

⁵⁵Rahmonov F. Ta'lim sohasida marketing. //Kasb-hunar ta'limi, ilmiy uslubiy jurnali. –T.: 2005. - №1. – B.7.

tahsil oladi.⁵⁶

Davlatga tegishli oliy o'quv yurtlar, asosan, mahalliy shtat budjetlaridan moliyalashtirilganligi bois ham mahalliy aholi uchun bunday oliy o'quv yurtlarida o'qishga moliyaviy imtiyozlar yaratiladi, boshqa shtatdan kelganlar esa bu kabi o'quv yurtlarida o'qish uchun qariyb ikki barobar ko'p pul to'lashga majburdirlar.

AQSh universitetlarining yotoqxona, sartoroshxona, oshxona va shu kabi xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarida ko'proq talabalarning o'zlari ishlashadi. Bu universitet uchun ham afzallikka ega bo'lib, chetdan qabul qilingan ishchi xodimga ish haqi to'lashga nisbatan talabalarga ish haqi to'lash yengil ko'chadi va universitet mablag'i tejaladi.

AQSh oliy o'quv yurtlarida sportga alohida e'tibor berilib, yaxshi sportchilarga maxsus stendiyalar ajratilgan va tekinga o'qish mumkinligi bilan rag'batlantiriladi. Chunki sportchilar va sport to'garaklari universitetga ko'p miqdorda pul va universitetni reklama qilish natijasida qo'shimcha obro' keltiradi.

Universitetlarda qo'shimcha pul yig'ish bilan shug'ullanuvchi bo'limlar mavjud bo'lib, ular mablag'larning to'lovlaridan tashqari turli dasturlar yaratish evaziga har xil jamg'armalardan pul tushirish, homiylarni izlab topish va turli tadbirlar, ma'ruzalar, maslahatlar, qabullar uyushtirish orqali ham universitet uchun pul topishadi.⁵⁷ Universitetlar katta korporatsiyalar va boshqa korxonalar bilan ko'plab shartnoma asosida hamkorlik ham qilishadi. Ko'pgina yirik universitetlar atrofida "Texnopolis" yaratiladi. "Texnopolis" - bu ilg'or texnika bilan shug'ullanadigan kompaniyalar va universitetlar birligi.⁵⁸

AQShda o'qishga pul sarf qilish ko'p foyda keltiruvchi soha bo'lib, hisoblanib, har xil firmalar va korxonalar buni yaxshi tushunishadi va universitetlar hamda talabalar bilan aloqa o'rnatishga juda qiziqishadi. Chunki ilmiy-tekshirish ishlari ham asosan universitetlarda amalga oshiriladi.

⁵⁶ Негосударственная система образования: преимущества и методы организации //Экономическое обозрение –Т.: 2003. - №5. - С.62.

⁵⁷ Fayzullaev A.O. Inson, siyosat, boshqaruv – Т.: "O'zbekiston". 1995. - B.171.

⁵⁸ Fayzullaev A.O. Inson, siyosat, boshqaruv – Т.: "O'zbekiston". 1995. - B.171.

Bundan tashqari, universitetlarning o'zida turli buyumlar ishlab chiqilib talabalarga sotiladi. Jumladan, Kaliforniya universitetida o'qiyotganligini ta'kidlash uchun bu universitetning emblemalari chizilgan maykalarni kiyishadi. Universitet do'konida shu kabi maykalar juda qimmat, 60 dollargacha bo'lishi mumkin.⁵⁹

Xullas, AQSh, Avstraliya va qator iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aksariyat universitetlar bozor munosabatlarining teng huquqli ishtirokchisi hisoblanadi. Ular ta'lim xizmatlarini, o'zining tadqiqot faoliyati natijalarini sotish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, kichik ilm talab va innovatsiya korxonalarini tashkil etish orqali katta mablag' ishlab topmoqda. Yoxud ta'lim xizmatlarini eksport qilish xorijiy mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlarining byudjetdan tashqari daromad manbaiga aylanib bormoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada bunday daromad yiliga 5,3 milliard AQSh dollaridan ortadi. AQShdagi oliy o'quv yurtlari chet ellik talabalarni o'qitishdan hukumat tomonidan ajratiladigan byudjet mablag'laridan ko'ra bir necha barobar ko'p mablag' ishlab topadi.⁶⁰

Dunyoning ko'plab mamlakatlari qatorida MDH davlatlarida ham ta'lim muassasalariga byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish va nodavlat muassasalarni shakllantirish muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Rossiyada xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarining hamda xususiy oliy o'quv yurtlarining rivojlanayotganligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, mamlakatda nodavlat oliy o'quv yurtlarining hissasi 35 foizni va ularda o'qiyotganlar umumiy talabalar sonining 10 foizini tashkil qiladi.⁶¹ Shu bilan birga davlatga tegishli oliy ta'lim muassasalari ko'plab pullik loyihalar ustida ish olib bormoqdalar. Rossiyaning "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida davlat va munitsipal o'quv yurtlari aholiga qo'shimcha to'lov asosida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish ta'kidlangan va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish

⁵⁹ Fayzullaev A.O. Inson, siyosat, boshqaruv – T.: "O'zbekiston". 1995. - B.180.

⁶⁰ Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruza -T.: 2007-2008. - B. 139.

⁶¹ Каримова Д. Ярашова В. Сфера услуг: сравнительная оценка и перспективы развития. //Рынок, деньги и кредит.-Т.: -№5. 2004. - С. 49.

uchun huquqiy baza yaratilgan.⁶² Hozirgi paytda turli xil byudjetdan tashqari pul mablag'larini shakllantirish bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan o'quv yurtlari mavjud.

Rossiyada bozor sharoitiga muvofiq ta'lim tizimini boshqarishning nomarkazlashtirish tamoyili amalga oshmoqda va rivojlanmoqda. Davlatning ta'lim xizmatlariga nisbatan, iste'molchi va buyurtmachi sifatidagi roli oshib bormoqda. Davlatning tezda o'zgaruvchan bozor talablariga javob bera olmasligi ta'lim tizimida nodavlat sektorining shakllanishiga olib keldi.⁶³

Ko'plab mamlakatlarda qashshoq oilalarning farzandlarini maktablar, ayniqsa xususiy maktablarda o'qitishdagi cheklangan imkoniyatlari muammolarini hal etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu muammo ayniqsa, dunyoning kam rivojlangan va iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlangan qator mamlakatlari uchun ham dolzarb hisoblanadi. Bangladesh, Buyuk Britaniya, Kolumbiya, Puerto-riko va Chilida ushbu muammo qashshoq oilalarga bolalarini xususiy o'rta maktablarda o'qitish uchun vaucher berish orqali hal e'tilmoqda. AQShdagi qashshoq oilalar ham (yiliga daromadi 25 ming dollardan kam bo'lgan) shunday vaucherlar olmoqda.⁶⁴

Ko'rinadiki, ta'lim sohasi har qanday davlatning ustuvor siyosati hisoblanishi, diqqat markazida bo'lishligi, xususiy bilan birga davlat sektorining qo'shib olib borishligi evaziga yuqori iqtisodiy natijalarga erishishiga sabab bo'layotganligini bildiradi. Shu bois ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim pirinsiplariga asoslanishi va inson taraqqiyotiga qaratilishi kerak.

Tayanch so'z va iboralar: ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi, aholining tafakkuri va madaniyatini rivojlantirishda, birlamchi bo'g'in, maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish, o'rta ta'limning vazifalari, inson kapitali, shakllanishi, insonda mujassamlashgan foyda keltirish qobiliyati, xorijiy tajriba, davlat va

⁶² Жильцов.Е.Н, Ломанова П.Н. Социальная сфера в рыночных условиях - М.: "ТЕИС". 2004. – С.130.

⁶³ Жильцов.Е.Н, Ломанова П.Н. Социальная сфера в рыночных условиях -М.: "ТЕИС". 2004. - С.119.

⁶⁴ Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruza -Т.: 2007-2008. - В. 139.

nodavlat ta'lim.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari nimalardan iborat?

- A. Ta'limning va tarbiyaning yosh avlodga qaratilganligi.
- B. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi.
- D. Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik harakterda ekanligi.
- E. Ta'limning va tarbiyadan barcha manfaatdorligi.

2.O'zbekiston respublikasida ta'lim tizimining eshiklari hamma uchun ochiqligi konstitutsiyaning nechanchi moddasida belgilangan?

- A. 40-moddasida belgilangan.
- B. 41-moddasida belgilangan.
- D. 42-moddasida belgilangan.
- E. 43-moddasida belgilangan.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori qachon qabul qilindi?

- A. 30.09.2017- yilda.
- B. 31.09.2017 -yilda.
- D. 30.09.2018 -yilda.
- E. 31.09.2018 -yilda.

4. Oliy ta'limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

A.Davlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash.

B.Barcha fuqarolarning oliy ma'lumot olishlarini ta'minlashga erishish.

D.Tarbiya masalasini yuqori o'ringa chiqarish va raqobatbardash, tor mutaxassisli kadrlarni tayyorlash.

E.Inson kapitalini rivojlantirish va halqaro standartlarni joriy etish.

5. Inson kapitali bu:

A. Insonning moddiy imkoniyati.

B. Insonning ma'lumoti, mutaxassisligi.

D. Insonning ko'p yillik mehnatining samarasi, ish tajribasi, malakasi va ishchanligi.

E. Insonda mujassamlashgan foyda keltirish qobiliyatining muhim o'lchovidir.

6. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotining qaysi kontseptsiyalariga ko'proq e'tiborni qaratdi.

A. Siyosiy yo'naltirilgan.

B. Ijtimoiy yo'naltirilgan.

D. Iqtisodiy yo'naltirilgan.

E. Moddiy yo'naltirilgan.

7. XX asrning 60 yillaridan boshlab Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishishga ko'proq qaysi sohani asos qilib oldi?

A. Mazkur iqtisodiy o'sish qishloq xo'jaligi tizimi ta'siri doirasida amalga oshib bordi.

B. Mazkur iqtisodiy o'sish sog'liqni saqlash tizimi ta'siri doirasida amalga oshib bordi.

D. Mazkur iqtisodiy o'sish ta'lim tizimi ta'siri doirasida amalga oshib bordi.

E. Mazkur iqtisodiy o'sish ijtimoiy himoya tizimi ta'siri doirasida amalga oshib bordi.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplarini sanab bering.

2. Maktabgacha ta'limni isloh qilishdan ko'zlangan maqsad.

3. Oliy ta'limning asosiy vazifalarini sanab bering.

4. Oliy ta'limni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari nimalardan iborat?

5. Mehnat bozorida bitruvchilarga bo'lgan talab va taklifni muvozanatga keltirish yo'llarini aniqlang.

6. Inson kapitali nimani anglatadi?

7. Inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar negizida nima yotadi?

8. Rossiyada davlatning ta'lim xizmatlariga nisbatan, iste'molchi va buyurtmachi sifatidagi roli oshib borayotganligini tushuntiring.

9. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limni byudjetdan tashqari moliyalashtirishdagi tajribalar haqida gapirib bering.

5-mavzu. UY- JOY, KOMMUNAL XO'JALIGINING ISLOH QILINISHI

Reja:

5.1. Aholi farovonligini ta'minlashda uy-joy kommunal xo'jaligining o'rni

5.2. Uy-joy, kommunal xo'jaligini isloh qilishning tashkiliy, huquqiy va institutsional asoslari

5.3. Aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash, maqsadli dasturining amalga oshirilishi

5.1. AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHDA UY- JOY KOMMUNAL XO'JALIGINING O'RNI

Hozirgi kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholi farovonligini, turmush darajasi va sifatini oshirishga yo'naltirilganligidadir.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sub'ektlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar aholi farovonligini ta'minlashning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uy-joy kommunal sohasidagi yangi bosqich aholi farovonligini ta'minlash, ularning o'z hayotidan mamnun bo'lib yashashlarini kafolatlash mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning pirovard maqsadidir. Bunda uy-joy kommunal sohasining samarali faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning yangi

mexanizmlarini joriy etish fuqarolar turmush darajasini yaxshilashga yetarlicha imkon beradi. Aholi turmush darajasi va jamiyatimizdagi ijtimoiy muhit muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan uy-joy kommunal sohasining samarali faoliyat ko'rsatishi bilan uzviy bog'liq.

Shu bois O'zbekistonda amalga oshirilayotgan uy-joy va kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy o'zgartirishlarning uzviy tarkibiy qismi hisoblanib, davlatimiz tomonidan keng qamrovli dasturlar asosida shahar va qishloqlarda uy-joylarni qayta qurish, obodonlashtirish va takomillashtirish ishlariga qaratilgan.

Darhaqiqat, kommunal xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanib borishi va mazkur sohaning faoliyat samaradorligi, nafaqat aholining munosib yashash sharoiti sifatini, balki jamiyatning rivojlanib borayotgan madaniyati, uning maishiy va turmush tarzi darajasini ifoda qilgan holda iqtisodiy salohiyatining o'sishi va investitsiyalar jalb qilish uchun muhim shart-sharoitlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Kommunal xo'jaligining rivoji ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirishda, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, qulay va farovon yashashi, mazmunli dam olishi, vaqtning tejalishi va undan mazmunli foydalanish uchun sharoitlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Kommunal xizmatlar boshqa xizmat turlaridan qator belgilari bilan farq qiladi. Shuning uchun kommunal xo'jaligi funksiyalarini milliy iqtisodiyotga xizmat ko'rsatish sohasining mustaqil tarmog'iga ajratish xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish va tartibga solishning izchil yo'li hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning tarmog'i sifatida kommunal xo'jaligi turli xildagi korxonalaridan tarkib topgan. Tarmoqning rivojlanishiga qarab xizmat ko'rsatish turlari va shakllari rivojlanadi, ularning ayrimlari esa milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmoqlariga ajratiladi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar, ko'rsatadigan xizmat turidan kelib chiqib, asosan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- elektr energiya ta'minoti;

- gaz ta'minoti;
- suv ta'minoti va oqova quvir xo'jaligi;
- issiqlik ta'minoti;
- uy-joy fondini ta'mirlash qurilishi;
- muhandislik xizmati ko'rsatish;
- maishiy va qattiq chiqindilarni tashish va qayta ishlash;
- ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari.

Bular faoliyatining sifat va samaradorligi aholi turmush darajasi, yashash shart-sharoitlarining holatini aks ettiradi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ko'maklashadi hamda rag'batlantiradi.

Uy-joy, kommunal xo'jaligi holatining zamonaviy talqini aholi turmush farovonligining sifatini anglatadi. Inson shaxsining rivojlanishi va kamol topishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosini aholi yashashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish tashkil qiladi. Bu o'z navbatida uy-joy kommunal xo'jaligi korxonalari, jumladan xususiy uyjoy mulkdorlari shirkatlari faoliyati bilan bog'liq. Ma'lumki, uy xo'jaligi insonlarning uy bilan bog'liq yashash sharoitlarini yaxshilash, uylarning qulayligini va turmush darajasini oshirish choralarini amalga oshirish, aholiga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, shahar va boshqa aholi punktlarini markazlashgan suv hamda gaz, elektr ta'minoti bilan ta'minlash va boshqalardan iboratdir.

O'zbekistonda aholi soning jadal o'sayotganligi uy-joy kommunal xo'jaligi xizmatlariga ham tabora talab oshib bormoqda. Shu bilan birga aholi daromadlarinig o'sishi sifatli xizmatlarga bo'lgan talabni shakllantirmoqda.

O'zbekistonda kommunal xo'jaligi xizmatlarining rivojlanishida ayniqsa, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash ustuvor sohaga aylangan va Farg'ona, Toshkent sharlarida 100 foizlik natijaga erishildi (5.1.1-jadval).

5.1.1-jadval

Hududlar bo'yicha kvartira (uy)larning ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi (jami kvartira (uy)larga nisbatan foizda) ⁶⁵

Hududlar	2010 yil	2015 yil	2019 yil
O'zbekiston Respublikasi	82,5	81,4	76,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	69,6	67,7	52,9
Viloyatlar			
Andijon	89,8	91,9	97,8
Buxoro	61,0	57,7	39,9
Jizzax	74,1	70,3	74,5
Qashqadaryo	82,1	73,9	75,1
Navoiy	79,3	80,1	71,6
Namangan	75,9	77,5	85,6
Samarqand	84,6	86,6	59,6
Surxandaryo	81,3	80,5	74,3
Sirdaryo	80,5	82,4	84,3
Toshkent	81,2	78,8	81,5
Farg'ona	91,2	89,8	100,0
Xorazm	63,6	67,5	40,2
Toshkent sh	99,9	100,0	100,0

Shirkatlar faoliyati samarasi o'laroq, maishiy sharoitlarni ketma-ketlik bilan yaxshilab, axolining moddiy va ma'naviy darajasini ta'minlab turish bilan birga, milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mehnat samaradorligining o'sishiga va nihoyat butun ishlab-chiqarish samaradorligining o'sishiga ko'maklashishga erishiladi.

Ushbudan kelib chiqib kommunal xo'jaligi faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz).

- ✓ uy-joy sohasida normativ huquqiy hujjatlar qabul qilish;
- ✓ kommunal xizmatlarga haq to'lash tizimini takomillashtirish;
- ✓ uy-joy-kommunal sohasida xizmatlar ko'rsatishda raqobatchilik muhitini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;
- ✓ imtiyozlar va kreditlar berish;
- ✓ ta'mirlash-tiklash ishlari uchun ssudalar berish;
- ✓ ko'p kvartirali uylarni saqlash va kommunal xizmatlarga haq to'lashda kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish;
- ✓ doimiy foydalanish huquqi asosida yer uchastkalari berish;
- ✓ alohida dasturlar qabul qilish va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlar ko'rish.

Uy-joy kommunal xo'jaligining muhim jihati - bu murakkab iqtisodiy tizim bo'lib, u aholi maishiy ehtiyojlarini qondiradi. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan aholi turmushida gaz, suv, issiqlik energiyasi kabi zarur bo'lgan resurslar yetkazib berish bilan birga ularda katta miqdordagi mehnatga layoqatli aholini ish o'rinlari, daromad manbai bilan ta'minlaydi. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimining o'ziga xos xususiyati uning ko'p tarmoqliligi va turli-tuman xizmatlardan tashkil topganligidadir. U ijtimoiy sohaning moddiy-maishiy xizmatlari tarkibiga kiradi. Ko'p soha va tarmoqlardan tashkil topgan uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi o'z navbatida, turli tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asosdagi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasi korxonalar va tashkilotlarga xizmat ko'rsatadi, ular faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi infratuzilma sirasiga kiradi va rag'batlantiradi.

5.2. UY- JOY, KOMMUNAL XO'JALIGINI ISLOH QILISHNING TASHKILIY, HUQUQIY VA INSTITUSIONAL ASOSLARI

Rejali iqtisodiyotdan mamlakatimizga ham ma'muriy buyruqbozlik asosida boshqarishga asoslangan, asosiy xarajatlari byudjet mablag'lari hisobidan qoplanib

kelgan, markazlashgan ta'minot tashkilotlari tomonidan xomashyo resurslari bilan ta'minlanib kelgan kommunal xo'jaligi sohasi meros bo'lib qolganida. O'tgan kommunal xo'jaligi sohasi tarkibiy jihatdan qayta qurildi va tom ma'nodagi zamonaviy tizim barpo etildi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor munosabatlarining joriy etilishi uy-joy kommunal xo'jaligi sohasini ham to'liq isloh qilish zaruratini keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi aholisiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimini isloh qilish boshlangan paytdan o'tgan davr ichida aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tarmog'ini isloh qilishni muvofiqlashtirishga oid bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, kommunal xizmat ko'rsatishning bozor munosabatlariga asoslangan tizimiga o'tkazishning birinchi bosqichida zarur qonunchilik va normativ-huquqiy baza yaratildi. "Uy-joy kodeksi", "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida", "Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish kontsepsiya hamda bozor mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan tegishli mintaqaviy kompleks dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etildi. Kommunal xizmat ko'rsatish sohasida boshqarish tizimini isloh qilish, monopoliyadan chiqarish va xususiylashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Dastlab kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi tugatildi va uning negizida "O'zkommunxizmat" agentligi tashkil etildi. Hududiy kommunal foydalanish birlashmalari bevosita Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ixtiyoriga berildi. Uy-joy fondidan foydalanishni boshqarishning turli shakllari tashkil etilib, sinovdan o'tkazildi. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari va o'zini o'zi boshqarish jamoatchilik organlari uy-joy egalari kengashlari shakllantirildi. Iste'molchilar bilan shartnomaviy munosabatlar joriy etildi. Suv, gaz va issiqlik energiyasini hisobga oluvchi asboblarni ishlab

chiqarish tashkil qilindi, ularni ko'p xonali uy-joy binolariga o'rnatish bo'yicha ishlar olib borildi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotning ikkinchi muhim bosqichi xususiy uy-joy fondlaridan foydalanish va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarining xususiy tizimini tashkil etish bo'ldi. Bu bosqichda uy-joy mulkdorlari shirkatlarini tuzish tartibi, ularning huquqiy maqomi va davlat, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, ular a'zolarining huquqi hamda burchlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining "Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida"gi Qonunida (1999 y.) o'z aksini topdi. Uy-joy mulkdorlari shirkatlarining tashkil qilinishi binolarni saqlash va ta'mirlashni boshqarishning yangi va samaraliroq uslubini vujudga keltirdi. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari shakllantirilishining muhim jihati o'zini o'zi boshqarish demokratik tamoyillar asosida ish olib boradigan yangi turdagi ijtimoiy tashkilot yuzaga kelganligi bo'ldi. Negaki, uy-joy mulkdorlari shirkatlari istiqomat qiluvchilarga o'z rahbarlarini o'zlari saylash, o'zlarining mablag'laridan foydalanish haqida o'zlari qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, shirkatlar rahbarlari mulkdorlarga shirkat faoliyati to'g'risida va moliyaviy hisobot beradigan bo'ldi. Aytish joizki, mamlakatimizda kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha zamonaviy bozorni shakllantirish yo'lida izchil sa'y-harakatlar ro'yobga chiqarildi. O'tgan davrda qabul qilingan bir qator qonunlar sohani taraqqiy toptirishning huquqiy asos bo'ldi. Biroq aholining zamonaviy xizmatlarga bo'layotgan ehtiyoji va iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar uy-joy kommunal sohasini yanada takomillashtirish va rivojlantirishni taqozo etdi.

Aholi turmush farovonligi va uy-joy kommunal xo'jaligi rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish, kam ta'minlanganlarga arzon uy-joylar qurish, bu sohada o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish va hal qilish maqsadida, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-

sonli Farmoni bu sohada tub ma'nodagi tarixiy hujjat sifatidagi ahamiyatga ega bo'ldi.

Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilandi:

❖ aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;

❖ aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash;

❖ odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy ob'ektlar bilan ta'minlash;

❖ aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostantsiyalarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish;

❖ yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruktsiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

❖ yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan

energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

❖ teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Respublika aholisining sifatli uy-joy kommunal xizmatlari bilan qamrab olinishini tubdan yaxshilash, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida barcha tashkilotlarning o'zaro hamkorligi uyg'unlashgan texnologik zanjirini shakllantirish asosida uy-joy fondidan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, ko'p xonadonli uylarning saqlanishi talablariga rioya etilishi ustidan texnik nazoratning samarali tizimini yaratish, shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining ish sifatini oshirish va moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi PF-5017-sonli "Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni amaliyotga tadbiiq etildi. Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi hamda uning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, viloyatlar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmalari va Toshkent shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bosh boshqarmasi hamda ularning tumanlar (shaharlar)dagi bo'limlari tashkil etildi.

O'tgan davrda vazirlik tomonidan ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Yangi vazirlik huzurida ko'p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va ikkita davlat unitar korxonasi — "Ko'p xonadonli uylar, issiqlik ta'minoti ob'ektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" va "Suv ta'minoti va kanalizatsiya ob'ektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining asosiy vazifalari etib, quyidagilar belgilandi:

- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini yurgizish va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish;
- arzon ko'p xonadonli uylar qurishilishi bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilishini ta'minlash hamda eski, yaroqsiz uylar buzilishini tashkillashtirish;
- ko'p xonadonli uylarning texnik holatini monitoring qilish va joriy ta'mirlash ishlarini tashkil qilish;
- Uy-joy mulkdorlari mulkdorlarining shirkatlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- suv ta'minoti va kanalizatsiya ob'ektlarini, issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturlarini ishlab chiqish;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha takliflar berish va hakoazolarni o'z ichiga oladi.

Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimi samaradorligini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy sohaning yuksalishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham kommunal xizmatlar tizimi sohasidagi islohotlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi.

5.3. AHOLINI ARZON UY-JOYLAR BILAN TA'MINLASH, MAQSADLI DASTURINING AMALGA OSHIRILISHI

O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida turar joy deganda "Fuqarolarning doimiy yashashiga mo'ljallangan, belgilangan sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob beradigan, shuningdek belgilangan tartibda maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironlar, faxriylar, yolg'iz

qariyalar uchun internat-uylar, bolalar uylari va boshqa maxsus maqsadli uylar) sifatida foydalanishga mo'ljallangan joylar"⁶⁶ tushuniladi.

Inson huquqlari to'g'risidagi umumjaxon deklaratsiyasi qabul qilingan 1948 yildan buyon munosib turar joyga ega bo'lish munosib turmush darajasi huquqining eng muxim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Inson huquqlari to'g'risidagi umumjaxon deklaratsiyasining 25-moddasida "Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan, turar joyga ega bo'lish huquqiga egadir"⁶⁷

O'zbekistonda aholining turar joy sharoitlarini yaxshilash yuzasidan keng ko'lamli choralar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda aholining shinam uy-joylarga bo'lgan talab-ehhtiyojlarini mumkin qadar to'liq ta'minlash, uy-joy qurilishini, ayniqsa kichik shaharlar va qishloq joylarda jadal rivojlantirish, uy-joy qurilishi uchun imtiyozli uzoq muddatli ipoteka krediti berish tizimi keng joriy etilgan.

Ko'p xonadonli uylar mamlakatimizda ishlab chiqarilgan zamonaviy qurilish materiallari asosida barpo etilmoqda. Qurilishda har bir massivning bosh rejasida xizmat ko'rsatish ob'ektlari, sport maydonchalari va muhandislik tarmoqlari, hovli qismida bolalar maydoni, uy egalari dam olishlari uchun sharoitlar e'tiborga olingan. Energiyani tejaydigan mahalliy materiallar va asbob-uskunalarining yangi turlaridan foydalanishning yanada kengaytirilishi barpo etilayotgan uylarning tannarxi pasayishiga hamda aholining barcha qatlami uchun maqbul narxlar belgilanishiga xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj oilalarni dastlabki tanlash bo'yicha tizimning ochiqligi va ishonchliligi tamoyilidan kelib chiqib, qishloq joylarda arzon uy-joylarni qurishda talabgorlarni tanlab olishni amalga oshirishga ko'maklashmoqda.

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi //http://www.lex.uz.

⁶⁷ Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004. – B.35.

So'nggi yillarda yangilangan namunaviy loyihalar asosida arzon uy-joylar qurish hisobiga qishloq aholisini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini yaxshilash, namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joylar qurish hisobiga qishloq aholisining hayot darajasi va sifatini oshirish, qishloqda muhandislik va transport kommunikatsiyalarini, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini jadal rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 21-oktyabrdagi PQ-2639-sonli "2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi Qarori hamda 2018-yil 24-noyabrdagi PQ-4028-son "Qishloq joylarda va fuqarolarning ayrim toifalari uchun arzon uy-joylar qurishni kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur qaror ijrosi qishloq aholisining keng qatlami uchun zamonaviy va shinam uylardan foydalanish darajasini tubdan oshirishga, yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga va qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Binobarin, qarorda qishloq joylarda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish va muhtoj oilalarni arzon uy-joy bilan ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilab qo'yildi:

- uy-joylarni hududiy optimal joylashtirish hamda ular uchun faqat qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va o'rmon fondi yerlari toifalariga kirmaydigan yer uchastkalarini taqdim etish hisobiga yer resurslaridan oqilona foydalanish;

- kam ta'minlangan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan oilalar uchun mo'ljallangan arzon uy-joylar qurish ko'lamini kengaytirish;

- uy-joylarning narxini pasaytirish va energiya samaradorligini oshirish maqsadida me'moriy va texnik yechimlarni maqbullashtirish, mahalliy qurilish

materiallari, uskunarlar va zamonaviy devorbop materiallarni keng qo'llashni nazarda tutuvchi yangi namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylarni qurish;

- uy-joylarni taqdim etishda manzillilik, shaffoflik va ijtimoiy adolatni ta'minlash tamoyillarini inobatga olgan holda qishloq joylarda yashovchilarning turmush sharoitlarini yaxshilash va uy-joyga muhtoj oilalarning ehtiyojini qondirish;

- muhandislik-transport kommunikatsiyalari va infratuzilma ob'ektlari qurilishini "Obod qishloq" dasturi bilan o'zaro uyg'unlikda tashkil etish, shuningdek, qishloq joylarda samarali kanalizatsiya tizimlarini joriy etish.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2019 y. PQ-4201-son "Obod qishloq" dasturini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida "Obod qishloq" loyihasi amaliyotga tadbiriq etilmoqda.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar majmualarining qurilishi dasturi respublika rahbariyati tomonidan aholi farovonligini yuksaltirish yo'lida olib borilayotgan oqilona siyosatning yana bir amaliy natijasidir.

Fuqarolarning turar-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha ko'rinish va mazmun kasb etganligini ta'kidlab o'tish joiz. Zero, bozor munosabatlari sharoitiga kelib kishilardagi boqimandalik tuyg'usi barham topa boshlashi bilan birgalikda, davlatga tegishli bo'lgan turar-joy binolarning katta qismi xususiylashtirildi. Shu bilan birga, xususiy mulkchilikka keng e'tibor berilishi munosabati bilan turar-joylarni xususiylashtirish, yakka tartibda uy-joy qurish, davlatga tegishli bo'lmagan turli tashkilotlarning turar-joylarni qurishi va ularni sotishi kabi aholini uy-joyga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash yo'llari paydo bo'ldi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda zamonaviy uy-joy qurilishining huquqiy asoslari yaratilgan va bu jarayon aholi uchun qulay va maqbul shartlar asosida, uzoq muddatga mo'ljallangan va past foizli kredit berish

yo'li bilan amalga oshirilmoqda. Zero, bugungi kunda aholining keng qatlami uchun zamonaviy uy-joyga ega bo'lish imkoniyati va uning qonunchilik bazasi mavjudki, bu holat halqimizning turmush darajasini oshirish va farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Tayanch so'z va iboralar: aholi farovonligini ta'minlash, uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibi, ko'rsatadigan xizmat, o'ziga xos xususiyati uning ko'p tarmoqliligi va turli-tuman xizmatlar, uy-joy fondi, uy –joy mulkdorlari shirkatlari, arzon uylar qurish, yangi ichimlik suvi tarmoqlari, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalar.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar:

- A. elektr energiya ta'minoti, yo'l qurilishi, bino inshootlar qurilishi.
- B. elektr energiya ta'minoti, gaz, suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti.
- D. elektr energiya ta'minoti, obodonlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya.
- E. elektr energiya ta'minoti, sanitariya va gigiena, maishiy ta'minot.

2. Uy-joy kommunal xo'jaligining muhim jihati – bu:

- A. Aholi moddiy ehtiyojlarini qondiradi.
- B. Aholi ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi.
- D. Aholi madaniy ehtiyojlarini qondiradi.
- E. Aholi maishiy ehtiyojlarini qondiradi.

3. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari tashkil qilinishidan ko'zlangan asosiy maqsad:

- A. Binolarni saqlash va ta'mirlash.
- B. Binolarni qurish, aholiga sotishni tashkil qilish va eskilarini buzish.
- D. Binolar atrofini obodonlashtirish va ichimlik suvi bilan ta'minlash.
- E. Binolarni zamonaviylashtirish va qurish.

4. "Obod qishloq" loyihasining amaliyotga tadbiiq etilishi.

- A. Qishloq qurilishiga xorijiy mutaxassislar jalb qilinadi.
- B. Qishloq bilan shahar o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi, qiyofasi o'zgaradi.
- D. Qishloqlar to'la shaharga aylantiriladi va ko'p qavatli uylar barpo etiladi.
- E. Qishloq aholisi to'la ish bilan band qilinadi, yirik korxonalar barpo etiladi.

5. Uy-joy qurilishi uchun berilayotgan kredit turini aniqlang.

- A. Imtiyozli uzoq muddatli ipoteka krediti joriy etilgan.
- B. Imtiyozli uzoq muddatli iste'mol krediti joriy etilgan.
- D. Imtiyozli uzoq muddatli qurilish krediti joriy etilgan.
- E. Imtiyozli uzoq muddatli tijorat krediti joriy etilgan.

6. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi qachondan qayta tashkil qilindi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 - yil 18-apreldagi PF-5017-sonli Farmoniga muvofiq.
- B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 18-apreldagi PF-5017-sonli Farmoniga muvofiq.
- D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 18-apreldagi PF-5017-sonli Farmoniga muvofiq.
- E. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 18-apreldagi PF-5017-sonli Farmoniga muvofiq.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Uy-joy kommunal xo'jaligi xizmat tavsifini keltiring.
2. Uy-joy kommunal xo'jaligiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.
3. Uy-joy kommunal xo'jaligining vazifalari nimalardan iborat?
4. Kommunal xo'jaligi faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi?
5. Kommunal xizmat ko'rsatishning zarur qonunchilik va normativ-huquqiy bazasini aniqlang.

6. Uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidagi islohotning birinchi va ikkinchi bosqichlarini farqlang.

7. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish haqida gapirib bering.

8. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining asosiy vazifalari etib, nimalar belgilandi?

9. Qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini yaxshilash, namunaviy loyihalar asosida amalga oshirilyotgan ishlar haqida gapirib bering.

10. Prezidentimizning 2018 yil 24 noyabrdagi PQ-4028-son "Qishloq joylarda va fuqarolarning ayrim toifalari uchun arzon uy-joylar qurishni kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori mazmunini aytib bering.

6-mavzu. MADANIYAT SOHASINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA VAZIFALARI

Reja:

6.1. Madaniyat tushunchasining mazmuni, moddiy va ma'naviy madaniyat

6.2. O'zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

6.3. Madaniy meros ob'ektlarining davlat tomonidan himoya qilinishi

6.1. MADANIYAT TUSHUNCHASINING MAZMUNI, MODDIY VA MA'NAVIY MADANIYAT

Madaniyat — bu insoniyatning shakllanishida, turli tamaddunlarni yuzaga keltirishida muhim mexanizm sanalishi bilan birga odamlarning o'zaro aloqa almashish, bir-biriga yordam qo'lini uzatish, suyash kabi odamiylik amallarini ham tasniflaydi. Bu tushuncha turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ba'zi adabiyotlarda madaniyat arabcha "madina" so'zidan olingan bo'lib, "shahar(lashish)" degan ma'noni anglatishi, lotin tilidan olingan "tsulture" (kultura) so'zi yerga ishlov berish, parvarishlash degan ma'nolarni anglatishi keltiriladi. Unda ham mohiyatan yetuklikka erishish, komillik kasb etish

tarbiyadan, odob-axloqdan boshlanadi, degan uqtirish mujassam. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, lotincha termini kabul kilgan halklarda ham keyingi davrlarda bu tushunchaga kengroq mazmun berilib, u ma'rifatlilik, bilimlilik, tarbiya ko'rganlik ma'nolarida ishlatila boshlagan.

XIX asr o'rtalari va XX asr boshlariga kelib, madaniyat tushunchasi kengroq ma'noda inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan barcha narsalarga nisbatan qo'llanila boshladi.

Yillar o'tishi bilan fan-texnikaning jadal rivojlanishi, inson tafakkuridagi noyob qirralarning ketma-ket ochilishi va yangi-yangi olamshumul kashfiyotlarning yuzaga kelishi bilan madaniyat tushunchasi ham boyib, kengayib, madaniylashib bordi. Bir vaqtlar shaharliklar uchun umumiy bo'lgan madaniyat yillar o'tishi bilan yuqoridagi omillar ta'sirida maydalashib butun jamiyatning tarkibiy ajralmas qismiga aylandi.

Endilikda madaniyat tushunchasi odob-axloq zaruratidan go'yoki martabayu shon-shavkatni belgilovchi unsurga aylandi. Mehmon kutish, ovqatlanish, kiyinish, musiqa tinglash, jamoat transportida yurish, dam olish va telefonda gaplashish kabi xatti-harakatlarning o'z madaniyati yuzaga keltirildi.

Madaniyatning juda ko'p ta'rif va talqinlari mavjud bo'lib, ularni madaniyatshunoslik fani o'rganadi va insonlarning ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayonlarida, tarixiy rivojlanish davrida tutgan o'rni va jihatlari qarang mazmun mohiyatini belgilaydi va ilmiy asoslab beradi.

Dunyo halqlari madaniyatining rang-barang talqin etilishi ushbu atamalar va ta'riflarda o'z ifodasini topadi. Madaniyatshunoslikda madaniyatni fan nuqtai nazaridan talqin etilishida turli xil nazariyalar, izohlash usullari, ularning ilmiy va uslubiy jarayonlariga asoslanib, ilmiy yondashgan holda o'rganiladi. Barcha madaniyatlar zamirida inson mehnati yotadi. Chunki madaniy mahsulot inson uchun yaratiladi, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirish xususiyatiga egadir. Shuning uchun ham madaniyatni insonlar tomonidan dunyoni o'zlashtirish deb tushunmoq darkor bo'ladi.

Madaniyat juda murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, ijtimoiy hayotning moddiy texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalarini, inson mehnat faoliyatini barcha samaralarini o'zida qamrab oladi. Halk ommasi tomonidan yaratilgan hamma moddiy va ma'naviy boyliklar madaniyatga taalluklidir. Madaniyat, avvalo, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti turli ko'rinishlarini ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalaydi. Madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy ijtimoiy iqtisodiy davrlar, millatlar taraqqiyoti, moddiy va ma'naviy hayot darajasi, inson faoliyati va turmushining o'ziga xos sohalarini izohlash uchun qo'llaniladi. U odamzod aql-idroqining eng yuksak cho'qqilarigacha bulgan tuyg'ularining hammasini qamrab oladi.

Madaniyatning mavjudligi va yaxlit tizimida ikki katta soha moddiy va ma'naviy madaniyatlar ajralib chiqadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini va natijalarini o'z ichiga oladi. Moddiy madaniyatning muxim elementlari ishlab chikarish, transport, aloka vositalaridir. Moddiy madaniyatga uy-joy, uy-ro'zg'or buyumlari, iste'mol vositalari deb ataladigan hodisalar ham kiradi. Uning muhim xususiyati moddiy xarakterda ekanligida. Ma'naviy madaniyat esa ma'naviy ishlab chikarish, ijtimoiy ong shakllarini yaratish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Ma'naviy madaniyat namoyon bo'lishining turli shakllari har-xil tasavvurlar va g'oyalar, nazariyalar va ta'limotlar, ilmiy bilimlar va sa'nat asarlari va hakoazolarning faoliyat natijasidir. Bularning barchasi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida turgan va o'zaro muayyan munosabatlarga kirishgan kishilar tomonidan yaratiladi.

Madaniyat insonning faoliyati jarayoni, uning oqibatida yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar bo'lib, shaxsni shakllantirish va kamolotida muhim omil bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Madaniyat tushunchasida hayotning biologik shakllaridan farqli o'laroq, inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda bu faoliyatning tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichlaridagi, ma'lum bir

tarixiy davrdagi, milliy va etnik rivojlanishdagi sifatiy o'ziga xoslik ham o'z ifodasini topadi.

Madaniyat inson tomonidan yaratilgan, bokira tabiat ustiga qurilgan "ikkinchi tabiat" ma'nosini kasb etadi. Demak, madaniyatga ta'rif berayotganda madaniyat insonning ijtimoiy mavjudot sifatida kamolotining, insonda insoniylik rivojlanishining me'yorini tavsiflovchi hodisa ekanligidan ham kelib chiqmoq lozim.

Madaniyat inson faoliyatining faqat moddiy natijalarinigina emas, shu bilan birga kishilarni hayot davomida, mehnat jarayonida jamlangan bilim tajribalari, qobiliyatlari, iqtidori, ishlab chikarish va kasb malakalari, o'zaro munosabatlarini ham o'z ichiga oladi.

Madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyati yuzaga kelishining eng kadimiy bosqichlariga bo'lgan davrlarga borib taqaladi. Boshkacha qilib aytganda madaniyat asosini kelib chiqishi bilan uzviy bog'lash o'rinlidir.

6.2. O'ZBEKISTONDA MADANIYAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar sharoitida aholi turmush darajasi va farovonligini ta'minlash, inson shaxsini rivojlantirish va mazmunli dam olishi,

yashash hayot darajasini sifat jihatdan yaxshilashda madaniya va san'at sohalarining ahamiyati tobora ko'zga tashlanib bormoqda. Madaniyat va san'at inson hayotining muhim, ajralmas bir qismiga aylanib bormoqdaki, uni takomillashtirish va aholi talabiga moslashtirish kun tartibining dolzarb masalasiga aylanmoqda.

“Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi PQ-3022 sonli qarori asosida mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash yo'lida O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturning asosiy yo'nalishlari etib quyidagi vazifalar belgilandi:

- madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- moddiy madaniy meros va arxeologiya ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- madaniyat va san'at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati, moddiy-texnik bazasi holatini atroflicha o'rganish, ularni ta'mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta'minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli san'atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallagan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash;

- yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish;

- madaniyat va istirohat bog'lari hududida "Nuroniylar maskan"larini tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

- "Seni kuylaymiz, zamondosh!", "Debyut" kabi teatr san'ati ko'rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahna asarlarini yaratish;

- "Bahor nafasi" halqaro san'at festivali, "Boysun bahori" halqaro folklor festivali, "Yoshlik bahori" respublika yosh opera ijrochilari festivali singari tadbirlar, turli halq sayllarini tashkil etib, ularga xorijiy sayyohlarni keng jalb etish;

- madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish;

- zamonaviy ilg'or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarini o'quv dasturlari va notalar, o'quv qo'llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash;

- O'zbekistonning yuksak madaniyati va san'atini halqaro maydonda yanada keng targ'ib etish, halqaro ko'rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" halqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san'at namoyandalari keng qatnashishlarini ta'minlash, halqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish.

Dasturni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari etib O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturlari mablag'lari, Davlat byudjeti mablag'lari, Madaniyat vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasi, tijorat banklarining kredit mablag'lari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar belgilangan.

Moliyaviy, tashkiliy va ijodiy yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga ko'maklashish, shuningdek, madaniyat arboblarni hamda tasviriy san'at, adabiyot, teatr, musiqa va xoreografiya sohalarida ularning tashabbusi bilan tashkil etiladigan tadbirlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, halqaro va davlatlararo madaniy aloqalarni kengaytirish, madaniyat va san'at sohasida halqaro madaniy tashkilotlar va xayriya jamg'armalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy sarmoya va grandlarni jalb etish, mamlakatimizda madaniyat va san'atga doir homiylikni rivojlantirishga ko'maklashish mexanizmini takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16- oktyabrdagi PQ-3325-sonli "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori amaliyotga tadbiq etildi.

Unga ko'ra, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmini va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi byudjet tashkilotlari fondiga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, qonunchilikda belgilangan manbalardan tushayotgan mablag'larni jamg'arishni ta'minlash, ajratilayotgan maqsadli mablag'lardan to'g'ri, samarali va maqsadli foydalanish ustidan tizimli nazorat o'rnatish, Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tadbirlar uchun maqsadli mablag'lar ajratish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018- yil 26-avgustdagi PQ-3920 sonli Qarori soha rivojlanishidagi yangi bosqichni boshlab berdi.

Unga ko'ra, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishni ta'minlash, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, aholining ularga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish, mamlakatimizning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuvini ta'minlash kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

Tahlillarimiz madaniyat muassasalari soni oshayotganligi va ijobiy tendentsiyalar kuzatilayotganligi, bu hol mamlakatimizda madaniyat sohasining tarkibiy jihatdan o'zgarayotganligi hamda rivojlanishiga e'tibor qaratilayotganligidan dalolat beradi (6.2.1-jadval).

6.2.1-jadval

O'zbekistonda madaniy xordiq chiqarish muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatgichlari.⁶⁸

Ko'rsatgichlar	Yillar			
	2000	2010	2015	2018
Teatrlar, birlik	40	42	52	50
<i>Tomoshabinlar soni, ming kishi</i>	2725,2 2	10954	2624,8	2394,9
Teatrlarga tashriflar soni, o`rtacha 1000 aholiga	109	93	84	72
Muzeylar, birlik	88	105	106	97
<i>Tashriflar soni, ming kishi</i>	3463,6	4904,3	5462,3 5	8147,6
Muzeylarga tashriflar soni, 1000 aholiga	139	172	175	247
Kitoblar va broshyuralar soni (bosma nashrlar birligi) - jami	1046	2157	2239	2111
Tiraj – jami, mln. nusxa	21,5	26,0	28,1	22,3
1000 aholiga nisbatan kitoblar nashri, nusxa	421	907	897	677
Jurnallar va boshqa vaqtli	131	204	206	222
1000 aholiga nisbatan jurnallar nashri, nusxa	527	350	620	589

⁶⁸O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz).

Gazetalar soni - jami	417	649	620	589
1000 aholiga nisbatan gazetalar nashri, nusxa	1680	6548	7160	5717
Kutubxonalar (ARM), birlik	6027	2809	2914	2902
Foydalanuvchilar soni, mln. kishi	5,6	7,4	7,5	7,2
Faoliyat ko`rsatayotgan sanatoriya-kurort muassasalari va dam olish tashkilotlari (tur bazalarni qo`shgan holda) ob`ektlari soni		278	392	484
joylar soni, ming		34,7	58,2	59,2

Bugungi kunda O'zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan ularning eng asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- madaniyat va san'at sohalariga innovatsion va axborot texnologiyalarini keng joriy etish va zamonaviylashtirish;
- madaniy xizmatlardan hududlar kesmida barchaning bahramand bo'lishini ta'minlash;
- madaniyat va san'at muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning sifat darajasini oshirish va jahon standartlariga yetkazish;
- mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosini ommalashtirish va tanitish maqsadida madaniyat muassasalarining ijtimoiy makonga to'liq integratsiyalashuvini ta'minlash;
- respublikada madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- aholining madaniyat va san'at sohasi faoliyati haqidagi axborot bazasini kengaytirib borish va hakoazolardan iborat.

6.3. MADANIY MEROS OBYEKTLARINING DAVLAT TOMONIDAN HIMOYA QILINISHI

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat muassasalari teatr, muzey, sirk, hayvonot bog'lari, madaniyat va istirohat bog'lari kutubxona va konsert tashkilotlari rivojiga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, keyingi paytda bu soha ravnaqini yangi bosqichga ko'tarish, O'zbekiston halqining

umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va undan foydalanish, asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslarimizni asrash va keyingi avlodga yetkazish bo'yicha ulkan ishlar qilinmoqda.

Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNYESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yhatiga, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom musiqasi", "Navro'z", "Katta ashula", "Askiya", "Palov madaniyati va an'analari" nomzodlari insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yhatiga, Usmon Qur'oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar to'plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro'yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e'tirof etilganiga yorqin misol bo'la oladi.

Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimi yanada takomillashtirildi, Imom Termiziy halqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi.

Keyingi paytlarda halqimizning boy madaniy merosini tiklash va o'rganish maqsadida bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, poytaxtimizda O'zbekistondagi Islom madaniyati markazi, Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi halqaro ilmiy-tadqiqot markazi barpo etilmoqda. O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi, O'zbekistonning yangi tarixi markazi faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilib, hududlarda ulug' san'atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-sonli "Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq

Madaniyat vazirligining Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi hamda uning mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspeksiyalari negizida Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros departamenti uning hududiy boshqarmalari tashkil etildi.

Departament moddiy madaniy meros, jumladan, arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida maxsus vakolatli muassasa hisoblanishi belgilab qo'yildi.

2019-2021 yillarda moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan oqilona foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Departament qoshida tarix, me'morchilik, moddiy madaniy meros sohasida ilmiy, amaliy tajribaga ega bo'lgan 11 nafar olim va yuqori malakali mutaxassislardan iborat Ilmiy-ekspert kengash tuzildi.

Endilikda, moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari va ularning qo'riqlanadigan tegralarida yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya va boshqa xo'jalik ishlari, asrashga doir ishlarni amalga oshirish hamda ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar o'tkazishga oid loyihalar Ilmiy-ekspert kengash bilan kelishilishi lozim, bunda uning xulosasi Departament uchun majburiy hisoblanadi.

Buxoro davlat badiiy-me'moriy muzey-qo'riqxonasi, Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasi, Xiva "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi tegishlicha "Buxoro", "Samarqand", "Ichan qal'a" davlat muzey-qo'riqxonalarini etib qayta nomlandi.

Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida tegishlicha "Sarmishsoy", "Shahrisabz", "Termiz" va "Qo'qon" davlat muzey-qo'riqxonalarini tashkil etiladi.

Qarorga ko'ra, YUNYESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko'ra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanadi hamda ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari Departament

hamda YUNYESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat ko'chmas mulki hisoblangan moddiy madaniy meros ob'ektlarini operativ boshqaruv huquqi asosida yoki tekin foydalanish huquqi asosida birlashtirish Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarori asosida amalga oshiriladi.

Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish bo'yicha jamoatchi inspektorlar faoliyati tashkil etiladi, ularning qonun hujjatlari buzilishiga oid murojaatlari Departament yoki uning hududiy boshqarmalari tomonidan majburiy tartibda davlat nazorati shaklida tekshiriladi, bunda ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat aniqlansa, jamoatchi inspektorlar Jamg'arma mablag'lari hisobidan pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Moddiy madaniy meros ob'ektlari — har bir halqning tarixi haqida so'zlovchi va keyingi avlodga yetkazuvchi “tirik kitob”dir. Shuning uchun ham mazkur obidalar umummilliy boylik hisoblanadi. Ularni asl holida saqlash, muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi.

Madaniy merosimiz milliy madaniyatimizning ajralmas qismi, ajdodlarimizning yuksak tafakkuri, noyob iste'dodi va mashaqqatli mehnati mahsuli. Shunday ekan, ko'p asrlik tarixga ega ushbu bebaho xazinamizni asrab-avaylash, muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, mamlakatimiz, qolaversa, dunyo miqyosida keng targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyamizning 49-moddasida belgilanganidek, Fuqarolar halqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir. Shunday ekan endigi vazifa barcha-barchamiz milliy davlatchiligimizning asosi va poydevori bo'lgan moziy haqiqatlari, ya'ni madaniy merosimizni asrab-avaylash va keyingi avlodga yetkazishdir.

Tayanch soʻz va iboralar: insoniyatning shakllanishi, oʻzaro aloqa almashish, odob-axloqdan boshlanadi, ijtimoiy hayotning moddiy texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, moddiy va maʼnaviy madaniyat, kishilik jamiyatining eng kadimiy bosqichlari, dastur, moliyalashtirish, madaniy meros, departament, jamoatchi inspektorlar.

Mavzuni oʻzlashtirish boʻyicha test savollari:

1. Madaniyat arabcha “madina” soʻzidan olingan boʻlib:

- A. “Madaniylashish” degan maʼnoni anglatadi.
- B. “Parvarishlash” degan maʼnoni anglatadi.
- D. “Shaharlashish” degan maʼnoni anglatadi.
- E. “Ishlov berish” degan maʼnoni anglatadi.

2. Madaniyat, avvalo, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti turli koʻrinishlarini ular yaratadigan:

- A. Maʼnaviy boyliklarni ifodalaydi.
- B. Moddiy boyliklarni ifodalaydi.
- D. Madaniy va maʼnaviy boyliklarni ifodalaydi.
- E. Moddiy va maʼnaviy boyliklarni ifodalaydi.

3.Oʻzbekiston Respublikasida madaniyat va sanʼat sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan dastur nechanchi yillarga moʻljallangan?

- A. 2016-2020-yillarga moʻljallangan.
- B. 2017-2021-yillarga moʻljallangan.
- D. 2018-2022 -yillarga moʻljallangan.
- E. 2019-2023 -yillarga moʻljallangan.

4.YUNYESKOning Umumjahon madaniy merosi roʻyxatiga yurtimizda qaysi shaharlarning tarixiy markazlari kiritilgan?

- A.Toshkent, Termiz.
- B. Qarshi, Qoʻqon.
- D. Shahrisabz, Xiva.

E. Nukus, Urganch.

5.Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan oqilona foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

- A. 2016-2021- yillar.
- B. 2017-2021 -yillar.
- D. 2018-2021 -yillar.
- E. 2019-2021 -yillar.

6.Departament qoshida necha nafardan iborat Ilmiy-ekspert kengashi tuzildi?

- A. 10 nafar olim va yuqori malakali mutaxassislardan iborat.
- B. 11 nafar olim va yuqori malakali mutaxassislardan iborat.
- D. 12 nafar olim va yuqori malakali mutaxassislardan iborat
- E. 15 nafar olim va yuqori malakali mutaxassislardan iborat .

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Madaniyat so'zining lug'uviy ma'nosini tushuntiring.
2. Madaniyatning mavjudligi nimani anglatadi?
3. O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturning asosiy yo'nalishlari etib nimalar belgilandi?
4. Dasturni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalariga nimalar kiritildi?
5. O'zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini sanab bering.
6. YUNYESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kirgan shaharlarni aniqlang.
7. Madaniy meros departamenti uning hududiy boshqarmalari nima maqsadda tashkil etildi?
8. Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish bo'yicha jamoatchi inspektorlar faoliyatini tushuntirib bering.

7-mavzu. SPORT VA TURIZMNING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA SALMOG'I

Reja:

- 7.1. Sport milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida
- 7.2. Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish ko'rsatkichlari
- 7.3. Turizm iqtisodiy kategoriya sifatida
- 7.4. Turizm sohasining rivojlanish holati va istiqbollari

7.1. SPORT MILLIY IQTISODIYOTNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sog'lig'ini mustahkamlash va umr ko'rish ko'rsatkichlarini o'stirishdan iborat.

Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Bugun O'zbekiston tom ma'noda sporti rivojlanayotgan mamlakatga aylangan. Yurtimiz jismoniy tarbiya va sportni aholi o'rtasida ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda qator tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi ham bejiz emas.

Gap shundaki, bugungi tasavvurlarga ko'ra, kishi sport bilan faqat o'zining jismoniy quvvatini tiklash va bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish uchun emas, balki u orqali sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilish, turli salbiy ta'sirlar va zararli odatlardan xalos bo'lish, kuchli xarakterni shakllantirish uchun shug'ullanadi.

Sport kishilarni sog'lomlikka boshlaydi, do'stlikka o'rgatadi, tinchlikka yetaklaydi, yagona maqsad yo'lida birlashtiradi va do'stlashtiradi. Sport harakati bilan birlashgan turli mamlakatlardan kelgan kishilarning tinchlik uchun kurashchilar ekanliklarini tarix yaxshi biladi. Chunki sport o'z tabiatiga ko'ra jahon miqiyosida tinchlik elchisi vazifasini o'tab kelmoqda.

Halqaro sport aloqalari rivojlangan sari davlatlar va halqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stona munosabatlar ham mustahkamlanib bormoqda.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz uchun aqliy yetuk, jismoniy sog'lom va baquvat yigit va qizlar zarur mamlakatimiz ilk bor mustaqil qadam tashlay boshlagan dastlabki kezlardanoq bu muhim ishga alohida e'tibor berila boshlandi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida sog'lom hayot tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sport asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Sport inson organizimiga foydali ta'siri bilan bir qatorda, mushaklar quvonchi hissiyotni ro'yobga chiqaradi, sog'lom dam olishni tashkil etishda muhim o'rin egallaydi, shaxsning o'zligini anglashda qudratli vosita vazifasini bajaradi.

Sport har doim o'zining ommaviyligi bilan odamlar e'tiborini jalb qilib kelgan. Sport tadbirlariga tomoshabinlarni jalb etishida hozirgi zamon axborot vositalarining xizmati katta. Shuning uchun ham yuqori ko'rsatkichli sport, ommaviy sportning yuqori pog'onasi bo'lib, hamisha ijtimoiy xodisalardan hisoblanib kelgan. Tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra, Respublikamiz aholisining 10 foizdan dan ortig'i sport musobaqalarini tomosha qilish uchun bevosita sport mashg'ulotlari o'tkaziladigan sport inshootlariga boradilar. 80 foizga yaqini esa sport ko'rsatuvlarini televideniya orqali tomosha qilishadi. Xullas, sport faqat jismoniy kamolot vositasi bo'lib qolmay, balki u ma'lum darajada o'ziga xos san'at vazifasini ham o'taydi. Kishilarni jipislashtiradi, insonning dam olishini ta'minlab, korxonalarda ish samaradoligining oshishiga imkon beradi.

Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon bo'lib, yosh avlodning sog'ligi, jismonan yetuk, ijtimoiy faol, axloqan sog'lom o'suvchi avlodni shakllantirish, takomillashtirishiga yo'naltirilgan bir tarbiyaviy vositadir. Jismoniy tarbiya jarayonida organizm funktsional va morfologik takomillashtiriladi, harakat ko'nikmalari, jismoniy harakat sifatlari, epcillik, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamkorlik maxsus bilim bilan shakllanadi.

Jismoniy madaniyat–yangi jamiyat quruvchilarining yetuk shaxslarini har tomonlama tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositalari bilan birga, sport va

madaniyatning maxsus vosita va uslublarini aniq maqsadga yo'naltirish orqali insonni jismoniy takomillashtirishni o'z ichiga oladigan maxsus tadbirlar majmuasidir.

Jismoniy madaniyat-umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, uning taraqqiyot darajasi jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bog'liqdir.

Sportning milliy iqtisodiyotga ta'sirini, kishilarning sport mashg'ulotlari bilan muntazam shug'ullanishi aqliy rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishida ham ko'rish mumkin. Jismoniy mashqlar va sport mashg'ulotlari bilan aqliy aloqalar bir – biriga bevosita bog'liq. Bir-birini cheklamaydi, aksincha to'ldirib turadi.

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy mashqlar va sport bilan shug'ullanish ma'lum miqdorda hissiyot organlari ko'nikmalarini takomillashtirishda, ayniqsa, mushaklar harakati, ko'rish, sezish idrok qilishga yaxshi zamin yaratadi.

Mehnat tarbiyasi, mehnat ko'nikmalarini egallash orqal, ya'ni mashg'ulotlarda o'z-o'ziga xizmat qilish mashg'ulotlari o'tkazish uchun sharoitlarini yaratish, sport buyumlari va uskunalarini jihozlash, tozalash va joylashtirishda ishtirok etish, sport maydonchalarini obodonlashtirish singari tadbirlarda ishtirok etish orqali mehnat tarbiyasi bilan uyg'unlashadi.

Doimiy rivojlanishda bo'lgan yangi texnika va texnologiya har bir ishchi xodimdan katta ruhiy, aqliy va jismoniy bardosh talab qilayotgan davrda ishchi kuchi sog'lig'ini mustahkamlash hammasidan ko'ra ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim omili ekanligini korxonalar rahbarlari va menijerlari yaxshi tushunishlari kerak. Har bir korxonalar o'z xodimlarining doimiy sihat-salomatligiga g'amxo'rlik qilishi va muntazam kuzatib borishi darkor.

Moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini doimiy ravishda oshishini, tovar va xizmatlar tannarxining keskin pasayishini ta'minlagan. Amalda ko'pchilik ishlab chiqarish korxonalarida moddiy resurslardan tejamli foydalanishga harakat qilinib, mehnat resurslarining ishlashi, dam olishi va sog'lig'ini tiklashiga yetarlicha e'tibor qaratmaydi.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda korxonalar va tashkilotlarda bu holatni anglagan ayrim ishchilar va tadbirkorlar sog'lomlashtirish tadbirlarini anchadan buyon qo'llab kelmoqda.

Xususan, AQShda birinchi sog'lomlashtirish dasturi "Neshnl Xash Redjister" kompaniyasi tomonidan 1894-yildayoq amalga oshirilgan. Unga ko'ra, korxonada tanaffus paytlarida kunduzgi va ertalab jismoniy mashqlar o'tkazish uchun grafik tuzilgan. Keyinchalik kompaniya o'zining ishchilari va ularning oilalari uchun dam olish uylari va gimnastika zallari qurgan.

O'tgan asrning 30-illarida Amerika Qo'shma Shtatlarida "Xizmatchilarni sog'lomlashtirish Assotsiatsiyasi" tashkil qilindi.⁶⁹

Sog'lomlashtirish tadbirlarining orasida chekish va boshqa zararli odatlarga qarshi kurashish ham joy olgan. Bugungi kunda ko'plab Amerika kompaniyalarida sog'lomlashtirish tadbirlari keng miqyosda amalga oshirib kelinmoqda. Ular, asosan, davolashga emas profilaktikaga yo'naltirilgan. Mazkur tadbirlar kasalliklarning kamayishiga va ishchi xodimlarda mehnat qobiliyatini yo'qotishining kamayishiga, tibbiy xizmatlardan foydalanishning qisqarishiga va tibbiy sug'urta to'lovlarining kamayishiga hamda mehnat unumdorligining oshishiga va kadrlar salohiyatining o'sishiga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, ish joylarida bajarayotgan ish o'lchamiga muvofiq kishilarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi ularning mehnat unumdorligini yanada oshiradi. Chunki jismoniy mashqlar tufayli to'qimalarning kislorodga bo'lgan ehtiyoji 8-10 marta oshib ketadi. Bu holat nafas va yurak-tomir tizimlari faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi. Jismoniy mashqlar paytida organizmda quyidagi holatlar kuzatiladi:

- bosh miya markazlarining tormozlanishi barham topadi;
- bosh miya markazlarida qo'zg'aluvchanlik paydo bo'ladi;
- odam jismoniy va aqliy ishga tezda kirishib ketadi.⁷⁰

⁶⁹ Рахманов Ф. Рекреационный комплекс Республики Азербайджан в переходный период. -Т.: //Бозор пул ва кредит. 2004. -№5. – Б. 39-40.

⁷⁰ Zokirova L. "Mushaklar qachon quvonadi?" -Т.: //Sihat-Salomatlik, jurnali 2010. -№5. – Б. 4.

Abu Ali Ibn Sino sog'liqni saqlashning muhim omili sifatida jismoniy va ruhiy harakatlarni tartibga solish deb bilgan va bu haqda ko'plab ma'lumotlar keltirgan. Donishmandalar sog'lom kishi tabiatning eng bebaho asari ekanligini ta'kidlashgan.

Inson biosotsial jonzotdir. Uning biologik jihatlari bilan hisoblashmaslik, kishilar salomatligining qay ahvolda ekanligini, ularning jismoniy ehtiyojlarini va mehnat qila olish qobiliyatini, insonning boshqa ko'pdan ko'p tabiiy-ilmiy xususiyatlarini mensimaslik bema'nilik bo'ladi.

O'z vaqtida A.Smit mehnat unumdorligining o'sishi, avvalo, xodimning chaqqonligi va mahoratiga, keyin esa uning ishlaydigan mashinalari va asbob-uskunalarining yaxshilanishiga bog'liqligini ko'rsatib o'tgan.

Mutaxassislarning fikricha, kishi tanasi odatda morfologik, biokimiyoviy va fiziologik zaxiralarga ega bo'ladi. Bu zaxiralar qanchalik yuqori bo'lsa, organizm yangi muhit sharoitiga shunchalik yaxshi moslashadi.

Sog'lom va jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanadigan odam shug'ullanmaydiganlardan farq qilib, hissiyot oshib ketganida juda katta jismoniy ish bajarishi mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning sotsiologlari to'plagan ma'lumotlarga ko'ra ishlab chiqarish gimnastikasi muntazam o'tkazilib turiladigan, sport inshootlari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan muassasa, korxonalar, firmalarda ishlab chiqarish unumdorligi boshqa korxonalar, firmalarga nisbatan 12-17 foiz yuqori, ishchi xodimlarning kasallikka chalinishi va kasallik varaqasi 15-22 foizga kam ekan.⁷¹

Shunday ekan ish joylarida jismoniy mashqlar bajarish tizimini yo'lga qo'yish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va akvarium terapiyasidan foydalanish inson jismoniy va aqliy quvvatini oshirishdagi ko'plab muammolarning oson hal bo'lishini, insonlar sog'lig'ini asrashga va mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrda PQ-4063-

⁷¹ Normurodov A. Jismoniy tarbiya -T.: "O'zbekiston", 1998. - B. 220.

sonli “Yuqumli bo’lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog’lom turmush tarzini qo’llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori ushbu maqsadga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Unga muvofiq davlat organlari va tashkilotlarida ish kuni davomida ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlari, haftasiga kamida bir marotaba xodimlarning jismoniy tarbiya-ommaviy tadbirlarda (yugurish, suzish, futbol, voleybol, basketbol, tennis va boshqalarda) ishtirok etishini nazarda tutadigan “Salomatlik kuni” muntazam ravishda xodimlar orasida ommaviylashgan sport turlari bo’yicha sport musobaqalari va boshqa jismoniy tarbiya-ommaviy tadbirlar o’tkazib borilishi amaliyotga joriy etilishi belgilandi. Davlat organlari va tashkilotlari texnologiya, ishlab chiqarish va ish sharoitlaridan kelib chiqib, xodimlariga ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlarini bajarishi uchun ish vaqtiga kiritiladigan maxsus tanaffuslarni belgilash vazifalari yuklatildi.

Qaror doirasida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi jismoniy tarbiya va ommaviy sportning jamiyatimiz hayotidagi rolini yanada kuchaytirish, aholining barcha qatlamlari orasida sog’lom turmush tarzini shakllantirish, fuqarolarning o’z qobiliyat va iste’dodlarini ro’yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish orqali ularni ommaviy tarzda sportga, sog’lom turmush tarziga oshno qilish, qolaversa, nufuzli halqaro maydonlarda Vatanimiz bayrog’ini baland ko’tarib kelayotgan mashhur sportchilarimiz saflarini tobora kengaytirishga xizmat qiladi.

7.2. JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING RIVOJLANISH KO’RSATGICHLARI

Keyingi yillarda mamlakatimiz aholisi o’rtasida sog’lom turmush tarzini qaror toptirish maqsadida jismoniy tarbiya va sportni keng miqiyosda rivojlantirish ustuvor masalalardan biriga aylanib bormoqda. Yurtimiz vakillarining turli halqaro bellashuvlarda, Olimpiada o’yinlari va jahon birinchiligi sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishayotgani, Respublikamizning sport salohiyati yanada

oshayotgani markazda va joylarda jahon andozalariga mos muhtasham sport majmualari, zamonaviy stadion va kortlar barpo etilayotgani, o'quvchi va talaba – yoshlar o'rtasida uch bosqichdan iborat “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” o'yinlari tobora ommalashib borayotgani, ayniqsa, etiborlidir.

2002-yil 24-oktyabrda “O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish” jamg'armasini tuzish to'g'risidagi Prezident farmonining imzolanishi bu boradagi yana bir katta qadam bo'ldi. Oradan bir hafta o'tgach esa vazirlar mahkamasining “O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qarori chiqdi. Ko'rinib turibdiki masala davlat siyosati darajasida hal qilinmoqda. Bunday yondashuv dunyodagi boshqa biror mamlakatda kuzatilmagan.

Jamg'armaning asosiy vazifasi–jismoniy va ma'nani sog'lom avlodni tarbiyalash yoshlarning sog'lom turmush tarzi va chiniqishga intilishini kuchaytirish, umuman ommaviy bolalar sportini muvaffaqiyatli rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi qaroriga asosan mamlakatimizda ommaviy sportni yanada rivojlantirish, uning mohiyati va ahamiyatini bu borada amalga oshirilayotgan katta ishlar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni keng jamoatchilikka yetkazish, targ'ibot va tashviqot ishlarini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston televideniesining 4-“halqaro” telekanalini maxsus “sport” telekanaliga aylantirish to'g'risidagi takliflar ma'qullandi. Hamda 2003-2004 o'quv yilidan respublika oliy ta'lim muassasalari magistraturasida “Sport jurnalistikasi” mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashga kirishildi.

Bugungi kunda yurtimiz vakillari Olimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari hamda turli halqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishib kelmoqdalar. Jumladan, respublikamizda taekvondo WTF sport turi jadal ravishda rivojlanib, yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan uch bosqichli “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” sport musobaqalari doirasida yanada ommalashib borayotgani, ayniqsa, e'tiborlidir. Shu nuqtai nazardan

Prezidentimizning 2017-yil 16-noyabrdagi PQ-3390-sonli “Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti tarkibida “Taekvondo va sport faoliyati” fakultetini tashkil etish to’g’risida”gi qarori amaliyotga tadbiiq etildi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda barcha sohalar singari jismoniy tarbiya va sportning ravnaq topishi O’zbekiston Respblikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita rahbarligi ostida:

- O’zbekistonda sport davlat siyosati darajasiga ko’tarildi;
- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning jahon andozalariga mos qonuniy va me’yoriy asoslari yaratildi;
- jismoniy tarbiya va sport sog’lom avlodni, barkamol insonni tarbiyalash vositasiga, millionlab vatandoshlarimizning ma’naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirildi;
- jahon hamjamiyati mamlakatlari o’rtasida sport sohasida ham o’z ovoziimizga, o’z munosib o’rnimizga ega bo’ldik. Dunyoda O’zbekiston halqining jismoniy imkoniyatlari, kuchi, salohiyati, iqtidori beqiyos ekanligini e’tirof eta boshladi;
- sport, dini, millati, irqi, jinsi va yoshidan qat’iy nazar, O’zbekiston Respublikasi barcha fuqarolarini jipislashtiruvchi, yakdil qiluvchi omilga, jamiyatda fuqarolararo va millatlararo totuvlikni, ichki barqarorlikni mustahkamlovchi qudratli kuchga aylandi;
- milliy o’yinlarni va sport turlarini tiklashga ma’naviy hayotni yangilashning milliy o’zlikni anglash jarayonlarining ajralmas qismi sifatida ustuvor e’tibor qaratildi;
- O’zbek kurashi halqaro sport turi sfatida tan olindi.

O’zbekiston Respublikasining eng birinchi qonunlaridan biri - “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi qonun MDH davlatlari ichida birinchi bo’lib qabul qilindi. O’zbekiston Respublikasida birinchi marta “Sog’lom avlod uchun” ordeni ta’sis etildi.

1992 yilda O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tashkil etildi. 1996 yil 1-sentyabrda Toshkentda "Olimpiya shon-shuhrati" muzeyi ochildi. U dunyo bo'yicha Lazzanadagi (SHveytsariya) olimpiya muzeyidan keyingi ikkinchi muzeydir.

Jahon hamjamiyatida tobora mustahkam o'rin egallay boshlagan respublikamizda boshqa sohalari qatori jismoniy tarbiya va sportga ham alohida e'tibor berilayotganligini uning rivojlanish tendentsiyalari hamda sport inshootlari quvvatining o'sayotganligidan ham ko'rishimiz mumkin. Jadval.

Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlar, yoshlarning salomatligini mustahkamlash, iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilayotgan doimiy e'tibor o'zining yuksak samaralarini berayotganini ta'kidlash mumkin.

7.2.1-jadval

Jismoniy tarbiya va sport inshootlari (birlik)⁷²

Ko'rsatgichlar	Yillar			
	2014	2015	2016	2017
Sport inshootlari-jami	50819	50934	50853	51306
<i>Shu jumladan</i>				
Stadionlar	405	406	399	410
Sport zallari	9835	10022	10397	10699
Suzish basseynlari	267	285	295	307
Otish tirlari	191	130	131	133
Sport maydonchalari va maydonlari	40081	40048	39574	39699

7.2.2-jadval

Sport inshootlari quvvati (kunlik o'tkazish imkoniyati, ming kishi)⁷³

Ko'rsatgichlar	Yillar			
	2014	2015	2016	2017

⁷²O'zbekistonda turizm. Statistik to'plam.-T.: 2018.-B.136

⁷³O'zbekistonda turizm. Statistik to'plam.-T.: 2018.-B.137

Sport inshootlari-jami	1997,6	1982,2	1999,8	2061,3
<i>Shu jumladan</i>				
Stadionlar	48,6	42,6	40,3	44,8
Sport zallari	1172,5	1198,9	1243,8	1279,9
Suzish basseynlari	34,5	35,1	32,9	38,0
Otish tirlari	4,8	3,8	3,8	3,5
Sport maydonchalari va maydonlari	737,2	701,8	679,0	695,0

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyuldagi PQ-3031-sonli "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi tasdiqlanib, unga muvofiq keng ko'lamli, aniq maqsadli ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, dasturga muvofiq:

- jismoniy tarbiya va sport sohasini tashkil etish va boshqarish tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan qonunchilikni yanada takomillashtirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport komplekslarini qurish, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash, mazkur sohada xususiy sektorni rivojlantirish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalarini ilmiy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, sport maktablarini yuqori malakali murabbiylar va tibbiyot xodimlari bilan ta'minlash;

- ta'lim muassasalari o'quvchi va talabalari, aholining keng qatlamlari o'rtasida sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o'tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va ularni maqsadli tayyorlash kabi yo'nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Dasturda, shuningdek, barcha ta'lim muassasalari sport inshootlarida darsdan so'ng o'quvchi va talabalar uchun sport to'garaklari hamda sport klublari

faoliyatini tizimli tashkil etish va boshqarishni yo'lga qo'yish maqsadida sport turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablarida hamda bolalar-o'smirlar sport maktablarida "Sport to'garagi va seleksiya bo'yicha trener" lavozimini kiritish belgilangan. Mazkur lavozimni joriy etish orqali ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan sport to'garaklari bilan qo'shimcha ravishda minglab o'quvchi va talabalarni qamrab olishga erishiladi va ularga sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga qulay imkoniyatlar yaratiladi.

Bundan tashqari, dasturda jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari va sport klublari faoliyatini olimpiya, milliy va boshqa sport turlari kesimida reyting baholash tizimini joriy etish belgilangani ularning faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining "Jismoniy tarbiya va sport a'lochisi" ko'krak nishonining ta'sis etilishi esa soha fidoyilari mehnatini yanada munosib rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Dasturga ko'ra, o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan uch bosqichdan iborat "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va Universiada sport o'yinlari dasturlarini sportning ommaviy turlari hisobiga kengaytirish, nufuzini oshirish va musobaqa g'oliblarini munosib rag'batlantirish tizimini tubdan takomillashtirish nazarda tutilgan.

Qarorda o'z yechimini topgan muhim masalalardan yana biri—hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarida sport tibbiyoti bo'limlarining tashkil etilishi va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash belgilab qo'yilganidir.

Dastur doirasida rejalashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish maqsadida jami 995,2 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanishi nazarda tutilgan bo'lib, shundan 706,2 milliard so'mdan ortiq qismi ushbu yillarda jami 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash hamda jihozlash va qayta jihozlashga yo'naltiriladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yana bir muhim voqealardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining qabul qilinishi bilan jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari negizida quyidagi ya'ni Jismoniy tarbiya va sport sohasi vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti negizida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tashkil etildi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi xodimlari hamda boshqa shaxslarni taqdirlash maqsadida jismoniy tarbiya va sport sohasida "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jismoniy tarbiya va sport xodimi" faxriy unvoni ta'sis etildi. Mazkur farmonning qabul qilinishi va amaliyotga tadbiq etilishi bilan ommaviy sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor yo'nalishlari etib belgilab berildi.

Endilikda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari, shuningdek, ta'lim muassasalari va sport tashkilotlarida mehnat qilayotgan sport faxriylariga faoliyatning boshqa haq to'lanadigan turlari bilan shug'ullanmaslik sharti bilan pensiya to'liq miqdorda to'lanadigan bo'ldi.

Davlat ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya o'qituvchisi (instruktori) lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish Vazirlik bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi boshliqlari tomonidan amalga oshirilishi belgilab berildi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Sportning aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, turli kasalliklar, yoshlar o'rtasida zararli odatlarning oldini olishda, sport yuksak madaniyat tuyg'ularini shakllantirishdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

7.3. TURIZM IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDA

Bugungi kunda turizm sohasi o'zining kam resurs talabligi, serdaromadligi, qo'shimcha ishchi o'rinlari, hududlarni jadal rivojlantirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish, tashqi savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlanishiga qulay imkoniyatlar yaratishi bilan ko'pgina taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiyotning dinamik qismiga aylanib bormoqda.

Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan xorijiy mamlakatlar Yalpi ichki mahsulotida turizmning ulushi tobora oshayotganligi ham ushbu sohaning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini anglatadi.

Turizm dastlabki paytlarda kishilarning tabiat sirlarini o'rganish maqsadida qilgan sayohatidan boshlangan bo'lib, bu jarayon madaniylashib, industriyaga aylandi va ko'pchilik davlatlarning asosiy daromad manbai bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi qonunida turizm tushunchasiga, jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyida (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilish) ta'riflanadi.

Turizmning lug'aviy ma'nosi fransuzcha "tour" so'zidan olingan bo'lib, sayr-sayohat ma'nosini anglatadi. Turistik faoliyat-O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq sayohatlarni va ular bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat hisoblanadi. Turistik xizmatlar majmuiga turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama, madaniy-maishiy xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek turistlarning ehtiyojlarini qodirishga qaratilgan xizmatlardir.

Turist-ma'lum bir mamlakat hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs.

Sayohatchi – bu birinchi navbatda kasb boʻlib, odamlarning kasbi yoki kun koʻrish manbai, yo boʻlmasa sayohatda ishtirok etuvchilarning turmush tarziga aylanishi mumkin. Bu esa faoliyatning maqsadi boʻlib, turizm maqsadlaridan tubdan farq qiladi. Sayohatning yoʻnalishiga koʻra turizm quyidagi asosiy turlarga boʻlinadi:

➤ halqaro turizm – kishilarning chet davlatlarga turistik maqsadlarda chiqishi va chet davlat fuqarolarining turistik maqsadlar bilan ushbu davlatga tashrif buyurishi hisoblanadi. Halqaro turist tushunchasiga koʻra, tashrif buyurgan xorijiy davlatga 24 soatdan kam boʻlmagan muddatga kelgan va malakaviy faoliyatiga haq toʻlanmaydigan vaqtinchalik tashrif buyurgan turistlar kiradi;

➤ ichki turizm – kishilarning oʻz mamlakti hududi boʻylab qiladigan sayohati. Ichki turizm davlat chegaralarini kesib oʻtish bilan va turistik rasmiyatchilik bilan bogʻliq emas. Milliy valyuta, til, hujjatlar oldingidek oʻzgarmasdan qoladi;

➤ kiruvchi turizm – mamlakatda doimiy yashamaydigan fuqarolarning kiruvchi sayyohlik safari vaqtidagi ushbu mamlakat doirasidagi faoliyatini oʻz ichiga oladi;

➤ chiquvchi turizm – mamlakatda doimiy yashaydigan fuqarolarning oʻzga mamlakatlarga qilgan sayohati tushuniladi.

Turizmning rivojlanishida turistik mahsulotlarning ahamiyati katta boʻladi. Turistik mahsulot-sayohat davomida turistning ehtiyojlarini yetarli darajada qondiruvchi turistik xizmatlar yigʻindisidir.

Turistlar istʼemol qiladigan mahsulotlar moddiy va maʼnaviy turistik mahsulotlarga boʻlinadi. Moddiy turistik mahsulotlarga turistlarni joylashtirish, olib yurish, ovqatlantirish, transport xizmatlari, maishiy xizmatlar koʻrsatish shaxobchalari, tarixiy va madaniy yodgorliklar va ularda koʻrsatiladigan barcha moddiy ahamiyatga ega xizmatlar majmuidir. Maʼnaviy turistik mahsulotlarga turistlarni tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan tanishtirish maqsadida git-ekskursovodlar tomonidan ularga berilgan tarixiy maʼlumotlar va axborotlar,

reklama va ko'ngil ochar tomosha, kontsertlar, karnavallar, sirk, teatr tomoshalarini keltirish mumkin.

Turizmning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turistni ilmiy tadqiqotchi, sportchi, biznesmen, dengizchi, tabiatshunos, ziyoratchi va davolanuvchi deb atash mumkin.

Turizm sohasi o'zining xarakteri, maqsadi, vazifalari va faoliyat nuqtayi nazaridan kelib chiqib bir qancha guruhlar bilan tasniflanadi.

1) Geografik va turistik talab yo'nalishi bo'yicha yoki mamlakatga kiruvchi va chiquvchi turistlarga ko'ra:

- milliy;
- halqaro;
- hududiy (mintaqaviy);
- ichki;
- kiruvchi;
- chiquvchi .

2) Turistlarning maqsadlariga ko'ra:

- tarixiy obidalar turizmi;
- arxeologik turizm;
- rekreatsion turizm;
- sog'lomlashtiruvchi dam olish;
- malakaviy ish turizmi;
- ilmiy turizm;
- sport turizmi;
- shop-turlar;
- diniy turizm (haj safari, ziyorati);
- qumsash, sog'inish turizmi;
- ekoturizm;
- ovchilik turizmi;
- gastronomiya turizmi;

- safari turizmi.

3) Moliyalashtirish manbai bo'yicha:

- ijtimoiy turizm;

- tijoriy turizm.

4) Harakatlanish usuli bo'yicha yoki transport turiga ko'ra:

- yayov;

- aviatransport;

- dengiz transporti;

- daryo transporti;

- avto transport;

- temir yo'l transporti;

- velosiped transporti;

- ot-ulovlarda;

- aralash.

5) Joylashuv vositalari bo'yicha:

- otellarga, mehmonxonalarga;

- motellarga;

- pansionatlarga;

- kempinglarga;

- palatkalarga;

- rotellarga;

- botellarga;

- sanatoriylarga;

- flotellarga;

- xostellarga;

- otel-klublarga;

- turbazalarga;

- turistik uylarga;

- appartementlar.

6) Ishtirok etuvchilar soni bo'yicha:

- individual-yakka;
- oilaviy;
- guruhlar bo'lib.

7) Tashkiliy shakllari bo'yicha:

- tashkil etilgan;
- tashkil etilmagan.

8) Viza turlariga ko'ra:

- vizasiz turistlar;
- vizali turistlar;
- diplomatlar;
- chegara turizmi;
- qochoqlar;
- ko'chmanchilar.

Turizmning halqaro va mamlakat iqtisodiyotidagi salohiyatini hisobga olgan holda uni rivojlantirish yo'nalishlari belgilab olingan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev bu haqida to'xtalib, "O'zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud va ularning aksariyati YUNYESKO ro'yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur" dedilar.⁷⁴

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda turizm tarmog'ini tashkillashtirishning (O'zbekturizm) huquqiy va iqtisodiy asoslariga asos solindi va o'tgan davr mobaynida ushbu sohada ko'plab tajribalar o'zlashtirildi. Turistik firmalar turli

⁷⁴ O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.-T.: "O'zbekiston", 2018. B.-61.

halqaro turistik yarmarkalarda ishtirok etib o'zlarining mahsulotlarini namoyon qila boshladi. Negaki hozirgi zamonaviy sharoitlarda turizm — iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan va serdaromad sohalaridan biri. U nafaqat iqtisodiy daromad keltiradi, balki yurtni, halqni, uning madaniyatini butun dunyoga tanita oladigan muhim vosita hamdir.

7.4.TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Mamlakatimizda turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati keng ma'noda sohani modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash va turizmning ochilmagan yangi qirralarini zabt etish, halqaro turizm bozoriga dadil kirib borish va munosib o'rin olishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq turizm xizmatlari zamonaviy xizmat turlari va faol valyuta tushumi manbai sifatida talqin qilinib, bu xizmatlarga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu yo'nalishdagi ishlar hozir ham davom etayotgani fikrimizning yaqqol isbotidir.

Qisqa davrda mamlakatimizda turizm industriyasi rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. Birgina 2014-2017 yillarda turistik firma va tashkilotlar soni 343 tadan, 449 taga, mehmonxonalar soni 613 tadan, 816 taga yetganligi bu sohada kechayotgan tarkibiy o'zgarishlardan dalolat beradi (7.4.1-jadval).

7.4.1-jadval

Turistik industriya korxonalarini va tashkilotlarining asosiy ko'rsatgichlari⁷⁵

Ko'rsatgichlar	Yillar			
	2005	2010	2015	2018
Turistik firma va tashkilotlar soni, birlik	258	313	398	502
Ular tomonidan xizmat ko'rsatilganlar tashrif buyuruvchilar,	582,7	363,3	560,4	713,2

⁷⁵O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz).

ming kishi				
Faqat viza va xorijiy pasportni rasmiylashtirish, mehmonxona va boshqa yashash joylarini band qilish xizmatlari ko'rsatilgan			40,7	14,9
Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari ob'ektlari soni, birlik	239	434	661	916
Ularda joylar soni, birlik	17152	22600	34898	40788

Bugungi kunda turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishini va u XXI asr jahon xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgan yurtimiz sayyohlik ko'lami hamda tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n mamlakat qatorida turadi. Respublikamizda yetti mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorliklar bor. Ularning har biri hamisha dunyo ahlini o'ziga maftun qilib kelgan. Masalan, Samarqandning Registoni, Ulug'bek rasadxonasi, Buxoroning ko'hna Ark qal'asi, Xivaning Ichan-Qal'asi, Qarshining Odina, Ko'kgumbaz obidalari, Shahrisabzning Oqsaroy madaniy yodgorligi, Qo'qon o'rdasi sayyohlar bilan hamisha gavjum. Mustaqillik yillarida Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband, Imom Buxoriy hamda Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Hazrati Imom singari yodgorlik majmualari yaratilib, buyuk ajdodlarimiz, aziz avliyolarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatildi. Bugun ana shu majmualardan ham ziyoratchilar qadami arimaydi.

Qulay tabiiy-iqlimiy sharoit, boy tarixiy-madaniy meros, shifobaxsh buloqlar, go'zal manzaralar, yam-yashil o'rmonzorlar, mashhur g'orlar, sharsharalar, noyob tabiat yodgorliklari, moviy ko'llar, qo'riqxonalar har qanday sayyoh e'tiborini tortmasdan qolmaydi. Bunday katta salohiyat bilan yurtimizda turizmning ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlikka oid va boshqa qator turlarini rivojlantirish imkoni mavjud.

O'zbekistondagi mavjud tarixiy yodgorliklar, diniy obidalar, so'lim tabiat, tibbiy dam olish oromgohlari, sportga bo'lgan e'tibor, zamonaviy ta'lim va yaratilayotgan tashkiliy huquqiy asoslar turizm industriyasi rivojlanishiga yetarlicha imkon beradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2019 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida, bu sohaning naqadar dolzarb ahamiyati haqida to'xtalib, ".....turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim.

Bizda turizm ko'pgina qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda.

Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud.

Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi" deganlari ham be'jiz emas.⁷⁶

Mamlakatimizdagi turizm salohiyatidan kelib chiqib, sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqilgan va ularning asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi:

- ❖ turizmning tashkiliy – huquqiy asoslarini o'zgaruvchan sharoitlardan kelib chiqib takomillashtirish;

- ❖ turizm sohasida viza tartibini soddalashtirish;

- ❖ turistik sohada litsenziyalash va ruhsat berish tartib-taomillarini takomillashtirish;

- ❖ turizm sohasida biznesni yuritish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni yaratish, jahon tan olgan brendlarni, xorijiy investorlarni faol jalb etish;

- ❖ yangi turistik marshrutlarni yaratish va doimiy ravishda marketing tadqiqotlarini olib borish.

Biroq turizm industriyasi yetarlicha rivojlangan va bu sohada o'zinig mustahkam pozitsiyasini egallagan xorijiy mamlakatlar tajribasiga murojaat etadigan

⁷⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaat nomasi // Xalq so'zi gazetasi 2019 yil 29 dekabr № 271.

bo'lsak, ushbu sohada qiladigan ishlar ko'pligi va mavjud imkoniyatlar hali o'zlashtirilmagan xilma-xillik qator vazifalarni yuklaydi va ularning eng asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- turizm xizmatlari marketingi har bir region yoki viloyatning ichki xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil qilinmagan;
- mamlakatda turizm obyektlarining mavsumga qarab diversifikatsiya qilinmaganligi;
- turistlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning ko'ngildagidek emasligi;
- turizm sohasida yetarlicha tajriba va bilimga ega mutaxassislarning kamligi.

Mamlakatda milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Qisqa vaqt ichida yurtimizda sayyohlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, Prezidentimizning tegishli farmon va qarorlari qabul qilindi. Mazkur hujjatlarga ko'ra, sohani taraqqiy ettirish bilan bog'liq qator yangiliklarga qo'l urildi. Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tuzildi. Uning faoliyati, eng avvalo, nazorat va ma'muriyatchilik vazifalarini amalga oshirishga emas, balki turizmda tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirishga qaratilgani diqqatga sazovordir. Qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, sayyohlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan g'ov va to'siqlarni bartaraf etish, xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish, litsenziyalash, sertifikatlash hamda boshqa ruhsatnomalar berish uning zimmasiga yuklandi.

Samarqand shahrida "Ipak yo'li" turizm halqaro universiteti tashkil etilishi esa zamonaviy innovatsion, ilmiy-pedagogik texnologiyalarni, fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini qo'llagan holda, turizm sohasida yuqori malakali professional kadrlarni milliy va halqaro ta'lim standartlariga muvofiq sifatli tayyorlashga xizmat qiladi.

Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferentsiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni turizmni, avvalambor, xususiyl sektorida rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish, shuningdek, 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Kontsepsiyasini amaliyotga tadbiq etishga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori turizm tarmog'ini rivojlantirish, shu jumladan, bugungi kun standartlari va talablariga javob beradigan zamonaviy mehmonxonalar va shu kabi joylashtirish qurish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, respublikada mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi.

Tayanch so'z va iboralar:.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholi o'rtasida ommalashtirish, jismoniy kamolga intilish, zararli odatlardan xolos bo'lish, do'stlikka, tinchlikka yetaklaydi, funktsional va morfologik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamkorlik maxsus bilim bilan shakillanadi, mehnat unumdorligini oshiradi, inson biosotsial jonzo, turizm tushunchasi, kam resurs talabligi, serdaromadliligi, turist, sayohatchi, viza rejimini liberallashtirish, targ'ib qilish.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Sog'lom turmush tarziga amal qilish:

- A. Muntazam kitob o'qishni.
- B. Muntazam uxlab dam olishni.
- D. Muntazam sport bilan shug'ullanishni.
- E. Muntazam aqliy va jismoniy mehnat qilishni anglatadi.

2. Jismoniy tarbiya bu:

- A. Pedagogik jarayon.
- B. Ta'lim jarayoni.
- D. Tarbiya jarayoni.
- E. Mehnat jarayoni.

3. Jismoniy madaniyat bu:

- A. Insonga beriladigan ta'lim-tarbiyani o'z ichiga oladi.
- B. Inson xulq-atvorining o'zgarishini o'z ichiga oladi.
- D. Insonni jismoniy takomillashtirishni o'z ichiga.
- E. Insonning ma'naviy kamol topishini o'z ichiga oladi.

4. Amerika Qo'shma Shtatlarida "Xizmatchilarni sog'lomlashtirish Assotsiatsiyasi" qachondan tashkil qilingan?

- A. O'tgan asrning 40 yillarida.
- B. O'tgan asrning 30 yillaridan.
- D. O'tgan asrning 50 yillaridan.
- E. O'tgan asrning 60 yillaridan.

5. Turizm dastlabki paytlarda kishilarning tabiat sirlarini o'rganish maqsadida qilgan sayohatidan boshlangan

- A. Ehtiyoj tufayli boshlangan.
- B. Sayohatning yuzaga kelishidan boshlangan.
- D. Mehmondorchilikdan boshlangan.
- E. Kishilarning tabiat sirlarini o'rganish maqsadida qilgan sayohatidan boshlangan.

6. Turistlar ist'emol qiladigan mahsulotlar qanday turistik mahsulotlarga bo'linadi?

- A. Moddiy turistik mahsulotlarga bo'linadi.
- B. Moddiy va ma'naviy turistik mahsulotlarga bo'linadi.
- D. Ma'naviy turistik mahsulotlarga bo'linadi.
- E. Maishiy turistik mahsulotlarga bo'linadi.

7.Yurtimizda aksariyati YUNYESKO ro'yxatiga kiritilgan qancha madaniy meros obyektlari mavjud?

- A. 7 ming 300 dan ortiq.
- B. 7 ming 400 dan ortiq.
- D. 7 ming 500 dan ortiq.
- E. 7 ming 600 dan ortiq.

8. Respublikamizda "Ipak yo'li" turizm halqaro universiteti qachondan kaerda faoliyatini boshladi?

- A.2018 yildan Samarqandda.
- B. 2019 yildan Samarqandda.
- D. 2018 yildan Toshkentda.
- E. 2019 yildan toshkentda.

9.O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Kontsepsiyasi nechanchi yillarga mo'ljallangan.

- A. 2017-2021 yillarga.
- B. 2017-2025 yillarga.
- D. 2019-2025 yillarga.
- E. 2019-2030 yillarga.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Sog'lomlashtirish tadbirlari nimalarni o'z ichiga oladi?
2. Nima uchun sog'lomlashtirish tadbirlarining orasidan chekish va boshqa zararli odatlarga qarshi kurashish ham joy olgan?
3. Abu Ali Ibn Sino sog'liqni saqlashning muhim omili sifatida nimani birinchi o'ringa qo'ygan?
4. Insonning biosotsial jonzotligini tushuntiring.

5. Amerika Qo'shma Shtatlarida tashkil qilingan "Xizmatchilarni sog'lomlashtirish Assotsiatsiyasi"ning asosiy vazifasi nimaga qaratilgan?
6. Turizmning lug'aviy ma'nosini tushuntiring.
7. Turist va sayohatchini farqlang.
8. Ichki va tashqi turizmni aniqlang.
9. Turizmning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turistni kim deb atash mumkin?
10. Turizm sohasidagi islohotlar mazmunini tushuntiring.

8-mavzu. MEHNAT BOZORI VA AHOLINING ISH BILAN BANDLIGI

Reja:

- 8.1. O'zbekistonda demografik vaziyat va aholining o'sishi
- 8.2. Mehnat bozorining shakllanishi va amal qilish mexanizmi
- 8.3. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash strategiyasi va uni amalga oshirish siyosati
- 8.4. O'zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari

8.1. O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK VAZIYAT VA AHOLINING O'SISHI

Iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish sharoitida O'zbekistonning tarkibiy jihatdan tub o'zgarishlarga erishishi, o'z navbatida mehnat resurslarining shakllanishi va takror yaratilishi haqidagi ilmiy-iqtisodiy tasavvurlarni qayta o'rganish, unga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, bu sohadagi ijtimoiy munosabatlar tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish zaruratini vujudga qeltirdi.

Mamlakat mehnat resurslari miqdoriy jihatdan shakllanishining asosi aholi harakatlari hisoblanadi. Shu sababli uning shakllanish omillari va sharoitlarini

o'rganishda, avvalambor, aholining takror ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lgan mavjud demografik vaziyatni tahlil qilish lozim.

Demografik jarayonlar, ya'ni aholi sonining ko'payishi, o'sish xususiyatlari va sur'ati, tug'ilish darajasining o'zgarishi, o'lim darajasi, kishilarning yosh-jins tarkibi, nikohda bo'lish, avlodlar almashinuvi, uzoq yoqi qisqa umr ko'rish, jismoniy balog'at va oila tarkibi kabilar butun jamiyat rivojlanishi bilan o'zaro uzviy aloqadadir. Ular jamiyat taraqqiyotiga bog'liq bo'lib, bevosita ta'sir o'tkazadi. Ushbu holat har qanday davlatda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kechishini osonlashtiradi yoki qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham aholi sonining o'zgarishiga aloqador muammolar, uning hududiy joylashuvi va iqtisodiyotga tasiri turli fan vakillari – iqtisodchilar, demograflar, sotsiologlar, geograflar, huquqshunoslar, tibbiyotchilar diqqatini doimo jalb etib keladi.

Demografik vaziyat har doim o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, aholining tabiiy va migratsion harakatlarida namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda bu jarayonlar murakkab ko'rinishga ega bo'lib, tug'ilishning nisbatan yuqoriligi va unga mos ravishda aholi tabiiy o'sishining tezkor sur'ati bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy soniga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi, MDH tarkibiga kiruvchi mamlakatlar o'rtasida esa uchinchi Rossiya va Ukrainadan so'ngi o'rinni egallaydi. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston yaqin xorijiy mamlakatlar o'rtasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Yurtimizda aholi sonining ko'payishi bir qancha sabablar – tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ayniqsa, respublika uchun xos bo'lgan demografik omillar ta'sirida yuz bermokda. O'z navbatida bular ham bir-biri bilan bevosita bog'langan.

Vaziyatni tahlil qilish, odatda asosiy demografik darajalarni o'rganishdan boshlanib, ular ichida aholi soni ko'rsatkichi ko'proq ahamiyatga ega bo'ladi.

XX asr boshida O'zbekiston hududida atigi 3,9 mln. kishi yashagan bo'lsa, bugungi kunga kelib, ya'ni, o'tgan 100 yildan ko'proq vaqt mobaynida aholi soni jadal o'sib ko'rsatkichiga ega bo'ldi va 8 baravardan ortiqqa ko'paydi va ushbu ko'rsatkich hozirda 33 mln.dan oshib ketdi.

O'zbekiston o'ziga xos demografik xususiyatlariga ega. Bu ayniqsa, Respublikada tug'ilishning yuqori ekanligida ko'rinadi. Ko'p yillar davomida yurtimiz aholisi soni tez sur'atlarda ko'payib borgan va ushbu o'sishlar tug'ilishning yuqori miqdori hisobiga ro'y bergan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda aholi o'sish sur'ati 102,2 % ni tashkil etgan bo'lib, yillik tug'ilishlar 723,4 ming kishi va uning koeffitsienti 34,7 promillidan iborat bo'lgan. Oxirgi yillarda tabiiy o'sish sur'atida nisbatan kamayish holati kuzatilayotgan – bo'lsada, bu ko'rsatkich hali ham yuqori hisoblanadi (8.1.1-jadval).

8.1.1-jadval

O'zbekistonda aholi sonining o'zgarish dinamikasi (ming kishi)⁷⁷

Ko'rsatkichlar	Yillar					
	2000	2005	2010	2015	2017	2019
Jami aholi soni (ming kishi)	24487,7	30492,8	28001,4	31022,5	32120,5	33724,9
Shundan:						
Shahar aholisi	9165,5	15555,2	14425,9	15748	16250,8	17032,3
Qishloq aholisi	15322,2	14937,6	13575,5	15274,5	15869,7	16692,6

Yurtimizda jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan demografik siyosat hamda aholi turmush darajasini oshirishga mo'ljallanib, puxta o'ylangan tadbirlar natijasida demografik jarayonlarda ijobiy tendentsiyalar kuzatilmoqda. Jumladan, respublikada umr ko'rish davomiyligining uzayishi aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning yaxshilanishi, sog'liqni saqlash tizimida zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, davolash maskanlarining zamonaviy uskunalari bilan jihozlanishi, bu sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash hamda sohani yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga e'tiborning kattaligi tufayli O'zbekistonda so'nggi yillarda aholi o'rtasida o'lim holatlarining

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz)

nisbatan pasayib borayotgani kuzatilmoqda. Aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi 1990-yildagi 67,2 yoshdan 6,5 yoshga o'sib, bugungi kunda 73,7 yilni tashkil etmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda faqatgina mustaqillikka erishilgach, davlat tomonidan aniq demografik siyosat olib borilib, kompleks ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirila boshladi. Ushbu va boshqa omillarni hisobga olgan holda bozor islohotlarining boshlang'ich davridayoq aholining ish bilan bandlik sohasida yangi siyosat ishlab chiqildi. Uning asosida esa mehnat resurslarini sifat jihatdan shakllantirish, zamonaviy tartibga solinadigan mehnat bozori tizimini yaratish va uning samarali faoliyat ko'rsatishiga erishish kabi maqsadlar yotadi.

Demografik jarayonlarni o'rganish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atiga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismini iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini ta'minlash, ijtimoiy ta'minot strategiyasi va resurslarni joylashtirish istiqbollari bilish uchun muhimdir. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholi sonining o'sishi o'rtasida ziddiyat yoki nomutanosibliklar yuzaga kelganda demografik muammolar ham keskinlashadi.

O'z davrida ingliz iqtisodchisi T. Maltus demografik muammolarning ziddiyatlariga e'tibor qaratib, aholi har 25 yilda 2 marta, ya'ni geometrik progressiya asosida, oziq-ovqat mahsulotlari esa arifmetik progressiya asosida ko'payishini ta'kidlab aholining o'sishi kelajakda jiddiy muammolar keltirib chiqarishini va aholi ko'payishining oldini olishdagi turli qirg'inborat urishlar hamda tabiiy ofatlarni yoqlab chiqadi.

T. Maltus nazariyalari o'z isbotini topmagan bo'lsada, bugungi zamonaviy sharoitlarda demografik muammolarni hal etishda masalaning ikki jihatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Birinchi jihat tug'ilishning va bolalar o'limining yuqoriligi, aholining jinsiy va yosh tarkibida yoshlarning ko'pligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihat mehnatga layoqatli aholi sonining ko'payishidan, ularni ish o'rinlari bilan ta'minlashning orqada qolishi bilan bog'liq.

Hududiy demografik siyosatning asosiy vazifasi tug'ilishni optimallashtirish, bolalar o'limini kamaytirish yo'li bilan aholi ko'payishining optimal darajasini shakllantirish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Qishloq joylardagi mehnatga layoqatli aholi sonining o'sish sur'atlari shahar joylardagidan hamon sezilarli darajada farq qiladi. Bunday vaziyat qishloq aholisining bandligi borasidagi ahvolni va hududlardagi jarayonlarning istiqboldagi o'zgarish tamoyillarini o'rganish uning natijalariga asoslangan holda mehnat bozorida ro'y beradigan muammolarni hal etish uchun jadallik bilan chora-tadbirlar ko'rilishini talab etadi.

Tug'ilish va demografik choralar ijtimoiy-iqtisodiy sohaning rivojlanishi bilan mos kelmasa, kutilgan natijani bermaydi, ya'ni demografik vaziyatni barqarorlashtirish va aholining mehnatda bandligini oshirish ishchi kuchining sifatini yuksaltirish hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish hisobigagina hal qilinishi mumkin.

Mamlakatimizda demografik jarayonlarning murakkab ko'rinishiga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida aholining respublika hududlari bo'ylab notekis taqsimotini ko'rsatish mumkin. Kishilarning turli mintaqalarda turlicha miqdor va zichlikda joylashuvi o'ziga xos muammo hisoblanib, bu holat mamlakatning tarixiy, geografik va tabiiy-iqlimiy xususiyatlari hisobiga yuzaga kelgan.

Respublikamizda aholi soni tez o'sib borayotganligi sababli uning zichligi ham oshib bormoqda. Masalan, 1940-yilda har bir km. kv. ga 14,6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1991-yilda 45,0 nafarni, bugungi kunga kelib 59 kishidan oshiqni tashkil etmoqda. Binobarin, aholining o'rtacha zichligi jihatidan O'zbekiston MDHga a'zo mamlakatlardan va Markaziy Osiyodagi boshqa respublikalardan oldinda turadi.

Mamlakatdagi demografik jarayonlarni o'rganish asosida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatishga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi strategik rejalarni ishlab chiqishda va istiqbollashtirishga, resurslardan samarali va unumli

foydalanishga hamda mehnat bozoridagi ishchi kuchi talabi va taklifi muvozanatiga erishiladi.

8.2. MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISHI VA AMAL QILISH MEXANIZMI

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bozor tizimi asosida shakllantiriladi va amal qiladi. Xuddi shuningdek, mehnat munosabatlari xam mehnat bozori asosida shakllantiriladi va tartibga solinadi. Mehnat bozori ishga yollanuvchilar va ish beruvchilar, korxonalar, tashkilot, muassasa hamda davlat o'rtasidagi mehnat munosabatlari yig'indisidir. Yoki boshqacha aytganda, mehnat bozori ishchi kuchining mehnatga qobiliyatini sotish va sotib olish tizimidir. Mehnat bozorida xam talab, taklif, narx va raqobat hal qiluvchi komponent hisoblanadi. Mehnat bozorida taklif sifatida ishchi kuchining mehnat potensialini sotish tushunilsa, talab esa mehnat qobiliyatini sotib olish istagini bildiradi. Bunda talab va taklif o'rtasidagi muvozanat holati nuqtasida narx paydo bo'ladi. Ishchi kuchiga bo'lgan talabga nisbatan taklifning ko'payib ketishi, mehnat bozoridagi muvozanatning buzilishiga va ishsizlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Aholining oqilona ish bilan bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri mehnat bozorini maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish hamda uni tartibga solish hisoblanadi. Bu, ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi uzviy aloqalar va ziddiyatlarni, ular hamkorligining samaradorlik mezonlarini aniqlashga qishloq aholisi kasb malakasini oshirishning asosiy yo'nalishlarini belgilashga hamda jonli mehnat resurslarini "ortiqcha" va ish joylari "taqchil" sharoitlarda ishchi kuchiga talab va taklifni makroiqtisodiy tartibga solishga, pirovardida iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy tadbirlarni maqsadga muvofiq ravishda ishlab chiqishga samarali imkon beradi.

Bunday tadbirlarni ishlab chiqish sodir bo'layotgan jarayonlarni chuqur o'rganishni mehnat bozori shakllantirilishi va rivojlantirilishining eng muhim muammolarini va ularni ijobiy hal etish yo'llarini aniqlashni talab qiladi. Bu yo'llarni to'g'ri topish esa mehnat bozori amal qilishining mexanizmlarini o'rganishni va o'zgaruvchan sharoitlarga qarab takomillashtirishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyotining oldida turgan dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini samarali shakllantirish va rivojlantirishdir. Mehnat bozori – bu, mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi mehnat kelishuvlari asosida “mehnatga qobiliyatlarini” xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni muvozanatga keltiruvchi bozor iqtisodiyotining muhim ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmidir. Mehnat bozori mazkur mexanizm orqali quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishchi kuchi talab va taklifning hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirish;
- bozor uslubida xo'jalik yuritishining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy mexanizmlari yordamida ishchi kuchiga talab va taklifni tartibga solish;
- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatish;
- ishsizlar ish topishiga, ularning malakasi va raqobat qobiliyatini oshirishga ko'maklashish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mehnat taqsimotini o'zgartirish.

Mehnat bozorining asosiy belgilari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishchi kuchiga talab va uning taklifi;
- ishchi kuchining qiymati va bahosi (haqi);
- raqobat.

Mamlakatimizda fuqarolar uchun mehnat qilish, tanlash erkinligi va ixtiyoriyligi mehnat bozori shakllanishi va amal qilishining asosiy shartidir. Shu bilan bir qatorda mehnat bozorining amal qilishiga bevosita va bilvosita ta'sir

ko'rsatadigan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqlimiy va huquqiy omillar mavjud. Ularning eng asosiylari quyidagilardan iborat:

- ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyor erkin va teng huquqli ishchi kuchi iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqozo etadi;

- taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining unga talab miqdoriga nisbatan tez o'sishi yoki aksincha;

- yollanma xodimlar va ish beruvchilar o'rtasidagi sifat ko'rsatgichlarning oshishi;

- tabiiy-iqlim sharoitlari o'rtasidagi tafovutlar;

- qishloq xo'jaligi yerlaridagi unumdorlik, yetarlicha suv bilan ta'minlanganlik holatlari;

- qishloq joylarga nisbatan shahar joylarda sanoat korxonalarining ko'proq joylashuvi;

- aholining notekis joylashuvi va hakoza.

Ayni paytda mehnat va bandlik sohisi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini kuchaytiruvchi bir qator muammolar bilan tavsiflanadi.

Birinchidan, bozorda ishchi kuchi taklifining talabga nisbatan ortishi kuzatilmoqda. Bu quyidagilar bilan asoslanadi. Har yili mehnat bozoriga taxminan 250-350 ming kishining chiqishi. Iqtisodiyotning bir qator tarmoqlari, asosan, qishloq xo'jaligidan ishchi kuchining bo'shatilishi va xizmat ko'rsatish sohalariga jalb etilishi kuzatilmoqda. Bu qishloq aholisining ixtisosini o'zgartirishni va yangi ish o'rinlari bilan tanishtirishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, ishchi kuchi sifatining ish beruvchilarning kasb-malaka talablariga mos kelmasligi holatlari ham mavjudki, bu hol ayrim mutaxassislarni tayyorlashda iste'molchilar talabini o'rganishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda mehnat bozorida mehnat resurslariga bo'lgan talabni oshishi bo'yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga, eng, avvalo, mulkchilik shakllarini

rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, xorijiy investitsiyalar jalb qilish, mahalliyashtirish dasturiga to'la amal qilish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko'tarish, soliqlarni oqilona belgilash orqali erishiladi.

Aholi bandligini oshirishning muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish joylarini yaratish, bunda yangi zamonaviy xizmatlar hisobiga kengaytirishni tashkil qilish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qayta ishlash sanoati tarmoqlarini ko'paytirish, kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy ishlarni mablag' bilan ta'minlash kiradi.

8.3. O'ZBEKISTONDA AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH STRATEGIYASI VA UNI AMALGA OSHIRISH SIYOSATI

O'zbekistonning iqtisodiy o'sish sari yo'l tutishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarining rivojlanishi barcha sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni va aholi turmush darajasini oshirishni taqazo qilmoqda. Ushbu tarkibiy o'zgarishlar mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanati, aholining oqilona bandligini ta'minlash bilan uyg'unlashmoqda.

Aholi bandligini ta'minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik, sanoat sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish tartibi to'g'risida"gi nizom qabul qilinib, unga muvofiq, fuqarolarning ushbu toifasiga ta'lim muassasalarini tugatgan yoshlar, harbiy xizmatdan bo'shayotgan yoshlar va boshqalar kiritildi. Bunda ish o'rinlarini band qilib qo'yish xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni 20 nafardan ko'pni tashkil etadigan tashkilotlar uchun belgilandi.

Bandlikka ko'maklashuv markazlari faoliyati takomillashuvi bilan respublikada ishga joylashishga muhtoj aholini bir martalik ishga jalb qilish ishlari ham yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bu faoliyatning mohiyati shundaki, o'z mehnat layoqatini qisqa muddatli (to'liq bir ish kunida yoki to'liqsiz bir ish kunida, ikki yoki undan ortiq, lekin bir oydan kam ish kunida) ishga sarflash istagida bo'lgan fuqarolarga mehnat muassasalari ish beruvchi va yollanma ishchini bir-biri bilan uchrashtirish va kelishib olishlariga ko'maklashmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish – to'la va samarali ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi eng muhim omillardan biri bo'lib, unga aholini ijtimoiy himoya qilish choralarining bir turi sifatida qaralmoqda.

Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish va qayta mehnat bozoriga safarbar etishda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

ishsizlik nafaqasini to'lash;

– mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;

– ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda, moddiy yordam berish;

– haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;

– mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.

Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilishning muhim yo'nalishi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-iyuldagi "Haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish to'g'risida"gi 353-son qarori qabul qilindi va unga asosan, haq to'lanadigan jamoat ishlari quyidagi maqsadlarda tashkil qilinadi:

- ish qidirayotgan shaxs sifatida mehnat organlarida ro'yxatga olingan fuqarolarga ularning vaqtincha ish haqi (mehnat daromadi) olishi va ish

qidirayotgan davrida ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat organlari tomonidan ishsiz deb e'tirof etilgan fuqarolarni vaqtincha ish bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- birinchi marta ish qidirayotgan va kasbi (mutaxassisligi) bo'lmagan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb qilish;
- turli sabablarga ko'ra kasb faoliyatida ancha uzilishlar bo'lgan shaxslarni (ilgari bolalar tarbiyasi, bemorlar va oilaning keksa a'zolariga qarash bilan mashg'ul bo'lgan, jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilinganlar va boshqalar) mehnatga qayta tiklash;
- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarini ishchi kuchi bilan ta'minlash.

O'zbekiston mehnat resurslarining tarkibi va yosh bo'yicha faolligi jihatidan ham boshqa ko'plab malakatlardan farq qilib, respublikadagi jami aholiga nisbatan mehnat resurslari ulushi, bugungi kunda 60 foizdan oshiqni tashkil qiladi.

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va yangi ish o'rinlarini yaratish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining tabiiy o'sishiga monand bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (8.3.1-jadval).

8.3.1-jadval

Mehnatga yaroqli aholining ish bilan bandligi ⁷⁸

Ko'rsatgichlar	Yillar			
	2014	2015	2016	2017
Aholining tabiiy o'sishi, ming kishi	568,3	582,1	571,4	554,8
Band aholi, ming kishi	12818,4	13058,3	13298,4	13520,3
Ishsizlar soni, ming kishi	687,0	709,4	724,0	837,0

⁷⁸O'zbekistonda turizm. Statistika to'plam.-T.: 2018.-B.31-32

Aholi bandligi tarkibida ham muhim ijobiy o'zgarishlar va amaliy natijalar ta'minlandi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida ish bilan band bo'lganlarning 60 foizi davlat sektori hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunga kelib mazkur sektorda umumiy ish bilan band aholining 20 foizdan ko'prog'i mehnat qilmoqda.

Bandlikning sohalar bo'yicha tarkibida ham ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Xususan, qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada kamaydi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish, transport va qurilish sohalarida ish bilan band bo'lganlar soni jadal o'sib bormoqda.

Mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya masalalariga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24.05.2017-yildagi PF-5052-sonli farmoni bandlik sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish, shu jumladan, davlat va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan holda mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish, ishsiz aholini, ayniqsa, yoshlarni ishga joylashtirishda samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish va diversifikatsiyalash, faol investitsiya siyosati yuritish hisobiga iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta jihozlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish asosida har yili minglab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu o'z navbatida o'ta dolzarb muammo hisoblangan aholi, avvalambor, yoshlar bandligini ta'minlash imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi etib qayta tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari, jumladan, yangi ish o'rinlari yaratilishiga davlat buyurtmalarini ishlab chiqish, hududiy va tarmoqlar bandlik dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarga nafaqa va moddiy yordam o'z vaqtida to'lanishi monitoringini amalga oshirish va boshqalar belgilangan.

Alohida qayd etish lozimki, Farmonda 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarining birinchi marotaba ishga joylashgan bitiruvchilari, agar ular ta'lim muassasasini tamomlagan kundan boshlab uch yildan ortiq vaqt o'tmagan bo'lsa, ishga joylashganidan keyin birinchi yil davomida ish haqidan olinadigan daromadlari bo'yicha yagona ijtimoiy to'lovning o'rnatilgan stavkasini 50 foizga, ularning ikkinchi va uchinchi yil davridagi ish faoliyati bo'yicha 25 foizga kamaytirish belgilandi. Bu imtiyoz byudjet tashkilotlari, monopolist tashkilotlar, ustav jamg'armasida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan tashkilotlarga ishga joylashtirilganlarga tatbiq qilinmaydi.

Mazkur kiritilayotgan me'yor ish beruvchilarning oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishdan manfaatdorligini oshirish hamda imtiyozni qo'llash natijasida bo'shaydigan mablag'larning

bir qismini bitiruvchilarning kasbiy malakasini oshirish bo'yicha tadbirlarga yo'naltirish imkonini beradi.

Qabul qilingan farmonda mehnat bozorini yanada rivojlantirish, mehnat qonunchiligini takomillashtirish va bandlikni rag'batlantirish bo'yicha bir qator choralar ko'zda tutilgan. Xususan:

- 2018-yilning 1-yanvaridan boshlab nodavlat tashkilotlarga fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi hududida ishga joylashtirish sohasida belgilangan tartibda pullik xizmatlar ko'rsatish huquqini berish, agar bunday xizmatlar fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bilan bog'liq bo'lsa, ushbu faoliyat turi bo'yicha belgilangan tartibda beriladigan litsenziya asosida xizmat ko'rsatishga ruhsat berish;

- mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklariga xodimlarning roziligi asosida muayyan muddatli mehnat shartnomalari (muddatli mehnat shartnomalari), jumladan, vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarish bo'yicha shartnomalarni tuzishga ruhsat berish, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan davrdan boshlab uch yil ichida birinchi marta ishga kirayotgan bitiruvchilar bilan tuziladigan mehnat shartnomalari bundan mustasno;

- Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida ish tashkil qilishning ilg'or shakllarini joriy etish, bunda barcha davlat xizmatlarini to'liq hajmda funktsional tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish (reinjining qilish), ishga tanlov asosida qabul qilish, "yagona darcha" tamoyilida davlat xizmatlari ko'rsatish, mehnat organlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, mehnatga haq to'lashning zamonaviy rag'batlantiruvchi uslublarini qo'llagan holda, samaradorlikning asosiy ko'rsatgichlari (KPI) asosida xodimlar mehnatining sifati va samaradorligini baholashni nazarda tutish.

Qabul qilingan farmonning muhim yangiliklaridan biri shundan iboratki, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Jamoat ishlari jamg'armasi tashkil etilmoqda. Mazkur jamg'armaning asosiy vazifalari etib, vaqtincha band

bo'lmagan aholini yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, yo'l va uy-joy kommunal infratuzilmasini qurish, ta'mirlash va rekonstruktsiya qilishda, shahar va tumanlarni obodonlashtirishda, mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlarida ishtiroklarini moliyalashtirish belgilangan.

8.4. O'ZBEKISTONDA ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi va bozor munosabatlarining rivojlanishi barcha sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda. Ushbu tarkibiy o'zgarishlar mehnatga yaroqli aholini ish bilan ta'minlash va ularning migratsiyasini tartibga solish bilan monand kechmoqda.

O'zbekiston respublikasi mehnat resurslari bilan ta'minlanishi darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Markaziy Osiyodagi mehnat resurslarining deyarli 40 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi. Ayniqsa, aholi tarkibida mehnat qilish yoshidagilar soni nisbatan tezroq o'sishi mehnat resurslarining jadal o'sishiga olib kelmoqda. Har yili mehnat resurslari safiga 250-350 mingdan oshiq kishining kelib qo'shilayotganligi ham buning yaqqol isbotidir.

Mehnat resurslarining ko'pligi va keyingi paytlarda halqaro ishchi kuchi migratsiyasidagi ishtirokining jadallashuvi ishchi kuchi eksporti takomillashuvini zaruratga aylantirmoqda.

O'zbekiston respublikasining xorijiy mamlakatlarga ishchi kuchini eksport qilish tufayli:

- mamlakat Yalpi Milliy daromadining o'sishiga;
- qo'shimcha shakllangan mablag'lar hisobiga bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish va yangi ish joylarini barpo etishga;
- ishsizlarni himoyalash uchun ajratilayotgan mablag'lar miqdorining tejalishiga;

➤ xorijda ishlab qaytayotgan fuqarolarning ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirib, yuqori tajriba va mahorat bilan qaytishi, ishlab chiqarishning yangi usullarini joriy etishiga;

➤ xorijning samarali boshqaruv ko'nikmalari va tajribalarini o'zlashtirishiga;

➤ chet tilini va vatanga bo'lgan his tuyg'uni o'rganib qaytishiga erishish mumkin bo'ladi.

Jahon iqtisodiyotida ishchi kuchining halqaro harakatchanligi faollashgan sari migratsiya jarayonlarini tartibga solish zaruriyati dolzarb bo'lib bormoqda.

O'zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi shubhasiz o'sib boraveradi, muhimi bu halqaro huquq me'yorlariga va davlatlararo kelishuvlarga asosan madaniylashgan tarzda amalga oshirilishi lozim.

O'zbekiston Halqaro Mehnat Tashkilotining teng huquqli a'zosi bo'lib, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatini ishlab chiqishda mazkur tashkilot ishlab chiqqan hujjatlarga to'la amal qilib kelmoqda va ular amaldagi qonunchilikda o'z aksini topmoqda. Xususan, respublikamizda "Mehnat kodeksi", "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 14-iyuldagi "Ishchi kuchlarini olib kelish va tashqariga olib chiqish masalalarini tartibga solish to'g'risida"gi, 2003-yil 12-noyabrdagi 505-sonli "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat faoliyatini tashkillashtirishni takomillashtirish to'g'risida"gi, 2007-yil 15-maydagi 97-sonli "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlariga va shu qarorlar asosida tasdiqlangan nizomga asosan amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonuniga muvofiq O'zbekiston fuqarolarini chet ellarda o'z kasbi bo'yicha shug'ullanish huquqi, mamlakat tashqarisida ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ishga joylashtirishni tartibga solish va bu jarayonni muvofiqlashtirish borasida davlatning javabgarligi mustahkamlab qo'yilgan.

Biroq respublikada ishlash uchun xorijiy davlatlarga chiqib ketayotganlar halqaro talablar darajasida tayyorgarlikka ega emasliklari sababli, jahon mehnat bozorida raqobatlasha olmayapti. Ko'pchilik uchun xorijiy tillarni bilmaslik zamonaviy kasb – hunarlarga ega emaslik ishchi kuchi qiymatini pasaytirmoqda. Bu holatlar mamlakatimizning halqaro ishchi kuchi bozoriga to'la-to'kis kirib borishini qiyinlashtirmoqda. Shu sababli ishchi kuchini eksport qilishda ularning ma'lum tayyorgarliklarini yo'lga qo'yish uchun majburiy xarajatlarni amalga oshirish kerak.

Tashqi migratsiyaning rivojlanishi nafaqat huquqiy ta'minotni balki, halqaro mehnat bozorida raqobatni ham yengib o'tishga to'g'ri keladi. Bu borada davlatning o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solish va takomillashtirishga to'g'ri keladi:

birinchidan, jahon mehnat bozoridagi konyukturani o'rganish, mehnat resurslarining tashqi bozordagi harakatini kuzatish va bu boradagi halqaro qonunchilik asosini o'rganish;

ikkinchidan, ishchi kuchi migratsiyasini davlat tomonidan nazorat qilishni kuchaytirish;

uchinchidan, ishchi kuchi migratsiyasining halqaro mehnat bozorida davlatlararo munosabatlarni o'rnatish;

to'rtinchidan, mavjud ishchi kuchi eksport bilan shug'ullanuvchi nodavlat agentliklarning faoliyatini legallashtirish;

beshinchidan, xorijga chiqayotgan ishchi kuchini eksport darajasiga tenglashtirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish, kasb-hunar, ko'nikma va til o'rgatish lozim.

O'zbekiston halqaro migratsiya aloqalarining istiqbolda yanada rivojlanishidan manfaatdor. Mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, tashqi bozorlarda mahsulotlar raqobatbardoshligini yuksaltirish halqaro hamkorlikni mustahkamlaydi va halqaro mehnat migratsiyasining faollashuviga, ikki tomonlama manfaatdorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Mamlakatimizda ishchi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish va eksport salohiyatini oshirish tadbirlari keng qo'llanilmoqda hamda mehnat resurslarining mehnat bozoridagi teng huquqli faoliyatini ta'minlash tadbirlarining amalga oshirilishi va hududiy bandlik dasturlarining amalyotga tadbiiq etilishi natijasida yaratilgan ish o'rinlari soni ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida aholining ish bilan bandligini ta'minlashga yordam bermoqda.

Tayanch so'z va iboralar: demografik jarayonlar, ishchi kuchiga talab va taklif, mehnat resurslari, ishsizlik, ish bilan bandlik, mehnat bozorida raqobat, bandlik sohasida davlat siyosati, bandlik dasturlari, ish o'rinlarini yaratish, ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash ishchi kuchi migratsiyasi, takomillashtirish.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Demografik jarayonlar o'z ichiga oladi:

- A. Mamlakatning hududiy joylashuvi.
- B. Tug'ilish, o'lim darajasi, kishilarning yosh-jins tarkibi.
- D. Mamlakat ijtimoiy rivojlanish ko'rsatgichlari.
- E. Aholining ma'lumotlilik, kasb-malaka tarkibi.

2. Mehnat bozori – bu:

- A. Aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar.
- B. Ishchi kuchini sotish va sotib olishni amalga oshiradigan makon.
- D. Ish beruvchi va ishsizlar uchrashadigan joy.
- E. Mehnat yarmarkasi.

3. Mehnat birjasining faoliyati nimalardan iborat?

- A. Mehnat faoliyatlarini shakllantiruvchi tashkilot;
- B. Korxonalarda ishchi-xizmatchilar uchun mehnat shartnomasini tuzuvchi tashkilot;

D. Ishchi xizmatchi va korxonaga egasi o'rtasida ishchi kuchini sotish va sotib olish bo'yicha kelishuvni amalga oshirishda muntazam vositachi vazifasini o'taydigan muassasa:

E. Ishsizlarni ishga qabul qiladigan tashkilot.

4. Korxonada ishchi xodimlarni rag'batlantirishning qanday turlari mavjud?

A. Moddiy.

B. Ma'naviy.

D. Bajariladigan ish to'lovi.

E. Moddiy va ma'naviy.

5. Mehnat bozori shakllanishining asosiy sharti.

A. Korxonalarining ishchi kuchiga bo'lgan talabini qondirish.

B. Ish beruvchi va yollanma xodimning shaxsiy erkinligi.

D. Ishsizlarni to'liq ish bilan ta'minlash.

E. Raqobat kurashini vujudga keltirish.

6. Mehnat bozori tarkibiy qismining asosiy elementlari.

A. Ishchi kuchiga talab, taklifi, ishchi kuchi elastikligi.

B. Ishchi kuchining talab, taklifi, mutaxassisligi, kasbi, malakasi.

D. Ishchi kuchining qiymati, bahosi, narxi.

E. Ishchi kuchiga talab, taklif, ishchi kuchining qiymati.

7. Mehnat bozori shakllanishidagi asosiy muammolar.

A. Ish haqqining pastligi.

B. Tovar va xizmatlar narxining qimmatligi.

D. Ishchi kuchining malaka va tajribasining pastligi.

E. Bo'sh ish joyi haqidagi ma'lumotlarning kamligi.

8. Mehnat bozorini tartibga solish usullari.

A. Jamoaviy, shaxsiy va hududiy usullardan.

B. Shaxsiy va hududiy usullardan.

D. Jamoaviy, shaxsiy bitimlardan.

E.Muzokaralar yo'li bilan.

9. O'zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi bilan bog'liq muammolar nimalarni o'z ichiga oladi?

A.Migrantlar uchun xorijiy mamlakatlarga borish mablag'ining yo'qligi.

B. Xorijiy tillarni bilmaslik, borayotgan mamlakatining tarixini bilmaslik, bo'sh ish joylari haqida ma'lumotlarning yo'qligi.

D. Raqobatga bardosh bera olmaslik, xorijiy tillarni bilmaslik zamonaviy kasb – hunarlarga ega emaslik.

E. Kasb-hunarlariga ega emaslik, mehnat shartnomasini tuzish ko'nikmalarining shakllanmaganligi, mehnatga layoqatsizlik.

10. O'zbekistonda mehnat munosabatlari qanday tartibga solinadi?

A. Hech qanday tartibga solinmaydi.

B. Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari, jamoa kelishuvlari, mehnat shartnomalari.

D. Korxonalar rahbarlari, ish boshqaruvchilar tomonidan.

E. Mahalla o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Mehnat bozorining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
2. Mehnat bozoridagi muammolarni yechishda ijtimoiy sohalarning roli qanday?
3. Mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi muvozanat haqida gapiring.
4. Aholini ish bilan ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining ahamiyati.
5. Aholini ijtimoiy himoyalashda mehnat bozorini o'rni qayday?
6. O'zbekistonda ishsizlik va ish bilan bandlik holati.
7. Ishchi kuchi migratsiyasi va uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsating.
8. Mehnat bozorini tartibga solishni tashkiliy-huquqiy asoslarini gapiring.

9-mavzu. IJTIMOY SUG'URTA RIVOJLANISHINING NAZARIY TAHLILI VA YO'NALISHLARI

Reja

9.1. Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati, turlari va shakllari

9.2. Ijtimoiy sug'urtalashning huquqiy institutsional asoslarining yaratilishi va takomillashuvi

9.1. IJTIMOY SUG'URTANING MOHIYATI, TURLARI VA SHAKLLARI

Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy munosabatlar tizimidagi tarixiy kategoriyalardan biridir. U kishilik jamiyatining ilk davrlarida yuzaga kelib, asta-sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning va inson faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Shu jumladan, yurtimizda ijtimoiy sug'urta mexanizmlari kecha yoki bugun bexosdan paydo bo'lib qolgani yo'q. Uning amallariga halqimizda doim intilish mavjud bo'lgan.

Ijtimoiy sug'urta tizimi yuzaga kelishining dastlabki kurtaklari va ibtidoiy turi uzoq evolyutsion rivojlanish tarixiga ega. Aholining muhtoj tabaqalariga yordam berish shariat qonunlarida ham ko'zda tutilgan. Nochorlarga, miskinlarga dastlab zakot hisobidan, zakot davlat solig'iga aylantirilganidan keyin uning o'rniga sadaqa hisobidan fond tashkil qilinib yordam uyushtirilgan.⁷⁹ Mahalla va guzarlarda oqsoqollar tomonidan nochor oilalarga yordam berishni maqsad qilib, ehtiyot fondi sifatida pul to'plab borilgan. Ayniqsa, insonparvarlik g'oyalari ustun bo'lgan o'lkamizda ijtimoiy sug'urtalash mexanizmlari Amir Temur hukmronlik qilgan davrlarda keng tarqalgan. Askarlar qariganda va urushda nogiron bo'lib qolganda g'amxo'rlik qilingan, ular nafaqa bilan ta'minlanganlar.

Ijtimoiy sug'urta tizimining xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi evolyutsiyasidan kelib chiqib, uning vujudga kelishi va rivojlanishini shartli uch bosqichini farqlashimiz mumkin.

⁷⁹ Zakotnoma –T.: “Ilm shirkati”, 1991. – B. 24.

Birinchi bosqich ijtimoiy sug'urta tizimi ilk namunalari yoki ibtidoiy turi vujudga kelishining sobiq sovet sotsialistik tizimgacha bo'lgan davrni tashkil qiladi. Bunga yuqorida ta'kidlangan amallarni misol keltirishimiz mumkin.

Ikkinchi bosqich sho'rolar hukumronlik qilgan davrdan mustaqillikka qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda ijtimoiy sug'urta tizim sifatida shakllandi va amal qilish mexanizmlari yaratildi. Bu davrda ijtimoiy sug'urta yakka hukumronlik qilgan kommunistik mafkura ta'sir doirasida faoliyat ko'rsatdi. Bozor munosabatlaridan mutloqa uzoqlashishiga, uni chetlab o'tishga olib keldi. Ijtimoiy sug'urta polislari ko'p hollarda aholini boqimandalikka moslashtirdi.

Uchinchi bosqich respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan boshlab hozirgi kunga qadar davom etmoqda. Mustaqillik sug'urta sohasida ham jahon standartiga asoslangan mustaqil tizimini barpo etishga keng imkoniyatlar yaratdi.

Bu davrning xarakterli tomoni shundaki, mamlakatimiz ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi va ijtimoiy siyosat yuritildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning muhim sharti sifatida ijtimoiy sug'urtani isloh qilishdan boshlandi. Ijtimoiy sug'urta amal qilishining bozor qoidalaridan kelib chiqib dastaklari, mexanizmlari, tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslari shakllantirildi.

Ijtimoiy sug'urta bugungi kunda aholini ijtimoiy ta'minlashning asosiy shakllaridan biri sifatida qo'llanilmoqda, ya'ni aholini ijtimoiy himoyalashning umumdunyo tendentsiyalarini yaxlit hisobga oladigan va ayni payt mamlakatni rivojlantirish xususiyatlarini uning tarixiy demokratik hamda ijtimoiy o'ziga xosliklarini aks ettiradigan faoliyat turiga aylangan.

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi bilan ijtimoiy sug'urtaning o'rni va roli sezilarli oshib borib, bunga aholining majburiy ijtimoiy sug'urtalaganlik darajasining oshishi, ijtimoiy sug'urta dasturlarining kengayishi, to'lanadigan pensiya, nafaqalar hajmining hamda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining o'sishi, ularning qiymati va aholi real daromadlarining oshishiga sabab bo'ladi. Aholi

turmush darajasi sifat jihatdan yaxshilanib, iqtisodiyotdagi ijtimoiy faolligi, jamiyatga bo'lgan ishonch va rag'bat oshib boradi.

Ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy vazifasi davlat ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi sifatida jamiyatda insonparvarlik g'oyalarini taraqqiy ettirish, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, mehnatni rag'batlantirish, ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etish va adolatlilikni qaror toptirish hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urta – ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida, davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan davlat maqsadli, byudjetdan tashqari ijtimoiy sug'urta fondi, shuningdek boshqa jamoaviy va xususiy sug'urta fondlari mablag'lari hisobiga yordam ko'rsatish tizimi demakdir.

Odatda ijtimoiy sug'urta tizimi, asosan, uch yo'nalishda amalga oshiriladi: birinchidan, qariganlarni moddiy ta'minlash orqali; ikkinchidan sog'lig'ini yo'qotgan fuqarolarni qayta tiklash va saqlash orqali; uchinchidan, mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotgan yoki unga umuman ega bo'lmaganlarga moddiy ta'minotni kafolatlash orqali.

Ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy funksiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarini yaratadi, shu bilan birga, ijtimoiy sohada davlat siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy sug'urta tizimi jamiyatda ijtimoiy haqqoniylikni ta'minlash, siyosiy birdamlikni yaratish va uni saqlab qolishning dastlabki shartlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy sug'urtaning yordami bilan jamiyat quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishga layoqatsiz va mehnat jarayonida ishtirok etmaydigan shaxslarning xarajatlarini qoplashga qaratilgan pullik fondlarni shakllantirish;

- mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning tuzilma va zarur miqdorini ta'minlash;

- jamiyatning ishlovchi va ishsiz a'zolarini moddiy ta'minlashdagi uzilishlarni kamaytirish;

- aholining mehnat jarayoniga jalb etilmagan guruhlarining yashash darajasini ko'tarishga erishish.

Ijtimoiy sug'urta tizimi ikki qismdan iborat: birinchisi, ishchilarning sog'lomlashtirish va qayta tayyorlash tadbirlarini o'tkazgan holda mehnat qobiliyatini qayta tiklash va uni saqlashni ta'minlash; ikkinchisi, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga yoki unga umuman ega bo'lmaganlarga moddiy ta'minotni kafolatlash.

Ijtimoiy sug'urta obyekt sifatida: sug'urta hodisasi, ya'ni sog'ligini yo'qotish, ishlab chiqarishda baxtsiz hodisaga duch kelish, mehnat qobiliyatini yo'qotish, ishni yo'qotish va boshqa shu kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy sug'urta sub'ekti bo'lib sug'urtalangan shaxslar, va sug'urta xizmatining buyurtmachisi (sug'urtalanovchiga ish beruvchi tashkilot) va sug'urta tashkilotlari hisoblandi.

Ijtimoiy sug'urta maqsad vazifalaridan, tashkil qilinish nuqtai nazaridan davlat sug'urtasi, mahalliy darajadagi, kasb-tarmoq, halqaro bo'yicha turkumlanadi.

Ijtimoiy sug'urtaning amal qilish nuqtai nazaridan quyidagi turlari farqlanadi:

1. Majburiy ijtimoiy sug'urta. Bu iqtisodiy faol aholini o'z daromadini mehnatga layoqatsizligi tufayli (kasallik, baxtsiz hodisa, keksalik) yoki ishsiz qolgani sababli yo'qotish xavfidan ijtimoiy himoyalash institutidir. Mazkur tizimning moliyaviy manbalari – ish beruvchilar, xodimlarning sug'urta to'lovlari (badallari) hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalarni sug'urtalash tizimlari bundan istisno, ular faqat xodimlarning badallari hisobidan ta'minlanadi.

Ijtimoiy sug'urta tizimlari doirasidagi pensiya va nafaqa pullari fuqaroning sug'urta huquqiga ko'ra, shuningdek uning va ish beruvchining ushbu tizimlarning moliyalashtirilishidagi ishtirokidan kelib chiqqan holda beriladi.

Ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning muhim jihati – mahrum bo'lgan ish haqini o'rnini qoplash omilidir. Unga ko'ra, pensiya va nafaqa miqdorlari avvalgi

ish haqi va badallar miqdori bilan bog'liq bo'lib, ma'lum sug'urta davri mavjudligi har qanday muhtojlik tekshiruvlarsiz belgilanadi.

Majburiy sug'urta to'lovlari miqdori jamiyatda shakllangan ijtimoiy kafolat darajalari bilan bog'liq va ular xodim bilan ish beruvchi o'rtasida, davlat ishtirokida tuziladigan shartnomalar asosida shakllanadi.

2. Ixtiyoriy qo'shimcha (kasbiy) ijtimoiy sug'urta. Sug'urtaning bu turi iqtisodiyotning alohida tarmoqlari yoki korxonalar doirasida yollanma xodimlar uchun uzoq muddatli tarmoqli va jamoa shartnomalari asosida tashkil etiladi. Odatda, ixtiyoriy qo'shimcha ijtimoiy sug'urta tizimi xususiy tusga ega bo'ladi, biroq ular maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bunda sug'urtalanuvchilar uchun ijtimoiy kafolatlar tizimi yaratiladi. Jumladan, bir korxonada ishlashning eng kam muddati belgilanadi, ushbu muddat tugagach, xodimda qo'shimcha ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish huquqi paydo bo'ladi. Masalan, pensiya ta'minoti, sug'urtalanuvchi o'z ish joyini o'zgartirgan holda sug'urta bo'yicha qo'lga kiritgan huquqlari saqlanib qoladi. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta badallari miqdori sug'urta institutlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va u sug'urta xavf-xatariga sug'urtalovchi tomonidan o'rnatilgan qoidaga ijtimoiy xizmat narxiga sug'urtalanganlar soniga va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy yordam va ijtimoiy sug'urta faoliyatlari o'zida insonparvarlik g'oyalarini jamlagan, maqsad-vazifalari o'xshash bo'lsa-da, shakllanishi va amal qilishi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi. Ijtimoiy sug'urta tizimi nafaqat yakka tartibda badallar to'lanishiga bog'laydi, balki hayot mobaynida daromadlarni tenglashni ta'minlaydi. U jamiyatning barcha a'zolarini qamrab olishi mumkin. Ijtimoiy yordam oldin to'langan badallarga bog'liq bo'lmaydi va aholining kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlarini ta'minlashga mo'ljallanadi. Aholining ijtimoiy himoyasi ijtimoiy yordam turlari orqali ta'minlanadi. Ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadi-aholi turmush darajasini muttasil oshirib borish, qashshoqlikka yo'l qo'ymaslik, ta'lim olish, madaniyati va san'at yutuqlaridan bahramand bo'lish, kasb malakasini oshirish va daromadlar

o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, inson taraqqiyotining uzluksizligini ta'minlashdan iborat.⁸⁰

Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy himoya bo'yicha o'zini-o'zi moliyalash hisobiga ta'minlanadigan tizim hisoblansa, ijtimoiy yordam esa, asosan, daromadlarni qayta taqsimlash, hukumat va xayriya tashkilotlari vakolatiga kiradigan kambag'allik darajasini pasayitirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Hozirgi paytda ijtimoiy sug'urta tizimining moddiy asosini unga muvofiq keluvchi fondlar tashkil etadi. Ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim jihati shundaki, u korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va boshqa ish beruvchilar hamda ishchilarning maqsadli yoki majburiy badallari, shuningdek, ishchi xodimlar oila a'zolarini moddiy ta'minlashga davlat byudjetidan dotatsiyalar hisobi asosida shakllangan maxsus byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar tomonidan moliyalashtiriladi. Mazkur fondlar yordamida fuqarolar nafaqa yoshiga yetganda, ishsiz bo'lib qolganda, mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki doimiy yo'qotganda ular sog'lig'ini himoya qilish maqsadida moddiy ta'minot sifatida foydalaniladi.

Zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy sug'urta fondlarining muhim xarakteri hamda ish beruvchi va ishchilarning birdamlik qoidasi ularni boshqarishning o'ziga xos xususiyatini belgilab beradi. Bu fondlar o'zini o'zi boshqarish va notijorat xo'jalik yuritish qoidasi asosida ishlaydi. Fondlar mablag'lari evaziga ijtimoiy sug'urta maqsadlari amalga oshadi. Ayniqsa, bugungi kunda innovatsiyalarning iqtisodiyotga jadal tadbiiq etilishi natijasida tarkibiy ishsizlikning xavfining oshishi, mehnatga layoqatlilikni va daromadni yo'qotishga olib keladigan ijtimoiy xavf-xatarlar, kasbiy kasalliklarning ko'payishi, baxtsiz hodisalar, aholi umr ko'rish davomiyligining oshishi ijtimoiy sug'urta fondlariga bo'lgan talabni saqlab qolmoqda.

⁸⁰ N.To'xliev O'zbek modeli taraqqiyot tamoyillari - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2014.-B.211

Ijtimoiy sug'urta fondlari shakllanishining to'rt xil manbasini ajratib ko'rsatish mumkin. Bularga: ishchi-xodimlarning sug'urta badallari, ish beruvchi badallari, homiylik mablag'lari hamda davlat subsidiyalari.

Ishchi-xodimlarning sug'urta badallari ularning ish haqidan olib qolinadi. Sug'urta badali stavkasi yalpi ish haqiga nisbatan foizlarda aniqlanadi va ko'p holda daromadning kattaligiga bog'liq bo'lmaydi. Ish beruvchilar baxtsiz hodisalar tufayli, ba'zi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ishchi-xodimlarni tibbiy sug'urtalash badallarini ham o'z zimmasiga oladi. Ayrim hollarda homiylik, xayr-ehson mablag'lari hisobidan fond tashkil qilinib, ijtimoiy sug'urta maqsadlarida foydalaniladi.

Davlat subsidiyalari o'z ichiga ishlamaydigan fuqarolar, harbiy xizmatchilar, davlat xizmatchilari uchun majburiy ijtimoiy sug'urta fondlariga badallarni kamomadni qoplovchi dotatsiyalar va soliq imtiyozlarni oladi.

Ko'pgina taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha ijtimoiy ta'minotga ajratmalarni majburan undirish bilan bir qatorda ijtimoiy sug'urta tizimiga ishtirok etish majburiy hisoblanadi. Majburiy ijtimoiy sug'urtadan farqli o'laroq, ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta fuqarolarning yanada ko'proq ijtimoiy himoyalashni ta'minlashga qaratilgan. U fuqarolarning shaxsiy daromadidan ish beruvchilarning ishchilarini sug'urtalashning firma daromadidan badal ko'rinishidagi mablag' hisobidan yuzaga keladi.

Ijtimoiy sug'urta aholining ijtimoiy turmush farovonligini yaxshilashga va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Aholining ijtimoiy turmush sharoiti-bu kishilarning mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoniy va madaniy taraqqiyotini ta'minlash, muhtojlarni, nafaqaxo'rlarni va ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish hamda vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga ijtimoiy nafaqa berish yo'li bilan yaxshilanadi.

9.2. IJTIMOIIY SUG'URTALASHNING HUQUQIIY INSTITUTSIONAL ASOSLARINING YARATILISHI VA TAKOMILLASHUVI

Aholining qulay va farovon yashashi uchun sharoit yaratish, zarur hayotiy vositalarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish, mehnatdan qoniqish va kafolatlash, ishlab chiqarishdagi jarohat, onalik va bolalik, ishsizlik, boquvchisini yo'qotish, sog'ligini yo'qotganda va yoshi o'tib qariganda himoyaga olish demografik o'sish sur'ati yuqori bo'lgan mamlakatlar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbudan kelib chiqib, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston insonparvarlik g'oyalariga amal qilgan holda, ijtimoiy sug'urta mexanizmlarini o'zgaruvchan sharoitlardan kelib chiqib bosqichma-bosqich takomillashtirib amaliyotga joriy etmoqda.

Siyosiy-huquqiy nuqtai nazardan qaraganda, ijtimoiy sug'urta kishilarning muhtojlik tufayli moddiy ta'minot olishga bo'lgan fuqarolik, konstitutsion huquqi borligini anglatadi. To'lanadigan mablag' miqdori oylik ish haqi miqdori, mehnat staji, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi va amaldagi qonunchilikka asoslanadi.

Ijtimoiy sug'urtalanuvchilarni ijtimoiy jihatdan yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy sug'urta ta'sir doirasini kengaytirish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda ijtimoiy sug'urta ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, mazkur yo'nalishda halqaro tamoyil va standartlarni joriy etish maqsadida Prezidentimizning "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 12-dekabrda farmoniga muvofiq 2019-yil 1 -yanvardan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanadigan bo'ldi. Shu bilan birga, pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan o'n barobarigacha oshirish belgilab qo'yildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar aholining turmush farovonligini oshirish bilan birga ijtimoiy sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda.

Bundan ko'rinadiki, ijtimoiy sug'urta sohasida olib borilayotgan islohotlar mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bilan uzviy olib borilmoqda. Yoki aholi turmush farovonligi ijtimoiy sug'urta sohasida olib borilayotgan islohotlarning hosilasiga aylanmoqda.

Fikrimizcha, bugungi kunda ijtimoiy sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim ahamiyati va vazifalaridan kelib chiqib, faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohada yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishga va bu sohada ijobiy natajilarga erishgan mamlakatlarga tenglashishimizga yordam beradi:

- ❖ ijtimoiy sug'urta faoliyati amal qilishini bozor qonun-qoidalari asosida tashkil qilishni uzluksiz ta'minlab borish;
- ❖ bu sohada yuqori natijalarga erishgan ilg'or mamlakatlar tajribalarini doimiy o'rganib borish va mamlakatda qo'llash imkoniyatlarini yaratish;
- ❖ davlat tomonidan ijtimoiy ta'minlash jamoatchilik jamg'armalari va xayriya jamg'armalari tashkil qilishni, ijtimoiy sug'urta va ta'minot tizimini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantiruvchi mexanizmni ishlab chiqish;
- ❖ ijtimoiy sug'urta sohasining tashkiliy–huquqiy asoslarini o'zgaruvchan sharoitlardan kelib chiqib takomillashtirib borish;
- ❖ ijtimoiy sug'urtaning jamiyatdagi mavqeyini oshiruvchi va fuqarolarning bu haqdagi axborot bazasini kengaytiruvchi dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kerak.

Mamlakatimizda zarur tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart–sharoitlar yaratilganligi, xususan, ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi, jamoat organlari tashkil etilganligi va bir maromda ishlayotgani ijtimoiy sug'urta sohasi faoliyatini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 39-moddasida har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish

huquqiga ega ekanligi qayd etilganligi, ijtimoiy sug'urta sohasining amal qilishiga huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinish yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to'lash bo'yicha munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mazkur qoidalarga amal qilishi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan yollanma mehnatdan foydalanayotgan yuridik shaxslarga, yuridik shaxs bo'lmasdan faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklariga shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat shartnomasi bo'yicha ishlagan yoki ishlayotgan hamda mehnat jarohati olgan xodimlarga joriy etiladi.

“Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizomda ko'zda tutilgan tartibda quyidagi ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar beriladi:

- a) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha;
- b) homiladorlik va tug'ish bo'yicha;
- v) bola tug'ilganda;
- g) dafn marosimi uchun.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda beriladi:

- a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda (shikastlanish);
- b) sanatoriya-kurortlarda davolanganda;
- v) kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- g) karantinda;
- d) sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- e) yasama a'zo qo'ydirish uchun protez-ortopediya korxonasi kasalxonasiga yotqizilganda.

Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan xodimlarga mehnat jarohati olganda yoki ish faoliyatida, ish vaqtida olgan jarohatlar tufayli, kasb kasalligi oqibatidagi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa umumiy asoslarda, boshqa sabablar oqibatidagi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mavsumiy yoki vaqtinchalik ish to'g'risida tuzilgan mehnat shartnomasida ko'rsatilgan ish kunlari doirasida to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanishidan oldin uzrsiz sabablarga ko'ra ishga kelmagan, ular uchun shifokor belgilagan tartibni buzgan yoki uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda shifokor ko'rigiga yoki tibbiy-mehnat ekspertizasi komissiyasiga (TMEK) kelmagan xodimlar, qoidani buzish ro'y bergan kundan boshlab korxonada, tashkilot va muassasaning nafaqa tayinlovchi ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi belgilaydigan muddatga nafaqadan mahrum qilinadilar.

Ko'rikdan o'tkazish va kasbiy mehnat layoqatini yo'qotish darajasini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyuldagi "Tibbiy mehnat ekspert komissiyalari tomonidan fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, nogironlikni va kasbiy mehnatga layoqat yo'qotilishi darajasini aniqlashga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 195-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomlar asosida amalga oshiriladi. Mehnat qilish jarayonida mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasi 2-qismida belgilangan ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni 19-moddasiga muvofiq, vafot etgan boquvchining

qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'ladi.

Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manбайдan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. O'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni tayinlash, hisoblab chiqarish va to'lashning to'g'riligi ustidan nazoratni joylardagi Pensiya jamg'armasi idoralari amalga oshiradilar, bu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larning to'g'ri sarflanishi ustidan nazoratni yuqori xo'jalik tashkilotlari amalga oshiradilar.

Mamlakatimizda ijtimoiy sug'urta sohasida olib borilayotgan ishlarga yanada chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, keksa yoshdagi kishilarga, nogironlarga, yetim-yesir norasidalarga, boquvchisini yo'qotgan insonlarga cheksiz muruvvatlar ko'rsatilayotganining guvohi bo'lamiz. Bular – mamlakatimizda inson qadr-qimmatini, uning manfaatlariga e'tibor tobora oshib borayotganligini isbotlovchi dalillardir.

Tayanch so'z va iboralar: ijtimoiy sug'urta, sug'urta himoyasi, ijtimoiy sug'urta obyekti, sub'ekti, sug'urta badali, ijtimoiy sug'urtalash tizimi, majburiy va ixtiyoriy sug'urta, ijtimoiy nafaqa, yordam berish, jamg'ariluvchi nafaqa tizimi, taqsimlovchi nafaqa tizimi, tayinlash, yoshi o'tib qariganda davlat nafaqa ta'minoti, mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik ijtimoiy sug'urta nizomi.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Ijtimoiy sug'urta bu:

A. Davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan davlat maqsadli yordam ko'rsatish tizimi demakdir.

B. Qariganda mehnat ta'tiliga chiqqanda yordam ko'rsatish tizimidir.

D. Mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik, ishdan ketish holatida yordam ko'rsatish tizimi demakdir.

E. Davlat tomonidan nochorlarga, ijtimoiy himoyaga muhtojlarga, talabalarga yordam ko'rsatish tizimi demakdir.

2. Yurtimizda ijtimoiy sug'urta faoliyati rivojlanishi o'z ichiga necha bosqichni oladi

A. Ikki bosqichni.

B. Uch bosqichni.

D. To'rt bosqichni.

E. Besh bosqichni.

3. Ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy vazifasi:

A. Iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlash.

B. Ijtimoiy himoyaga muhtojlarni qo'llab-quvvatlash.

D. Mehnat unumdorligini oshirish.

E. Ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etish.

4. Ijtimoiy sug'urtani amalga oshirish yo'nalishlarini aniqlang.

A. Qariganlarni moddiy va ma'naviy qo'llab - quvvatlash orqali.

B. Qariganlarni moddiy ta'minlash orqali sog'lig'ini yo'qotgan fuqarolarni qayta tiklash va saqlash orqali, mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotganlarni qo'llash orqali.

D. Sog'lig'ini yo'qotgan fuqarolarni qayta tiklash, homiladorlikni asrash orqali.

E. Mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotgan yoki unga umuman ega bo'lmaganlarga moddiy ta'minotni kafolatlash orqali.

5. Ijtimoiy sug'urtaning amal qilish nuqtai nazaridan quyidagi turlari farqlanadi:

A. Davlat, xususiy.

B. Majburiy, ixtiyoriy.

D. Markazlashgan, hududiy.

E. Davlat, halqaro.

6. Ijtimoiy sug'urta polisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan:

A. Tug'ma nogironlik.

B. Ko'p bolali oylalar.

D. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik.

E. Talabalik safiga qabul qilinish.

7. Ijtimoiy sug'urtadan ko'zlangan maqsad:

A. Ishchi xodimlarni moddiy rag'batlantirish.

B. Ishchi xodimlarni ma'naviy rag'batlantirish.

D. Fuqarolar qariganda, sog'lig'i tufayli mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda yoki vaqtincha ishsiz qolganda moddiy rag'batlantirish.

E. Fuqarolarni xavf-xatardan saqlash.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Ijtimoiy sug'urta tushunchasi, mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

2. Ijtimoiy sug'urtaning obyekt va sub'ekt nimalardan iborat?

3. Ijtimoiy sug'urtaning ijtimoiy himoyadan farqini aniqlang.

4. Ijtimoiy sug'urta turlari va shakllarini aniqlang.

5. Ijtimoiy sug'urta yuzaga kelishining bosqichlarini aytib bering.

6. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni tayinlash tartibi haqida gapiring.

7. Ijtimoiy sug'urtaning huquqiy asoslarini aniqlang.

8. "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomni tushuntiring.

9. Ijtimoiy sug'urta sohasidagi islohotlar mazmuni nimalarni o'z ichiga oladi?

10-mavzu. PENSIYA TA'MINOTINI RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI

Reja:

10.1. Pensiya ta'minoti tizimi maqsadi va vazifalari

10.2. O'zbekistonda pensiya ta'minoti holatining tahlili

10.3. Davlatning pensiya ta'minoti tizimini isloh etish kontsepsiyasi

10.1. PENSIYA TA'MINOTI TIZIMI MAQSADI VA VAZIFALARI

Aholining nochor, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini moddiy qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy ta'minotning rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan shakllaridan biri pensiya ta'minoti bo'lib, uning vositasida pensiya yoshidagilar va boshqa ijtimoiy ko'makka muhtoj shaxslar qo'shimcha moddiy ta'minotdan manfaat ko'rish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Pensiya ta'minotining samarasi, avvalo, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan moddiy va moliyaviy resurslarning doiraviy aylanishini ta'minlaydi.

Ilk klassik pensiya tizimi XIX asrning oxirida paydo bo'lgan. Bu sohadagi dastlabki to'laqonli pensiya tizimi Germaniyaga tegishlidir. 1883-1884 yillarda Germaniyada kassallar va ishlab chiqaruvchilarda nogiron bo'lganlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilgan.

1889 yildan boshlab esa pensiya ta'minoti tizimi paydo bo'ldi. Keyinchalik pensiya ta'minoti tizimi Yvropaning Danya (1891), Buyuk Britaniya (1908), Fransiya (1910), Shvesiya (1913), Italiya va Niderlandiya (1919) kabi mamlakatlarda joriy etildi.⁸¹

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish, ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalashda muhim o'rin tutib, uni doimiy ravishda o'zgaruvchan sharoitlarni, aholining demografik holati, doramadlari va umr ko'rish davomiyligini hisobga olgan holda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Shu boisdan aholini ijtimoiy himoyalashni yanada kuchaytirish, pensiya ta'minoti sifatini oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich islohotlar olib borilmoqda.

Shu o'rinda, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Halq davlat idoralariga emas, davlat idoralari halqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyilini qaror toptirishda, dastaval jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish

⁸¹ Vahobov A.V. Xajibakiev Sh.X. Bahtiyorov B.B. va boshqalar Pensiya ishi. –T.: "Iqtisod-moliya", 2018. 10 B.

bo'yicha ishlarni yanada samarali tashkil etish Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda qaysi bir sohada bo'lmasin, mehnat qilib, daromad topgan har bir inson, albatta, qariyotgan chog'ida pensiyaga chiqish davrini ko'z oldiga keltiradi. O'z ishida ko'p yillar davomida uzluksiz, samarali faoliyat ko'rsatgan, mehnati uchun hamisha yaxshi daromad olib kelgan kishi ertaga pensiyasining yaxshi bo'lishidan xotirjam bo'ladi. Ammo uzuq-yuluq mehnat stajlariga ega bo'lgan ayrim kishilar pensiya yoshiga yaqinlashgan sayin turli hayollarga borib, kam pensiya olishidan xavotirga tusha boshlashadi.

Bular yoshga doir pensiyalar haqidagi tasavvurlar, xolos. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda fuqarolarimizga mehnat qobiliyatini to'liq va qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda, ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish maqsadida beriladigan nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari ham mavjud.

Ushbuni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi pensiya tizimi 1996-2012 yillar oralig'ida ijtimoiy siyosatning ushbu sohasi takomillashuvi uchun zaruriy moliyaviy, qonuniy huquqiy va tashkiliy baza yaratildi. Xususan, 2012-yil 6-yanvardan tegishli o'zgartirishlar kiritilib, kuchga kirgan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni keksalarning moddiy farovonligini oshirishda muhim huquqiy asos bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda mustahkam pensiya ta'minoti tizimi yo'lga qo'yilgan. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107- sonli "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom"ga muvofiq hamda O'zbekiston respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni bo'yicha ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamiga pensiya to'lovlari uch turda amalga oshiriladi. Bular: yoshga doir pensiyalar, nogironlarga beriluvchi pensiyalar va boquvchisini yo'qotganlik uchun beriladigan pensiyalardir.

Yoshga doir pensiyalar umuman yoki yetarlicha ish sajiga ega bo'lmagan, moddiy nochor shaxslarga: erkalariga - 65 yoshga, ayollarga – 60 yoshga yetganlarida tayinlanishi belgilab qo'yilgan.

Nogironlik pensiyalari shaxsning tibbiy tekshiruvlar asosida faqat mehnat qobiliyatini doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotganligi aniqlanganda tayinlanadi. Tibbiy tekshiruvlar Pensiya jamg'armasi bo'limlarining maxsus yo'llanmalari bo'yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi boquvchisi vafot etgan, davlatdan moddiy yordam olish huquqiga ega bo'lmagan shaxsning qaromog'ida bo'lgan oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolari boquvchisini yo'qotganlik nafaqalarini olish huquqiga egadirlar. Ushbu nafaqa foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi: oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga - nafaqaning 100 foizi, oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a'zosiga – nafaqaning 75 foizi va oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga – nafaqaning 50 foizi to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004-yilda qabul qilingan "Fuqarolarning jamg'arish pensiya taminoti to'g'risida"gi qonuni pensiya tizimida muhim yangilik bo'lib, uni amaliyotga tadbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrda "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi 595-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko'ra mamlakatimizda 2005-yil 1-yanvardan boshlab jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi joriy etildi. Endi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lari ular tomonidan to'lanadigan daromadining 1 foizini tashkil etib, ushbu mablag' ularning shaxsiy jamg'armasi sifatida shakllanib boradi.

Muhimi jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan soliqlar hisobiga shakllanadi. Bunda fuqaroga yosh va mehnatga yaroqli bo'lgan paytida topgan daromadlarining bir qismi ular pensiya yoshiga yetganida yoki qonunda belgilangan boshqa hollarda qo'shimcha ravishda

moddiy yordam olish imkonini beradi. Bu tadbirlar aholining ijtimoiy ta'minot olish yuzasidan Konstitutsiyada kafolatlangan huquqlarining yanada to'laroq ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Aholining farovon yashashi va ijtimoiy ta'minot mexanizmlarining takomillashuviga qaramay yoshga doir pensiyalarni moliyalashtirishda ma'lum bir kamchiliklar seziladi. Jumladan, pensiya ta'minoti mablag'larining 98 foizi davlat byudjeti hisobiga (1 foizi majburiy, 1 foizi ixtiyoriy jamg'ariluvchi pensiyalar) to'g'ri kelayotganligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, pensiya tizimini moliyalashtirishda hamon og'ir yuk davlat byudjeti zimmasida ekanligiga guvoh bo'lamiz. Vohalanki, iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarning aksariyatida davlat pensiyasi 20 foizni, majburiy jamg'arib boriluvchi pensiya 50 foizni va ixtiyoriy jamg'arilib boriluvchi pensiya 30 foizni tashkil etadi.

Ilg'or mamlakatlar tajribasidan ko'rinadiki, pensiya ta'minoti uchun jamg'arilgan mablag'lar hisobiga davlat byudjeti mablag'lari tejalishi bilan birga, mamlakat moliya bozorida rivojlanishga erishish hamda bank risklarining ortishiga imkon tug'iladi. Shu boisdan ushbu sohada yangi bosqichga o'tish, aholida jamg'arilib boriluvchi pensiya tizimiga xohish o'yg'otish va yo'naltirish, uning afzalliklarini ko'rsatib berish ayni paytda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bu borada ilg'or mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish va barpo etilgan huquqiy bazani o'zgaruvchan sharoitlarga moslab takomillashtirib borish, aholining pensiya ta'minoti haqidagi savodxonligini oshiruvchi targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish hamda bosqichma-bosqich davlat pensiyasi ulushini qisqartirib borish lozim.

Shuningdek, pensiya to'lovlarining adolatliligi, ishonchli, aniq va manzilliligini kuchaytirish, imtiyozli pensiyalarni tayinlash shartlarini takomillashtirish, pensiya badalini to'lashdan manfaatdorlikni oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmni yaratish kabi jihatlariga e'tibor qaratish bugungi kunda kun tartibiga qo'yilmoqda.

Shu bilan birga yurtimizda ishlamayotgan onalarni ijtimoiy himoya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-yanvardagi "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashning 2002-2003 yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 33-sonli qarorining qabul qilinishi buning yaqqol isbotidir. Unga ko'ra, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ishlamayotgan onalarga bolani ikki yoshga to'lgungacha parvarish qilish bo'yicha har oylik nafaqa tayinlanadi va to'lanadi. Ushbu tizim parvarishlayotgan bolalar sonidan va nafaqa oluvchi shaxsning mehnat stajidan qat'iy nazar, har oyda O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan eng kam ish haqining 200 foizi miqdorida to'lash orqali amalga oshiriladi.

Aholining ijtimoiy muhofazaga eng muhtoj qatlamlaridan biri – bu kam ta'minlangan oilalardir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 434-sonli qarorida kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi bayon etilgan. Unga ko'ra, kam daromadli oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam tayinlash va uning miqdorini belgilash fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga yuklatilgan. Bunday moddiy yordam oilaga 3 oy muddatga tayinlanadi va eng kam ish haqining o'sha vaqtda amalda bo'lgan 1,5 barobaridan 3 barobari bo'lgan miqdorda belgilanadi.

O'zbekistonda mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuv darajasini kamaytirishga alohida e'tibor berilayotgani, sodda qilib aytganda, o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasin, degan tamoyilga amal qilib kelinayotgani ma'lum albatta.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar. Ushbu Qonunning 7-moddasiga ko'ra, erkaklar 60 yoshga to'lganida va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga

to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. 17-moddasida pensiya olish huquqini beradigan ish staji mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi: (10.1.1-jadval).

10.1.1-jadval

Nogironlik pensiyalarini tayinlash tartibi ⁸²

Yosh	Ish staji
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

Pensiya miqdorini hisoblab chiqarishda ish stajining oxirgi 10 yili asos qilib olinadi. Talab qilinadigan ish stajidan har bir ortiqcha va to'liq yil uchun pensiyaning tayanch miqdori pensiya hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida oshiriladi.

Ish staji yetarli bo'lmagan fuqarolarga to'liqsiz pensiya tayinlanadi. Buning uchun ish staji kamida 7 yil bo'lishi talab qilinadi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar davlat pensiyalarini olish huquqiga ega emas. Bu toifadagi fuqarolarga Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-apreldagi 107-sonli qaroriga asosan belgilangan miqdordagi nafaqalar beriladi.

⁸² O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 1993 yil 3 sentyabr

Hozirgi kunda yakka tartibdagi tadbirkorlar, chet ellarda yollangan holda ishlovchi shaxslar va dehqon xo'jaligi a'zolarining davlat pensiyasini olish huquqiga ega bo'lishlari uchun ish stajlarini rasmiylashtirish bo'yicha qator imkoniyatlar yaratilmoqda.

Jumladan, yakka tadbirkorlarga 3 nafar kishini yollab ishlatish huquqi berilgan. Shunday ekan, u har bir yollangan xodim uchun eng kam ish haqining 0,5 barobari miqdorida sug'urta badali to'lab boradi. Davlat soliq idorasi sug'urta badallar to'langani haqida byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ro'yxat taqdim etadi va unga asosan jamg'armada yakka tartibdagi tadbirkorga va uning yollangan xodimiga mehnat daftarchasi ochiladi. Ularga shu vaqtdan boshlab ish staji hisoblanadi.

Qonuniy ravishda chet elda yollangan holda ishlovchi shaxs bu haqda vakolatli organ tomonidan berilgan ma'lumotnomani doimiy yashash joyidagi pensiya jamg'armasi bo'limiga taqdim etsa va soliq idorasiga eng kam ish haqining kamida bir barobari miqdorida sug'urta badali to'lagan bo'lsa, pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblanadi.

10.2. O'ZBEKISTONDA PENSIYA TA'MINOTI HOLATINING TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasi pensiya ta'minoti qonunchiligi uchun yuridik baza bo'lib, "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega"⁸³.

Mamlakatimizda amalda bo'lgan pensiya tizimi bu - "birdamlik" pensiya ta'minoti tizimiga asoslangan tizim bo'lib, pensionerlarga pensiya to'lovlari uchun mablag'lar, asosan bugungi kundagi ish beruvchilar tomonidan Pensiya jamg'armasiga to'lanayotgan ijtimoiy to'lovlar hisobidan amalga oshirib boriladi. Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin bo'ladi.

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: "O'zbekiston", 2008. 9 B.

O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillar davomida iqtisodiy faol aholi xissasiga ijtimoiy badallar bo'yicha yuklama tobora oshmoqda. Demografik bashoratlarga ko'ra, 2018-2025 yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 mln. kishiga) oshishi kutilmoqda, bu esa o'z navbatida, pensiya jamg'armasi xarajatlarining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi.

2011-yildan 2019-yilgacha O'zbekistondagi pensionerlar soni 2,4 baravarga oshdi. 2019-yilda ular 339 ming kishiga ko'paydi. Bunda rasman ish bilan band aholi 4,76 million kishi, ular iqtisodiy jihatdan faol aholining 32,5 foizini tashkil etadi (10.2.1-jadval).⁸⁴

10.2.1-jadval

Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning hududlar bo'yicha soni⁸⁵

Hududlar	2000 yil		2005 yil		2010 yil		2015 yil		2018 yil	
	ming kishi	10000 aholiga	ming kishi	10000 aholiga	ming kishi	10000 aholiga	ming kishi	10000 aholiga	ming kishi	10000 aholiga
O'zbekiston Respublikasi	3087	1244	3229,5	1227	3265,8	1121	3203,9	1015	3690,3	1119,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	199,3	1305	210,3	1338	191,9	1142	178,1	994	201,9	1087,7
Viloyatlar										
Andijon	288	1299	291,5	1227	290,9	1089	296,3	1018	340,4	1120,0
Buxoro	166,4	1157	183,3	1201	193,5	1149	195,1	1075	225,5	1199,3
Jizzax	104,2	1051	112,8	1073	116,2	996	106,7	836	125,6	938,2
Qashqadaryo	235,3	1064	255,3	1055	269,5	990	269,7	891	318,1	1000,0
Navoiy	105,4	1332	114,2	1406	115,3	1321	106,5	1148	121,9	1255,5
Namangan	220,1	1127	243,5	1158	294,3	1048	244,4	939	284,5	1043,6
Samarqand	326	1203	338,2	1163	340,3	1040	331	924	389,6	1036,2
Surxandaryo	187,4	1058	212,8	1105	228,3	1050	215,1	892	251,3	988,7
Sirdaryo	87	1339	93,7	1384	83,3	1146	80,1	1014	94,2	1145,0
Toshkent	310	1308	308,4	1250	315,7	1194	315,5	1129	360,0	1249,9
Farg'ona	347,4	1288	363,8	1264	369,5	1144	363,8	1038	422,3	1156,3
Xorazm	168,5	1251	181,4	1248	182,8	1142	172,4	987	198,8	1092,0

⁸⁴ Vahobov A.V. Xajibakiev Sh.X. Bahtiyorov B.B. va boshqalar Pensiya ishi. –T.: "Iqtisod-moliya", 2018. 386 B.

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz).

Toshkent sh	342,1	1600	320,1	1495	319,2	1390	329,2	1376	356,3	1432,4
-------------	-------	------	-------	------	-------	------	-------	------	-------	--------

Pensiya badallarini to‘lashda aholi manfaatdorligini oshirish uchun uch darajali pensiya ta‘minoti tizimiga o‘tilishi ko‘rib chiqilmoqda. Birinchi darajasida eng kam miqdordagi davlat pensiyasi to‘lanishi nazarda tutilmoqda. Ikkinchi darajasida MB qayta moliyalashtirish stavkasidan kam bo‘lmagan miqdorda foizlar hisoblangan holda ish haqidagi muayyan summadagi ajratmalar asosida shaxsiy hisob varaqda jamlangan pensiyani to‘lash. Uchinchi holatda Pensiya jang‘armasiga ajratmalar miqdori aholi tomonidan belgilanadi.

Butun dunyoda umumqabul qilingan pensiyaga berilgan ta‘rifga ko‘ra, pensiya – fuqaroning ilgari olingan daromadini uning ijtimoiy badallarni to‘lagan summasi va davriga mutanosib ravishda qisman qoplovchi har oylik to‘lanadigan miqdorga aytiladi. Shundan kelib chiqib pensiyaning miqdori fuqarolarning bevosita ish staji va ish haqiga, ya‘ni to‘langan ijtimoiy to‘lovlarga proporsional bog‘liq ravishda hisoblab chiqariladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan e‘tirof etilishicha, pensiya ta‘minotining asosiy mezon – ijtimoiy adolat mezonidir. Ya‘ni fuqaro qancha uzoq vaqt va ko‘p miqdorda ijtimoiy to‘lovlarni to‘lagan bo‘lsa, pensiya miqdori ham shuncha ko‘p bo‘lishi zarur.

Pensiyalarning miqdori fuqarolarning bevosita ish staji va ish haqisiga, ya‘ni to‘langan ijtimoiy to‘lovlarga proporsional bog‘liq ravishda hisoblab chiqiladi. Fuqarolarning konstitutsion huquqlarini kafolatlash doirasida davlat pensiyasini tayinlash uchun ish stajiga ega bo‘lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga ijtimoiy nafaqalar davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

Ijtimoiy nafaqalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorlarini oshirish to‘g‘risidagi Farmonlariga muvofiq qat‘iy miqdorlarda belgilanadi. O‘zbekistonda yoshga doir ijtimoiy nafaqaning miqdori 2019 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra – 243 300 so‘mni tashkil etadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining talablariga muvofiq, fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini barqaror rivojlanishi uchun badal to'lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o'zaro nisbati 1:4 darajada bo'lishi korsatilgan. Biroq bugungi kunda O'zbekistonda bu ko'rsatkich o'rtacha 1:1,5 ga teng. Ta'kidlash joizki, pensionerlar sonining ishlovchi aholiga nisbatan 2009 yildagi 61 foizdan 2017 yilda 66 foizga o'sgan.⁸⁶

10.3. DAVLATNING PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI ISLOH ETISH KONSEPSIYASI

Mamlakatimizda keyingi paytlarda pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va iqtisodiyotda kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar sharoitida keksa avlod vakillariga bo'lgan e'tibor, ularni har tomonlama ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash doimo davlatimiz rahbarining diqqat markazida turibdi. Qolaversa, O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bu - ijtimoiy sohani rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5597-son farmoni ko'ra yuqori ish haqi hisobidan pensiyaga chiqqan fuqarolarimizga munosib pensiya miqdorini belgilash orqali ijtimoiy adolat printsiptini qaror toptirish maqsadida ushbu farmonda pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan o'n barobarigacha oshirilishi belgilandi.

Amaldagi tartibga asosan, yuqori miqdorda oylik ish haqi oluvchi fuqarolarga pensiyani hisoblashda faqat eng kam oylik ish haqining sakkiz barobarigacha bo'lgan daromadi inobatga olinib, undan yuqori qismi hisobga olinmas edi. Misol uchun, o'rtacha oylik ish haqi - 2200 so'm va ish staji 35

⁸⁶ Vahobov A.V. Xajibakiev Sh.X. Bahtiyorov B.B. va boshqalar Pensiya ishi. –T.: "Iqtisod-moliya", 2018. 387 B.

yil bo'lgan fuqaroga amaldagi tartib bo'yicha pensiya hisoblashda 1621 ming so'm (eng kam ish haqining sakkiz baravari) inobatga olingan (qolgan qismi, ya'ni 579 ming so'm hisobga olinmagan), shundan kelib chiqib ushbu summaning 55 foizi, ya'ni pensiyaning tayanch miqdori (891 550 so'm) belgilanib, talab etiladigan (25 yil) dan ortiqcha ishlagan 10 yilning har bir yili uchun 1 foizdan qo'shimcha hisoblanib, pensiyaning umumiy miqdori 1054 ming so'mni tashkil etar edi.

Yangi tartib bo'yicha esa, ushbu fuqaroga o'rtacha oylik ish haqi 1621 ming so'm emas, 2027 ming so'm (EKIH ning 10 baravari) miqdorida hisobga olinadi. Bunda, pensiyaning tayanch miqdori 1115 ming so'mni, ortiqcha ishlagan yillar uchun qo'shimchani hisobga olgan holda pensiyaning umumiy miqdori 1317 ming so'mni tashkil etadi yoki 263 ming so'mga oshadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu farmon nafaqat 2019-yil 1-yanvardan keyin pensiyaga chiquvchilarga, balki ushbu toifaga tushuvchi hozirgi kunda pensiya olib turgan pensionerlarga ham tadbiiq etiladi hamda ularning pensiyalari qayta hisoblab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining 14-bandida "2018-yil 1-iyuldan dehqon xo'jaligi va 4 sotixdan kam bo'lmagan tomorqa yerida band bo'lgan yoki ushbu uchastkada qoramol yoxud 50 boshdan kam bo'lmagan parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga yiliga eng kam oylik ish haqining bir barobari miqdorida sug'urta badali to'langan taqdirda, sug'urta badali to'langan yil mehnat stajiga kiritiladi", deb ko'rsatilgan. Bu tomorqa yerida yoki dehqon xo'jaligida band bo'lgan fuqarolarning ish stajiga ega bo'lishlari uchun yaratilgan yana bir imkoniyatdir.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 2017 yil 13 martdagi PQ-2826-son Qaroriga asosan, pensiyalar va nafaqalar to'lash tizimini tubdan takomillashtirish, naqd pul shaklida pensiyalar va nafaqalarni yetkazib berish va o'z vaqtida to'lash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilingan. Mazkur Qarorda belgilanishicha, O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida pensiyalar va nafaqalarni to'lash faqat Halq banki tomonidan amalga oshirilishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan normativ huquqiy-hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar asosida, endilikda fuqarolarning ish stajlari va ish haqlari to'g'risida ma'lumotlar arxiv saqlorida topilmaganda, ularning ish stajlari va ish haqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni AT "Halq banki"dagi shaxsiy jamg'arilib boriladigan pensiya tizimida qatnashganligi fakti hamda Davlat soliq qo'mitasining sug'urta badallari to'lovi elektron reestri ma'lumotlari asosida davlat pensiyalarini tayinlashda ish staji va ish haqiga inobatga olinishi belgilab qo'yildi. Ya'ni, fuqarolar ish staji va ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlanmaganligi bois pensiya tayinlashda inobatga olinmasliqda qiyinchiliklarga duch kelishigan bo'lsa, bundan buyon ushbu ma'lumotlar kafolatlangan elektron bazalardan olib boriladi.

Endilikda O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketgan pensionerlar, o'zlarining pensiyaga bo'lgan huquqlarini tasdiqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining horijiy davlatlardagi diplomatik yoki konsullik vakolatxonalaridan biriga murojaat etib, huquqlarini tasdiqlashsalar ularning pensiyalarini O'zbekiston Respublikasidagi ishonchli vakillari tomonidan olib borishlari mumkin.

Mazkur norma kiritilguniga qadar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketgan pensionerlar pensiyaga bo'lgan huquqlarini O'zbekiston Respublikasiga kelib tasdiqlashlari kerak edi. Bu esa o'z navbatida, fuqarolarga qo'shimcha xarajat va ortiqcha ovvoragarchilikni olib kelishini bartaraf etdi.

Shuningdek, yana bir qulaylik sifatida shuni qayd etish zarurki, bunga ko'ra pensiya va nafaqa oluvchilar yashash joyidan respublikamizning boshqa hududiga

vaqtincha ko'chib o'tganda, yashash manzillaridagi Pensiya jamg'armasi bo'limlariga bora olmasalar, ular o'zlariga yaqin bo'lgan Pensiya jamg'armasining bo'limiga murojaat etib, pensiyaga bo'lgan huquqlarini tasdiqlashlari imkoni paydo bo'ldi. Bundan tashqari, Pensiya jamg'armasi tomonidan fuqarolarning mehnat stajlari davrlari va ish haqqi to'g'risidagi ma'lumotlarni inobatga olinishiga kafolatli tizimini tashkil etishga doir amalga oshirgan chora-tadbirlari doirasida 2017-yil 4-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy shaxslarning mehnat stajini elektron hisobga olishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 462-sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarning mehnat stajlarini elektron hisobga olishga o'tildi. Bunga muvofiq 2019-yil 1-yanvardan boshlab mehnat staji (shu jumladan lavozim mavqei, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik davrlari, mehnat ta'tilidagi va uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan davrlar) haqidagi ma'lumotlar har bir jismoniy shaxs bo'yicha ish beruvchilar tomonidan davlat soliq xizmati organlariga sug'urta badallari hisobi tarkibida elektron shakllanib boriladi. Ya'ni 2019 yildan boshlab, qog'oz shaklidagi mehnat daftarchalarini yuritilishidan voz kechilib, to'liq elektron mehnat davrini hisobga olish tizimiga o'tilishi belgilandi.

Xullas, hozirgi bosqichda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Chunki mamlakatda olib borilayotgan barcha islohotlar va tadbirlar hammasi inson uchundir. Shuning uchun ham aholining kam ta'minlangan, mehnat bozorida raqobatlasha olmaydiganlarni, ishsizlar, nogironlar, yosh bolalar, talabalar, qariyalar, boquvchisini yo'qotganlar va pensionerlarni ijtimoiy himoya qilishni maqsad qilib qo'ygan.

Tayanch so'z va iboralar: pensiya ta'minoti, pensiya yoshidagilar, ijtimoiy ko'makka muhtoj shaxslar, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish, moddiy va moliyaviy resurslarning doiraviy aylanishi, ijtimoiy muammolarni hal qilish va

kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalash, pensiya jamg'armasi, mehnat staji, elektron baza, eng kam oylik ish haqqining sakkiz barobari, elektron mehnat davri.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha test savollari:

1. Ijtimoiy ta'minotning rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan shakllaridan biri?

- A. Moddiy rag'batlantirish.
- B. Ma'naviy rag'batlantirish.
- D. Pensiya ta'minoti.
- E. Ishsizlikdan himoyalash.

2. Pensiya ta'minoti vositasida:

- A. Pensiya yoshidagilar va boshqa ijtimoiy ko'makka muhtoj shaxslar qo'shimcha moddiy ta'minotdan manfaat ko'rish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.
- B. Mehnat qobiliyatini yo'qotganda qo'shimcha moddiy ta'minotdan manfaat ko'rish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.
- D. Nogironligi tufayli qo'shimcha moddiy ta'minotdan manfaat ko'rish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.
- E. Ishsizlik tufayli qo'shimcha moddiy ta'minotdan manfaat ko'rish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

3. Pensiya ta'minotining samarasi:

- A. Iqtisodiyotda barqarorlikni ta'minlash.
- B. Aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirish.
- D. Mehnat unumdorligini oshirish.
- E. Mehnatni rag'batlantirish.

4. Yoshga doir pensiyalar umuman yoki yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan, moddiy nochor shaxslarga:

- A. Erkalarga - 60 yoshga, ayollarga – 60 yoshga yetganlarida tayinlanishi belgilab qo'yilgan.
- B. Erkalarga - 65 yoshga, ayollarga – 60 yoshga yetganlarida tayinlanishi belgilab qo'yilgan.

D. Erkalarga - 60 yoshga, ayollarga – 55 yoshga yetganlarida tayinlanishi belgilab qo'yilgan.

E Erkalarga - 60 yoshga, ayollarga – 50 yoshga yetganlarida tayinlanishi belgilab qo'yilgan.

5. Quyidagi shaxslar yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar?

A. Erkaklar 60 yoshga to'lganida va ish staji kamida 30 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda.

B. Erkaklar 60 yoshga to'lganida va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda.

D. Erkaklar 60 yoshga to'lganida va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda.

E. Erkaklar 60 yoshga to'lganida va ish staji kamida 35 yil bo'lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda.

6. Pensiya miqdorini hisoblab chiqarishda ish stajining oxirgi necha yili asos qilib olinadi?

A.Oxirgi 10 yili asos qilib olinadi.

B.Oxirgi 20 yili asos qilib olinadi.

D.Oxirgi 15 yili asos qilib olinadi.

E.Oxirgi 5 yili asos qilib olinadi.

7. Pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqqining necha barobaridan necha barobarigacha oshirilishi belgilangan.

A.Ikki barobaridan to'rt barobarigacha oshirilishi belgilangan.

B. Uch barobaridan besh barobarigacha oshirilishi belgilangan.

D.Besh barobaridan sakkiz barobarigacha oshirilishi belgilangan.

E. Sakkiz barobaridan o'n barobarigacha oshirilishi belgilangan.

8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

PF-5597-son farmoni qachon amaliyotga tadbiiq etildi?

- A. 2016-yil 12-dekabr.
- B. 2017 -yil 12-dekabr.
- D. 2018 -yil 12-dekabr.
- E. 2019 -yil 12-dekabr.

9.Qachondan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanadigan bo'ldi?

- A. 2016-yil 1 -yanvardan.
- B. 2017 -yil 1 -yanvardan.
- D. 2018 -yil 1 -yanvardan.
- E. 2019 -yil 1- yanvardan.

10. Qachondan boshlab jismoniy shaxslarning mehnat stajlarini elektron hisobga olish tizimiga o'tildi?

- A. 2016- yil 1 -yanvardan.
- B. 2017- yil 1- yanvardan.
- D. 2018- yil 1 -yanvardan.
- E. 2019 -yil 1 -yanvardan.

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Pensiya ta'minoti nimani anglatadi?
2. Pensiya obykti va subyektini aniqlang.
- 3.O'zbekistonda yoshga doir pensiya necha yoshdan tayinlanadi?
4. Pensiya jamg'armasi faoliyatini tushuntiring.
- 5.Pensiya ta'minotidan ko'zlangan maqsadni aytib bering.
- 6.Yoshga doir pensiyani tayinlash tartibi haqida gapiring.
7. Pensiya ta'minotining huquqiy asoslarini aniqlang.
8. Pensiya ta'minotini tayinlashdagi xorijiy tajribalar haqida gapiring .
9. Pensiya ta'minotining samarasi nima bilan aniqlanadi?
- 10.Pensiyani hisob-kitob qilish tizimini aniqlang.
11. Pensiya ta'minotining moddiy asosini nima tashkil qiladi?

12. Pensiya jamg'armasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
13. Nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari qanday farqlanadi?
14. Yoshga doir pensiyalar chegarasi necha yoshni tashkil qiladi?
15. Pensiya tayinlashda tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni aniqlang.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrda "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5597-son farmoni ko'ra pensiya ta'minotini hisoblashga qanday o'zgartirishlar kiritildi?
17. Mehnat daftarchalarini yuritilishidan nima sababdan voz kechildi?
18. Mehnat davrini hisobga olishning elektron shaklini qanday baholaysiz?

GLOSSARIY

AHOLI BANDLIGI — mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy mehnatda qatnashish darajasi, qonunchilikka zid bo'lmagan tarzda fuqaroning shaxsiy va ijtimoiy talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyati. Quyidagi fuqarolar ish bilan band hisoblanadi:

—yollanib ishlovchilar, shu jumladan, to'liq yoki to'liq bo'lmagan ish vaqti sharoitlarida mehnatiga yarasha haq olib ishlovchilar, shuningdek, boshqacha haq to'lanadigan ish (xizmat)da band bo'lganlar;

— mehnatga qobilyatsizligi bilan bog'liq tarzda, mehnat tizimida, malaka oshirishda, ishlab chiqarish to'xtatilishi munosabati bilan, ish tashlash tufayli yoki boshqa sabablar bilan vaqtincha ishlamayotganlar;

—o'zini mustaqil tarzda ish bilan ta'minlovchilar, shu jumladan, tadbirkorlar, individual mehnat faoliyatida band shaxslar (fermerlar, shuningdek, ishlab chiqarish kooperativ a'zolari ham shular qatoriga kiradi);

saylanganlar, tayinlanganlar yoki haq to'lanadigan lavozimga tasdiqlanganlar;

—qurolli kuchlarda xizmatni o'tayotganlar, ichki va temiryo'l qo'shinlarida, davlat xavfsizlik xizmati idoralarida hamda ichki ishlarda xizmatni o'tayotganlar;

—umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarida, shuningdek, oliy, o'rta maxsus va boshqa ta'lim muassasalarida kunduzgi bo'limda o'qiyotganlar.

To'liq A.b.ga erishish, ya'ni mehnatga layoqatli aholini mamlakat iqtisodiyoti ko'lamlarida ish o'rinlari bilan ta'minlash faqat bozor iqtisodiyoti me'yoriy sharoitlaridagina mumkin bo'ladi. Samarali bandlik — kam mehnat sarflagan holda jamiyat ehtiyojlarini iloji boricha to'la qondirishdir. Bunga mehnat bozori orqali va halq xo'jaligida tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirib erishish mumkin.

AHOLI BANDLIGINI BOSHQARISH — aholi tanlagan to'liq, samarali va erkin bandlikka ko'maklashish maqsadida davlat tomonidan ko'zda tutadigan

choralar. Bunga quyidagilar kiradi:

— ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, mehnat resurslari safarbarligini oshirish, yangi texnologiyalar qabul qilish, mehnatning moslashuvchan tartiblarini qo'llashni rag'batlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, shuningdek, ishchi o'rinlarni saqlash va tizimini rivojlantirishga yordam beruvchi choralarni amalga oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy-kreditlash, investitsiya va soliq siyosatini amalga oshirish;

— fuqarolar qonuniy huquqlari va manfaatlariga, tegishli davlat kafolatlariga, aholi bandligi va mehnat haqidagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga amal qilish asosida bandlik sohasini huquqiy tartibga solish;

— aholi bandligi bo'yicha davlat xizmati va davlat jamg'armasini yaratish.

AHOLIGA IJTIMOIIY YORDAM NAZORATI - aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi ustidan davlat jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; muhtoj fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish haqidagi qonun hujjatlariga amal qilish, moliyaviy mablag'lardan o'rinli va samarali foydalanish ustidan davlat nazorati qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolar, jamoat birlashmalari ijtimoiy yordam ko'rsatish muassasalarining moliyaviy va boshqa kundalik faoliyatlarini belgilangan tartibda nazorat qilishga haqlidir.

AHOLI MIGRATSIYASI (lot. — ko'chish) — aholining ixtiyoriy yoki majburiy ko'chishi yoki aholining bir mamlakat ichida (aholining ichki migratsiyasi) yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga (aholining tashqi migratsiyasi: emigratsiya va immigratsiya) ko'chishi. Hududiy ko'chishning quyidagi turlari mavjud: borib-kelib turish, mavsumiy va qaytib kelmas. Borib-kelib turish muntazam amalga oshiriladi va kishilarning ish, o'qish, savdo-sotiq tufayli harakatlanishini anglatadi. Mavsumiysi vaqtinchalik kishilarning yilning muayyan vaqtida boshqa joyga borishini bildiradi (mavsumiy ishlarga borish yoki dam olish, davolanish uchun borish). Ammo M. atamasi asosan aholining mamlakat ichida yoki uning tashqarisiga qaytmaydigan bo'lib ko'chishini

anglatadi. M.ning bundayligiga quyidagilar

sabab bo'ladi:

- turmush sharoitlari va darajasidagi mintaqalararo farq;
- boshqa mintaqada bo'sh ish o'rinlarining mavjudligi;
- mazkur mintaqaning yashash uchun xavfliligi.

AHOLIGA IJTIMOIIY YORDAMDA TENGLIK- ijtimoiy yordam ko'rsatish chog'ida fuqaroning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, yashash joyi, shuningdek, boshqa holatlari e'tiborga olingan holda, huquqlarining har qanday cheklanishi yoki qonunda bevosita nazarda tutilmagan hollarda afzalliklar berilishi taqiqlanadi. Fuqaro o'z huquqlari kamsitilgani yuzasidan tegishli davlat idoralariga yoki bevosita sudga belgilangan muddat va tartiblarda murojaat qilishga haqli.

AHOLIGA IJTIMOIIY YORDAM KO'RSATISH TAMOYILLARI — muhtoj fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatilishi chog'ida halqaro huquq me'yorlari va tamoyillariga, shuningdek, milliy qadriyatlarga, umuminsoniy tamoyillarga qat'iy amal qilinadi. Ijtimoiy yordam ko'rsatish chog'ida quyidagilarga tayaniladi:

- ijtimoiy yordam ko'rsatishda insonparvarlik qoidalariga amal qilish;
- ijtimoiy adolat;
- ijtimoiy yordam ko'rsatishni muntazam takomillashtirib borish;
- ijtimoiy yordamning umumiyliigi va hech kimni kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- yordamdan foydalanishning ixtiyoriyligi;
- ko'rsatiladigan yordamning turmush kechirish minimumidan kam bo'lmasligi;
- ijtimoiy yordam ko'rsatuvchi organlarning o'z faoliyatlarini oshkoralik va qonuniylik asosida amalga oshirishi;
- ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida xususiy va homiylik mablag'larining keng jalb etilishi;
- ijtimoiy yordam ko'rsatishga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini keng jalb etish.

AHOLIGA IJTIMOIIY YORDAM KO'RSATISHNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH — aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi va muhim tarkibiy qismi sifatida yuqoridan quyiga tomon yagona tamoyillar asosida tashkil etiladi hamda boshqariladi. Ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini boshqarishda O'zbekiston Respublikasi hukumatining, tarmoq va mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH DASTURI - butun aholini himoyalashga yo'naltirilgan choralar (sog'liqni saqlash, ta'lim olish, turarjoyga ega bo'lish, madaniyat, pul daromadlarini inflyatsiyadan himoylash, asosiy tovarlar va xizmatlar iste'moli pasayishining oldini olish, ish haqi va nafaqalar o'z vaqtida berilishini ta'minlash va b.). D.ga maxsus mehnatga layoqatli va layoqatsiz aholini himoyalash bo'yicha maxsus tadbirlar kiritiladi: ish o'rnini saqlash, xodimlarni ommaviy ishdan bo'shatishning oldini olish, hududiy shartnomalar va jamoa bitimlarini ishlab chiqish, ko'p bolali va to'liq bo'lmagan oilalarni, yetim bolalar, yolg'iz nafaqaxo'rlar, nogironlar, murakkab turmush vaziyatiga tushib qolgan fuqarolarni qo'llab- quvvatlash. D.da moliyalash, axborot va resurslar bilan ta'minlash manbai ko'rsatiladi. D. viloyat, shahar, tuman va b. uchun ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin.

AHOLINI ISHGA JOYLASHTIRISHDAGI QO'SHIMCHA KAFOLATLAR — aholining ayrim toifalarini ishga joylashtirishdagi qo'shimcha kafolatlar;

Davlat:

— ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslarga, shu jumladan, o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari va nogiron bolalari bor yolg'iz ota, yolg'iz onalarga hamda ko'p bolali ota-onalarga;

— ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlarga;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Favqulodda vaziyatlar vazirligi

qo'shinlaridan bo'shatilganlarga;

— nogironlarga va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslarga;

— jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslarga qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydi.

AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH - fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir.

Unumli va ijodiy mehnat qilishga bo'lgan o'z qobiliyatlarini tasarruf etish va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat, shu jumladan, haq to'lanadigan ishni bajarishga aloqasi bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullanish mutloq huquqi fuqarolarga tegishlidir.

Majburiy mehnat, ya'ni biron-bir jazoni qo'llash bilan tahdid qidish orqali ish bajarishga majburlash taqiqlanadi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Kishilarning ixtiyoriy ravishda ish bilan band bo'lmasligi ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

Quyidagilar ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadi:

— yollanib ishlayotgan, shu jumladan, ishni to'liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan, shuningdek, haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan, vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;

— betobligi, mehnat ta'tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishning to'xtatib qo'yilganligi munosabati bilan, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyida bo'lmaganda, xodimning ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar;

— o'zini ish bilan mustaqil ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan, yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a'zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;

— Qurolli Kuchlarda, Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar organlari va

qo'shinlarida xizmatni o'tayotgan, shuningdek, muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar;

— ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan fuqarolar.

BIOSFERA (yun. — hayot sohasi) — Yer va uning atrofidagi alohida soha. Hozirgi vaqtda uni to'rt xil tushunish mavjud: a) barcha organizmlar yig'indisi; b) hozirgi hayot sohasi; v) yerning hayot va uning sharoitlarini o'z ichiga olgan alohida qobig'i; g) jonli va jonsiz tabiat o'zaro ta'sirining tarixiy natijasi va ifodasi.

BIRINCHI MARTA ISH QIDIRAYOTGANLAR - ilgari ishlamagan (daromad keltiruvchi mashg'ulotga ega bo'lmagan), mehnat organlariga ish qidiruvchi shaxs sifatida murojaat qilgan va ilk bor mehnat faoliyatini boshlashga tayyor shaxslar.

JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TIZIMI MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH — jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Halq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari;
- jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari;
- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlari mablag'lariga hisoblab chiqarilgan foizlar;
- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'lar.

IJTIMOY ADOLAT — insonni qurshab olgan uning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy yashash, shakllanish va faoliyat shart-sharoitlari. Keng ma'noda ijtimoiy makromuhit I.m. ijtimoiy-iqtisodiy tizimni yaxlit — ishlab chiqarish kuchlari, ijtimoiy munosabatlar va institutlar majmuini, ijtimoiy ongini, muayyan jamiyat madaniyatini qamrab oladi. I.m. tor ma'noda (mikromuhit) umuman ijtimoiy muhit unsuri sifatida insonni bevosita qurshab olganlarni — oila, mehnat, ta'lim va b.

jamoani, referent guruhlarni, manfaatlar bo'yicha birlashmalarni o'z ichiga oladi. I.m. individga shakllanish va rivojlanish uchun sharoit taklif qiladi. Quyidagilar ana shunday sharoit hisoblanadi: ta'lim olish, qadriyatlarni, me'yorlarni, ko'rsatmalarni, axloq namunalarini o'zlashtirish, bular o'z navbatida muayyan jamiyatga ijtimoiy umumlashmaga, guruhga xos bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda insonning ijodiy faolligi ostida bular o'zgaradi, qayta shakllanadi va bu jarayonda insonning o'zi ham o'zgaradi. Guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tavsifi ko'rinishining o'zgarishi I.m. o'zgarishiga sabab bo'ladi.

IJTIMOYIY XODIM — davlat bilan shaxs orasidagi vositachi. U o'z fuqarolarini himoya qilishga da'vat etilgan, biroq hamisha ham bu vazifasini to'liq bajaravermaydigan davlat bilan uning fuqarosi orasida barcha ijtimoiy vazifalar amalga oshirilishida vositachi funksiyasini o'taydi. I.x har bir individ o'zini-o'zi himoya etishi uchun unga huquqiy, psixologik, tibbiy, iqtisodiy va b. sharoitlarni yaratishga ko'maklashadi.

IJTIMOYIY AXBOROT — bilimlar, ma'lumotlar xabarlar va eshittirishlar majmui. Bular jamiyatda shakllanadi, paydo bo'ladi va individlar, guruhlar, tashkilotlar, turli ijtimoiy institutlar tomonidan ijtimoiy birga harakatlanishni, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va ishlab chiqarish, milliy, huquqiy, diniy, siyosiy va ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan jips bog'langan, jamiyatni boshqarish va maoriflashtirish uchun (foydalaniladi. I.a. shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning muhim omili, u ijtimoiy fikrni shakllantirishning asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Axboriy jarayon yo'lidagi muhim davr yozuvning kashf etilishi, kitoblarning mavjudligidan iboratdir. Kitob qayta yaratish uchun mo'ljallangan semantik rasmiy, buyruq bo'yicha emas, balki amalda ham jamoani boshqarish, uning ijtimoiy ahamiyatli maqsad va manfaatlarini ancha munosib ifoda etishni hisobga olishga, jamoada qulay ijtimoiy-ruhiy iqlim hamda axloqiy muhit yaratishga, samarali va ijodiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi.

IJTIMOYIY YETUKLIK — insonni qurshab olgan ijtimoiy muhitning

rivojlanish darajasi, bunda u to'la takomilga erishgan va mazkur jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, me'yorlar va hayot faoliyati tamoyillariga mos keladi.

IJTIMOY YORDAMGA MUHTOJ SHAXSLAR - o'zining salomatligi, yoshi, daromad olish imkoniyatining cheklanganligi tufayli o'zgalarning ko'magiga muhtoj shaxslar hamda oilalar. Ular o'zlarining yozma arizalariga ko'ra ijtimoiy yordamning bir yoki bir necha turlaridan foydalanishga haqli bo'ladilar; Qonun hujjatlariga ko'ra yordamga muhtoj shaxs (oila) tanlovi bo'yicha ijtimoiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq masalalar kollegial ko'rilib hal etiladi.

IJTIMOY YORDAMNING AMALGA OSHIRISHLISH SHAKLLARI — Ijtimoiy yordam nogiron bo'lib qolgan shaxslarga turli tibbiy xizmatlar ko'rsatish, harakatlanish va rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash, kasallikdan keyingi sanatoriy-kurort rehabilitatsiyasi va boshqa shakllarda; ota-ona tarbiyasi va parvarishdan mahrum bo'lib qolgan voyaga yetmagan bolalarga homiylik hamda vasiylik qilish, mehribonlik uylariga joylashtirish, ularni moddiy qo'llab-quvvatlash yo'li bilan; keksa yoshdagi fuqarolarga turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, tegishli hollarda saxovat uylariga joylashtirish kabi shaqllarda amalga oshiriladi. Fuqarolarga u yoki bu aniq shaklda ijtimoiy yordam ko'rsatish tartiblari tegishli qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

IJTIMOY YORDAMGA MUHTOJLIKNI ANIQLASH, BYELGILASH VA YORDAMGA MUHTOJ SHAXSLARNI HISOBGA OLISH — ijtimoiy yordam ko'rsatish tartibi. Ijtimoiy yordamga muhtojlik oldindan belgilangan ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy va boshqa mezonlar asosida tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi xodimlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari ishtirokida tuzilgan komissiya tomonidan aniqlanadi va ijtimoiy yordamga muhtoj deb topilishi tegishli yordamning ko'rsatilishiga asos bo'ladi. Ijtimoiy yordamga muhtojlikni belgilash, fuqaroning (yoki uning vakillarining) yozma arizasi asosida belgilangan tartibda ko'pi bilan o'n kunlik muddat ichida amalga oshiriladi. Komissiya qaroridan norozi bo'lgan fuqaro (yoki uning vakillari) qaror ustidan

belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishga haqli. Ijtimoiy yordamga muhtoj fuqaro ijtimoiy ta'minot organida hisobga olinadi va unga tegishli shakldagi ijtimoiy yordam ko'rsatish amalga oshiriladi.

IJTIMOY ISHLAR TAMOYILLARI VA USULLARI — faoliyat shakli sifatida va shuningdek, undan foydalanilayotgan usullar sifatida ijtimoiy ishlar asosida turuvchi tamoyillar. Ijtimoiy ishlarning tamoyillari uch vazifani — konstitutsiyalovchi, tartibga soluvchi va uyg'unlashtiruvchi vazifani bajaradi. Quyidagilar uning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- 1) insonparvarlik tamoyillari (insonni oliy qadriyat deb tan olish);
- 2) adolat tamoyillari (inson qobiliyatlarini amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlash);
- 1) vakolatlilik tamoyili (ijtimoiy ishlar nazariyasi va amaliyotini chuqur bilish);
- 2) himoyalanganligining asosiy kafolati davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning muhim shakli bo'lib, iste'mol jamoatchilik fondlari hisoblanadi. Ijtimoiy siyosat asosi sifatidagi ijtimoiy kafolatlar tizimining qaror topishi mustahkam qonunchilik negizini shakllantirishni taqozo etadi.

IJTIMOY KO'RSATGICHLAR — 1. Har qanday ijtimoiy axborotni uzatuvchi. Bularning axboriyligi I.k.ni baholash va tanlash mezonini hisoblanadi. I.k.ning uch sinfi ajratiladi: belgi — ramziy vosita; kuzatish va o'lchash vositasi; ijtimoiy hodisalar va jarayonlar. I.k.dan ham fandan tashqarida — boshqarishda rejalashtirishda, statistik, iqtisodiy, demografik va b.larni bashoratlashda, ham fan ichida — sotsiologiyada (jadvallar, indekslar, so'rovnomadagi savollar va h.). 2. Jamiyatda ilmiy asoslangan talablarga muayyan yuzaga kelgan ish holatiga muvofiq baholash uchun boshqarish va rejalashtirishda qo'llaniladigan ijtimoiy rivojlanishning ahvoli, borishi va yo'nalishining miqdoriy va sifat tavsifi. Jamiyat va aholi turli guruhlarining demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-tuzilmaviy, siyosiy, axloqiy, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy rivoji, turmush tarzi I.k. hisoblanadi.

IJTIMOYILASHISH — individning o'z hayoti mobaynida o'zi tegishli bo'lgan jamiyat, ijtimoiy guruh yoki jamoa ijtimoiy me'yorlari, madaniy

qadriyatlari, ko'rsatmalari va xulq-atvor namunalarini o'rganish va o'zlashtirish jarayoni. I. individning ijtimoiy tashkillashtirilgan faoliyatida namoyon bo'luvchi va jamiyat tomonidan boshqariluvchi umum qabul qilingan, keng tarqalgan xususiyatlari shakllanuvchi, shaxs qaror topadigan jarayonning qismidir. Unga ham insonga aniq mo'ljalli ta'sir o'tkazish mobaynida, ham oilaviy va oiladan tashqari muloqot, ommaviy axborot vositalari, adabiyotlar, san'at va b. ta'siri ostida erishiladi. Individda I. asosan uch sohada yuz beradi: faoliyat, muloqot va o'zini-o'zi anglash. Faoliyat insonga o'zidagi asosiy farqlashga, uni idrok etish hamda kengaytirishga imkon beradi. Muloqot sohasida boshqa kishini anglash va o'z «men»ini idroklash rivojlanadi, muloqot doirasi va uning mazmuni kengayadi. O'z «men»i obrazining shakllanishi faoliyat obyektiv sub'ekti sifatida o'zini-o'zi anglash sohasida yuz beradi. O'z «men»i, ya'ni har birimiz o'z kimligimizni, ijtimoiy o'rnimizni, o'zimizni-o'zimiz baholash rivojlanishi imkonini va h.larni idrok etamiz.

IJTIMOY MANFAAT — ijtimoiy-maishiy sohada shakllanuvchi va shaxsning ijtimoiyotga munosabatini, uning ijtimoiy faolligi xususiyatini belgilovchi manfaatlar turi. Guruhlarning I.m.lari ijtimoiy hayotda o'zni va mavqey bo'yicha turlichaligi bilan bog'liq holda turli ijtimoiy guruhlarda shakllanuvchi harakatlarning muayyan sabablari haqida guvohlik beradi. I.m.da u yoki bu ijtimoiy uyushma vakillarining dolzarb ehtiyojlari ancha umumlashgan ifodasini topadi. I.m.ni idroklash jamiyatda uzluksiz sodir bo'luvchi ijtimoiy taqqoslash, muayyan guruh turmush tarzini boshqa ijtimoiy guruh turmush tarziga qiyoslash jarayoni borishida amalga oshadi. I.m. hamisha jamiyatdagi individ, u yoki bu guruh holatining saqlanishi yoki o'zgarishiga qaratiladi. I.m. uchun eng muhimi shaxsning ijtimoiy demografik tavsifi — uning ma'lumoti va yoshi, ahamiyatlidir. Chunki I.m. ko'p hollarda shaxs oldiga uning o'zi hal qila olmaydigan muammolarni qo'yadi, u ijtimoiy himoya obyekt bo'lib qoladi va ijtimoiy ish muammolaridan biriga aylanadi.

IJTIMOY MUAMMO — maqsadli faoliyat va uning natijasi o'rtasidagi

nomuvofiq sub'ekt idrok etgan faoliyat (ya'ni- individ yoki sotsial guruh idrok etgan) o'zi uchun ahamiyatli hisoblangan ijtimoiy ziddiyat. Bu nomuvofqlik maqsadga erishish uchun vosita yo'qligi yoki yetarli emasligi tufayli yuzaga keladi, faoliyat sub'ekti ijtimoiy ehtiyojlarini qondirmaslikka olib keladi. Shu bilan birga, I.m. obyektiv-sub'ektiv tabiatga ega. Ijtimoiy muammo bo'lishi uchun ijtimoiy ziddiyat (ijtimoiy soha rivojlanishidagi qarama-qarshi oqimlar o'rtasidagi munosabat) faoliyat sub'ekti ongi orqali o'tishi lozim. Shuning uchun I.m.ni tadqiq etish ijtimoiy sohaning statistik usullar yordamida amalga oshiriladigan obyektiv holatining tavsifi sifatida qaraladi, shuningdek, mavjud ahvoldan qoniqmaganlik unsurlarini aniqlash uchun jamoatchilik fikri o'rganiladi. I.m.ni aniqlash vositasi bo'lib, ijtimoiy tashxis xizmat qiladi, shuningdek, ishning obyektiv ahvoli me'yorlar bilan qiyoslanadi. I.m. ijtimoiy haqiqatning turli bosqichlarida yuzaga keladi — kichik guruhlardan tortib, masalan, oila, umuman insoniyat miqyosida yuzaga keladi. Keyingi holda global muammolar haqida gapirish to'g'ri bo'ladi, chunki bular o'z yechimi uchun jahon hamjamiyati miqyosidagi halqaro kelishilgan harakatlarni talab etadi. Jamiyat turli sohalarida qabul qilinadigan yechimlar ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish I.m.ni bashoratlashga imkon beradi, ya'ni uning yuzaga kelishini oldindan ko'rish mumkin bo'ladi, bu o'z navbatida ularning keyinchalik hal etilishini yengillash tiradi. I.m. ijtimoiy ishlarda muhim o'rin egallaydi, chunki muammolarni hal etishda kishilarga ko'maklashuvchi sifatida tushuniladi.

IJTIMOIIY MUHIT - jamiyatni tashkillashtirish tamoyillari va shakllarining ijtimoiy-psixologik namoyon bo'lishi, bu kishilar va ijtimoiy guruhlar manfaatlariga mos keladi, ya'ni ijtimoiy munosabatlarning umumlashgan axloqiy bahosi. I.m. asosiy umuminsoniy ijtimoiy ideallardan biri, uni aniq tushunish tarix davomida o'zgargan; bugun ham uning mohiyatini yagona tushunish yo'q. I.m.ni belgilashda ko'pincha uni ijtimoiy tenglikka qiyoslaydilar, shu ma'noda I.m. jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklarni, turli ijtimoiy guruhlar turmush sharoitida mavqey va hokimiyatni taqsimlanganlikdagi tengligi

va notengligi sifatida tushuniladi.

IJTIMOY SUG'URTA — fuqarolarni ijtimoiy ta'minlashning asosiy shakllaridan biri. Fuqarolar nafaqa yoshiga yetganda, mehnatga qobiliyatini vaqtincha yoki doimiy yo'qotganda ular sog'lig'ini himoya qilish maqsadida pul va moddiy ta'minlash tizimidan (davlat va jamoatchilik) iboratdir. I.s. korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va b. ish beruvchilar majburiy badallari, shuningdek, xodimlar hamda ular oila a'zolarini moddiy ta'minlashga davlat byudjetidan dotatsiyalar hisobidan amalga oshiriladi. Davlat ijtimoiy ta'minlash jamoatchilik jamg'armalari va xayriya jamg'armalari tashkil qilishni rag'batlantirib, ijtimoiy sug'urta va ta'minot tizimini rivojlantiradi. Bu vazifa odatda aholini ijtimoiy himoyalash davlat idoralari zimmasiga yuklanadi.

IJTIMOY TASHXIS — ijtimoiy ob'ektlar va jarayonlarning, ular amal qilishi va rivojlanishi muammolarini aniqlash maqsadida holatini tahlil qilish. Bu bir qator tamoyillarga asoslanadi: obyektivlik, sababiylik, ko'p omillarga bog'liqlik va h. I.t.ning ikki turi — umumiy va xususiy turi farqlanadi. Birinchisining natijasi bo'lib, tashxislanayotgan ob'ektning muammoviy maydoni hisoblanadi, ya'ni undagi aniqlanayotgan muammolar shakli. Bu shaklda muhimligi va sabab-oqibatli bog'lanish asosiy muammolari muhimlik darajasiga ko'ra ajralib turadi, muammolar — oqibat, shuningdek, boshlang'ich muammo farqlanadi, bularni hal etish mazkur sharoitlarda birinchi galdagi deb tan olinadi. Xususiy I.t. boshlang'ich muammolar uchun ayni shu tarzda amalga oshiriladi. Boshqaruvni konsultatsiyasi amaliyotida I.t. eng ko'p rivojlangan. U tashkiliy qarama-qarshilik (gorizontal va vertikal bo'yicha tashkilot ichidagi, tashqi muhit — tarmoq, shaharga va b.ga nisbatan), qiyinchiliklar (halaqit, yetishmovchilik), maqsadlar, aloqalar, me'yorlar va b.dagi mavhumlik «og'ir nuqtalar»ga kiradi, u shularni baholash maqsadida tashkillashtirishda ishning ahvolini atroflicha o'rganishni ko'zda tutadi. I.t. usullari ichida pozitsiyali tahlillardan ko'proq foydalaniladi. Bunday tahlillar tufayli maqsadlar, manfaatlar, turli guruhviy vaziyatlar haqidagi tasavvurlar, ularning ham tashkilotdagi ishning ahvoli

haqidagi, ham bir-birlariga munosabat haqidagi, turli nuqtayi nazarga egaligi haqidagi tasavvurlar aniqlanadi. I.t. ijtimoiy muammolarni yechish uchun yo'l va vosita izlashda tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

IJTIMOIIY TA'LIM — 1) jamiyatdagi ta'limning ijtimoiy vazifasi; 2) kasbiy ta'limning turlari (yo'nalishlari)dan biri, bunda ijtimoiy mutaxassis xodimlar tayyorlanadi. Ijtimoiy vazifasi orqali davlatning, jamiyatning, hukmron siyosiy partiyaning ta'lim sohasidagi irodasi va mafkurasi namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent, “O'zbekiston” NMIU, 2016. 76 b.
- 1.2.O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent, “Adolat”, 2016. 288 b.
- 1.3. «Respublika fuqorolarining sog'ligini saqlash to'g'risida» gi qonun. – Toshkent, “Adolat”, 1996.
- 1.4.O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi Qonuni. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari to'plami. – Toshkent, “Sharq”, 2001.-B. 4-6.
- 1.5.O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida”gi Qonuni. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlari to'plami. – Toshkent, “Sharq”, 2001. – B. 19-21-29.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy nashri”, 2012. 114 b.
- 1.7.Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004. – B.35.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari

- 2.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi farmoni. 2017 yil, 7 fevral.
- 2.2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni. 2017 yil, 15 fevral.
- 2.3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pensiyalar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2017 yil 13 martdagi PQ-2826-son Qaroriga

- 2.4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24.05.2017 yildagi PF-5052-sonli Farmoni
- 2.5. 2017 yil 4 iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy shaxslarning mehnat stajini elektron hisobga olishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 462-sonli qarori
- 2.6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2017 yil, 14 mart.
- 2.7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2017 yil, 16 mart.
- 2.8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2017 yil, 1 aprel.
- 2.9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 oktyabrdagi PQ-3325-sonli "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
- 2.10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.06.2017 y. PQ-3031-son "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
- 2.11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5597-son farmoni.
- 2.12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 26 avgustagi PQ-3920 sonli Qarori.

2.13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrda PQ-4068-sonli "Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2.14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2018 y. PQ-4063-son "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2.15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2018 y. PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2.16.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2018 y. PF-5368-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2.17.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 y. PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

2.18.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 y. PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika qishloq tumanlarida onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2010 yil 22 iyul.

3.2.2017 yil 4 iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy shaxslarning mehnat stajini elektron hisobga olishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 462-sonli Qarori.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlari

4.1. Mirziyoyev SH.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: "O'zbekiston", NMIU, 2016. 56 b.

- 4.2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: “O’zbekiston” NMIU, 2017. 488 b.
- 4.3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: “O’zbekiston” NMIU, 2017. 48 b.
- 4.4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.-T.: “O’zbekiston” NMIU, 2017. 104 b.
- 4.5. O’zbekiston respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.-T.: “O’zbekiston”, NMIU, 2018. B.-80.
- 4.6. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaat nomasi // Xalq so’zi gazetasi 2019 yil. 29 dekabr № 271.

V. O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

- 5.1. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida –T.: “O’zbekiston”, 2011. 440 b
- 5.2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. T.: “O’zbekiston”, 2015 b-304.

VI. Kitob va risolalar

- 6.1. Abdullayev Yo. Mikroiqtisodiy statistika 100 savolga javob. -T.: «Mehnat», 1998. 226 b.
- 6.2. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. -T.: «Mehnat», 2004. - B. 672.
- 6.3. Abulqosimov X.P. Xamraev O.Ya. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. -T.: “Iqtisodiyot-Moliya”, 2014. 304 b.
- 6.4. Abulqosimov H. P. Shakllanayotgan bozor iqtisodiyotida inson omili va uni faollashtirish yo’llari. –T.: «Moliya», 2005. 225 b.
- 6.5. Abulqosimov X.P, Vahobov A.V, Rahimova D.N, Norbayev B.I. O’zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo’llari. TDTU. “Biznes-print”, 2001. 112 b.

- 6.6.Vaxobov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar -T.: «Sharq», 2003. 320 b.
- 6.7.Vaxobov A.V, Tadjibaeva D.A, Xajibakiev X. Sh Jahon iqtisodiyoti va halqaro iqtisodiy munosabatlar. -T.: Vaktria press. 2015. –584 B.
- 6.8.Jiltsov Ye.N. Lomanova P.N.Razvitie otrasley sotsialnoy sfery v perexodnoy ekonomike M.: «TYeIS» 2001. 276 s.
- 6.9.Jiltsov Ye.N. Lomanova P.N. Sotsial'naya sfera v gыnochnyx usloviyax -M.: «TYeIS» 2004. 231 s.
- 6.10.Jumayev Ch. Safarov N. Iqtisodiy nazariyasi. -T.: “Tafakkur”, 2009. 352 b.
- 6.11.Ziyayev T.M, Yusupov R.A. va boshqalar Ijtimoiy sektor iqtisodiyoti-T.: “TDIU”, 2006. 82 b.
- 6.12.G'ulomov S.S, Ubaydullaeva R, Ahmedov E. Mustaqil O'zbekiston –T.: «Toshkent islom universiteti», 2003. 296 b.
- 6.13.Ignatov V.G. Baturin L. A. i dr.Ekonomika sotsialnoy sfery M.:«Mart», 2005.527 s.
- 6.14. Yo'ldoshev Z.Y. Xalilova Milliy va jahon iqtisodiyoti. – T.: “Cho'lpon nomidagi NMIU”, 2014. - B. 352
- 6.15.Normurodov A. Jismoniy tarbiya. -T.: “O'zbekiston”, 1998. - B. 287.
- 6.16.Peregudov L.V. Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti-T.: «Moliya», 2002. 192 c.
- 6.17.Razumova T.O., Teleshova I.G. Obrazovanie i chelovecheskoe razvitie M.: «TYeIS», 2000, 141 s.
- 6.18.Rayzberg B.A. i dr. Sovremennyy ekonomicheskiy slovar 30 ye. izd. Pere rab i dop. –M.: «Infra», 2001. 586 s.
- 6.19.Rahimova M.R. Mintaqa va mahalliy xo'jalik iqtisodiyoti. -T.: «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi», 2004. 128 b.
- 6.20.Rahmonqulov H. Juraev B. Biznes va tadbirkorlik sirlari. (Bozor iqtisodiyoti terminlari). -T.: «G'afur g'ulom», 2002. 400 b.
- 6.21.Ro'ziyev J. AQShda tadbirkorlik; ijtimoiy-iqtisodiy va xuquqiy masalalar. –

T.: «Fan», 1991. 188 b.

6.22.Saidov K.S. Saitmurotov R.A. Aslanova D.X. Ishokova S.A. Sotsial iqtisodiyot. -T.: «O'zbekiston», 2006. 365 b.

6.23.Saidov M.H, Nasriev I.I. va boshqalar. Ijtimoiy himoya: Atamalar izohli lug'ati. – T.: “O'zb. Milliy kutubxonasi”, 2007. 436 b.

6.24.Saidov M.X.. Oliy ta'lim muassasalarini moliyalash. -T.: Moliya. 2002. – B.180.

6.25.Slezinger G.E. Sotsialnaya ekonomika-M.: «Delo i servis», 2001. 360 s.

6.26.Sobirov H. O'zbekiston davlat moliyasi tarixi. -T.: “Ta'lim manbai”, 2002. 152 b.

6.27.Soliyev A. Xo'jaxonov H. Noishlab chiqarish sohalari iqtisodi, Buxgalteriya hisobi va auditi. -T.: «Mehnat»,1998. 256 b.

6.28.Tursunov Y, Usmanov M, Sattarova G. Pravo sotsialnogo obespecheniya. – T.: “Aloqachi”, 2008. 426 b.

6.29.To'xliyev N. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiy asoslari.-T.:«O'zb. Mil. Entsik» 2006, 280 b.

6.30.To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. -T.: «O'zb. Mil. Entsik», 1998, 239 b.

6.31.To'xliyev N. O'zbek modeli taraqqiyotning tamoyillari. -T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi”, 2014.264 b.

6.32.A.Navoiy Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar A.Tilavov, I.Saydullayev. -T.: “Sano - standart”, 2016 376 b.

6.33.To'xliyev N.Osiyo taraqqiyot modeli. -T.: “O'zbekiston”, 2015. 176 b.

6.34.Fayzullayev A.O. Inson, siyosat, boshqaruv. -T.: «O'zbekiston», 1995. 204 b.

6.35. Xashimov P. Z. Ekonomika sotsialnoy sferi.-T.: «Universitet», 2002. 210 s.

VII. Statistika to'plamlari

7.1. Sotsialnoe razvitiye i uroven jizni naseleniya v Uzbekistane. V 2005 godov. Statisticheskiy sbornik.- T.: 2006.

- 7.2. Statischeškiy yejegodnik regionov Uzbekistana. Statisticheskiy sbornik. -T.: 2006.
- 7.3. Trud i zanyatost v Respublike Uzbekistan. V 2006 godov. Statisticheskiy sbornik.-T.: 2007.
- 7.4.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. – T.: “O'zbekiston”, 2011. – B. 21.
- 7.5.O'zbekistonda mehnat va bandlik. Statistik to'plam.-T.: 2014.
- 7.6. O'zbekiston Almanaxi 2010
- 7.7.O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi. Statistik to'plami –T.: 2015, O'zbekiston raqamlarda. Statistik to'plami –T.: 2015.
- 7.8.Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (statistik to'plam), T.: “Sano-standart”, 2016.
- 7.9.O'zbekistonda turizm. Statistik to'plam.-T.: 2018.
- 7.10.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari (www.stat.uz)

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-mavzu. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti fanining obyekt, predmeti: nazariy asoslari	6
1.1. Ijtimoiy sohaning mohiyati va rivojlanish xususiyatlari.....	6
1.2. Ijtimoiy soha xizmat tarkibi, turlari va ularni guruhlanishi.....	15
1.3. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti fanining obyekt, predmeti, maqsadi va vazifalari.....	27
2-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solish	34
2.1. Ijtimoiy sohaning rivojlanishida davlat va bozor mexanizmining ahamiyati.....	34
2.2. Ijtimoiy siyosat: tarkibi va ustuvor yo'nalishlari.....	40
2.3. Aholi turmush darajasi va uni belgilovchi omillar.....	44
2.4. Aniq manzilli ijtimoiy himoyani ta'minlashda mahaliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'rni.....	50
3-mavzu. Sog'liqni saqlashni rivojlantirish strategiyasi va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilashning nazariy tahlili	58
3.1. Sog'liqni saqlash tizimining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni.....	58
3.2. Tibbiy xizmatlar bozori va uning amal qilish mexanizmi.....	66
3.3. Jahon mamlakatlarida sog'liqni saqlash rivojlanishining tavsifi.....	73
3.4. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini isloh etish bosqichlari va ustuvor yo'nalishlari.....	78
3.5. O'zbekistonning tibbiy sug'urtalashga o'tish zaruriyati.....	87
4-mavzu. Ta'lim sohasidagi islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar	96
4.1. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limning isloh qilinishi.....	96
4.2. Oliy ta'limni rivojlantirish vazifalari va yo'nalishlari.....	103

4.3. Inson kapitali uning milliy iqtisodiyotda tutgan o'ri.....	109
4.4. Jahonda ta'lim tizimining Yevropa, Aqsh va Osiyo modellari: umumiy jihatlari va farqlari.....	112
5-mavzu. Uy-joy, kommunal xo'jaligining isloh qilinishi.....	123
5.1. Aholi farovonligini ta'minlashda uy-joy kommunal xo'jaligining o'ri.....	123
5.2. Uy-joy, kommunal xo'jaligini isloh qilishning tashkiliy, huquqiy va institutsional asoslari.....	127
5.3. Aholini arzon uy-joylar bilan ta'minlash, maqsadli dasturining amalga oshirilishi.....	132
6-mavzu. Madaniyat sohasining milliy iqtisodiyotdagi o'ri va vazifalari	138
6.1. Madaniyat tushunchasining mazmuni, moddiy va ma'naviy madaniyat.....	138
6.2. O'zbekistonda madaniyat sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....	141
6.3. Madaniy meros obyektlarining davlat tomonidan himoya qilinishi.....	146
7-mavzu. Sport va turizmning milliy iqtisodiyotda tutgan o'ri va salmog'i.....	152
7.1. Sport milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida.....	152
7.2. Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanish ko'rsatkichlari.....	157
7.3. Turizm iqtisodiy kategoriya sifatida.....	163
7.4. Turizm sohasining rivojlanish holati va istiqbollari.....	169
8-mavzu: Mehnat bozori va aholining ish bilan bandligi.....	176
8.1. O'zbekistonda demografik vaziyat va aholining o'sishi.....	176
8.2. Mehnat bozorining shakllanishi va amal qilish mexanizmi.....	181
8.3. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash strategiyasi va uni amalga oshirish siyosati.....	184

8.4.O'zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari.....	189
9-mavzu. Ijtimoiy sug'urta rivojlanishining nazriy tahlili va yo'nalishlari.....	196
9.1.Ijtimoiy sug'urtaning mohiyati, turlari va shakllari.....	196
9.2.Ijtimoiy sug'urtalashning huquqiy institutsional asoslarining yaratilishi va takomillashuvi.....	193
10-mavzu. Pensiya ta'minotini rivojlantirish vazifalari.....	209
10.1.Pensiya ta'minoti tizimi maqsadi va vazifalari.....	210
10.2. O'zbekistonda pensiya ta'minoti holatining tahlili.....	216
10.3. Davlatning pensiya ta'minoti tizimini isloh etish konsepsiyasi.....	219
Glossariy.....	227
Foydalanilgan adabiyotlar	240

Содержание

1. Объект, предмет: теоретические основы дисциплины экономики социальной сферы.....	6
1.1. Сущность и особенности развития социальной сферы.....	6
1.2. Структура, виды и классификация услуг социальной сферы	15
1.3. Объект, предмет, цели и задачи дисциплины экономики социальной сферы	27
2. Государственное регулирование социальной сферы в условиях рыночной экономике.....	34
2.1. Роль государственных и рыночных механизмов в развитии социальной сферы.....	34
2.2. Социальная политика: структура и приоритетные направления.	40
2.3. Уровень жизни и его определяющие факторы... ..	44
2.4. Роль местного самоуправления в обеспечении адресной социальной защиты.....	50
3. Стратегия развития здравоохранения и теоретический анализ улучшения оказания медицинских услуг.....	58
3.1. Роль системы здравоохранения в национальной экономике.....	58
3.2. Рынок медицинских услуг и его механизм действия	66
3.3. Характеристика развития здравоохранения в странах мира	78
3.4. Этапы и приоритетные направления реформы в системе здравоохранения Узбекистана.	74
3.5. Необходимость перехода в Узбекистана на медицинское страхование.....	87
4. Реформы и структурные изменения в сфере образования	96
4.1. Реформирование дошкольного и общего среднего образования в Узбекистане	96
4.2. Задачи и направления развития высшего образования.....	103

4.3. Роль человеческого капитала в национальной экономике.....	109
4.4. Европейские, американские и азиатские модели систем образования мирового уровня: общие черты и различия.....	112
5. Реформы жилищно-коммунальное хозяйств.....	123
5.1. Роль жилищно-коммунального хозяйства в благосостояние населения.....	123
5.2. Организационные, правовые и институциональные основы реформирования жилищно-коммунального хозяйства	127
5.3. Реализация целевой программы по обеспечению населения доступным жильем.(Обеспечение населения доступным жильем, реализация целевой программы)	132
6. Роль и задачи сферы культуры в национальной экономике....	138
6.1. Сущность понятия культура, материальная и духовная культура.....	138
6.2. Приоритетные направления развития сферы культуры в Узбекистане	141
6.3. Государственная охрана объектов культурного наследия...	146
7. Роль и вес спорта и туризма в национальной экономике	152
7.1. Спорт как составляющее звено национальной экономике..	152
7.2. Показатели развития физической культуры и спорта.....	157
7.3. Туризм как экономическая категория.	163
7.4. Состояние и перспективы развития индустрии туризма.....	169
8. Рынок труда и занятость.	176
8.1. Демографическая ситуация и рост населения в Узбекистане.....	176
8.2. Механизм формирования и функционирования рынка труда.....	181
8.3. Стратегии занятости и политика их реализации в Узбекистане	184

8.4. Направления совершенствования практики трудовой миграции в Узбекистане.....	189
9. Теоретический анализ и направления развития социального страхования.....	202
9.1. Сущность, виды и формы социального страхования.....	202
9.2. Создание и совершенствование правовых основ социального страхования.....	193
10. Задачи развития пенсионного обеспечения.....	200
10.1. Цель и задачи системы пенсионного обеспечения	200
10.2. Концепция реформирования государственной пенсионной системы	210
Глоссарий.....	214
Рекомендуемая литература.....	240

